

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**XAYRULLA HAMIDOV, SADOQAT ERGASHEVA**

**TARJIMA TARIXI**

**(O‘quv qo‘llanma)**

**Toshkent-2017**

**Hamidov Xayrulla, Ergasheva Sadoqat.** Tarjima tarixi (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2017. – 180 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti 5120200 – “Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo‘yicha)” bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun “Tarjima tarixi” fani o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi. G‘arb mamlakatlari va yurtimizda nashr etilgan o‘quv va ilmiy adabiyotlar asosida yaratilgan ushbu qo‘llanmada g‘arb va sharq tarjima tarixining asosiy bosqichlari va taraqqiyoti bilan bog‘liq mavzular yoritilgan. Shuningdek, o‘quv qo‘llanma so‘nggida rus tilidan tarjima qilingan matnlar ilova qilingan va fanga oid terminlarning kengaytirilgan lug‘ati (glossariy) ham keltirilgan.

ToshDSHIida bajarilayotgan “A-1-180 “Tarjima va madaniyatlara muloqot masalalariga oid o‘quv qo‘llanmalari yaratish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida yaratilgan mazkur qo‘llanma ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, 1-bo‘limi “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedra o‘qituvchisi Sadoqat Ergasheva, 2-bo‘limi kafedraning katta o‘qituvchisi Xayrulla Hamidov tomonidan tayyorlangan.

**Mas’ul muharrir:**

***Shoira Usmanova,***

filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

***Xolida Alimova,*** filologiya fanlari nomzodi, dotsent

***Ergash Ochilov,*** filologiya fanlari nomzodi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil 24-avgustdagi 603-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

O‘quv qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Kengashining 2017-yil 30-martdagi 8-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2017.

## KIRISH

Inson hayotining barcha jabhalarida keskin o'zgarishlar ro'y berayotgan hozirgi davrda dunyo xalqlarining tillari, adabiyotlari va ma'naviy madaniyatlarini o'rganish, ularning tarixini tadqiq etish har jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu vazifani hal etish uchun har tomonlama yetuk, intellektual salohiyati yuqori, yuksak ma'naviyatli, ona tili, xorijiy tillar va madaniyatlarni mukammal egallagan malakali mutaxassislarni tayyorlash lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hukumatining adabiyot va san'at, xususan, tarjimaga berayotgan alohida e'tibori samarasi bo'lgan ushbu kitobning yuzaga kelishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishida mamlakatimizda "...milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o'ylangan tizim asosida tashkil etilmagan"i, "...jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga va o'zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini chet tillariga tarjima qilish ishlarining tanqidiy tahlili" amalga oshirilishi zarurligi<sup>1</sup> alohida ta'kidlangani bir turtki bo'ldi. Farmoyishda "...ta'lim muassalarida sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan o'zbek va chet el adiblarining mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatiya adabiyotlari ro'yxatlarini qayta ko'rib chiqish va o'quv jarayoniga mutolaa etilgan asarlar asosida insho yozish tizimini joriy etish, adabiyot to'garaklari faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini qayta ko'rib chiqish" kerakligiga alohida urg'u beriladi<sup>2</sup>.

Tarjima har doim adabiyot bilan uzviy bog'liqlikda taraqqiy etib kelgan. Tarjima vositasida dunyo adabiyoti namunalarining xalqlar madaniy hayotiga kirib kelishi bir xalqning boshqa xalq ma'naviy hayoti, urf-odatlarini bilan yaqindan tanishishiga ko'mak bergan. Dunyo

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 январдаги "Китоб маҳсулотларини chop этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида"ги фармойиши ("Халқ сўзи" газетаси, 2017 йил 13 январь)

<sup>2</sup> O'sha farmoyishdan.

adabiyotining hayotimizga kirib kelishi va xalqlarning ma'naviy jihatdan yaqinlashishida tarjimaning o'rni beqiyosdir.

Shundan kelib chiqqan holda, 5120200 – “Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo'yicha)” bakalavr ta'lim yo'nalishining o'quv rejasiga “Tarjima tarixi” fani kiritilgan.

XX asrning 60-yillarida tarjimashunoslikning “tarjima nazariyasi” bilan bir paytda “tarjima tarixi” degan yangi akademik fan ham yuzaga keldi. Ana shu yangi fanni o'qitish maqsadida ToshDSHning “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida katta o'qituvchisi X.Hamidov va o'qituvchi S.Ergashevalar tomonidan taniqli tarjima-shunos olim, ijodkor Jumaniyoz Sharipovning O'zbekistonda tarjima tarixining asosiy masalalari ilmiy tahlil qilingan 1965-yilda nashr etilgan “O'zbekistonda tarjima tarixidan” kitobi va tarjimaning asosiy muammolarini qamrab olgan Qadimgi Rim davridan boshlab XX asrgacha bo'lgan bosqichni o'z ichiga olgan tarjima nazariyasi tarixi masalalar ilmiy o'rganilgan, matnlar chuqur tahlil qilinib, badiiy tarjimaning spesifik muammolari tadqiq etilgan, Varvik universiteti Qiyosiy madaniyatshunoslik markazi, qiyosiy adabiyotshunoslik sohasi bo'yicha professor Susan Bassnetning “Translation Studies” nomli kitoblari asosida ushbu o'quv qo'llanma tayyorlandi.

“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” ta'lim yo'nalishi talabalari, “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik” mutaxassisligi maqistrantlari va bu sohada tadqiqotlar olib borayotgan tadqiqotchi, izlanuvchilar ushbu kitob orqali O'zbekistonda XX asrning 20-yillarigacha o'tgan davr orasida arab, fors-tojik, rus va turkiy xalqlar tillaridan o'zbek tiliga qilingan asosiy ilmiy, badiiy va publisistik asarlar tarjimasi tarixi, madaniyatimiz tarixining bu sohasida zahmat chekib ishlagan juda ko'p tarjimonlarning biografiyasi va ilmiy, badiiy faoliyati bilan tanishishlari mumkin.

O'zbek tarjima tarixi sohasida ilk bor tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanma kirish, ikki qism, ilova shaklida berilgan matnlar va tarjima tarixiga oid terminlar lug'atidan iborat. I qismda G'arb tarjima tarixi, II qism Sharq tarjima tarixiga bag'ishlangan. Unda arab va fors-tojik tillaridan tarjima qilingan badiiy, ilmiy, shu jumladan tarixiy, falsafiy asarlar, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida toshbosmada nashr qilingan tarjima asarlari va tarjimonlar haqida so'z yuritilib, Mahmud Koshg'ariy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiydan boshlab, XIX asr oxirlarigacha ijod qilgan mashhur o'zbek shoir

va ma'rifatparvarlarining asarlari va badiiy tarjimalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ushbu qismda XX asrning 20-yillariga qadar rus tilidan qilingan va tosh bosma-litografiyalarda bosilgan tarix, jo'g'rofiya, falsafa, axloq va tibbiyotga doir ilmiy kitoblar, darsliklarning tarjimalariga e'tibor qaratiladi. Kitob so'ngida keltirilgan ilovada XX asrning 20-yillariga qadar rus tilidan qilingan nodir tarjimalar (Sattorxon tarjimalari) beriladiki, bu talabalar uchun yangilik bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Qo'llanmada mavzular zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yoritishga harakat qilingan. Har mavzuning so'ngida nazorat uchun savollar va adabiyotlar ro'yxati berilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanma oxiridan joy olgan tarjima tarixi faniga oid terminlar alohida lug'ati keltirilgan.

# I BO'LIM. G'ARB TARJIMA TARIXI

## 1-MA'RUZA

### TARJIMASHUNOSLIKNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

#### Reja:

1. Tarjimashunoslikning XX asrdagi taraqqiyot davri
2. G'arb olimlarining tarjimashunoslikka oid yondashuvlari
3. Tarjimaning madaniy aspektlari
4. Tarjimashunoslik rivojlanishining asosiy bosqichlari

**Tayanch soʻz va iboralar:** *tilshunoslik va tarjimashunoslik, kompyuter tarjimasi, tarjimashunoslikka oid yondashuvlar, madaniyatlararo muloqot*

#### 1.1. Tarjimashunoslikning rivoji

1980-yillar tarjimashunoslik deb atalgan va tez qanot yoyib borayotgan fan uchun taraqqiyot davri bo'ldi<sup>1</sup>. 1970-yillarning oxirlarida dunyo sahnasida paydo bo'lgan ushbu fan jiddiy qabul qilina boshlandi va tarjima nazariyasi va amaliyoti faniga bo'lgan qiziqish oshib bordi. Keyinroq 1990-yillarda tarjimashunoslik fani, nihoyat, tamomila o'z o'rnini topdi. Qachonlardir ahamiyatsiz faoliyat deb qabul qilingan tarjimashunoslik endi insonlar o'rtasidagi almashinuvning fundamental akti sifatida qarala boshlandi. Bugungi kunda bu sohaga qiziqish har qachongidan nihoyatda yuqori bo'lib, tarjimaning amaliy ahamiyati butun dunyo bo'ylab o'sib bormoqda.

1990-yillardagi elektronika vositalari sohasidagi "portlash" va uning globalizatsiya jarayoniga jalb etilishi madaniyatlararo muloqotning alohida e'tiborga molik nashrlarining chiqishiga olib keldi. Irland tarjimoni va olimi Maykl Kronin<sup>2</sup>ning ko'rsatishicha, tarjimon sayohatchi ham bo'lib, kimdir bir manbadan ikkinchisiga sayohat qilishga majbur qiladi. Yigirma birinchi asr, so'zsiz, sayohatlar uchun ulkan

---

<sup>1</sup> Bassnett S. Translation Studies. Taylor & Francis Group. - London and New York, 2002.

<sup>2</sup> Cronin M. Across the Lines: travel, language, translation. - Cork: Cork University Press, 2000.

imkoniyatlar davrini, nafaqat koinot bo'ylab, balki zamon oralab sayohatlarni va'da qiladi. Ahamiyatlisi shundan iboratki, tarjimashunoslikning asosiy rivojlanish bosqichlari 1970-yillardan boshlab tarjima tarixi bilan bir qatorda tadqiq etildi. Xususan, o'tmishda tarjima qanday qilib bizning bilimlarimizni shakllantirishga yordam berganligini o'rganish bizning kelajagimizni shakllantirish uchun eng yaxshi vositalar bilan ta'minladi.

Tarjimashunoslik faniga qiziqish dunyoning barch mamlakatlarida oshib bormoqda. Keyingi 20 yil ichida tarjima sohasiga oid juda ko'p kitoblar nashr etildi, tarjimashunoslik bo'yicha ko'pgina yangi jurnallar ta'sis etildi. Yevropa Tarjima Jamiyati kabi xalqaro professional tarjimonlar tashkiloti vujudga keldi. Gong Kongdan Braziliyagacha, Monrealdan Venagacha universitetlar tarjima bo'yicha yangi kurslarni tashkil etishdi.

1980-yillar mobaynida Ernst-August Gutning relevantlik nazariyasi, Katerina Reys va Hans Vermerlarning kuzatuvchanlik (Skopos) nazariyasi va Gideon Touriyning psevdotarjimashunoslik sohasidagi tadqiqoti tarjimaga yangicha yondashuv bo'ldi. Darhaqiqat, kompyuter tarjimasidagi tadqiqotga asos solinganidan bir muddat davr o'tib, tarjima va texnologiya orasidagi munosabat o'zining samarali darajasiga yetdi va kelajakda ham tarjimashunoslik rivojlanishiga mustahkam ishonch berdi.

Kompyuter tarjimasi bo'yicha tadqiqotlarga tamal toshi qo'yilgan davrdan keyin tarjimashunoslik va yangi texnologiya o'rtasidagi aloqaning ahamiyati ko'tarildi va, hattoki, kelajakda uning ahamiyati yanada ko'tarilishining alomatlarini namoyon etdi. Shunday bo'lsa-da, keyingi paytlarda qilingan yondashuvlar va metodlarning turli xilligiga qaramay, tarjimashunoslikdagi tadqiqotlarning asosiy umumiy xususiyati shundan iboratki, tarjima sohasi egallagan kontekst doirasidagi tarjimaning madaniy aspektlariga urg'u berilmoqda. Qachonlardir tilshunoslikning tarkibidagi bir tarmoq deb qaralgan tarjimashunoslik bugungi kunda ta'limning fanlararo sohasi deb qabul qilinmoqda hamda til va hayot yo'li orasidagi ajratib bo'lmas aloqa ilm ahlining diqqat markazida turgan muhim qarashlardan biriga aylanib ulgurdi. 1980-yillargacha amalga oshirilgan tarjima sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning xarakterlovchi, madaniyat va tilshunoslik nuqtayi nazardan yondashishlardagi tafovut yo'q bo'ldi. Tarjimashunoslik endigina asos solingan yillarning boshlarida uning tarafdorlari o'zlari-

ni ham tilshunoslar, ham adabiyotshunoslarga qarshi nuqtayi nazarni egallashdi. Ular tilshunoslar kontekstual o'lcham chegaralari kengligini hisobga olishda adashganliklarini va adabiyotshunoslar xayolini esa ma'nisiz baho beruvchi hukmlar qamrab olgan, degan fikrlarini dalillashdi. Tarjimashunoslik fanini qiyosiy adabiyot yoki amaliy tilshunoslik soyasi ostidan ajratib olish muhim ekanligi qo'llab-quvvatlandi. Tarjimashunoslikni "avtonom" soha sifatida qabul qilishga qaratilgan kuchli munozaralar ham umumiy bo'ldi. Bugungi kunga kelib, bunday fanatik darajadagi yondashuv g'ayriodatiy ravishda "modadan chiqqan" ko'rinadi, tarjimashunoslik hozirda boshqa fan sohalarining usullaridan va texnikalaridan o'zlashtirib, ularni tatbiq etib, erkin rivojlanib kelmoqda. Tarjimashunoslarning bu sohadagi tilshunoslikka asoslangan muhim ishlaridan Mona Beyker, Rogjer Bel, Beyzil Hatim, Ian Meyson, Kirsten Malmkjayer, Katarina Reys, Hans Vermer hamda Volfram Uilslarini olish mumkin, ammo bir qancha taniqli olimlar fanlar orasidagi chegaralarni "buzish", tarjimashunoslikni konfrontatsiya pozitsiyasidan ajratish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirishdi. Shuningdek, J.K.Katford, Mixael Halliday, Piter Nyumark va Yevgeniy Nida kabi olimlarning ishlari tarjimashunoslikning fan sifatida rivojlanishidan oldingi davrlardagi me'yoriy rivojlanish yo'liga tegishli bo'ldi. Adabiyotshunoslik ham tarjimaga ilk elitar qarashdan cheklana boshladi. Nazariyachilar olimlar yaxshi va yomonni ajratishda hal qiluvchi kompleks dasturga ega bo'lib, tarjimon uchun ochiqoydin ko'rinib turgan turli imkoniyatlarni tanlash, masalan, madaniy, ijtimoiy va tarixiy kontekstga murojaat qilib, ularni o'zgartirish usulini tanlashga qiziqishadi. Keyingi paytlarda tarjimashunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari soni ortmoqda. Ular kompleks dasturni ifoda etmoqda. Tarixiy ma'lumotlar yanada erkin va bimalol bo'lib qolganligi sababli adabiyot qonunlarining shakllanishidagi tarjimaning roli, tarjimonlar tomonidan qo'llaniladigan strategiyalar, faoliyat me'yorlari, tarjimonlar diskursi, tarjimalarning impulsini o'lchash masalalari, tarjima etikasini belgilash muammolariga oid muhim savollar yechim topmoqda. Ehtimol, aytib o'tilganlarning eng hayajonga soluvchi yangi yo'nalishi tarjimashunoslik fanining o'rganilish ko'lamini kengayishi Yevropa chegarasidan tashqaridagi mamlakatlarga ham yoyilganligida ko'rinadi. Kanada, Hindiston, Gong Kong, Xitoy, Afrika, Braziliya va Lotin Amerikasida olimlar va tarjimonlarning bu boradagi mushohadalari yevropaliklarnikidan tubdan farq qiladi.

Gayatri Chakravorty Spivak, Teyasvini Niranyana va Erik Cheyfitz kabi olimlarning fikricha, o'tmishda tarjima mustamlakachilikka asoslangan ustunlikning quroli sifatida foydalanilgan va mustamlaka qilingan mamlakatlarning aholisini o'z ovozi bilan mosuvo qilish vositasi sifatida qo'llanilganligini dalillab, ko'proq urg'uni tarjima munosabatlarining farqli ekanligiga qaratadi. Mustamlakachilik modelida bir madaniyat ustun bo'ladi, boshqalari tobe bo'ladi, shu bois, tarjima iyerarxiyaning qudratini mustahkamlashda qo'llanilgan. Anuradha Dingvaneyni aytib o'tganidek, tarjima jarayoni zo'ravonlik darajasini o'zgartirish orqali boshqa madaniyatni yaqqol aktga aylantirishga jalb etilgan, ayniqsa, madaniyat boshqa madaniyat vakillariga tarjima yordam berishni o'rniga tarjima etilayotgan mamlakat madaniyati boshqasini bilan aralashib ketishga olib kelingan edi.

1990-yillarda tarjimonning ikkita kontrast qiyofasi paydo bo'ldi. Tarjimonning roliga oid bir ma'ruzaga ko'ra, tarjimon yaxshilikka yetaklovchi kuch, zamonlar va koinot osha yozma adabiyotni uzoq yashab qolishini ta'minlovchi ijodkor san'atkor, madaniyatlararo vositachi va sharhlovchi bo'lib, u madaniyatni keng tarqalishi va yaxlitligini ta'minlashda qo'shgan muhim hissasini o'lchab bo'lmaydigan inson sifatida namoyon bo'ladi. Aksincha, boshqa izohga ko'ra, tarjima yuqori darajada shubhali faoliyat bo'lib, unda kuchli munosabatning farqi (iqtisodiyot, siyosat, gender geografiya o'rtasidagi farqlar) matni mahsulot mexanikasida aks etadi. Mahasvita Senguptaning fikricha, tarjima "nishon" qilib olingan madaniyat tomonidan yaratilgan obrazlarning asosiy kuchi taqdimotiga aylandi. G'arbda Hindiston va uning madaniyati namunalarini sifatida sotilayotgan narsalarning yuzaki qarashi manzarani birlashtiruvchi kuchining boy dalillarini ta'minlaydi, biz tarjima qilingan matn orqali yaratilgan va tarbiyalangan madaniy streotiplar "qopqon"ida qolamiz. Yangi ming yillikda tarjimashunos olimlar tarjima jarayoni sifatida xarakterlanadigan teng huquqli bo'lmagan qudratli munosabatlarga urg'u berishda davom etadi. Hind, xitoy va kanadalik tarjimashunoslarning bu sohadagi ishlari bilan hamohang ravishda Oktavio Paz, Karlos Fuentes va Haroldo hamda Augusto de Campos kabi yozuvchilar tarjimashunoslikning yangi ta'rifini talab etmoqda. Ahamiyatlisi shunadki, iboratki, barcha mana shu yozuvchilar o'z o'tmishlarini qaytadan ko'rib chiqib, baholash bilan mashg'ul bo'lgan koloniyayalar asoschisi joylashgan Janubiy Amerika mintaqasidagi mamlakatlardan kelib chiqqan. Tarjima fani-

ning mazmuni va roli haqida qayta fikr yuritishni dalillash orqali ular mustamlakachilik tajribasi o'rtasida parallel chiziq chizadi. Faqat mustamlakachilikning modeli sifatida ustun turgan madaniyatning quyi turgan madaniyatga egalik qilishi g'oyasi singari asliyat ham doim uning "nusxa"siga qaraganda ustun deb qaraladi. Shunday qilib, tarjima ham olingan manba matniga hurmat bilan quyi pozitsiyada mavjud bo'lishga mahkum. Hozirda asl matn ham, tarjima matni ham har ikkalasi yozuvchi va tarjimonning teng qiymatli ijod mahsuli sifatida qabul qilinadi, shunday bo'lsa-da, Pazning fikricha, bu ikkalasi-ning vazifalari farqlanadi. Idealni so'zga biriktirish va o'zgaras shaklda jilolantirish yozuvchining bosh vazifasi bo'lsa, tarjimonning vazifasi esa bu so'zlarni asliyat tili chegarasidan ozod qilish va so'zlarni tarjima qilingan tilda yana yashashga imkoniyat ato etishdan iborat. Natijada asliyatga sodiq qolish zarurligi haqidagi eski dalillar yo'qola boshladi. Braziliyada ilk marotaba 1920-yillarda taklif etilgan, matn "iste'moli"ning gannibalcha nazariyasi tarjimonning roli bo'yicha alternativ istiqbollarni taklif etish uchun zamonaviylashtirildi. Unga ko'ra, tarjima jarayoni tarjimonning ijodiy yondashuvi va mus-taqilligiga katta e'tibor beriladi.

## **1.2. G'arb olimlarining tarjimashunoslikka oid yondashuvlari**

Bugungi kunda insonlarning dunyo bo'ylab ko'chib yurishi aynan o'sha tarjima jarayonining ko'zgusida aks etishi mumkin, tarjima uchun matnlarning bir tildan boshqa tilga o'tishi emas, balki madaniyatlar va matnlar o'rtasidagi muhokama jarayoni, tarjimon shaxsi vositachiligi orqali barcha turdagi ishlar bajariladigan jarayon deb to'g'ri qabul qilinmoqda. Ahamiyatlisi shundan iboratki, Homi Bhabha<sup>1</sup> "tarjima" terminini matn va tillar orasidagi ish deb emas, balki bir joydan boshqasiga olib o'tiladigan etimologik "hissiyot" deb ta'riflagan. U hozirgi dunyoning shart-sharoitlarini, millionlab odamlar yer sharining bir nuqtasidan boshqasiga tinimsiz ko'chib yuradigan, yashash joylarini har kuni o'zgartiradigan dunyoni tavsiflash uchun majoziy ma'noda tarjimadan foydalanadi.

Yevropalik bo'lmagan yozuvchilar tomonidan ilgari surilgan, tarjima bir qator nazariyalarining markazida uchta qaytariluvchi "ayyor-

---

<sup>1</sup> Bhabha H. The Location of Culture. - London and New York: Routledge, 1994 - p. 38.

lik” kuzatiladi: muqobillik va sodiqlik terminologiyasining takroran ta’riflanishi, tarjimon obrazi yorqinligining muhimligi, tarjimani qaytadan ijodkorona yozish faoliyati sifatida ko’rsatadigan emfazaning o’zgarishi.

Tarjimon “xaloskor”, manba matnga unchalik tobe bo’lmagan asliyat shaklining o’zgarmas ramzlaridan ozod qiluvchi, asliyat muallifi va matn hamda imkoniy tarjima tili kitobxonlari doirasi o’rtasidagi jarlikka ko’prik o’rnatishga aniq harakat qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo’ladi

Bu keyingi aytilgan va qayta ko’rilgan mulohaza tarjimaning ijokorligiga urg’u beradi. Avvalgi tarjimonni yorqin obrazlarda “o’zlashtiruvchi”, “bostirib kiruvchi” va yoki “bosib oluvchi” sifatida tavsiflagan modellarga qarganda do’stona munosabat bilan qabul qilish ko’rinadi. Tarjimaga post mustamlaka tarzida yondashish lisoniy fikr almashinuvlarni ma’noli suhbat tarzida, na manba va na asliyatga to’laligicha tegishli bo’lmagan makonda ro’y berayotgan jarayon sifatida ko’rishdan iborat. Vanamala Visvanata va Shery Simonlarning<sup>1</sup> ta’kidlashicha, tarjimalar muskamlaka va post-kolonial kontekstida madaniy shakllanishining dinamikasini fosh etuvchi birlamchi nuqtayi nazarni ta’minlab beradi.

1980-yillarning oxirlarigacha tarjimashunoslik Itamar Even-Zohar va Gideon Touriy tomonidan birinchi bo’lib ilgari surilgan tizimli yondashuvga asoslangan. Polisistem nazariya radikal rivojlanishda bo’ldi, chunki u diqqat e’tiborni muqobillik va matnga sodiqlik haqidagi quruq muhokamalardan tarjima qilingan matnning yangi kontekstdagi rolini o’rganishga e’tibor qaratadi. Ahamiyatli jihati shundaki, bu narsa tarjimaning tarixi bo’yicha kelgusida tarjimaning ahamiyatini qayta baholashni adabiyot tarixidagi o’zgarishlar va innovatsiyalarni amalga oshiruvchi kuch sifatida yo’naltiruvchi tadqiqotlar uchun yo’l ochdi.

1995-yilda Gideon Touriy “Descriptive Translation Studies and Beyond” kitobini nashr ettirdi. Polisistem yondashuvni qayta ko’tarib chiqqan bu kitob tarjima tizimiga ortiqcha urg’u berilganligi uchun

---

<sup>1</sup> Viswanatha V., Simon Sh. ‘Shifting Grounds of Exchange’: B.M.Srikantaiah and Kannada Translation, in Susan Bassnett and Harish Trivedi eds. Postcolonial Translation: Theory and Practice. - London and New York: Routledge, 1999. - p. 162.

ayrim olimlar tomonidan ijobiy baholanmadi. Touriyning tarjima avvalboshda birlamchi o'rinda "nishon" bo'lgan madaniyatning ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan bo'lib, tadqiqotning obyekt sifatida ushbu tizimni olish mantiqqa to'g'ri keladi, degan qarashni qo'llab quvvatlaydi. U, shunigdek, tarjima me'yorlarini shakllantiruvchi va ularning qanday qo'llanilishini ko'rsatuvchi yo'llarni o'rganish uchun tarjimaga xos bo'lgan xatti-harakatlar qonuniyatlari namunalarini aniqlash zarurligini ko'rsatib o'tadi. U tarjima nazariyasining obyekt tarjima sifatini ko'tarish degan har qanday firkga qarshi chiqadi: amaliyotchilar turli javobgarliklarni zimmalariga olgan paytda, nazariyotchilar bitta dastur, rejaga ega bo'lishadi, deb fikrini dalillaydi u. Garchi Touriyning qarashlari umum tomonidan qabul qilinmagan bo'lsa-da, bu fikrlari keng omma tomonidan hurmat bilan qaralgan. 1990-yillar davomida, tarjima me'yorlari borasida juda ulkan ilmiy tadqiqot hisoblandi va tarjimani o'rganish yuzasidan buyuk ilmiy da'vat bo'ldi.

Hozirgi XX asrda siyosiy, geografik va madaniy chegaralar ancha o'zgaruvchanki, yaqin tarixning istalgan paytida insonlarning bu chegaralardan o'tishi kuchayadi. Shu tariqa dunyo, tarjimon roli yanada katta ahamiyat kasb etadi. Bu holat tarjimaning nima uchun bu qadar ko'p muhokama qilinishi va nima uchun tarjimaga talabning yuqoriligi sababidir. Biz faqat World Wide Web kengayishi bilan tarjima potensialini tasavvur qila boshlaymiz. Elektron tarjima ancha soxtalasha borgan paytda tarjimashunoslik taraqqiyotga muhtoj. Bu oldindan aytish mumkin bo'lgan kelajakda amalga oshiriladigan vazifa ko'rinadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Tarjimashunoslik qaysi fanlardan ajralib chiqqan?
2. Tarjimashunoslikning XX asrdagi taraqqiyot davri
3. Xalqaro professional tarjimonlar tashkiloti
4. Madaniyatlararo muloqotda tarjimaning ahamiyati?
5. G'arb olimlarining tarjimashunoslikka oid yondashuvlari
6. Tarjimaning madaniy aspektlari
7. Tarjimashunoslik rivojlanishining asoasiy bosqichlari
8. Trajimada muqobillik va sodiqlik.

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Yevropa Tarjima Jamiyati faoliyati haqida ma'lumot to'plang.
2. Kompyuter tarjimasi bo'yicha tadqiqotlar bilan tanishing.

### **Asosiy adabiyot**

1. Bassnett S. Translation Studies. Taylor & Francis Group. - London and New York, 2002.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

2. Dingwaney A. Introduction: Translating 'Third World' Cultures, Dingwaney A., Maier C. eds. Between Languages and Cultures Translation and Cross-Cultural Texts. – Pittsburgh and London: University of Pittsburgh Press. 1995.
3. For discussion of the cannibalistic metaphor. See Bassnett S., Trivedi H. eds. Postcolonial Translation: Theory and Practice. – New York and London: Routledge, 2000.
4. France P. Translation Studies and Translation Criticism. in Peter France ed. The Oxford Guide to Literature in English Translation. – Oxford: Oxford University Press, 2000.
5. Sengupta M. Translation as Manipulation: The Power of Images and Images of Power in Dingwaney A., Maier C. eds. Between Languages and Cultures. Translation and Cross-Cultural Texts. – Pittsburgh and London: University of Pittsburgh Press, 1995.

## 2-MA'RUZA TARJIMA TARIXI

### Reja:

1. Tarjimachilikni davrlashtirish muammolari
2. Tarjima tarixida Rim
3. Injil tarjimasi
4. Ta'lim va mahalliy til
5. Tarjimashunoslikning ilk nazariyotchilari.

**Tayanch soʻz va iboralar:** *davrlashtirish, tarjima akti, ma'naviy tarjima, tarjimon konsepti, imitator, bilingvizm va trilingvizm*

### 2.1. Davrlashtirish muammolari

Mashhur tarjimashunos Jorj Stayner Injildan soʻng adabiyotlarni nazariya, amaliyot va tarjima tarixiga oid toʻrt davrga ajratadi<sup>1</sup>.

Uning ta'kidlashicha, ilk davrda Aleksandr Freyzer Taytlarning 1791-yildagi "Tarjima asoslari to'g'risida"gi ocherki nashriga qadar fan Sitseron va Horase<sup>2</sup>ning tarjimaga oid fikr va qarashlariga asoslangan.

Ushbu davrning asosiy xususiyati shundaki, "bevosita tajribaga asoslangan markaz", ya'ni tarjima haqidagi tamoyil va nazariyalar bevosita tarjima amaliyotiga tayanadi.

Stayner ikkinchi davrni nazariya va germeneytik tadqiqot davri sifatida hamda soʻz boyligining oshirishi va tarjimaga yondashuv metodologiyasining shakllanishi bilan xarakterladi.

Uchinchi davr 1940-yilda mashina tarjimasi vositasida qilingan o'girmalar birinchi bor qog'ozda chop etilishi bilan boshlanadi hamda bu davr struktur tilshunoslik va muloqot nazariyasini tarjimashunoslikka joriy qilinishi bilan xarakterlanadi.

Staynerning to'rtinchi davri uchinchi davrga asoslangan bo'lib, 1960-yilning boshiga to'g'ri keladi. "Germeneytik, shuningdek, metafizik tadqiqotlarni tarjima va talqinga" qaytishi bilan xarakterlanadi.

---

<sup>1</sup> Bassnett Susan. Translation Studies. Taylor & Francis Group. –London and New York, 2002.

<sup>2</sup> Horace. On the Art of Poetry in Classical Literary Criticism. –Harmondsworth: Penguin Books, 1965. pp. 77–97.

Qisqa qilib aytganda, tarjima fanining kengayishi va bir qancha fanlarni – mumtoz filologiya va qiyosiy adabiyotshunoslik, leksik statistika va etnografiya, sinfiy nutq sotsiologiyasi, retorika, nazm va grammatikani birlashtirish tarjima akti va “tillar orasidagi muloqot” jarayonini ochib berishdi.

Staynerning davrlashtirish nazariyasi ishonarli bo‘lishiga qaramay, tarjimashunoslikni diaxronik o‘rganish qiyinchiliklarini keltirib o‘tadi, birinchi davr 1700 yilni qamrab olsa, qolgan ikki davr atigi o‘ttiz yilni tashkil qiladi.

Uning fan rivoji haqidagi kuzatuvlari juda o‘rinli, shuningdek, birinchi davr haqidagi talqini hozirgilariga mos keladi.

Uning tarjima tarixini to‘rt davrga bo‘lishini o‘rinli deb ayta olmaymiz, biroq u bir katta xavfli fikrdan chetlanishni uddaladi: adabiyot tarixidagi davrlashtirish yoki kompartmentalizatsiya ya’ni ajratishni chetlab o‘ta oldi.

Lotmanning ta’kidlashicha, inson madaniyati dinamik sistemadir, aslida davrlarni sanalar bilan ajratish deyarli mumkin emas.

Qat’iy dunyoviy chegaralar dinamikaning zid doirasida madaniy rivojlanish bosqichlarini topish uchun harakat qiladi.

Biz uyg‘onish davrining aniq chegaralarini aniqlash davomida “davrlashtirish yondashuvida” muammolar paydo bo‘ladi.

Adabiy jarayon ko‘z oldimizda nomoyon bo‘lganida o‘rta asrda Petrarx yoki Chozer ijod qilganmi yoxud ular uyg‘onish davri yozuvchilari yo Rabelays o‘rta asrda, yo Dante uyg‘onish davri yozuvchisi degan o‘ylar paydo bo‘ladi. Shu nuqtayi nazaridan tarjimalarni tadqiq etish u darajada foyda keltirmagan edi.

T.R.Stayner Sir Jon Denhamdan boshlab va Vilyam Kovper bilan tugaydigan, 1650-1800 oralig‘idagi ingliz tarjima nazariyasini tahlil qiladi va shuni aniqlaydiki, XVIII asrda tarjimon konsepti tasvirchi va imitator (taqlid qiluvchi)ga tenglashtirilgan.

Andri Lefeyver nemis tarjima an’anasiga asos bo‘la oladigan Luterdan boshlab Gotched, Gyotedan Shlegel va Shleymaxer, shuningdek, Rozensveggacha bo‘lgan davrdagi tarjimaga oid ma’lumotlar, hujjatlarni to‘playdi va asoslaydi.

Tizimli yondashuvga ega bo‘lmagan, lekin F.O.Matesson XVI asrning to‘rtta asosiy tarjimoni (Hoby, Nors, Florio va Filimon Holland)ni tahlil qiladi,

Mattesonning qator da'volariga ko'ra "Angliyaga uyg'onish davri Elizabetik tarjimalarni o'rganilishi bilan kirib kelgan" biroq bu fikr ilmiy asoslanmagan.

## **2.2. Tarjima tarixida Rim**

Erik Yakobson tarjima Rim ixtirosi ekanligini qat'iy ta'kidlaydi, va bu hatto tanqidiy giperbolaning bir qismi deb hisoblansa-da, rimliklar uchun esa tarjimaning o'rni va vazifasi nima ekanligini aniqlashtiradigan boshlang'ich nuqta hisoblanadi.

Sitseron va Horatsiy<sup>1</sup>ning tarjima haqidagi qarashlari mohir tarjimonlar avlodiga kuchli ta'sir qilgan bo'lishi kerak edi. Ikkisi ham tarjimani keng miqiyosda umuminsoniy mas'uliyatni his qilish, ilm-fanni targ'ib etish va maxsus she'r yozish mahoratiga ega bo'lishni asosiy vazifa deb hisoblagan.

Taxminan milodiy I asrlargacha yunonliklarni mustaqil ravishda o'zlari badiiy asar yatilmaganligi sababli yunon adabiyotida tarjima asarlar alohida o'rin egallagan.

E'tibor greklarning ijodiy tasavvuriga nisbatan yunonlarning amaliy qarashlariga tushgan bo'lib, yunonlarning grek modellarini ko'klarga ko'tarishi ularning o'ziga xosligi yo'qligidan dalolat beradi deb hisoblangan. Biroq bunday umumlashtirib keskin baholash noto'g'ri edi.

Yunonlar o'zini grek an'anasini davomchisi sifatida tan olishdi, yunon adabiy tanqidchilari esa grek matnlarini har holda tormozlantiruvchi omil hisoblanmish matn tilini ko'rmasdan muhokama qilishgan.

Yunon adabiy tizimi lingvistik chegarlarga bo'ysunmas matn va mualliflarning iyerarxiyasini o'rnatadi va o'sha tizim asta-sekin yunon iyerarxik idealiga ta'sir qiladi. Asliyatdagi ideal matn tarjimada ko'chirilishi kerak. Sitseron mazkur farqni yaxshi tushuntiradi: "Agar men so'zma-so'z tarjima qilsam, natija beo'xshov bo'lib chiqadi, agar men ehtiyojga ko'ra usul yoki uslubda o'zgartirish kiritishga majbur bo'lsam, fikrimcha, tarjimonlik kasbidan voz kechishimga to'g'ri keladi.

---

<sup>1</sup> Horace. On the Art of Poetry, in Classical Literary Criticism. – Harmondsworth: Penguin Books, 1965. pp. 77–97.

Horatsiy va Sitseron ikkisi o‘zlarining tarjima haqidagi mulohazalarida so‘zma-so‘z tarjima bilan ma‘naviy (obrazli) tarjima orasidagi muhim bir farqni aniqlashadi.

Boshqa qat’iy “aniqlik” tushunchalariga qaraganda, ona tili va adabiyotini tarjima vositasida boyitishning asosiy tamoyili tarjima tilidagi mahsulotning estetik mezonlariga bosim o‘tkazadi.

Horatsiy o‘zining “She’riyat san’ati” asarida asliyat shaklini soxtalashtirishdan juda ehtiyot bo‘lish kerak deb ogohlantiradi.

Demak, so‘z o‘zlashtirish yo yangi so‘z yaratish an’anasi keng tarqalgan, biroq Horatsiy bo‘lajak yozuvchi (tarjimon)ga shunday maslahat beradi: “Qopqonlar “(nomustaqil) itoatkor tarjimon”ni o‘rab turadi deydi, shuning uchun yangi so‘zlardan me’yorida foydalanishni tavsiya qiladi.

U yangi so‘zlarning qo‘shilishi va boshqa so‘zlarning istemoldan chiqishini, bahor va kuzda barglarni almashinishiga qiyoslaydi. Ushbu tarjima orqali boyishining ikki holati tabiiy va ifodaviy jarayonini ko‘rib, yozuvchi qo‘llagan amaliyotni taqdim qiladi.

Horatsiy va Sitseronga ko‘ra, tarjimon mahorati asliyatdagi matni ongli ravishda interpretatsiya qilish, go‘yo tarjima tilidagi matnni “non verbum de verbo, sed sensum exprimere de sensu”, ya’ni so‘zma-so‘z emas, balki ma’nosini ifoda qilish tamoyiliga asoslangan bo‘lishi va tarjimani o‘qiydigan kitobxon uchun mas’uliyatni zimmasiga olishida ekanini ta’kidlaydi.

Biroq bu yerda ham yunon conseptining tarjima vositasida boyishiga greklarning madaniyat o‘chog‘i sifatida yuqori pog‘onani egalashi va ma’lumotli yunonlarning asliyat tilida matnlarni o‘qiy olish qobiliyatini qo‘shimcha ravishda ta’kidlab o‘tish kerak.

Bu omillar hisobga olingandan so‘ng tarjimon va kitobxon ikkisi-ning o‘rni almashadi. Yunon kitobxoni umuman olganda tarjimani, xuddi metamatn bilan asliyat munosabatini bilgandek tahlil qilishga qodir. Ko‘p tilli kitobxon faqatgina asliyatdagi matnga tarjima orqali yaqinlasha olgan, undan farqli o‘laroq tarjima matni asliyatdagi matn orqali o‘qilgan. Yunon tarjimonlari uchun matnni u tildan bu tilga o‘girish go‘yo qiyosiy uslubshunoslikdagi mashqlar kabi odat tusiga kirgan.

Yaxshi tarjimon kitobxonni asliyat matni bilan tanish ekanligini taxmin qiladi va shu bilan chegaralanadi, uning tarjimonlik mahorati-

ga berilgan har qanday baho uning ijodiy yondashuvi, o'z uslubini yarata olishiga asoslanadi.

Yunon tarjimasi mukammal qoidalarga asoslangan lingvistik me'yorlar orqali yagona adabiy mahsulotning ko'rinishi sifatida paydo bo'lgan bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, shuni ham unutmaslik kerakki, Rim imperiyasi-ning kengayishi natijasida bilingvizm va trilingvizm oddiy holatga aylanib qoldi, og'zaki va adabiy (yozma) lotin tili o'rtasidagi jarlik yanada kengaydi.

### **2.3. Injil tarjimasi**

Nasroniylik tarqalishi bilan tarjimaning vazifasi o'zgardi, ya'ni Xudoning kalomini yoyish bo'ldi. Din matniga nasroniylik sifatida ham tarjimon estetik va xushxabar mezonlarini o'rab bir vazifa bilan taqdim etdi. Injil kitobining tarjima tarixi g'arb madaniyati tarixining bir qismi hisoblanadi. Yangi da'vatning tarjimalari ancha oldin o'girilgan. 384-yilda Papa Damasus tomonidan St.Jeromega ishonib topshirilgan edi.

Sitseronga asoslangan St.Jorema tarjimini so'zma-so'z shaklidan ko'ra, ma'noviy tarjimini afzal ko'radi.

Injilni lotin tiliga o'giran Iyeronim Sitseronning so'zma-so'z tarjimaga qarshi deb hisoblashiga qaramasdan, Ksenafonning bizga yetib kelmagan asarining tarjimasi so'zma-so'z tarjima etilganini ta'kidlaydi va bu borada tarjimadagi til uslublari va til kamchiliklarini ko'rsatib o'tadi.

Injil tarjimasi XVII asrning muhim bir masalalaridan bo'lib qoldi va muammolar, milliy madaniyatlar va islohot kelishi bilan tushunchalar o'sishini kuchaytirdi. Cherkov markazlashtirish natijasida umumiy til sifatida lotin tili qabul qilindi.

Ingliz tiliga Injilning to'liq 1-tarjimasi 1380- va 1384-yillarda tarjima qilingan. Ushbu davr Injilning inglizcha tarjima qilishning gullagan davri hisoblandi.

Oksford teologi Jon Uiyklif (1330–84), “odam Xudoning va Xudoning qonuniga so'zsiz itoat etadi” nazariyasini ilgari surdi (Uiyklifning bu nazariyasi muqaddas kitob qonunlari asosida emas, balki Injil yo'riqnomasiga asoslangan). Uiyklifning nazariyasiga ko'ra, Injil butun inson hayoti uchun qo'llaniladigan muqaddas kitobdir, shuning uchun har bir odam bu kitobni tushunishi va o'z ona

tilida o'qishi kerak, deb ergashdi. Uikylifning qarashlari, bid'at sifatida qoralanadi. Uning tarafdorlari "Lollardlar" deb e'lon qilinadi, lekin uning o'limidan keyin uning shogirdi Jon Pyurvey ustozining ishini 1408-yilda birinchi nashrini chop ettiradi.

Ikkinchi Uyklyft Injili umumiy muqaddimani tashkil etadi. 1395-1396 yillar oralig'ida yoziladi va Muqaddimaning o'n beshinchi bobi tarjima jarayonining to'rt bosqichini tasvirlaydi:

1) eski Injilni yig'ish va Sahih Lotin manbasi matnini hamkorlikda tiklash harakati;

2) nusxalarni qiyoslash;

3) eski grammatika va muqaddas tushunchalarni, qattiq so'zlar va murakkab ma'nolarni to'g'ri qo'llashni o'rgatish;

4) guruh bo'lib, hamkorlikda imkon qadar jumlani (ya'ni, ma'nosi) aniq tarjima qilish.

Injil 150 nusxada asosiy qismi 1408-yilning iyul oyida nashrdan chiqadi, taqiqlarga qaramay ushbu ish davom ettirilgan.

XVI asrda Injil tarjima tarixi yangi yo'nalishlarini taqdim etdi. Wycliffitening versiyalaridan keyin ingliz tilidagi tarjimasi Vilyam Tindalning (1494-1536) "Yangi nasihat"i ham rohib bo'lmagan kishi uchun iloji boricha aniq bir versiyani taqdim etdi, tarjima 1525-nashr qilingan. 1536-yilda yangi Ahdni yunon va ibroniylarning qadimgi ahdlaridan tarjima qilgan.

XVI asr ikkala protestant va katolik versiyalarida Yevropa tillarida ko'p sonli Injil tarjimalari dunyo yuzini ko'rdi. 1482-yilda ibroniy Tavroti Bolonyada bosilgan edi va bu to'liq ibroniy Injil edi. Ushbu versiya Martin Lyuterning 1522-yildagi nemis nashri uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak edi. Erasmus 1516-yilda Bazel birinchi yunon Yangi Ahd nashrini e'lon qilgan. Tugallangan Herbyuv Injili 1488-yilda Bolganada nashr qilingan. Tarjimalar va mavjud tarjima qayta ko'rilib, versiyalari ingliz, golland, nemis va fransuz tillarida paydo bo'ldi.

Vilyam Tindal, Erasmus, cherkov xizmatchilari tomonidan taqib etildi, negaki ular Muqaddas kitobni faqat bir tilda o'qish kerakligini talab qilishgan, o'z ona tilida o'qishni taqiqlashgan.

## **2.4. Ta'lim va mahalliy til**

Qo'lyozmalar tarjimasining tarbiyaviy ahamiyati XV-XVI asrlardan ancha oldin qaror topgan. Ilk mahalliy tildagi talqinlar lotin qo'l-

yozmalariga kiritilgan bo‘lib, bir qancha Yevropa tillari shakillanishi borasida salmoqli ma’lumot bilan ta’minlaydi.

Ingliz tiliga kelsak, masalan, Lindisfarn Injilning (eramizning 700 yillarida ko‘chirilgan) X asrga oid Nortumbrayn lahjasidagi nusxasida lotindagi asliyat matndan so‘zma-so‘z tarjima qilinib, qatorlar orasiga qo‘shib qo‘yilgan.

Bu satrosti tarjimalari tobe tushuncha bo‘lib, so‘zma-so‘z tarjima metodining uslubiy afzalliklarini taqazo etadi, biroq ayni paytda tillararo transfer jaroyoni mavjud ekan, bu tarjima deb hisoblanadi.

Nima bo‘lganda ham satrosti tarjima metodi asrlar davomida Yevropa tillari paydo bo‘lishiga shohid bo‘lgan yozma tarjimaning bir shaklidir.

IX asrda Qirol Alfred (871-899 hukmdorligi davrida) bir qancha lotincha matnlarni tarjima qiladi (yo tarjima qilinishiga sababchi), tarjima maqsadi Daniya bosqini vayronagarchilikdan saqlab qolingan ta’lim eski monastiri markazlarini tiklash orqali inglizlarga yordam berish edi.

“Cura Postoralis” (cherkov ruhoniylar uchun qo‘llanma) tarjimasiga yozgan so‘zboshisida Alfred tarjima matnlar vositasida o‘qitishga chorlaydi, chunki tarjima chet tilidagi ma’lumotni ona tilidagi tayyor mahsulidir, shuningdek, adabiy ingliz tilini mukammal bilishini ta’kidlaydi.

Boshqa barcha nasroniy xalqlar singari rimliklar o‘z maqsadlari uchun matnlarni tarjima qilgan, ushbu matnlar haqida Alfred fikr bildirib shunday deydi: “Agar e’tirozingiz bo‘lmasa, shuni bilishingiz kerakki, muhim adabiyotlar qatorida ommaviy barcha bilishi zarur bo‘lgan kitoblarni ham barcha birdek tushunadigan tilga tarjima qilamiz”.

Tarjima bir vaqtning o‘zida muhim ahamiyatga ega (ritorikani) stilistikani o‘rganish vazifasidan uzoqlashgan holda aniq siyosiy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zida ma’naviy va didaktik maqsadni jamlagan vazifani bajaradi.

Tarjima tushunchasi yozish mashqi va orotorik uslubni yaxshilash usuli singari yetti gumanitar fanni o‘qitishga asoslangan o‘rta asrlar ta’lim tizmining muhim komponenti bo‘lgan.

Bu tizim uzoq o‘tmishga borib taqaladi, yunon nazariyotchilaridan Kvintiliyanning (I asr) “Institutio Oratoria” nomli sermazmun asarida fanning ikki yo‘nalishiga asos soladi. Trivium (grammatika, reto-

rika va dialektika) va Quadrivium (arifmetika, geometriya, musiqa va astronomiya), falsafiy bilimlarga asosi trivium hisoblanadi.

Kvintiliyan berilgan matnning ma'nosini aytib berishning foydali ekanligini ta'kidlaydi, bu o'quvchiga ikki tomonlama ham matning tuzulishi tahlili ham mubolag'a va chegaralashni galma-galdan eksperiment qilishda yordam beradi.

Uning ko'rsatmasiga asosan parafraza mashqalar to'plamini tashkil etadi va ikki muhim etap: birinchi parafrazaning boshlang'ich yaqinligi va ikkinchi bosqichda yozuvchi o'zining uslubidan ko'proq qo'llaydi.

Kvintiliyan o'quvchini ijodiy qobiliyatini kengaytirish va rivojlantirish uchun original lotin matnlarini parafraza qilingan varianti sifatida grekchadan lotinchaga tarjima qilishni tavsiya qiladi.

Shu jumladan, Kvantiliyanning tarjimini stilistik mashq sifatida targ'ib qilishi, albatta, asliyat tilidagi grekcha matnlarni lotin tiliga tarjima qilishdir, chunki asrlar davomida Yevropada lotin ta'lim tili hisoblangan.

Lekin X asrdan boshlab mahalliy adabiyotning paydo bo'lishi tarjima rolini boshqa tomonga burib yubordi.

Alfred ilm targ'iboti saifatida tarjimaning ahamiyatini tarannum etdi va u uchun tarjima mahalliy tildagi original matnning yaratilishi uchun xizmat qilardi.

Jianfranko Folrna o'zining vulgarizm va tarjimaga oid maqolasida o'rta asr tarjimasi vertikal ravishda, ya'ni mahalliy tilga alohida nufuz yoki qiymatga ega asliyat tilidan (masalan Lotin) tarjima qilish yoki gorizontal ravishda, ya'ni asliyat ham, tarjima ham bir xil qiymatga ega bo'lishi (masalan, provansal tilidan italiyanchaga, fransuz tilining norman shevasidan ingliz tiliga) mumkin, degan fikrni ilgari suradi.

Rojer Bekon (1214-1292) ham tarjimalarning tasnifini keltirgan, ya'ni qadimiy tillardan lotinga va zamonaviy mtanni mahalliy tilga tarjima qilish, Dante (1265-1321) ham shunday tasniflarni keltiradi, ikkisi ham tarjimini ma'naviy va estetik xususiyatlarini san'at va ta'lim bilan bog'laydi.

Masalan, Bekon tarjimadagi yo'qotishlar muammosi va uning aksini muhokama qiladi. Horatsiy esa bu masalani ancha ilgari mushohada qilgan. Unga qadar Dante ko'proq tarjimaning barchaga tushunarli bo'lishi muhim ekanligiga e'tibor qaratgan. Biroq ikkisi ham

tarjima mashq va qiyosiy uslubga qaraganda ko‘proq ma’lumotni qamraydi, deb tan oladi.

Shu bilan birga, o‘n beshinchi asrning boshida shakllangan badiiy tarjimaning farqli jihatlari ko‘p, Folenaning qiyosi faqatgina kichik qismini yoritgan xalos.

Vertikal yondashuv alohida ikki turga ajraladi, satrosti tarjima yoki so‘zma-so‘z usul, Sitseronning ma’noviy tarjima metodiga qarshi Kvintiliyan parafraza usuli, gorizontal yondashuv kompleks masalalarni, imitatsiya va o‘zlashtirish usullarini qamrab oladi.

## 2.5. Ilk nazariyotchilar

O‘n beshinchi asrda chop etish uskunalarining kashf etilishi tarjima hajmini yanada oshirdi. Shu bilan birga, tarjima nazariyasini shakllantirishga bo‘lgan jiddiy urinishlar ham qilindi. Tarjimaning vazifasi uni o‘rganish bilan birgalikda o‘zgarib bordi.

Tarjima nazariyasini shakllantirgan birinchi yozuvchilardan biri fransuz gumanisti Etiyen Dolet (1509-1546) edi. U keyinchalik Platonning mangu hayotga ishonchsizlik ma’nosidagi diologining noto‘g‘ri tarjimasini uchun qatl qilgan. 1540-yilda Dolet tarjima prinsplari bo‘yicha qisqa ma’lumotlarni “*La maniere de bien traduire d’une langue en aultre*” (“Qanday qilib bir tildan boshqa tilga yaxshi tarjima qilish mumkin”) nomi ostida nashrdan chiqardi va tarjimonlar uchun beshta prinsplni belgilab berdi:

1) tarjimon muallifning hissiyot va ma’nosini to‘la tushunishi kerak, garchi u noma’lumliklarga aniqlik kiritish huquqiga ega bo‘lgan bo‘lsa-da;

2) tarjimon ham, aslyat tili ham tarjima tili bo‘yicha mukammal bilimga ega bo‘lishi kerak;

3) tarjimon so‘zma-so‘z renderlardan qochishi kerak;

4) tarjimon umumiy qo‘llaniladigan muloqot shakllaridan foydalanish kerak;

5) tarjimon munosib ohang ishlab chiqarishda so‘zlarni to‘g‘ri tanlashi kerak.

Doletning tamoyillari aniq tartibda keltirilgan deya baholaniladi va tarjima tilini tushunishga jiddiy e’tibor berish kerak. Tarjimon lingvistdan ko‘ra ancha chuqur bilimga ega bo‘lmog‘i lozim. Tarjima asar tiliga ilmiy va hissiy yondashuvni talab etadi.

Doletning qarashlari Jorj Chapman<sup>1</sup> (1559-1634) tomonidan “Homer buyuk tarjimon” kitobida takrorlandi. U o‘zining “İlliada” tarjimasidagi “kitobxonlarga maktubi”da bu nazariyani takrorlaydi. Maktubda Chapman tarjimon quyidagilarni bajarish kerakligini ta’kidlaydi:

- 1) so‘zma-so‘z renderlardan qochish;
- 2) original “ruhi”ni berishga erishish uchun harakat;
- 3) so‘zlar va boshqa variantlar ustida ilmiy tahlil orqali tarjimada yo‘qotishlardan qochishga intilish.

She’riyatning ilohiy ilhomlantiruvchi Platonik ta’limoti tarjimon uchun aks sadodir. Unda original “ruh” va “ohang”ni boshqa madaniy kontekstda qayta yaratish faraz qilinadi. Shuning uchun tarjimon har ikkala texnik va metafizik darajada originalga yaqinlashgan matn uchun muallif va auditoriya oldida burch va mas’uliyatga ega.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Tarjimashunoslik fani rivojlangunga qadar kimlarning tarjimaga oid fikr va qarashlariga asoslangan?
2. Tarjima tarixida Rimning tutgan o‘rni
3. Injil tarjimasining o‘ziga xosliklari
4. Nasroniylik dinining tarqalishi tarjimaga qanday o‘zgarishlar olib keldi?
5. Tarjimada gorizontal va vertikal bo‘linish deganda nima nazarda tutiladi?
6. Jorj Chapman nima sababdan Homerni buyuk tarjimon deb ta’kidlagan?
7. Tarjimachilikni davrlashtirish muammolari
8. Tarjimashunoslikning ilk nazariyotchilari kimlar bo‘lgan?

#### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. G‘arb olimlarining tarjima tarixini davrlashtirishga oid fikrlarini qiyoslang.
2. Ilk nazariyotchilar xronologiyasini tuzing.

---

<sup>1</sup> Chapman’s Homer. ed. R.Heme Shepherd. – London: Chatto & Windus,1875.

### **Asosiy adabiyot**

1. Bassnett S. Translation Studies. Taylor & Francis Group. – London and New York, 2002.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

2. Lefevere A. Translating Literature: The German Tradition. From Luther to Rosenzweig. – Assen and Amsterdam: Van Gorcum, 1977.

3. Steiner G. After Babel. –London:Oxford Univ.Press, 1975. – pp. 236ff.

4. Steiner T.R. English Translation Theory 1650–1800. – Assen and Amsterdam: Van Gorcum, 1975.

5. Webb Timothy. The Violet in the Crucible. – London: Oxford University Press, 1976.

### 3-MA'RUZA

#### TARJIMA TARIXI (DAVOMI)

##### Reja:

1. Uygʻonish davri
2. XVII asr
3. XVIII asr
4. Romantizm
5. Post-Romantizm
6. Viktoriya humkronligi davri
7. XX asr

**Tayanch soʻz va iboralar:** *tarjima konsepsiyasi, tarjimon mahorati, uygʻonish davri, romantizm, post-romantizm, Viktoriya humkronligi davri*

#### 3.1. Uygʻonish davri

Edmon Keri oʻzining buyuk fransuz tarjimonlariga oid izlanishlarida Doletni mukokama qilarkan, XVI asrda tarjimaning ahamiyatini taʼkidlab oʻtadi: “Tarjima jangi Dolet davridan oʻzining avj pallasiga kirgan. Islohot, umuman olganda, tarjimonlar orasida muhim bahs boʻlib qolgan. Tarjima davlat hodisasi va din masalasi boʻldi. Sarbon va qirol u bilan teng mashgʻul boʻlganlar. Shoirlar va prozachilar ushbu masalani muhokama qildilar”.

Davrning muhim xususiyatidan biri (Injilning koʻpgina tarjimasining aksariyati ilgarigi variantlarga nisbatan oʻzgarishlarsiz amalga oshirilganida aks etadi) zamonaviy ibora yoki uslubning ishlatish orqali mavjudlikni tasdiqidir. Elizabet tarjimonlarining Matison izlanishlari bir qancha misollarda oʻzining oʻz aslini namoyon etadi.

Sheʼriyatda Uvayt (1503-1542) va Surrey (1517-1547) kabi tarjimonlar asliyat matniga qilgan oʻzgartirishlari tanqidga uchragan. Petrarkaning Uvayt tarjimasini oʻrganib koʻrilganda, masalan, sodiqlik alohida soʻzlar yoki gap tuzilmalariga emas, balki uning kitobxonni sheʼr maʼnosiga boʻlgan munosabatiga sodiqligidir. Boshqacha soʻz bilan aytganda, sheʼr muayyan madaniy tizimning artefaki sifatida idrok qilinadi va ishonchli tarjima moʻljallangan madaniyat tizimida muayyan vazifani berishi mumkin. Masalan, Uvayt Petrarkni mashhur

1348-yilning hodisalaridagi sonetini oladi, Kardinal Jovani Kolonna va Lauranning o'limi shunday boshlanadi<sup>1</sup>:

Rotta e l'alta nquiet e'l verde lauro Che facean ombra al mio  
stanco pensero;

(CCLXIX)

(Broken is the tall column (Colonna) and the green laurel tree  
(Laura) That used to shade my tired thought)  
and turns it into:

The pillar pearished is whearto I lent;  
The strongest stave of myne nquiet mynde:

(CCXXXVI)

Tarjima jarayonida u Petrarkaning so'zlarini to'la so'zma-so'z, qatorma-qator yoki orginalning mungli sifatini qayta ifodalamasdan boshqacha tarjima qilgan. Yevropa uyg'onishida tarjima muhim rol o'ynaydi. Jorj Stayner<sup>2</sup> qayt etganidek: "Bir vaqtning o'zida tarjima portlovchi yangilik bo'lgan, ortiqchalik va tartibsizlikka havf bo'lgan, tarjimani o'ziga singdirgn, shakllantirgan, muhim xom-ashyo bo'lgan. Ustiga ustak, u o'tmish va bugun, turli millatchilik va diniy kelish-movchilik, boshni aylantirayotgan turli tillar hamda madaniyatlar o'rtasida aloqa o'rnatgan. Tarjima ikkilamchi faoliyatni anglatmaydi, balki birlamchi faoliyatdir.

### 3.2. XVII asr

XVII asr o'rtalarida mutlaq monarxiya va rivojlanayotgan parlament tizimi orasidagi konflikt, shuningdek, nasroniylik gumanizmi va ilm-fan orasida nifoqning kengayishiga olib keldi. Adabiyot nazariyasida ro'y bergan tub o'zgarishlar esa tarjimachilikka ham ta'sir etmay qolmadi.

Dekart (1596-1650) induktiv idrok etish metodini ta'riflashga urinadi.

Adabiy tanqid vakillari estetikani qayta yaratish qoidalarini shakllantirdilar.

Aniq modelni ishlab chiqishga harakat qilgan mualliflar qadimgi mualliflarning asarlariga murojaat qildilar.

---

<sup>1</sup> Bassnett S. Translation Studies. Taylor & Francis Group. – London and New York, 2002.

<sup>2</sup> Steiner G. After Babel. – London: Oxford University Press, 1975. – pp. 236ff.

Mumtoz adabiyot namunalari Fransiyada 1625-, 1660-yillarda keng miqyosda tarjima qilindi. Bu davr fransuz klassisizmi va fransuz teatrining “Aristotel birligi”ga asoslangan gullagan davri – buyuk asr hisoblanadi. Fransuz adiblari va adabiyot nazariyotchilari, o‘z navbatida, fransuzcha asarlarni ingliz tiliga o‘girishda fidokorlik ko‘rsatganlar.

Angliyada qoida va modellarga urg‘u berilganligi ko‘p narsani belgilamaydi, biroq san‘atning imitatsion mahorat sifatida idrok etilganligini ko‘rsatadi.

San‘at tabiatni bir muvozanatda, uyg‘unlikda aks ettirishda namoyon bo‘ldi.

Ser Jon Denning (1615-69) tarjimaga doir nazariyasi “Ser Richard Fanshawe” (Pastor Fido tarjimasida) (1648) she’rida o‘z iodasini topgan, tarjimaga yozilgan so‘zboshida Troyaning vayron etilishi (1656) xususida to‘xtaladi (quyida qarang). Bu yerda muallif she’riy tarjimada so‘zma-so‘z tarjima usulining qo‘llanilishidan ehtiyot bo‘lish kerakligini ta’kidlaydi. Zero, bir tildan boshqasiga tarjima qilish so‘zma-so‘z tarjima orqali amalga oshiriladigan faoliyat emas.

Tadqiqotchi Denxem tarjima konsepsiyasini yoqlab o‘z fikrlarini bildirib o‘tadi. U tarjimon shaxsida asliyat muallifi, ya’ni yozuvchi bilan teng sur’atda, o‘z vazifasini ham ijtimoiy, ham zamon nuqtayi nazaridan aniq taqsimlab olgan shaxsni ko‘radi. U tarjimonning vazifasi deganda asliyat matni asosida yotgan asar yadrosini tarjima tiliga bir butun yaxlitlikda qayta yaratilishini ko‘zda tutadi.

Abraxam Kouli (1618-67) o‘zining “Kirish”ida (Pindarique Odes (1656) ishonch bilan tasdiqlashicha, tarjimon tarjima qilingan asarni o‘quvchi kitobxon asliyat muallifi aytmoqchi bo‘lgan fikrni tarjima orqali aniq bilib olishi kerak. Kouli (Drayden kabi) tarjimani asliyat matnining imitatsiya sifatida ko‘radi. Stayner Koulining so‘zboshisini so‘nggi o‘n yetti yil yakuni manifesti sifatida ta’kidlaydi.

Jon Drayden (1631-1700) Ovidiy (1680)ning nomasiga yozilgan so‘zboshida tarjima muammolarini quyidagi uch yo‘lni ishlab chiqish orqali hal etish kerakligini aytadi. Bular:

- 1) metafraza yoki so‘zma-so‘z tarjima, yoki asliyat muallifini so‘zma-so‘z, satrma-satr bir tildan ikkinchi til sari ta’qib qilish;
- 2) parafraza yoki erkin tarjima ko‘rinishi;
- 3) imitatsiya (taqlid), tarjimon o‘ziga ma’qul joylarini qoldirib, qolganlarini tushirib qoldirish, asliyatni o‘ziga moslashtirish.

Mazkur uch tarjima usulidan Drayden ikkinchi, eng maqbul usul sifatida tanlaydi va tarjimonga mazkur kriteriyalarni taklif qiladi: she'riy asarlarni tarjima qilish, uning ta'kidlashicha, tarjimon shoir bo'lishi shart, ikki tilni mukammal bilimdoni bo'lishi va muallifning o'ziga xos jihatlari va asar ruhini anglash, bundan tashqari, uning yoshi estetik qoidalariga mos kelishi kerak. U tarjimonning metaforasini qo'llaydi, XVIII asrda tez-tez ko'rinib turadigan portretchi rassom, portretni asliyatga mos tarzda yaratadi deb ta'kidlaydi.

Misol tariqasida "Virgiliy"ning Drayden tarjimasi, asar zamonaviy qahramoni Didoning madaniyatli tilda so'zlagan nutqini yoritib berishga, uning Aena haqidagi fikrlarini tasvirlashga e'tibor qaratilgan: My dearest Anna! What new dreams affright My labouring soul! What visions of the night Disturb my quiet, and distract my breast With strange ideas of our Trojan guest.

Draydenning tarjima haqidagi qarashlariga Aleksandr Pop (1688-1744) ergashgan. U Drayden bilan hamfikir bo'lib, o'rta pog'ona tarafdori edi, u asliyatni anglash shakl va mazmunni saqlagan holda asar "joni (olov)"ni to'g'ri yetkazib berilishiga urg'u beradi<sup>1</sup>.

### 3.3. XVIII asr

Drayden va Popning tarjima konsepsiyalari negizida boshqa element, ya'ni aniqlik va tushirib qoldirish muammosi o'rasidagi tortishuvdan tashqari, tarjimonning o'quvchi oldidagi ma'naviy vazifasi haqidagi masala namoyon bo'ladi.

Matn ruhini bir xilda saqlab qolishga bo'lgan turtki, zamonaviy talablarga javob beradigan matn tili va ma'no uyg'unligini qayta yaratish talabi, keng miqiyosda ancha oldingi matnlarni qayta ko'chirishga sabab bo'ldi.

XVIII asr tarjimalaridagi muhim unsur har bir shaxsga o'zining individual atamasi va o'z doirasida munosib murojaat shakli o'ziga xoslik konsepsiyasi o'zgarishi bilan bog'liq.

Pope misol sifatida Homerning tarjimalariga ma'lum munosabatini quyidagi "*The Iliad*" asarining Chapman tarjimasidan bir lavha keltirib qiyoslaydi.

---

<sup>1</sup> Pope A. The Iliad of Homer. ed. Maynard Mack. – London: Methuen, 1967.

Asarda keltirilgan misollarni qiyoslaganda Pope Andramaxi azob chekib, tushkunlikka tushsa, Chapman Andramaxi esa o'z haq-huquqlarini himoya qilgan jangchi sifatida namoyon bo'ladi.

Chapmanning to'g'ri fe'llardan foydalanishi sahna asariga drammatik bo'yoq beradi. Ayni paytda Popning lotinlashtirilgan tarjimasida kutilayotgan o'lim sahnasidagi vahima hissi oson qabul qilishnishiga urg'u beriladi

Hattoki, qo'rquv sahnasi ham farqli ravishda taqdim etiladi. Popning "Xudo yarlaqagan Hektori" tasviri Chapmanning qahramon o'tinishi sahnasining uzoq tasvirlanishi bilan solishtiriladi.

She spoke; and furious, with distracted Pace,  
Fears in her Heart and Anguish in her Face,  
Flies through the Dome, (the maids her steps pursue)  
And mounts the walls, and sends around her view.  
Too soon her Eyes the killing Object found,  
The god-like Hector dragg'd along the ground.  
A sudden Darkness shades her swimming Eyes:  
She faints, she falls; her Breath, her colour flies. (Pope)  
Thus fury-like she went,

Two women, as she will'd, at hand; and made her quick ascent Up  
to the tower and press of men, her spirit in uproar. Round She cast her  
greedy eye, and saw her Hector slain, and bound T'Achilles chariot,  
manlessly dragg'd to the Grecian fleet,

Black night strook through her, under her trance took away her  
feet.

(Chapman)

XVIII asr tarjimon taqlidchi yoki rassom sifatidagi asliyat va kitobxon oldidagi m'anaviy burchi konsepti keng tarqalgan, biroq bir qancha muhim o'zgarishlarga uchragan badiiy asar o'zgartirilishi jarayonini tasniflaydi va tasvirlaydi.

Gyote (1749-1832) har qanday adabiyot, tarjimaning uch bosqichini bosib o'tishi lozim, garchi bosqichlar doimiy ravishda takrorlan-sa-da, yagona til tizimida bir paytning o'zida joy olishi mumkin, deydi.

Ilk davr "bizni bizning sharoitda xorijiy mamlakatlar bilan tanishtiradi". Bu yerda Gyote Lyuterning nemischa Injilidan bir parchani ushbu tendensiyaga misol tariqasida keltiradi. Ikkinchi bosqich shundan iboratki, so'zlarning o'zni almashtirilib o'zlashtiriladi, bu yerda

tarjimon xorijiy matnni o'ziga qabul qilib oladi va uni o'z atamlari bilan qayta ishlaydi. Bu yerda Gyote Vilandning fransuz tarjima an'alarini keltiradi (nemis nazariyotchilari tomonidan mazkur an'anaga past nazar bilan qaralgan). Uchinchi bosqichni u eng yuqori bosqich deb hisoblaydi. Bu asliyat va tarjima matni orasidagi umumiylikka erishishga harakat qiluvchi bosqichdir. Bunga erishish asliyatning yangi shakl va mazmun orasida yangi "manera"ni yaratish orqali amalga oshadi.

Gyote Homerni tarjima qilgan Voss ishiga iqtibos keltirib, uni yuqori darajaga erishgan tarjimon sifatida ta'riflaydi. Gyote tarjimadagi yangi orginallik konseptsiyasi bilan birga tarjimon chuqur universal stukturalar ko'rinishini bilishga intilishi kerak deb ta'kidlaydi. Bunday qarashning muammoli tomoni shundan iboratki, notarjimaviylik nazariyasi tomon xafvli yaqinlashib boradi.

XVIII asrning oxirlari, ya'ni 1791-yilda Aleksandr Freyzer Taytler ingliz tilidagi tarjima jarayonlarining ilk sistematik tadqiqiga doir bir tomli "*The Principles of Translation*" asarini nashr qildirdi. Tytler tomondan uchta asosiy tamoyil belgilab olindi:

1) tarjima orginal asar g'oyasining to'liq stenogrammasini aks ettirishi lozim;

2) tarjima shakl va mazmuni asliyat bilan bir xil xususiyatga ega bo'lishi lozim.

3) tarjima asliyat kabi to'liq erkinlikka ega bo'lishi kerak.

Taytler tarjima jarayoniga aniqlik kiritish uchun tushirib qoldirish yoki orttirish tarjimonning burchi deb hisoblasa-da, "parafraza" tushunchasi erkin tarjimalar ko'payib ketishiga olib kelishini ta'kidlab, Drayden<sup>1</sup>ning ta'sir xususiyatiga o'z munosabatini bildiradi.

U XVIII asr andozalari asosidagi tarjimon-rasson solishtirishidan foydalanadi, biroq farq shundaki, tarjimon asliyatdagi bir xil ranglardan foydalana olmaydi, shunga qaramay, uning tasvirida asliyatdagi ta'sir kuchi aks etishi talab qilinadi.

Tarjimon muallifning "qalbidagi eng nozik qirralarni his qila bilishi kerak", ya'ni muallif tilidan gapirish kerak.

Draydendan Taytlergacha bo'lgan tarjima nazariyasi san'at asarining muhim ruhi, qalbi va tabiatini qayta yaratish muammosi bilan bog'langan.

---

<sup>1</sup> Dryden J. The Aeneid, IV. – London: Oxford University Press, 1961. – p. 212.

Biroq formal struktura va o'ziga xos qalb o'rtasidagi ilgarigi dixonomik (qarama-qarshi g'oya orasidagi farq) ishonch yozuvchi sifatida oson qabul qilinadi. Davomiy ravishda ularning e'tiborini tasavvur nazariyasi muhokamasiga qaratadi. Oldingi fikrdan farqli o'laroq, ijodkorning ma'naviy vazifasi Kolorij tarjimini "noo'rin ko'chirish" ya'ni "tarjima yangi hayot emas, balki nusxa yaratish" deb tasvirlaydi.

### 3.4. Romantizm

Paul Van Tayhmning Yevropa romantizmi haqidagi katta Cherkovning namunali ishi "*Le romantisme dans la litterature europeenne* (Yevropa adabiyotidagi romantizm 1948)"da u mazkur yo'nalishga "une crise de la conscience europeenne (Yevropa vijdoning inqirozi)"deb ta'rif bergan.

Ratsionalizmni rad etish bilan vitalistik yo'nalish xususiyatlari, individual yozuvchining dunyoqarashlariga nisbatan metafizik va inqilobiy ideal sifatida e'tibor kuchaydi.

Individualizm tasdiqlanishi bilan erkin ijodiy harakat tasavvuri paydo bo'ldi va shoirni go'yo mistik yaratuvchi sifatida namoyon qiluvchi, she'riyatni yaratuvchi inson esa olamni qaytadan yarata olishi mumkin, degan fikrni Shelly "*The Defence of Poesy*" ("She'riyat himoyasi") (1820) asarida keltirib o'tadi.

Gyote estetik baholash iyerarxiyasi bosqichlari va tarjima turlari o'rtasidagi farq she'riyat va ijod rolini qayta baholash natijasidagi tarjimaga bo'lgan munosabatning o'zgarishini ko'rsatib berishda deb hisoblanadi.

Angliyada Kolorij (1772-1834) o'zining "Biographia Literaria" ("Adabiyot biografiyasi") (1817) asarida fantaziya va ijodiy tasavvur o'rtasidagi farq haqidagi nazariyasini bayon qilarkan, ijodiy tasavvur fantaziyaning jonsiz mexanizmidan farqli o'laroq eng yuqori va organik kuch deya tasdiqlaydi.

Mazkur nazariya nemis nazariyotchisi va tarjimoni Avgust Vilgelm Shleygl (1767-1845)ning 1813-yilda ingliz tiliga tarjima qilingan "*Vorlesungen uber dramatische Kunst und Literatur*" (Adabiyot va drama san'ati haqida ma'ruza)ma'ruzasida aytilgan mexanik va organik shakl muholifat nazariyasiga mos keladi. Har ikki ingliz va nemis tillari nazariyasida tarjimaga ijodiy yoki texnik faoliyat deb ta'rif berish kerakmi degan savol ko'tarildi.

Tarjima tabiati borasidagi yunon munozaralarida bir qator yirik yozuvchi va tarjimonlarning noaniq munosabatini ko'rish mumkin.

A.V.Shleygl tasdiqlashicha, og'zaki va yozma nutqning barcha shakllari tarjima hisoblanadi, chunki kommunikatsiyaning maqsadi qabul qilingan xabarni qayta kodlaydi va tarjima qiladi, shuningdek, xabarning asliyat shakli saqlanishi kerak (masalan, u Dantening she'r-lari tarjimasida asliyatdagi italyancha "tertsina" she'riy shaklini saqlab qolgan).

Unga qadar, Fridrix Shleygl (1772-1829) tarjimini til yoki adabiyot bilan bog'liq bo'lgan faoliyat sifatida emas, balki fikrlashning bir kategoriyasi sifatida keltiradi.

Yozuvchilar g'oyasi har doim Bleykning "har bir inson ichida yaratgan yashaydi," degan fikrni qayta qayta takrorlashdan iborat bo'lgan, natijada tarjimalarning ko'pida shu fikr takrorlanadi,

Shekspirning Shleygl-Tayk tarjimasi (1797-1833-yillar), "*Divina Commedia*" asari tarjimalarining Shleygl va Keri versiyasi (1805-14) va butun yevropa tillari bo'yicha zamonaviy faoliyat va ko'plab tanqid ishlari bo'yicha intertaffik tarjimalarga sababchi bo'lgan.

Shelly o'z ishi<sup>1</sup>da va Timotiy Uveb tarjimasida tarjimon rolining qanchalik noaniq ekanligini o'z ijodlarida ko'rsatib o'tishgan. Shelly va Medvinning ishlariga tayangan holda Uveb Shelly tarjimini quyi mavqedagi faoliyat sifatida ko'rganini xuddi intilishlar o'rtasidagi bo'shliqlarni to'ldirishdek ko'rsatadi va u uning g'oya sifatida hayratga sazovor ishlarini hamda shunday tarjima ishlarini adabiyot ne'matlariga almashtirgan. Bu almashinish muhim ahamiyatga ega, chunki ayrim ma'nolarda romantik estetika bo'yicha tuzilgan Gyote tarjimasi iyerarxiyasiga to'g'ri keladi. Eng muhimi formal tarjima jarayonidagi urg'uning oshishi bilan aralashib ketishi mumkin, tarjima qilinmaslik esa XIX asrning so'nggi tarjima natijasidagi texnik aniqlik va sinchkovlikka urg'u berilishiga olib keladi. Fikr tilning quyi qismida va o'rasida yotishi tarjimonlar uchun jumboqli vaziyatni keltirib chiqargan. Faqatgina ikki yo'l bu vaziyatdan olib chiqa olgan:

1) so'zma-so'z tarjimadan foydalanish, xabarni zudlik bilan tilga konsentratsiyalash;

---

<sup>1</sup> Shelley P. The Defence of Poesy, in Complete Works. – London: Ernest Benn, 1965. – pp. 109–43.

2) sun'iy tilni biron bir originallik orqali namoyon bo'ladigan matn orasida foydalanish.

### **3.5. Post-Romantizm**

Fridrix Shleyrmaxer (1768-1834) tarjima adabiyotida foydalanish uchun alohida til sub-hisoblarini taklif etdi, bu paytda esa Dante Gabriyel Rozetti (1828-1882) asliyat tili va shakllariga nisbatan tarjimon lagabardorlik qilishni e'lon qildi. Bu ikka taklif ham o'zida qiyinchiliklarni yengib o'tish imkonini mujassamlashtirgan, Shelly o'zining she'riyat himoyasida ifodalaganidek ogohlantirgan:

“Bu xuddi binafshani og'irlikka tashashdek bir gap, uning hidi va rangini aniqlash uchun qilayotgan harakatingiz yozuvchi ijodini bir tildan ikkinchi tilga o'girish uchun qilinayotgan harakatga o'xshaydi. O'simlik yana qayta urug'idan tortib gullashi kerak, aks holda u gulga aylanmaydi - bu esa Bobil la'nati deyiladi”.

Nyuman tarjimon asliyatdagi har bir o'ziga xoslikni saqlashi kerak, xorijiy til bo'lgani uchun yanada ehtiyot bo'lish kerak, deydi.

Vilyam Morris (1834-96) judayam ko'p matnlarni tarjima qilib ulgurgan. Oskar Uvayld Odissey haqida yozarkan: “Morris haqiqiy san'at mahsulini ifodalangan bo'lib, nafaqat bir tildan boshqa tilga, balki she'riyatni she'riyatdek ko'rsatib bera oldi” deydi.

Morrisning tarjimalari sezilarli darajada arxaik, unda tilning o'qib bo'lmas va tushunish qiyin bo'lgan o'ziga xosliklarga boy ekanligi nazarda tutilgan. Morrisning uslubini Ayneydning VI kitobi olingan quyidagi parchada, ko'rish mumkin:

Xudo, ey Palinure, shuning uchun seni tortib olib edi bizdan  
Sening do'stlaring va suv o'rtasida seni o'limga g'arq qilishgay  
Chiqib gapiring! Ko'rguvchi Apollon uchun hech bir aybsz  
payg'ambar topilmadi,  
shu javob bilan mening qalbimda sen emizgan umid yotar;  
Kim chuqurlikdan xavfsizlikda kuyladi va kengayib maydon  
sohasida va adolatli Ausonia: bu tarzda u o'zining bu so'zini ushlab  
qolur!

### **3.6. Viktoriya humkronligi davri**

Vaqt va joydagi yo'qotilgan asliyatni yetkazish zaruratiga Viktoriya hukmronligi davri tarjimonlari qiziqar edilar.

Shleyrmaxer-Karliyl-Old Rafayelitning tarjima konsepsiyasidan kelib chiqadigan tushuncha bir qiziqarli paradoks emas. Bir tomondan, asliyatga nisbatan xushomad bilan chegaradosh hurmat bor, lekin bu hurmat yozuvchi qadrining individual ishonchiga asoslanadi. Boshqacha aytganda, tarjimon intellektual, madaniy o'quvchilarga u o'zi axloqiy yoki estetik asoslar bo'yicha boy tajribani bo'lishgisi keladi. Bundan tashqari, original matn kolleksiyaga qo'shiladigan did borasida yon bosiladigan va zamonaviy vaqt umidlarisiz go'zallik, mulk sifatida qabul qilinadi. Boshqa tomondan, ozchilikning o'qishi uchun mo'ljallangan ongli arxaik tarjimalarni ishlab chiqarish bilan tarjimonlar bilvosita ideal universal savodxonligini rad etadi. Binobarin, intellektli o'quvchi tarqoq o'qishda ozchilikni tashkil etdi.

Matto Arnold (1822-68) Homer tarjimasi to'g'risida ilk ma'ruzasida o'quvchiga professional bo'lmagan olimlarga ishonch bildirishni maslahat beradi, chunki faqatgina ular tarjimani asliyat kabi ta'sirli yoki ta'sirli chiqmaganini ayta olishadi va tarjimonga quyidagi takliflarni beradi:

Tarjimonga emas, uning g'oyalariga ishonning, qadimiy yunonlar uni shunday o'ylashlari uchun u o'zini parchalanib yo'qotadi. Ingliz o'quvchilari bu haqda o'ylashlariga ishonishmasin, u so'qirlarni o'z boshqaruvi uchun qabul qiladi. U o'zi ishlari she'riyatni baholashni va yunonlarni biladiganlarga qanday ta'sir ko'rsatishini so'rasin.

Genri Vadzvorz Longfellov (1807-1881) tarjimonning roli haqidagi yana bir savolga Arnoldning qiyosi bo'yicha tarjimonning xususiyatlarini cheklab qo'ygan yana bir o'lchov birligini qo'ydi. Uning Dantening Divina Commedia tarjimasini muhokama qila turib, uning oq she'rini tarjima qilishdagi qarorini himoya qiladi, Longfellovning aytishicha:

“Mening kitobimning yagona xizmati shundaki, u aynan Dante aytganidek, tarjimon agar ingliz bo'lganida, o'zida tasavvur qilib ko'rgan bo'lardi. Boshqa so'zlar orqali u ritmga mos yaratgan bo'lsa, men uni ham xuddi shunday, she'riyatdagidek qilishga harakat qildim. Hayotning o'zi to'siq. Tarjimonning ishi muallif nimani nazarda tutganini tushuntirish, ya'ni sharhlovchi emas, balki nima deyayotganini yetkazishdir. Muallif nima va qanday gapirayotgani bu tarjimonning muammosidir.

Longfellovning tarjima haqidagi g'aroyib fikrlari haddan ziyod so'zma-so'z kelritirilgan. Uningcha, qofiya guldevor ustidagi gul che-

garasini kesishdek hayot yoki poema haqiqatidan mutloq farq qiladi. Tarjimon aniq vazifasi belgilab berilgan sharhlovchi ham, yozuvchi ham emas, texnik vazifasiga e'tibor qaratishi kerak.

Laqma burgutdan ko'ra jonli chumchuq yaxshi, deya mashhur tanbeh bergan inson Fitzgerald edi.

### 3.7. XX asr

Muhokama oxiriga yetkazilayotganda, qarashlar kesishgan joyda qaror qabul qilish uchun juda katta hajmdagi materialni qisqa muddat ichida to'plash har doim ham muammo bo'lib kelgan. Jorj Steyner 1946-yilda *Sous l'invocation de Saint Ieronim* (Avliyo Ieronimga iltijo) bo'yicha Valeriy Larbaud bilan tarjima tarixining ikkinchi davrini yakunlaydi. O'sha davrda Kohenning ingliz tarjimonlari va tarjimalarida Robert Grayvs va S.Dey Levislarning amaliy tarjimalari o'rtasida chalkashlik borligini aniqlashi natijasida kitobxonni 1950-yil eskizlariga olib boradi.

XX asrning birinchi yarmida tarjima nazariyasi va amaliyoti sohasida olib borilgan ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Viktoriya davri so'zma-so'z tarjima, arxaizm katta qismini egallagan. Ingliz tilidagi tadqiqotlar ustida olib borilgan ayrim izlanishlarni o'ganib chiqqan holda, Chexiya strukturalizmining ko'tarilishi va yangi tanqidlar tarjimini o'rganishda tilshunoslikni qo'llash, qisqacha aytganda, tarjima nazariyasi bo'yicha oxirgi ishini davom ettira olish uchun baza yaratish, aloqa nazariyasini rivojlantirish davri bilan bir paytda yozilganligiga ishonish qiyin.

Tarjima haqida qimmatli asarlarning barqaror o'sishi 1950-yilning oxiridan boshlandi deb qayd etiladi. XX asrning birinchi yarmida ingliz tarjima nazariyasi inglizlarga keraksiz edi, degan qarash noto'g'ri. Bu yerda buyuk individual tarjimonlar qo'rg'oni amaliy nuqtayi nazaridan yondashadigan masalalarga yaqin turadi. Ezra Poundning ishi tarjima tarixida katta ahamiyatga ega. Poundning tarjimon sifatidagi mahorati uning tanqidchiligi va nazariyasida namoyon bo'lgan edi. Hillari Bellokning 1931-yilda berilgan tarjima haqidagi "Taylorian" ma'ruzasi tarjimaning amaliy muammolari va matn tarjimasi maqomi degan butun bir so'roqqa qisqa, lekin juda aqlli va tizimli yondashuv edi. Jeyms MakFarleyning "Tarjima usullari" maqolasi (1953) ingliz tarjimashunosligining muhokama darajasini oshirgan va "G'arbda zamonaviy, fanlararo ko'rinishidagi tarjimalar va

tarjima bilan shug'ullanish, shuningdek, olimlarning tadqiqot obyekti sifatida tadqiqot dasturi tuzishdagi birinchi nashr" deya ta'kidlangan.

Bu qisqa ta'rifga ko'ra, tarjimaning turli tushunchalar turli vaqtlarda ustuvorlik qilishi, tarjimoning vazifasi va roli tubdan o'zgarganligini aniq ko'rish mumkin. Bunday o'zgarishlar tushunchasi madaniyat tarixi sohasi hisoblanadi, lekin tarjima jarayonidagi tarjima konsepsiyasi o'zgarishiga ta'siri tadqiqotchilarni uzoq vaqt o'ylantirib keladi. Jorj Shteynerning tarjima tarixida yetarlicha o'ziga xos ko'rinish olgan bo'lib, jismoniy shaxslar tomonidan pragmatik hisob ko'p bo'lsa-da, bir qator nazariy g'oyalar hamon kichik bo'lib qoladi, deb hisoblaydi.

Sank Jerom, Lyuter Dreyden, Holderlin, Novalis, Shleyrmaker, Nitshe, Ezra Funt, Valeriy, Makenna, Frans Rozensveyg, Valter Benyamin, Kyunesiz kabi olimlar tarjimaga oid fundamental fikr bildirgan tadqiqotchilardir.

Lekin Steynerning tarjimoni mavjud bir narsaning soyasi deya ta'riflagan Larbaudning post-romantik nuqtayi nazari cherkov eshigi oldida turadigan tilanchi ta'rifiga o'xshaydi va tarjima jarayonining ichki aspektlari bo'lgan tarjimon, kitobxon, matn, muallifi qatoridagi iyerarxiya tushunchasi bilan o'zaro umumiylik kasb etadi. Tarjimadagi ustuvor munosabat va tarjimoni tushunish yaratuvchining yoshi va o'sha yoshga bog'liq shakllanadigan va aniqlanadigan ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq.

XIX asrda bosma kitoblar keng tarqalgan. Mariya Kortining ta'kidlashicha, muallif o'z kitoblarini boshqa ko'ra olmagan, chunki uning kitoblari yashirincha tarqatilgan yoki ijtimoiy guruhlar va sinflar orasida qisqartirilgan edi. Tarjimon uchun bu xuddi ko'rish qobiliyatidan ayrilishdek gap edi.

Shuning uchun tarjima tadqiqotlari tarixiga tadqiqotning muhim turlaridan biri deb qarash talab etiladi, lekin juda ham chuqurlashish kerak emas. Gadda<sup>1</sup>ning tizimga bergan ta'rifi tarjima tadqiqotlari diaxronikasiga muvofiq keladi va boshlangan ishning murakkabligi va hajmi jihatidan namuna sifatida xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> Gadda C. In meditazione milanese. –Turin: Einaudi, 1974. – p. 229.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Jon Drayden tarjima muammolarini qanday hal etish kerakligini aytadi?
2. XVIII asr tarjimalarining o‘ziga xos tomoni nimada edi?
3. Qaysi davr tarjimalarida so‘zma-so‘z tarjima va arxaizm ustunlik qilardi?
4. Gyotening tarjima haqidagi fikrlariga mulohaza bildiring.

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Homer tarjimalari to‘g‘risidama’lumot to‘plang.
2. Uyg‘onish davri tarjimalari haqida taqdimot tayyorlang.

### **Asosiy adabiyot**

1. Bassnett S. Translation Studies. Taylor & Francis Group. – London and New York, 2002.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

2. Coleridge S. On Poesy and Art. Biographia Literaria, II. – Oxford: Clarendon Press, 1907.
3. Morris W. The Aeneid VI. – Boston: Roberts Bros., 1876. – p. 146.
4. Pope A. The Iliad of Homer, ed. Maynard Mack. – London: Methuen, 1967.
5. Shelley P. The Defence of Poesy, in Complete Works, V. – London: Ernest Benn, 1965, pp. 109–43.
6. Tytler’s work followed closely after the publication in 1789 of George Campbell’s The Four Gospels, of which Vol. I contains a study of the theory and history of translations of the Scriptures. Tytler’s Essay appears with a useful introductory article by J.F. Huntsman in Amsterdam Classics in Linguistics vol. 13 – Amsterdam: John Benjamins B.V., 1978.

## 4-MA'RUZA

### BADIY TARJIMANING O'ZIGA XOS MUAMMOLARI

#### Reja:

1. Nazm va tarjima
2. Nasriy tarjima
3. Dramatik matnlar tarjimasi

**Tayanch soʻz va iboralar:** *sheʼriyat va tarjima, nasriy trjima, dramatik matnlar tarjimasi, tarjima va tanqidiy matn, taqlid*

#### 4.1. Nazm va tarjima

Badiiy tarjima sohasida xohlagan barcha adabiy usulga qaraganda sheʼriyat tarjimasi muammosini oʻrganib chiqishga koʻp muddat sarf qilinadi.

Koʻplab izlanishlardan, ularning yakkaxon ishlari yoki shaxsiy muammolarini oʻrganish koʻzda tutilgan.

Matn tarjima qilishda davrlarda vaqtdan uzoqlashsa eng katta muammodir, bu shoirning balki uning zamonfoshlarini, shuningdek, sheʼr mazmunining halokatini ham anglatar edi.

Maykl Rifater<sup>1</sup> oʻzining “Sheʼriyat semiotikasi” kitobida kitobxongina matn va sharhlovchi oʻrtasidagi bogʻlanishni hosil qilishini taʼkidlaydi va quyidaga ishora qiladi:


“Kitobxonning sheʼr mazmunini ishlab chiqishi sheʼrlararo emas, baʼlki ogʻzaki assotsatsiyani kuchayishida. Bunga esa sheʼr matniga ikki alomat – nogrammatik mimikalar va grammatik mazmun tarmoqlariga muhtojdir.”

U ayni shu ikkilanishdan sheʼr yozishni talab etadi. Nihoyasiz ravonlik sheʼrga yaqinlashadi va uning kitoblari boshida bu qatlam maʼnosi bir necha bor oʻqilgandagina oʻz aksini topadi.

Tarjima va tanqidiy talqin oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni koʻrsatish uchun:

---

<sup>1</sup> Rifaterre M. Semiotics of Poetry. – Bloomington and London: Indiana University Press, 1978. – p. 166.



She'riy tarjima talqin turlari va taqlid turlari nuqtalari kesishgan o'qda joylashgan. Bundan tashqari, tarjimon berilgan matning "yangi" turlarini yaratishda davom etadi va bunda asosiy maqsad "mukammal" tarjimaga yetish bo'lmaydi, chunki har bir oldingi ko'rinish ma'no jihatdan bog'langan bo'lib, tarjima o'zining davri uchun o'qish imkoniyatini yengillashtiradi va bundan tashqari, tarjimaning o'zi ham shaxsiy hisoblanadi. Morrisning "Homer" asari yoki "Biovulf" asari ikkalasi ham o'ziga xos, chunki ular Morrisning arxaik shaklga va tilga nisbatan prioritetlari va majburiyatlaridan kelib chiqishadi, ular Viktoriya davriga mansub. Tekst va metatekstning katta farqi shundaki, ulardan biri vaqt va joy bilan mahkamlangan, boshqasi esa o'zgaruvchan. Faqatgina bitta "Ilohiy komediya" bor, ammo son-sanoqsiz sharhlar va nazariyada yana son-sanoqsiz tarjimalar bor.

Ungarettining ijodiga e'tibor qilaylik<sup>1</sup>:

Vallone, 20 April 1917

Un'altra notte,  
In quest'oscuro  
colle mani  
gelate  
distinguo  
il mio viso  
Mi vedo  
abbandonato nell'infinito

Ungarettiga xos ravishda, she'ning fazoviy tuzilishi, butun strukturaning muhim ichki qismi bo'lib, shoirning o'ziga hos grammatik

<sup>1</sup> Bassnett S. Translation Studies. Taylor & Francis Group. – London and New York, 2002.

tizimini hosil qolish uchun og‘zaki tizim bilan kesishadi. So‘ng, tarjimon uchun, manb’a tili matnning fazoviy tuzilishi hisobga olinishi kerak, ammo pastdagi ikki versiyadan ba’zi o‘zgarishlar joy olganligi aniq ko‘rinib turibdi.

|                                                                                                                                   |                                                                                                                                        |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| A) In this dark<br>with frozen hands<br>I make out<br>my face<br><br>I see myself<br>adrift in infinite space<br>(Patrick Creagh) | B) In this dark<br>with hands<br>frozen<br>I make out<br>my face<br>I see myself<br>abandoned in the infinitive<br>(Charles Tomlinson) |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

A versiyada faqatgina olti qator bor, asl matnda va B versiyada esa yetti qator va buning sababi, ingliz sintaksisining 1.2 da atayin ravishda tartibga solinishidir. Lekin B versiya, “*frozen*” sifatini va unga parallel ravishda “*gelate*”ni saqlab qolish maqsadida tarjima tili sintaksisini buzadi. Ammo bunday sintaksis buzilishidan maqsad ital-yan qoydalarini ingliz tili strukturasida qo‘llashdan kelib chiqqan qaror tufaylidir va asl matnga nisbatan so‘zlar ketma-ketligi (sintaksis)ga butunlay boshqacha ta’sir ko‘rsatadi. Holbuki, asl matning kuchi - so‘z tartibining muntazamliligidan, ammo inglizcha matn g‘alatilikka (tartibsizlikka) moyildir.

Angaretti she’rining ikkala tarjimasi ham asl matnga xos vizual strukturani yasashga harakat qilgan, lekin ingliz va italyan sintaksisi (so‘z tartibi) o‘rtasidagi farq kattalik qilgan.

## 4.2. Nasriy tarjima

She’riyat tarjimasini qamrab olgan muammolarni mushohada qilingan ishlar ko‘p bo‘lishiga qaramay, nasrning badiiy tarjimasidagi ma’lum bir muammolarni o‘rganishga ancha kam vaqt sarflangan.

Misol uchun, tarjimon butun boshli tuzilish sifatida mazmunga urg‘u beradi. Quyidagi parchani ko‘ramiz: “Sehrli tog‘lar”ning muqaddimasida kamtar yosh yigit yozning qoq o‘rtasida uch oylik tash-rifi bilan tog‘ga, u ona shahri Gamburgdan Grinsonning Kantonidagi Davoz-Platzga sayohat qiladi. Gamburgdan Davosgacha o‘ta uzoq bo‘lgan sayohat, haqiqatdan yashashga juda qisqa muddat. Bunda bar-cha turdagi mamlakatni kesib o‘tadi, vodiylarga tushadi, tepaliklarga

chiqadi. Janubiy Germaniya yassi tog‘idan Konstansiya ko‘ligacha tushadi. Chegarasiz chuqurlilar va poyonsiz to‘lqinlarni kesib o‘tadi (tarjimon H.T.Lov-Porter).

Bu tezkor, serg‘ayrat qator to‘rtta fe‘lli uchta gapdan iborat harakat va holat o‘quvchini hikoya ichiga tortadi. Ish yuzasidan uyushtirilgan sayohat va yosh yigitning sayohati davomidagi qisqagina tashrif. Qisqa qilib aytganda, kuchli tasviriy kirish, kuchli mualliflik ishtiroki.

Bu tarjima muammosi uni nemis matni bilan qarama-qarshi qo‘yilganda va manba tili va tarjima tili versiyasi o‘rtasidagi farq o‘lchovini taqqoslaganda yuzaga keladi.

Ein einfacher junger Mensch reiste im Hochsommer von Hamburg, seiner Vaterstadt, nach Davos-Platz im Graubündischen. Er fuhr auf Besuch für drei Wochen. Von Hamburg bis dorthinauf, das ist aber eine weite Reise; zu weit eigentlich im Verhältnis zu einem so kurzen Aufenthalt. Es geht durch mehrerer Herren Länder, bergauf and bergab, von der süddeutschen Hochebene hinunter zum Gestade des Schwäbischen Meeres und zu Schiff über seine springende Wellen hin, dahin über Schlünde, die früher für unergründlich galten.

Bu kirish qismining tarjimasida kitobxonga asarda keng ishlatilgan ko‘plab kalit so‘zlar berilgan. Bu, albatta, chegaralar bilan cheklanmagan, realistik dunyo tomonidan yuklangan, sog‘lik va xastalik, hayot va o‘lim, demokratiya va reaksiya, dramatik qarama-qarshiliklar o‘rtasidagi ideologik janglarni tasvirlagan.

Ketti Aleksandrning “Ishchi arilar muhabbati” nomli tarjimasida quyidagi so‘zlar bor (eslatma): Ruslarda birinchi nom (ism), patronim (sharif) va familiya bo‘ladi. Umimiy qabul qilingan usul – ism+otasi-ning ismi, shunday qilib, Vasilitsa Dementyevna, Mariya Semenovna. Ismlarning mayinlik (nafislik), hurmat yoki do‘stona xarakterga ega bo‘lgan qiqartmalari mavjud. Masalan Vasilisa – Vasya, Vasyuk; Vladimir – Volodya, Volodka, Volodechka, Volya. Shunday qilib, tarjimon iloji boricha Rossiyaning belgilangan tizimini tushuntirib beradi, ammo bu eslatma aniq hisoblash jarayoni vaqtida juda katta yordam beradi. Keti Porger nomlarning tarjima tili variantidagi o‘zgarishlarni saqlaydi va ingliz kitobxonini vaqt o‘tgan sayin hayratlanarli nomlar-ga duch keladi. Manba tili tizimi tarjima tili tizimini o‘zgartiradi

bu esa natijada faqatgina tartibsizlik hamda o'qish jarayonini qiyinlashishiga olib keladi. Bundan tashqari, Boris Uspenskiy ham o'zining qimmatli "tarkib poetikasi" kitobida rus tilidagi nomlarning tasavvur bilan bog'liq belgilarini ko'rsatib bergan.

Tarjima vaqtida, tarjimon uchun tizim emas, balki belgilash tizimining vazifasi juda muhim. Bu esa ingliz kitobxoni uchun unchalik foyda bermaydi. Inglizcha belgilash tizimi butunlay boshqacha, tarjimon juda e'tiborli bo'lishi kerak. Robert Adams<sup>1</sup> aytganidek, Parij London yoki Nyu-York bo'lolmaydi, Parij bo'lishi shart. Bizning qahramonimiz ham Piter emas, Pirr bo'lishi shart; u kokteyl emas aperativ ichishi kerak va Kents emas, Galoyzes chekishi kerak. Boshqa tarafdin, agar Lediga maftun bo'lib, Madam deb murojaat qilsang, nodonliging shundoqqina bilinib qoladi. Ekvivalentlik muhokamasida o'xshashlik tushunchasi manba tili va tarjima tili o'rtasida o'z qiymatini yo'qotgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun tarjimon avval manba tili tizimining vazifasini aniqlab olib, keyin aynan o'sha vazifani bajardigan tarjima tili tizimini topishi kerak.

#### **4.3. Dramatik matnlar tarjimasi**

Hozircha, janrlar ichida eng katta e'tibor qaratilayotgani bu nazm tajimasidir, teatr tashlab qo'yilgan sohalardan biri bo'lib qolgan. Dramatik matnlar maxsus muammolariga doir tarjima materiallari juda kam va yakkaxon teatr tarjimonlarini tasdiqlashda ko'pincha tarjima jarayonida qatnashuvchi metodologiya tushuniladi. Dramatik matnlarga doir savollarni shunchaki yuzaki ko'rib chiqilganda ham, bu tarjima nasriy matn tarjimasidan ancha farq qiladi. Avvaliga teatr matni boshqacha o'qilgan. Biroz to'liqsiz, sababi shu ish bilan shug'ullanuvchilar uchun tushunarli bo'lgan va bu tarjimonga markaziy muammoni ko'rsatib bergan: matnni adabiy matn kabi tarjima qilish kerakmi yoki boshqa bir qiyinroq tizimning vazifasini bajaruvchi element sifatida ko'rib chiqish kerakmi.

Teatr semiotikasidagi ishlar ko'rsatganidek, lingvistik tizim – bu faqat bitta qo'shimcha komponent bo'lib, bu o'z ichiga ajoyibotlarni

---

<sup>1</sup> Adams R. Proteus, His Lies, His Truth: Discussions on Literary Translation . – New York: W.H.Norton, 1973. A highly idiosyncratic book, but which contains some useful examples of specific problems of literary translation.

olgan, hayratlanarli bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tizimlar qatoridir.

Masalan, Enni Ubersfild ko‘rsatib berganidek, matnni ishdan ajratib bo‘lmaydi, sabab teatr ikkovining o‘rtasidagi dialektik munosabatlardan tshkil topadi va bundan ko‘rinib turibdiki, ikkisining o‘rtasida tuzilgan sun’iy farq yanada balandroq mavqega ega bo‘lgan badiiy matnga aylantiradi.

Dialog va ekstralingvistik holat o‘rtasidagi munosabatlar shaxsiy va o‘zaro hisoblanadi. Aksar hollarda vaziyat dialogni uning predmeti bilan ta’minlaydi. O‘z navbatida, dialog vaziyatning progress holatini ta’minlab, tez-tez o‘zgaradi va hatto uni qayta yangilaydi ham.

Robert Korrigan: “Tarjimon doimo ovozni olishi shart, bu esa tilning imo-ishorasini e’tiborga olish demakdir” deydi. Intonatsiya ritmi va pauza kabilar yozma matn og‘zaki bo‘lganda sodir bo‘ladi. Bu holatda, u Piter Bogatiryovning teatral suhbat tushunchasiga yaqindir. Bogatiryov o‘zining to‘liq tajribasidan kelib chiqib, teatrdagi lingvistik tizim vazifasini muhokama qilar ekan, shuni ma’lum qiladiki, teatrdagi lingvistik ta’riflar – faqatgina suhbat uchun emas, balki boshqa xususiyatlardan tashkil topgan xususiyatlar tuzilishidir. Masalan: aktyor ishoralari bilan kuzatilib, uning libosi, manzara bilan yakunlanadi. Lekin agar teatr tarjimoni o‘yinga yaroqli boshqa bir holatga duch kelsa, qandaydir boshqa bir matnni tarjimondan aniq so‘rashadi. Bundan tashqari, yozma mantnga qo‘shimcha o‘lchov tushunchasi orqali tarjimon matn g‘oyasi va asar, yozma hamda ko‘rik o‘rtasidagi farqni darrov anglab olishi shart.

Ingliz tarjimalari orqali nazar tashlaydigan bo‘lsak, punktning mavjud matnlari alohida tarjima qilingan deyish mumkin (masalan, Jon Masfild talqinidagi Ester va Berenis) yoki butun asarlarni qism sifatida (masalan, R.B.Bosvel, birinchi tarjimon Rasiyaniyan). Bu farq shuni ko‘rsatadiki, ba’zi bir ishlar aql bilan, qolganlari esa aniq tushunchasiz tarjima qilingan.

Teatr tarjimasining qiyinchiligi tanqidlar ko‘payishiga olib keldi. Ingliz tarjimonlari uch satrlarni quyidagicha ko‘rib chiqishdi:

Men Seraminga borishga qaror qildim (Jon Kemkross).

Yo‘q, yo‘q, mening do‘stim biz birga emasmis (Robert Lovel).

Yo‘q, yo‘q men qilolmayman. Men qanday qilib qolishim mumkin (Toni Harrison)<sup>1</sup>.

Har uchchala variant ham Gippolitning ketishini tarjima qilmoqda, ammo birinchi ikkitasida Gippolit va Seramin o‘rtasidagi munosabat haqida, uchinchisida bu yo‘q. Uslubiy darajada birinchi va uchinchi variantlar odatiy tajribada kelib chiqib, fransuz Aleksandr she‘rini oq she‘rga tarjima qila turib klassik teatrga mos keladigan til tizimlariga ega bo‘ladi. Lekin teatr terminlariga, faqat ikki va uchinchi variantgina matn jestikulatsiyasini tarjima qilgan, bu esa aktyorning jismoniy jestlarini aniqlab beradi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Nazmdagi tarjima qiyinchiliklari asosan nimalarda aks etadi?
2. Robert Adams fikrini izohlashga urinib ko‘ring.
3. Nima uchun dramatik asar tarjimalari kamroq qilingan?

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Ingliz tilida yozilgan to‘rt qator she‘rni o‘zbek tiliga o‘girmasini qiling va uni izohlang.
2. Badiiy tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari haqida referat tayyorlang.

### **Asosiy adabiyot**

1. Bassnett S. Translation Studies. Taylor & Francis Group. – London and New York, 2002.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

2. Adams R. Proteus, His Lies, His Truth. – New York: W.W.Norton, 1973. – p. 12.
3. Ingarden R. The Literary Work of Art. – Evanston: The Northwestern University Press, 1973.
4. Kollontai A. Love of Worker Bees, tr. Cathy Porter. –London: Virago, 1977. – p. 226.
5. Rifaterre M. Semiotics of Poetry. –Bloomington and London: Indiana University Press, 1978. – p. 166.

---

<sup>1</sup> Bassnett S. Translation Studies. Taylor & Francis Group. – London and New York, 2002.

## II BO‘LIM. SHARQ TARJIMA TARIXI

### 5-MA‘RUZA

#### ARAB VA FORS-TOJIK TILLARIDAN TARJIMA QILINGAN ASARLAR

##### Reja:

1. Tarjimachilik ishining keksa namoyandalari
2. XII-XVI asrlarda yaratilgan tarjima asarlari
3. XVII-XVIII asrlardagi tarjimalar
4. “Shohnoma” dostonining tarjimalari
5. “Kalila va Dimna” asarining tarjimalari
6. XIX asr va XX asrning boshlarida arab, fors-tojik tilidan tarjima qilingan asarlar
7. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida buxoro, toshkent va farg‘onada arab va fors-tojik tillaridan qilingan tarjimalar

**Tayanch so‘z va iboralar:** *tarjima tarixi, so‘g‘d yozuvi, arab yozuvi, qo‘lyozma, shayboniylar, ashtarxoniylar, tarjima maktabi, “Shohnoma” dostoni, “Kalila va Dimna”, fors-tojik tili*

##### 5.1. Arab va fors-tojik tillaridan tarjima qilingan asarlar

Tarjima tarixi juda qadim zamonlardan boshlanadi. O‘sha davrlardan buyon turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar bir-birlari bilan muomala qilganlarida tarjimon (tilmoch) orqali ish bitirganlar. Savdo-sotiq ishlarida, diplomatik munosabatlar va madaniy aloqalarda hamma vaqt tarjimaga zarurat tug‘ilgan. Xalqlar o‘z tarjimonlariga katta hurmat bilan qaraganlar. Ularning nomlari tarix sahifalarida yozilib qolgan.

O‘rta Osiyo xalqlarining madaniyati ham qadimdan boshlanadi. Arablar istilosiga qadar ham O‘rta Osiyoda yashab ijod qilgan olim va yozuvchilar o‘zlaridan keyin boy ilmiy va adabiy meros qoldirganlar. Ular orasida ko‘pgina tarjima asarlarining mavjud bo‘lganligi haqiqat. Ammo mamlakat arablar istilosi ostida ekan, bu asarlar islom diniga qarshi deb yondirib yuborilgan. VII asrda Iroq, Suriya, Falastin, Eronni bosib olgan arab istilochilari Marv, Xorazm, Buxoro va Samarqandni qo‘lga kiritadilar. Dastlab islom dini O‘rta Osiyo xalqlariga qabul qildiriladi. Qadimgi Xorazm, so‘g‘d yozuvlari o‘rniga arab yozuvi joriy qilinadi. Madrasalarda arab tilini o‘rganish majburiy qilib

qo'yiladi. Arab istilochilari turk va fors tillarini bilgan tarjimonlardan turkiy xalqlar bilan arablarni bir-biriga bog'lovchi vosita sifatida foydalanadilar. Islom dini mamlakatda hukmron din, arab yozuvi yagona yozuv, arab tili esa adabiy til bo'lib qoldi. Olim va shoirlar arab tilida kitoblar yoza boshlaydilar. Arablar istilosi davrida eng ko'p tarjima qilingan asarlar tarixiy-badiiy janrda yaratilgan kitoblar bo'lib, ularni ko'pincha adib, shoirlar tarjima qilar edilar. Bir necha asrlar davomida O'rta Osiyoda arab xalifaligi hukmronligi hakm suradi. IX asrning boshlaridayoq O'rta Osiyoda mustaqil feodal davlatlar tuziladi. Tohiriyalar sulolasi boshlanadi. Bu sulola 873-yilda yakson etilgan edi. Uning o'rniga Somoniylar sulolasi boshlanadi. 874-yilda Ismoil Somoniy hukmron bo'ladi. U tarqoq feodal hukumatlar qarshiligini bostiradi va ularni birlashtirib, yirik davlat tuzadi. Somoniylar davrida adabiyot, san'at, madaniy hayot rivoj topadi. Katta-katta olimlar, tarixchilar yetishib chiqadi. Forobiy, ibn Sino, Beruniy kabi olimlar o'z asarlarini arab tilida yozadilar. 359-yilda vafot etgan olim Abu Bakr Muhammad bin Ja'fariy Narshaxiy Buxoro tarixiga "Tahqiqul-viloyat" (O'lkani o'rganish) asarini yozdi. Asar fors tiliga, keyingi davrlarda rus tiliga ham tarjima qilingan.

Eng qadimiy asarlardan biri 922-yilda vafot etgan Abu Ja'far Muhammad bin Jarir Tabariyning "Tarixi Tabariy" nomli bir necha tomli asari bo'lib, 963-yilda Buxoroda somoniy amirlari saroyida vazir bo'lgan Mir Abu Ali bin Muhammad Bal'amiy asarni tojikchaga qisqartirib tarjima qilgan. Keyinchalik asar boshqa tillarga tarjima qilingan. "O'zbekiston tarixi"da Tabariy va Bal'amiy haqida shunday so'zlarni o'qiymiz: "Somoniyalar saroyida tarix va geografiyaga katta e'tibor qaratilgan. Movarounnahrda tarix va geografiyaga oid ko'p sonli asarlar qiziqib o'qilgan. Ma'daniy, Balozuriy, Tabariy, ibn Miskaviy va boshqalar o'sha davrning mashhur tarixchilari edi.

Tabariyning asari XVIII asrda o'zbek tilining qashg'ariy lahjasida tarjima qilingan. Tarjimonning shaxsi noma'lum, ammo uning aytishicha, asar Yorkand hokimi Mirza Muhammad Husayn Hakimbek amri bilan tarjima qilingan (inv. №2470. SVRning V tom, 18-b. qarang). Bal'amiy tarjimasini Xiva xoni Muhammadrahim II (Feruz)ning amri bilan mashhur tarixchi va shoir Muhammad Yusuf Bobojon o'g'li Bayoniy 1882-yilda o'zbekchaga tarjima qila boshlagan. Bu tarjimaning qo'lyozmasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda (inv. № 1229). Tabariy asari Bal'amiy tarjimasini orqali bir necha tilga tarji-

ma qilinganligi bu kitobning naqadar mashhur ekanligini ko'rsatadi. Tarjima jarayonida asarga bir qancha qo'shimcha kiritilib, hajmi ham ancha kengaytirilgan.

## **5.2. Tarjimachilik ishining keksa namoyandalari**

Ulug' mutafakkir olimlar Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariylar qadimgi madaniyatimizni boyitishda katta xizmat qilgan birinchi tarjimonlarimizdir. Ular jahon faniga, matematika, astronomiya, falsafa, tabiiyot, tilshunoslik bilimlariga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlari kabi, tarjimachilik ishlarida ham katta ishlar qilganlar. O'z asarlarini arab tilida yozgan bu siymolar bir qancha asarlarni yunon, hind, fors tillariga ham tarjima qilganlar.

O'rta Osiyoning mashhur faylasufi Forobiyning (873-950) zakovati, iste'dodi, ayniqsa diqqatga sazovordir. U bir necha sharq tili, jumladan, arab tilini o'z ona tilidek bilgan, yunon falsafasini o'rganishga to'g'ri kelganda yunon tilini ham o'rgangani tarixdan ma'lum.

Forobiy yunon olimlarining asarlarini asl nusxasini o'qib, ularning ko'piga, masalan, Aristotelning "Metafizika", "Fizika", "Meteorologiya" sig va mantiq sohasidagi asarlarga, yunon mualliflarining etika, psixologiya va tabiatshunoslik to'g'risidagi kitoblaridan Ptolemey kabilarning traktatlariga sharhlar yozgan. Ayrim zarur kitoblarni yunonchadan arab tiliga tarjima qilgan". O'z davrining fan arboblari orasida Forobiyga Aristoteldan so'nggi "Al muallimus-soniy" ("ikkinchi muallim") degan yuksak baho berilgan.

Ulug' mutafakkir, butun dunyoda dong taratgan mashhur tabib, faylasuf va tilshunos olim Abu Ali ibn Sino o'zining tarjimai holida yunon falsafasini Forobiydan o'rganganini qayd etadi. U mantiq, tabiiyot, riyoziyot (matematika) va jo'g'rofiya ilmlarini egallagan, so'ngra "Mo ba'dat tabiat" [(Tabiatdan tashqari bo'lgan narsalar ("Metafizika"))] kitobini o'qiy boshlagan. Biroq u dastlab kitobni o'qib tushuna olmagan. Abu Ali ibn Sino bu murakkab kitobni qirq bir marta qayta o'qigach, hatto yod olgan. Shunday bo'lsada, u muallifning asl maqsadiga tushunib yetmagan. Nihoyat, bu tushunib bo'lmaydigan kitob ekan, deb umidini uzgan. Ana shundan keyingi tafsilotlarni Ibn Sino shunday hikoya qiladi: "Kunlardan bir kun asr vaqtida kitobfurushlarning oldiga borib qoldim. Unda bir dallol qo'liga muqovalangan bir kitobni tutib, uni maqtardi. U meni ham chaqirib, kitobni ko'rsatdi... Men bu ilmni bilishning foydasi yo'q, degan xayolda (menga malol

kelib) rad qildim. Dallol menga “Bu kitobni mendan olgin, buning narxi arzon – uch dirhamga sotaman; egasi buning puliga muhtoj”, – dedi. Men uni sotib oldim. Qarasam, bu Abu Nasr Forobiyning “Metafizika” (Aristotelning “Metafizika”siga Forobiyning yozgan sharhi–J.Sh.) kitobi haqida yozgan asari ekan. Uyga qaytib, darrov uni o‘qishga tushdim. [“Metafizika”] dilimda yod bo‘lib qolgani sabab o‘sha paytdayoq kitobning maqsadi menga ochildi. Bundan juda xursand bo‘lib ketdim. Ulug‘ tangriga shukr qilib, o‘sha kunning ertasigayoq ancha narsa sadaqa qildim”. Bundan ko‘rinadiki, Forobiy Aristotel kitobiga sharh yozar ekan, asarning nozik tomonlarini to‘g‘ri tarjima qilib bergan. Yunon tilini yaxshi bilgan Forobiy uning boyligini arab tilida ham namoyon qildi va shu bilan birga, arab tilida ham chuqur falsafiy asarlarni yaxshi tarjima qilish mumkinligini ko‘rsatgan. Arab tilini ona tilidek bilgan, yunon tilidan tarjima qilgan Forobiy fors tilida badiiy jihatdan yuksak falsafiy ruboiylar yozgan.

Somoniylar davrida yashab ijod etgan **Abu Ali ibn Sino** (980-1037) Buxoroning Afshona qishlog‘ida tug‘ildi. U yoshlik yillaridayoq arab tilini o‘rganib, o‘zining tibbiy, ilmiy kitoblarini asosan shu tilda yozdi, she‘rlarini esa fors tilida ijod qildi. Besh tomdan iborat “Alqonun fi-t-tib” (“Tib qonunlari”) nomli asari va tibbiyotga oid boshqa kitoblari olimni jahonga mashhur qildi. Bu monumental asar Yevropada XV asrda lotin tilida o‘n olti marta, XVI asrda esa yigirma martadan ko‘proq nashr etildi. “Tib qonunlari” Yevropaning boshqa tillariga ham tarjima qilingan. Ibn Sino Yevropada Avitsenna degan nom bilan dong taratdi. U Xorazmda bo‘lganida Beruniy bilan tanishib, do‘stlashdi.

Uning “Ash-shifo” nomli asari lotin tiliga ham tarjima qilinib, Yevropada darslik sifatida o‘qitilardi. Ibn Sinoning 300 ga yaqin ilmiy asari bizning zamonamizgacha yetib kelgan. U Sharq mamlakatlari-ning ko‘p joylarida bo‘ldi, arab, fors va turkiy xalqlar tilida bimalol gaplashar, unga tarjimon kerak emas edi. Bu esa tabib kishi uchun ulug‘ fazilat edi. Abu Ali ibn Sinoning zamondoshi, birga ishlagan buyuk olim **Abu Rayhon Beruniy** (973–1048) Xorazmda tug‘ilib, Abu Ali ibn Sinodan 11 yildan keyin vafot etgan. Beruniy davrida Xorazmda madaniyat yuksalgan va u yerda Sharqning mashhur olimlari to‘planib, ilm-madaniyatni yuksaltirishga o‘z hissalarini qo‘shishgan. Beruniy favqulodda iste’dod egasi bo‘lgan. Yoshligidanoq arab, fors tillarini mukammal o‘rganib olgan Beruniy tez orada ko‘zga

ko‘ringan olim sifatida taniladi. U “O‘tmish avlodlarining yodgorliklari” nomli asarini arab tilida yozgan.

Beruniy “Hindiston” degan mashhur kitobini yozish uchun hind tilini o‘rgandi. U kitobni arab tilida yozar ekan, hindcha yozilgan kitoblardan foydalanadi, hind tilidan ko‘pgina materiallarni tarjima qiladi. O‘zining yuksak iqtidori bilan hammani qoyil qoldirgan, hozirga qadar avlodlariga ulug‘ ibrat bo‘lgan Beruniy hind tili, hind tarixi, hind fan-madaniyatini o‘rganishdagi qiyinchiliklarni yengib, hind madaniyati mutaxassisi bo‘lganini yozadi.

Sanskrit (hind tili)ni yaxshi bilgan Beruniy u tilning xususiyatlarini har tomonlama ko‘rsatib berdi. “Bu til (hind tili – J.Sh.) arabchaga o‘xshash uzun va kengdir. Bu tilda bir narsa bir qancha yasama so‘zlar bilan ataladi yoki ko‘p narsalarga birgina ism beriladiki, alohida aniqlovchi sifatlarsiz so‘zning ma’nosini aniqlab bo‘lmaydi. Faqat so‘zning borishidan xabardor, gapning oldi-ketini tekshirib boruvchi kishigina tushuna oladi. Holbuki, bu xususiyat tilda kamchilikdir. So‘ng bu tilda deyarli ahamiyatsiz so‘zlar ham ko‘p. Shu bilan birga, sarf qoidalariga muvofiq so‘z yasashda fasihlik holatlari barobarida nahvning nozik nuqtalariga javob beruvchi, ilmiy va badiiy talablarni qondiruvchi so‘zlar ham mavjud.

Beruniy til masalalariga ham katta e’tibor bilan qaragan. Ayniqsa, bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish ishidagi qiyinchiliklarni har taraflama ko‘rsatib bergan. Hind tilini o‘z ona tili kabi bilish uchun Beruniy bir qancha tekst va asarlarni tarjima qilib, zo‘r qunt bilan mashq qilgan. Turli janrlarga oid 150ga yaqin asar yozgan olimning hind va boshqa tillardan qilgan tarjimalari talaygina. Lekin, baxtga qarshi, ularning ko‘plari bizgacha yetib kelmagan.

Beruniy matematika va astronomiyaga taalluqli juda ko‘p kitoblarni tarjima qilgani haqida ma’lumot beradi. Bundan tashqari, u hind faylasuflarining asarlar to‘plamlarini ham ag‘daradi. “Men ilgari arab tiliga ikki kitobni tarjima qilgan edim, uning biri “Sankhya” nomli kitob bo‘lib, unda olamning ibtidosi va yaratilishi haqida tasnif beriladi, ikkinchisi esa jonning jismdan ozod bo‘lishi haqida yozilgan “Patanjala” nomi bilan mashhur bo‘lgan kitobdir” (60-bet).

Beruniy arab, hind, fors tillaridan tashqari yunon va suriya tillarini ham bilgan. Ulug‘ olim o‘zi tarjima qilgan asarlariga katta mas’uliyat bilan qarab, ularning to‘g‘ri va aniq bo‘lishiga ahamiyat bergan. Beru-

niy tomonidan hindchadan arabchaga tarjima qilingan va hozircha fan olamiga ma'lum bo'lgan asarlari quyidagilardir:

Khandakhadyaka ("Al Arkanda jadvali");  
Brahmasiddihonta (matematikaga oid kitob);  
Ikkita Balian butparasti haqida hikoya;  
Barohamihira;  
Nilufar haqida hikoya;  
Kapayara (kasallar haqida yozilgan kitob);  
Sankhya (falsafaga oid kitob);  
Patanjala (falsafaga oid kitob).

Beruniy hind hikoyalari to'plami "Kalila va Dimna" asarining tarjimasidagi xato-nuqsonlarni aytar ekan, o'zi shu asarni qayta tarjima qilishga orzumand ekanligini bildiradi:

"Bizda "Kalila va Dimna" nomi bilan mashhur bo'lgan "Pancha tantra" kitobini tarjima qilishni juda ham istar edim. U Abdulloh al Muqaffa kabi, asarni buzmay tarjima qilishlariga inonib bo'lmaydigan kishilar tomonidan hind tilidan forschaga, so'ngra fors tilidan arabchaga o'girilgan. Ibn Muqaffa diniy e'tiqodi mustahkam bo'lmagan kishilar orasida shubha tug'dirib, ularni manixeizm ta'limotiga ishonishga moyil qilish maqsadida Barzuy haqidagi bobni asarga qo'shgan; bino-barin, uning qo'shgan narsalari qanchalik shubha tug'dirsa, uning tarjimasi ham shunday shubhadan holi emas" (166-bet).

Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning zamondoshi, XI asrning atoqli lingvist olimi **Mahmud Qoshg'ariy**ni ham ilk tarjimonlarimizdan biri deb ayta olamiz.

Asrlar aro yodgor bo'lib qolgan bebaho uch tomlik "**Devonu lug'oti-t turk**" ("Turkiy so'zlar devoni") Mahmud Qoshg'ariyning ulug' iste'dodidan dalolat beradi. Bunday ajoyib asarni bino qilar ekan, u juda ko'p turkiy so'zlarni arabchaga o'girib, ularning nozik tomonlarini ustalik bilan talqin qilib berdi. Har bir leksikograf olim, o'z yo'li bilan, kuchli tarjimon hamdir. Zotan, lug'at tuzuvchi kishi bir necha tilni mukammal bilgan bo'lishi kerak. Turkiy so'zlar devonini arab tilida yozgan M.Qoshgariy siymosida buni yaqqol ko'ramiz.

"Men, – deb yozadi Mahmud Qoshg'ariy – turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirqqizlar (qirg'izlar)ning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar davomida kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har

bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim, bo'lmasa, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislari, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar va qirg'iz qabilalarining tillari butunlay tilimga jo bo'ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim"<sup>1</sup>. Bundan to'qqiz yuz yil ilgarigi turkiy so'zlarni, maqol, matal, she'r parchalarini birinchi marta arabchaga o'girib, ularni keng izohlab bergan olim Mahmud Qoshg'ariy fors tilini ham juda yaxshi bilar edi. "Devonu lug'otit turk" asarini turkshunos olim S.M.Mutallibov arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib nashrga tayyorlagan. U Mahmud Qoshg'ariyning o'z davrining eng yuksak ma'naviyatli olimi va fozil kishisi bo'lganligi, arab tili va adabiyoti bilan birga fors adabiyotini ham mukammal bilganligi haqida xabar beradi ("Devonu lug'oti-t turk" asarining o'zbekcha tarjimasidagi S.Mutallibov so'zboshisi).

XII asrda yashab ijod etgan, Xorazmning Zamaxshar qish-log'ida tug'ilgan buyuk olim **Mahmud Zamaxshariy** O'rta Osiyo xalqlari ichida o'z zamonida birinchi bo'lib arabcha-forscha lug'at tuzgan kishidir. Bu olimning to'la ismi Abulqosim Mahmud bin Umar Zamaxshariy bo'lib, o'z zamonasida "faxri Xorazm" (Xorazmning faxri, shon-shuhrati) degan nom chiqargan. Zamaxshariy "**Muqaddimatul-adab**" (Nafis so'zlarga muqaddima) degan arabcha va forschaga lug'at tuzdi. Bu lug'at hozir O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi (inv. № 429). Zamaxshariy kitobida arab so'zlarini forschaga tarjima qilib, ularga sharh va izohlar beradi, arab tili grammatikasining asoslarini tushuntirib, tahlil qiladi. "Muqaddimatul-adab" kitobi bir necha tillarga tarjima qilinib, muallifi mashhur olim sifatida jahonga mashhur bo'ldi. Qizig'i shundaki, bu kitob XIII asrdayoq o'zbek tiliga tarjima qilinib, arabcha-tojikcha-o'zbekcha lug'at tarzida maydonga chiqdi (inv. № 2699).

Zamaxshariy haqida o'zbek kitobxonlariga to'la ma'lumot bergan kishi prof. Fitrat bo'ldi. U "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 1926-yil 7-8-sonlarida bosilib chiqqan "Muqaddimatul-adab" degan maqolasida shunday deb yozadi: "Muqaddimatul-adab" Zamaxshariy (Abulqosim Mahmud bin Umar az-Zamaxshariy, hijriy 538-yilda vafot et-

---

<sup>1</sup> Кошғарий М. Девону луғоти-т турк. 1-том –Тошкент: Ўз ФА нашриёти, 1960. –Б.44.

gan) tomonidan yozilgan arab lugʻati boʻlib, arab olimlari orasida juda katta eʼtibor topgan bir kitobdir.

Zamaxshariyning oʻzi kitobning bosh qismida shunday yozgan: “Abul Muzaffar Otsiz ibn Xorazmshohning amri bilan, uning boy kutubxonasi uchun shu kitobni yozib, uning oti bilan atadim” deydi. Demak, bu kitobning asl oti “Lugʻoti Xorazmshohiy” boʻlsa ham ilm egalari orasida “Muqaddimatul-adab” deb shuhrat chiqargan”.

### **5.3. XII-XIV asrlarda yaratilgan tarjima asarlari**

Somoniylar hokimiyati qancha kuchli boʻlmasin, ularning hukmronligi Yettisuv hududidagi turk qabilalariga yetmas edi. Oʻsha zaminda, Qashqardan tortib Isfijob (hozirgi Chimkent shahri)ga qadar boʻlgan hududda Qoraxoniylar davlati tashkil topdi. Qoraxoniylarning birinchi xoni Bugʻroxon 992-yilda yurish qilib, Shosh (Toshkent), Fargʻona, Buxoro va Movarounnahrning boshqa yerlarini bosib oldi. Janglardan talofat koʻrgan somoniylar davlati yemirilib, 1001-yilga borib uning oʻrnida ikki davlat tashkil topdi: “Biri – Qashqardan Amudaryogacha choʻzilgan Sharqiy Turkistonning bir qismini, Yettisuv, Shosh, Fargʻona va Qadimgi Soʻgʻd hududini ham oʻz ichiga olgan qoraxoniylar davlati boʻlsa, ikkinchisi – Shimoliy Hindiston chegarasidan Kaspiy dengizining janubiy qirgʻoqlarigacha choʻzilgan hozirgi Afgʻoniston va Shimoliy-Sharqiy Eron viloyatlarini ham oʻz ichiga olgan Gʻaznaviylar davlati edi”<sup>1</sup>. Qoraxoniylar davlati davrida yaratilgan eng katta ilmiy yodgorliklardan biri Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” (“Baxtli boʻlish toʻgʻrisida bilim”) asari boʻlib, u 1069-yilda yozilgan. “Qutadgʻu bilig” didaktiv tipdagi asar boʻlib, ham lingvistik, ham tarixiy jihatdan katta ahamiyatga ega.

**Yusuf Xos Hojib** Bolasagʻun (hozirgi Qirgʻizistonga qarashli Toʻqmoq) shahrida tugʻilib oʻsdi, bir necha tilni oʻrganib, zamonasi-ning madaniyatli, dono olimlaridan biri sifatida tanildi. Yusuf Xos Hojibning asari qadimgi oʻzbek tili va adabiyoti tarixida katta rol oʻynagani kabi, tarjima tarixini oʻrganishda muhim ahamiyatga ega.

Qoraxoniylar davrida Narshahiyning Buxoro tarixiga oid asarini 1128-yilda Abu Nosir al Quvayi tarjima qildi.

Saljuqiylar davrida yozilgan “Nasihatul-muluk” (Podshohlarga nasihat) asari fors tilidan arabchaga tarjima qilindi (inv. № 533). Bu

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон тарихи. 1-жилд, 1-китоб. –Б. 272.

asar saljuqiy sulton Muhammad bin Malikshohga atab yozilgan bo'lib, kitob muallifi 505/1111-yilda vafot etgan Abu Homid Muhammad bin Muhammad al G'azzoliy edi. G'azzoliy nasihatlar yozib, ularni badiiy yo'sinda, turli latifalar, hikoyalar orqali o'quvchiga yetkazib berdi. Keyinchalik "Nasihatul-muluk" asari o'zbek tiliga ham tarjima qilingan (inv. № 7099, 8393).

XII asrning boshlarida Sharqdan qoraxitoylar degan istilochilar kelib, saljuqiy va qoraxoniylarga qarshi hujum boshladilar. Ular 1138-yilda Samarqanddan Mahmudni haydab, 1141-yilda saljuqiylarning so'nggi sultoni Sanjarni tormor qildilar. 1172-yilda qoraxitoylar Xorazmni egalladilar. Lekin bu uzoqqa bormadi. Xorazmshohlar sulolasi kuchayib ketdi. Otsizning nabirasi Tekish davrida Xorazm hududi ikki baravarga kengaydi. Sharqiy Eron, Iroq ham Xorazmshohga qarar edi. Muhammad Xorazmshoh 1210-yilda qoraxitoylarni tor-mor qildi. Movarounnahr ham unga vassal bo'ldi. Muhammad Xorazmshoh o'zini "Ikkinchi Iskandar" laqabi bilan atadi. Bu davrda tarjima qilingan kitoblar haqida aniq ma'lumot yo'q.

Chingizxon O'rta Osiyoga hujumni 1219-yilda boshlagan. Og'ir janglardan keyin u O'torni zabt etdi. 1220-yilda Buxoroga hujum qilib, bosib oldi. Eron tarixchisi, o'sha davrning jonli guvohi Juzjoniyning so'ziga qaraganda, Chingizxon Buxoroni talagach, odamlarni o'ldirib, uylar, masjidnlarni yoqqan, kitoblarni gulxanga tashlagan. 1221-yilga borib Chingizxon Urganchni<sup>1</sup> qamal qilgan<sup>2</sup>. Xalq yovga qarshi qahramonlarcha kurashdi, ammo olti oy qamalda yotgan shahar xalqi kuchli istilochilarga bardosh bera olmadi. Shahar butkul kuyib kul bo'ldi. Odamlar qirg'in qilinib, yosh bolalar mo'g'ullarga qul qilib berildi. Shunday fojiali yong'in, ur-yiqit paytida biror kitob qolishining o'zi mo'jiza edi. O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston xalqlari chet el bosqinchilari zulmida ingradi. Xalq bosqinchilarga qarshi qo'zg'olon ko'tarsa ham (1238-yildagi Torobiy qo'zg'oloni), tezda, ayovsiz ravishda bostirilar edi. Butun bir yuz yil mobaynida biror adabiy asarlar, jumladan tarjima asarlar ham vujudga kelmadi.

**Qutb Xorazmiy.** Xorazmlik shoir Qutb 1340-yilda Nizomiy Ganjaviyning "Xisrav va Shirin" asarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

---

<sup>1</sup> Ko'hna Urganchni – J.Sh.

<sup>2</sup> Фуломов Я., Набиев Р.Н., Вахобов М.Ф. Ўзбекистон тарихи (бир жилдлик). –Тошкент: Ўзбекистон ФА нашриёти, 1958. –Б. 158.

Qutbning bu tarjima asari X asrdan XI asrgacha bo'lgan badiiy tarjima asarlari ichida eng fundamental va eng yuksak badiiy mahorat bilan tarjima qilingan birdan-bir asardir. Bu badiiy tarjima davrida juda katta ijobiy rol o'ynadi va o'zbek xalqining badiiy tarjima sohasidagi durdona asari sifatida mashhur bo'ldi. Tarjima tarixi yozilar ekan, Qutb Xorazmiy nomi alohida tilga olinib, zo'r faxr bilan eslanadi. U ulug' shoir Nizomiy Ganjaviyning asarini o'zbek tiliga tarjima qilar ekan, o'zbek tilining qudratini ko'rsata oldi.

“Xisrav va Shirin” tarjimasining qo'lyozmasi Parijda Milliy kutubxonada saqlanadi. Bu asarning fotokopiyasi Navoiy qo'mitasi tashabbusi bilan Parijdan keltirilgan. 1940-yilda uni Navoiy qo'mitasining xodimi, taniqli adabiyotshunos olim Hodi Zarifov nashrga tayyorlagan va tahrir qilgan, ammo asar urush boshlanishi bilan nashrga chiqmasdan qolgan.

**Nizomiy Ganjaviy** (1141-1203) ozarboyjon xalqining ulug' shoiri bo'libgina qolmay, dunyo adabiyoti xazinasiga kirgan ulug' siymolardan biri edi. U kuchli iste'dodga ega bo'lib, o'z zamonasining ilg'or fikrlarini talqin qilgan mutafakkir, donishmand va muarrix edi.

Nizomiy Ganjaviy (Ozarboyjonning Ganja shahrida tug'ilganligi uchun Ganjaviy nomi bilan mashhur bo'lgan) devon tartib berdi va “Xamsa”ni yozdi. “Xamsa”ning ichiga besh doston: “Maxzanul-asror” (Sirlar xazinasasi), “Xisrav va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Haft paykar” (Yetti go'zal) va “Iskandarnoma”, ya'ni besh xazina kiradi. Uning ijodi fors-tojik adabiyotiga, turkiy xalqlarning, jumladan o'zbek xalqining adabiyotiga va hatto hind adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. U yaratgan “Xamsa” xalqlar dilidan joy oldi. Shunday qilib, Nizomiy “Xamsa” yaratish an'anasini boshlab berdi.

XX asrning 20-yillariga qadar Nizomiyning uch dostoni o'zbek tiliga tarjima qilingan: “Xisrav va Shirin” (Qutb Xorazmiy tarjimasi), “Maxzanul-asror” (Haydar Xorazmiy tarjimasi) va “Haft paykar” (Ogahiy tarjimasi). Uchala shoir-tarjimon ham Xorazmdan chiqqan. Ularning har biri o'zbek xalqiga ozarboyjon xalqining o'lmas adabiy yodgorligini tuhfa qilib qoldirdi va bu bilan buyuk shoirga bo'lgan samimiy hurmatni izhor qildi.

Uchala shoir-tarjimon ham Nizomiy Ganjaviy asarlarini o'zbek tiliga o'girar ekan, har qaysisi dostonga kirish so'zi yozadi. Unda genial shoirga bo'lgan muhabbat, hurmatlar izhor qilinib, orzu-umidlari bayon qiladi, doston nima uchun tarjima qilinayotgani sababi aytiladi.

Qutb Xorazmiy Nizomiyning “Xisrav va Shirin” asarini qaysi qo‘lyozmadan tarjima qilganini yozmaydi. Ma’lumki, Nizomiy “Xisrav va Shirin” asarini 1180-yilda yozgan, Qutb esa 1340-yilda tarjima qilgan. Demak, u 160 yildan keyin Nizomiy asarini tarjima qila boshlagan. Bu yillar ichida Nizomiyning asarini bir qancha kotiblar ko‘chirgan, har qaysi qo‘lyozmaga ma’lum o‘zgarishlar kiritilgan. (Bu hol Navoiy asarlarida ham mavjud ekanini bilamiz).

Qutb Xorazmiy tarjimasining naqadar aniq va to‘g‘riligi haqida tasavvur hosil qilish uchun dostonning «Munozarai Xisrav bo Farhod» bobidan bir parcha olib, chog‘ishtiramiz.

### ***Munozarai Xisrav bo Farhod***

*Naxustin bor guftash: k-az kuchoi?*

*Biguft: az dori mulki oshnoi.*

*Biguft: oncho ba san’at dar chi ko’shand?*

*Biguft: anduh xarandu chon furo’shand.*

*Biguft: chon furo’shi dar adab nest,*

*Biguft: az ishqbozon in achab nest.*

*Biguft: az dil shudi oshiq bad inson?*

*Biguft: az dil tu meguy, man az chon.*

### **Qutb Xorazmiy tarjimasi:**

*Burun so’rdi: ne yerlik san tiyu san?*

*Ayittikim: oshiqlar shahridan man.*

*Ayitti: anda ne san’at qilurlar?*

*Ayitti: jon sotib, qazg’u olurlar.*

***Ayitti: jonni sotmoqliq xato ul,***

***Ayitti: ishq yo’linda ham ravo ul.***

*Ayitti: kertimu oshiq erursan?*

*Ayitti: bor ko’zung oxir, ko’rursan.*

Bu yuksak badiiy ehtiros bilan yozilgan dialog o‘zbek tilida ham fors tilidagi kabi jaranglaydi. Bu yerda ishlatilgan “ayitti”, “ayittikim” so‘zlari ketma-ket takror qilinsa ham kitobxonni va tinglovchini zeriktirmaydi, aksincha, hayajonga soladi. Bular forschadagi “biguft”, “bigufto” so‘zlarining aynan tarjimasi bo‘libgina qolmasdan, she’rga ko‘tarinki ruh berishda muhim stilistik funksiyani bajaradi.

Atoqli tarjimon Sayf Saroyi klassik fors shoiri Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asarini to‘la tarjima qildi. Bu asar 8 bobdan iborat. Birinchi bob – “Podshohlarning xislati” (“Dar sifati podshohon”); ikkinchi bob – “Darveshlarning axloqi” (“Dar axloqi darveshon”); uchinchi bob – “Qanoatning yaxshiligi” (“Dar fazilati qanoat”); to‘rtinchi bob – “Xomushlikning foydasi” (“Dar favoidi xomushi”); beshinchi bob – “Ishq va yoshlik” (“Dar ishq, va chavony”); oltinchi bob – “Notavonlik va qarilik” (“Dar: za’f va piri”); yettinchi bob – “Tarbiyaning ta’siri” (“Dar ta’siri tarbiat”); sakkizinchi bob – “Suhbat Odobi” (“Dar odobi suhbat”). Bu boblar bir necha kichik-kichik hikoyalarga bo‘linadi. Hikoyalar o‘z ichiga she’r yoki hikmatli so‘zlarni oladi. Sa’diy bular orqali tarbiyaviy, didaktik fikrlarni badiiy yo‘sinda beradi. Tarjimon Sayf Saroyi ham hamma boblarni va deyarli barcha hikoyat, she’rlarni ag‘dargan. Lekin u tarjimada boblar nomini ko‘rsatmaydi.

1954-yilda Anqarada “Seyfi Serayi”, “Gulistan tercümesi” asari bosilib, u bosh so‘zdan tashqari 373 betni tashkil qiladi. Bosh so‘zni prof. Feridün Nafiz yozgan, Anqarada chiqqan bu kitobda Sayf Saroyi tarjimasining qo‘lyozmasi haqida bir qancha ma’lumot beriladi, lekin ular yetarli emas. Sayf Saroyi tarjima qilgan “Guliston” dostonining qo‘lyozmasi Gollandiyadagi Layden kutubxonasida saqlanmoqda. O‘sha qo‘lyozmadan olingan foto nusxa Til va adabiyot ilmiy tekshirish, institutida mavjud. Foto nusxaning sifati yaxshi emas, uning ko‘p betlari yoyilib ketgan, o‘qish uchun katta qiyinchilik tug‘diradi.

Biz “Guliston”ning Sayf Saroyi tomonidan bajarilgan tarjimasini Moskvadagi FA Sharqshunoslik instituti tomonidan 1959-yilda nashr qilingan “Gulistoni Sa’diy”ga solishtirib chiqdik.

#### **5.4. XV asrda tarjima qilingan asarlar**

XV asr adabiyot tarixida ham, shuningdek, badiiy tarjima tarixida ham alohida o‘rinni ishg‘ol qiladi. Bu davrning madaniy hayoti o‘zbek xalqining iftixori Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning ya-

ratgan asarlari o‘zbek adabiyoti xazinasining durdonalari bo‘libgina qolmay, dunyo adabiyotining ham bebaho boyligidir. Navoiy ko‘p original asarlar yaratish bilan birga, bir qancha asarni tarjima qilgan.

**Haydar Xorazmiy.** XV asrning boshlarida (1409-yilda), ajoyib shoir-tarjimon Haydar Xorazmiy Nizomiyni “Maxzanul-asror” nomli asarini tarjima qila boshlagan va uni 1414-yillar o‘rtasida tamomlagan. Bu she’riy, falsafiy asarning har tomonlama murakkabligi tarjima qilish uchun juda katta qiyinchiliklar tug‘dirgan. Shunga qaramay, qiyinchiliklarni yenga olgan Haydar Xorazmiy o‘zbek xalqi uchun katta va ajoyib madaniy yodgorlik qoldirdi. Uning qachon tug‘ilgani va vafot etgani haqida ma’lumot yo‘q. Xorazmiyning ijodi to‘g‘risida yozilgan biron ilmiy asarni uchratmadik. Uning nomi bilan bog‘liq bo‘lgan, bizgacha yetib kelgan birdan-bir asar “Maxzanul-asror”ning tarjimasidir. Bu asarning asl qo‘lyozma nusxasi Britaniyada saqlanadi; qo‘lyozma 1508-1509-yilda ko‘chirilgan; Britaniyada saqlanayotgan qo‘lyozmaning foto nusxasi hozir Til va adabiyot ilmiy tekshirish instituti fondida mavjud.

“Maxzanul-asror”ning o‘zbekcha tarjimasi nodir asar bo‘lib qoldiki, uning tanqidiy matnini nashr qilish maqsadga muvofiqdir.

Haydar Xorazmiy haqidagi ilk ma’lumotni Navoiy o‘zining “Majolisun-nafois” asarida bergan. U shunday deb yozadi: “Mavlono Haydar turkigo‘y, aning (Sulton Iskandar Sheroziyning – J.Sh.) maddohi ekandurkim, bu aning masnaviysidindurkim:

*“Himmat elidur Yadi bayzo degan,  
Er nafasidur dami Iso degan”*<sup>1</sup>

Alisher Navoiy Haydar Xorazmiyni Atoiy, Sakkokiy kabi zabardast shoirlar bilan tenglashtiradi va u haqda “Muhokamatul-lug‘atayn”da shunday yozadi: “To mulk, arab va sart salotinidin turk xonlarig‘a intiqol topti, Hulokuxon zamonidan sultoni sohibqiron Temur Ko‘ragon zamonidin farzandi xalafi Shohruh sultonning zamonining oxirigacha turk tili bila shuaro paydo bo‘ldilar. Va ul hazratning avlod va ahfodidin ham xushtab’ salotin zuhurg‘a keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Ga-

---

<sup>1</sup>Алишер Навоий. Маҷолисун нафоис (Нафис мажлислар). С.Ғаниева нашрга тайёрлаган илмий-танқидий матн. – Тошкент, Ўз ФА нашриёти, 1961. –Б. 198.

doyideklar”<sup>1</sup>. Bas ma’lum bo’ladiki, Haydar Xorazmiy o’zbek adabiy tilini yuksaltiruvchi “xushtab” shoirlardan biri bo’lgan.

Haydar Xorazmiy Nizomiyni “Maxzanul-asror” asarini tarjima qilgani haqida so’z yuritar ekan, o’zini Qutb Xorazmiy kabi kamtar tutadi va ulug’ shoirga hurmat bilan qarab shuni bayon etadi:

*Tashna sifat bo’ldum ayog’ida past,  
Jur’asidin qildi dimog’imni mast* (10-bet).

Haydar Xorazmiy noyob asarni tarjima qilar ekan, ozarbayjon xalqining dilini o’zbek xalqi dili bilan payvand qildi.

**Mavlono Lutfiy** Sharafiddin Ali Yazdiyning tarixiy dalillarga asoslanib yozilgan va Amir Temur tarixini o’rganishda birdan-bir qimmatli asar bo’lgan “Zafarnoma”ning juda ko’p baytlarini fors tilidan tarjima qilgan (“Zafarnoma” muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy ham tarixchi, ham olim, ham shoir bo’lgan. Uning haqida Alisher Navoiy o’zining “Majolisun-nafois” asarida qiziq ma’lumotlar bera-di). “Zafarnoma” asarining baytlarini Lutfiy tarjima qilganligi haqida Navoiy shunday deb yozadi: “Va mavlono (Lutfiy – J.Sh.)ning “Zafarnoma” tarjimasida o’n ming baytdin ortuqroq masnaviysi bor”. Suyima G’aniyev nashrga tayyorlagan “Majolisun-nafois”ning ilmiy-tanqidiy matnida Lutfiy tarjima qilgan baytlar soni ikki ming deb xato ko’rsatilgan (O’sha kitob, 34-bet).

**Alisher Navoiy.** O’zbek xalqining buyuk shoiri, dunyo adabiyoti-ning ulug’ siymosi Alisher Navoiy qadim o’zbek adabiy tilining yara-tuvchisi, har ikki tilda she’r yozuvchi – ikki til egasi “zullisonayn” no-mini olgan genial mutafakkir edi. Navoiy o’zining juda kup olamshu-mul asarlari bilan mashhur. Bular: “**Xazoyinul-maoniyy**” (Asar to’rt devonni o’z ichiga olgan), “**Xamsa**” (besh doston: “Hayratul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy”), “**Mahbubul qulub**”, “**Majolisun-nafois**”, “**Mezonul-avzon**”, “**Muhokamatul-lug’atayn**” va b. Navoiy fors tilida katta bir devon tuzdi, u fors tilida Foniyy taxallusi bilan she’rlar yozar edi. Uning ba’zi asarlari o’z zamonasidayoq boshqa tillarga tarjima qilindi.

Navoiy asarlarining boshqa tillarga tarjimasi katta ilmiy tadqiqot ishini talab qiladi. Genial shoir, olim, mutafakkir, muarrix Navoiy mo-hir tarjimon ham edi. U fors-tojik adabiyoti namoyondasi Abdurah-mon Jomiyning “Nafahotul-uns” (Yoqimli shabada) degan eng yirik

---

<sup>1</sup> Alisher Navai. Muhokamatul-lugatajn. Uz. Goslitizdat. –Tashkent, 1940. –B.38.

asarini, “Chil hadis” (Qirq hadis) va “Nazmul-javohir” (Javharlar tizmasi) nomli kitobni forschadan o‘zbekchaga tarjima qildi. Bundan tashqari, Farididdin Attorning “Mantiqut-tayr” asaridan ayrim hikoyalarni tarjima qilib, o‘zi ham bir qancha hikoyalar yozib, unga “Lisonut-tayr” degan nom berdi.

XX asrning 20-yillariga qadar Navoiy tarjima qilgan “Qirq hadis”ning bir qancha qo‘lyozmalari va litografik nashrlari bor. Qo‘limizda bu asarning ma‘lum bir tanqidiy matni bo‘lmagani uchun Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan qo‘lyozmadan (inv. № 9762) foydalandik. Jomiy arab tilidan forschaga ag‘dargan “Qirq hadis”ni Navoiy o‘zbek tiliga tarjima qilganini aytib, o‘zining ustози va do‘stiga tahsin va tashakkur bildiradi va bu asarni qachon tarjima qilgani haqida muqaddimada yozadi:

*Chun safo ahli pok far Jomiy,  
Pok farjomu pok farjomi.  
Ul yaqin sori dastgir manga,  
Qiblau ustodu piyr manga,  
Ki tutubdur jahonni tasnifi,  
Nazm devonu nasr ta’lifi...*

Qo‘lyozmada sahifa boshida arab tilidagi matn, pastda esa o‘zbekcha tarjimasi beriladi. Litografiya yo‘li bilan nashr qilingan nusxada (inv. №5536) esa boshda arabcha matni, o‘ng tomonda Jomiyning forscha tarjimasi, chap tomonda Navoiyning o‘zbekcha tarjimasi berilgan. Bu nusxada Jomiyning kirish so‘zi (fors tilida) va Navoiyning muqaddimasi bosilgan. Navoiy Jomiyning “Nafahotul-uns min xazirotil-quds” (Pok huzurlardan do‘stlik hidlari) kitobini bir qancha o‘zgarishlar bilan tarjima qilib, unga “Nasoimul-muhabbat min shamoyimil-futuvvat” (“Muhabbat shabadasi”) deb nom qo‘ygan. Qo‘lyozma Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda (inv.№ 857). Atoqli navoiyshunos Olim Sharafiddinov o‘zining “Alisher Navoiy” degan asarida ham shunday fikrni ilgari surgan edi.

Navoiyning o‘zi “Lisonut-tayr” asarini Farididdin Attorning “Mantiqut-tayr” kitobining tarjimasi deb hisoblaydi. Lekin ba’zi bir olimlar buni e’tirof qilmay, uni butunlay original asar tarzida tekshirib, Navoiyning tarjima qilgan hikoyalarini uqtirib o‘tmaydilar.

### 5.5. XVI asrda tarjima qilingan asarlar

XV asr oxiri va XVI asr boshlarida shayboniylar sulolasi davri boshlanadi. Shayboniylar Shaybon ulusidan bo'lib, ba'zan ularni "dashti qipchoqliklar" deb ham ataydi. Yoyiq (Ural) daryosidan Sharqda Sirdaryo bo'ylarigacha cho'zilgan yerlarda barpo bo'lgan ulus "shaybon" deb atalardi. Bu ulus ko'chmanchi o'zbeklar edi.

Shayboniyning maqsadi faqat qozoq xonligiga zarba berishgina bo'lmay, butun O'rta Osiyoni o'z qo'li ostiga olish edi. Shu maqsadda Shayboniy o'zining sharqiy qo'shnisi – Mo'g'uliston bilan harbiy ittifoq tuzadi va 1480-yilda qozoq xonligi tepasiga chiqqan Burunduqqa zarba bera boshlaydi. XV asrning 90-yillarida Shayboniixon Dash-ti Qipchoqning Janubiy qismlarini, Quyi Sirdaryo havzasidagi O'tror, Sayram, Yassi (Turkiston) va boshqa shaharlarni bosib oladi. Shayboniixon 1499-yilda Movarounnahr-ga o'tlanadi. Mayda-mayda temuriy davlatlariga bo'linib ketgan Movarounnahr kuchli Shayboniy lashkarlari oldida qarshilik ko'rsata olmaydi. Shayboniixon 1500-yilda Samarqandni oladi. Bobur Shayboniyga qarshi yurish qilib, Samarqandni qayta qo'lga kiritadi, lekin Shayboniy 1501-yilda yana hujum boshlab, Bobur qo'shinlarini shahardan siqib chiqaradi. Shayboniy lashkarlari 1504-yilda Xorazmni, 1507-yilda Hirotni ishg'ol qiladi, Xuroson, Ozarboyjon, Bag'dodgacha bo'lgan yerlar qo'lga o'tadi.

Bobur 1511-yilda shoh Ismoil-dan ko'mak olib, Movarounnahr-ga hujum boshlaydi, ammo u ma'lum muvaffaqiyatlarga erishsa ham, shayboniylardan Ubaydulla (Shayboniyning jiyani) 1513 yilda unga va eron askarlariga qattiq zarba beradi. Oqibatda Bobur Kobulga qochib borib, u yerda katta askar to'playdi va Hindistonga hujum qiladi. Bobur 1525-yillardan boshlab Shimoliy Hindistonni o'ziga qaratib oladi. Bobur tuzgan davlat "Buyuk mo'g'ullar" imperiyasi nomi bilan atalib, to XIX asrgacha yashab kelgan.

Ubaydullaxon ham shoir va tarjimon edi, u arab va fors tillarini o'zining ona tiliday bilardi. U uch tilda: o'zbek, fors va arab tillarida she'rlar yozgan ("Ubaydiy" – uning adabiy taxallusidir). 1530-yilda otasi Ko'chkinchixon (Shayboniixonning amakisi) o'lgach, Ubaydullaxon uning o'rniga xon bo'ldi va 1539-yilda Buxoroda vafot etdi. Ubaydiyning kulliyoti (asarlar to'plami) bizgacha yetib kelgan. Uning nomi "Kitobi kulliyoti zarb Ubaydullaxon" (Ubaydullaxon asarlarining to'plami) bo'lib, o'z ichiga tojikcha yozilgan she'rlarning devoni, arabcha yozilgan she'rlar (maqolot), o'zbekcha she'rlari (hikmat),

gʻazal va boshqa asarlari kirgan. Arab tilidan hadisni oʻzbek tiliga oʻgʻirgan tarjimon shoir Ubaydiy edi. Uning otasi Koʻchkinchixon (1510-1530-yillarda xonlik qilgan) davrida bir qancha tarix kitoblari tarjima qilindi. Rashididdinning “Jomeut-tavorix” asarini va Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sini buxorolik Muhammad Ali bin Darvesh Ali tarjima qilgan. Quyida oʻsha asarning tarjimoni Darvesh Alining kitobga yozgan bosh soʻzini keltiramiz:

Abdullaxon (1557-1598) shayboniylar sulolasining soʻnggi xonlaridan biri edi. Uning vafotidan soʻng Xorazmda mustaqil xonlik barpo boʻldi. 1599-yilda qariyb bir asrga yaqin hukm surgan shayboniylar sulolasi oʻrnini Movarounnahrda ashtarxoniylar sulolasi egalladi. XVII asr boshlarida ikki xonlik (Buxoro, Xorazm xonligi) barpo boʻldi. Abdullaxon zamonida qanday badiiy asarlar tarjima qilingan va qanday tarjimonlar yashab ijod qilganligi maʼlum emas. 1585-yilda “Hadoyiqul-islom” (Islom bogʻlari) nomli asar (1445-yilda yozilgan) tojik tiliga agʻdarilgan. Tarjimoni maʼlum emas. Uni Xalil bin Muhammad kotib koʻchirgan. 1585-yil tarjima qilingan asarlardan biri “Tafsiri Yaʼqub Charxiy” (inv.№7180) boʻlib, Sanjar Maxmud Sulton farmoyishi bilan hoji Hamadoniy oʻzbek tiliga oʻgʻirgan.

### **5.6. XVII-XVIII asrlardagi tarjimalar**

Buxoro xonligi XVII asr boshida astraxanli oʻzbek Boqi Muhammad qoʻliga oʻtgach, bu sulola astraxanlilar, baʼzan ashtarxoniylar deb atala boshlandi. Boqi Muhammad olti yil xonlik qildi (1599-1605), u vafot etgach, ukasi Vali Muhammad taxtga oʻtirdi (1605-1611). Koʻp oʻtmay yirik feodallar fitna chiqarib, uning oʻrniga Imomqulini xon qilib koʻtarishdi. U oʻttiz yil xonlik kilgach (1611-1642), Imomquli oʻrniga ukasi Nodir Muhammad xon boʻldi (1642-1645). Ammo janglarning birida uning ukasi oʻzini xon deb eʼlon qildi. Mamlakatda oʻzaro janglar qizib ketdi, oʻlka parchalana bordi. Buxoroda Abdulaziz (1645-1680), Balxda Nodir taxtga oʻtirdi.

Xorazmda 1602-yilda oʻzbek xoni Arab Muhammadxon taxtga oʻtirib, 21 yil xon boʻldi. Uning oʻgʻyllari taxt uchun kurashib, otasining koʻzini oʻyib oldilar. Shundan soʻng katta oʻgʻli Ilbars xon boʻldi, koʻp oʻtmay, ukasi Asfandiyor uni taxtdan agʻdardi.

Abulgʻoziyning oʻgʻli Anusha (1663-1686-yillargacha xonlik qilgan) bir necha bor Buxoroga hujum qiladi. Saroy fitna-fasodlari, xon-

lik talashlari, o‘zaro urushlar, chet el bosqinchilarining qonli yurishlari bechora xalq boshiga bitmas-tuganmas kulfat keltirar edi.

Buxoroga Subxonqulixon bo‘lgach (1680-1702), bu xonlik mehnatkashlari yana battar qashshoklandi, jabr-zulm tortdi. XVII asrning eng kuchli shoiri Turdi (uning “Farog‘iy” taxallusi ham bor) Subxonqulining zulmiga qarshi o‘z she‘rlari bilan kurashdi.

XVII asrning tarixiy yozma yodgorliklaridan eng muhimlari Abulg‘oziyning “Shajarai turk” (inv. №851) va “Shajarai tarokima” (inv. №1223) asarlaridir.

XVII asrda o‘zbek tilidan tojik tiliga tarjima qilingan asar “Iskan-darnoma” bo‘lib (inv. №1510), tarjimon unga o‘zbeklar tarixini - Abulxayrxon va shayboniylarning kelib chiqishini o‘z yonidan qo‘shgan. Bu asar “Tarixi G‘ozoniy” bo‘lib, Ubaydullaxon (Ubaydiy) davrigacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi.

**“Shohnoma” dostonining tarjimalari.** XVII asrning oxirida madaniyatimiz tarixida katta hodisa ro‘y berdi. Shoir-tarjimon Xomushiy jahon adabiyotining so‘nmas yulduzi Firdavsiyning “Shohnoma” asarini tarjima qildi. Firdavsiyning tabarruk nomi ming yildan beri xalqlar o‘rtasida tillardan-tillarga, dillardan-dillarga o‘tib kelmoqda. Uning “Shohnoma” epopeyasi jahon adabiyotining eng nodir asarlaridan biri bo‘lib, dunyo xalqlarining juda ko‘p tillariga tarjima qilinganidir. 1934-yilda shoir tavalludiga ming yil to‘lishi munosabati bilan o‘tkazilgan yubiley butun bashariyatning bayramiga aylandi. Firdavsiy Xuroson viloyatining Tus shahriga yaqin Taboron qishlog‘ida tug‘ilgan. Tug‘ilgan qishlog‘ining nomini ba‘zan “Shjhzb”, ba‘zan “Boj” ham deb yuritadilar. Hozir ulug‘ shoir nomiga atalib, “Firdavs” deb qo‘yilgan. Firdavsiyning tug‘ilgan yili aniq emas, ba‘zi olimlar uni 934- bilan 941-yillar o‘rtasida tug‘ilgan bo‘lsa kerak deb yozishadi. Prof. N.M.Mallaevning darsligida shoir 940/41-yillarda tug‘ilgan deb ko‘rsatilgan. Firdavsiyning ijod qila boshlagan yillari somoniylar sulolasi hukm surgan davrga to‘g‘ri keladi. U “Shohnoma” ustida jami bo‘lib 30-35 yilcha ishlagan. Firdavsiy bir necha ming yillik tarixni, sonsiz-hisobsiz tarixiy voqealarni, asrlar bo‘yi xalq og‘zida aytilib kelayotgan afsonalarni nazm bilan tasvir etgan. Firdavsiyga qadar “Shohnoma” janri ustida ishlagan shoirlar ham bo‘lgan. Masalan, o‘z davrining mohir shoirlaridan Daqiqiy ham “Shohnoma” yozgan, lekin ming bayt to‘qigan-u, o‘z qulining qo‘lidan halok bo‘lgan.

Firdavsiy “Shohnoma”ni uch marta qaytadan tahrir qilib, yozib chiqdi, birinchi redaksiyasini 994-yilda tamom qildi. Shoir uni somoniy hukmdoriga taqdim etmoqchi edi, lekin bu davrda qoraxoniylar somoniylar sulolasini barbod etgan, mamlakat ikkiga bo‘lingan edi (yuqorida bu haqda aytib o‘tildi). Amudaryoning janubi-sharqiy tomonlari Mahmud G‘aznaviy qo‘liga o‘tgan edi. Firdavsiy o‘z asarini unga olib borib taqdim etishni loyiq ko‘rmaydi va safarga chiqib ketadi. Bag‘dodga borib, Bahoud Davla Deylaminning noibi Muvaffaqning istagi bilan “Yusuf va Zulayxo” dostonini yozib tamom qiladi, so‘ngra Isfahonga kelib, u yerning hokimi Ahmad ibn Muhammad ibn Abu Bakr Xonlanjonning xohishi bilan 389/1000-yilda “Shohnoma”ning ikkinchi tahririni bitkazgan. Uchinchisini esa 400/1010 – 1011-yillarda tamomlab, yetti jild kitobni Abu Duvlafning qistovi bilan u bilan birga G‘aznaga – sulton Mahmudning oldiga ketadi va “Shohnoma”ning oxirgi tahririni unga taqdim etadi. Adabiyot va san’atning qadriga yetmagan sulton Mahmud G‘aznaviy shoirni go‘yo yaxshi qarshi olgan bo‘ladi va unga 20.000 kumush pul beradi (ba’zi kitoblarda 100.000 kumush pul bergan deb yozilgan). Bu “siylov” dan juda xafa bo‘lgan Firdavsiy sultondan olgan pulni hammomchi bilan nonvoyga ulashib beradi va kechasi G‘aznadan chiqib, Hirotga yo‘l oladi. Bir necha yilgacha har qayerda yashirinib yuradi. Otashin asari “Sulton Mahmud haqida hajv”ni yozadi. Firdavsiy umrining oxirgi yillarigacha muhtojlikda, qiyinchilik, azob-uqubatda yashaydi, og‘ir kunlarni boshidan kechiradi va saksondan oshgan kekxa shoir 1020- (ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra 1026) yilda armon bilan dunyodan o‘tadi. Firdavsiyning jasadini qabristonda ko‘mishga ruxsat bo‘lmaydi (uni dinsiz, islom dinigacha bo‘lgan voqealarni tasvirlagan dahriy deb ayblaydilar), shu sababli jasadi o‘z bog‘iga dafn etilgan. “Shohnoma” arabchaga hijriy 620-624-yillarda tarjima qilindi<sup>1</sup>. “Shohnoma” yozish an’anasini boshlab bergan Firdavsiy shoirlarning ustози bo‘lib qoldi.

---

<sup>1</sup>Yevropada “Shohnoma”ning birinchi tarjimalari yuz yillar ilgari nashr etilgan. Sharqshunos F.Rukkert “Shohnoma”ni nemis tiliga, sharqshunos Yulis Mol fransuz tiliga, sharqshunos Torner Meken ingliz tiliga, sharqshunos Itado Pizi italyan tiliga tarjima qilgan. Mashhur rus shoiri, Pushkinning ta’biri bilan aytganda, “genial tarjimon” Jukovskiy bu ajoyib dostonni bundan bir yarim asr avval tarjima qilib rus xalqiga manzur qilgan edi. Buyuk nemis shoiri Genrix Geyne Firdavsiyga bag‘ishlab she’r yozgan.

Ulug' Navoiy Firdavsiyni "ustodi fan" deb atab, katta hurmat bilan tilga olgan edi. U o'zining asari "Saddi Iskandariy"ni "Shohnoma" vazni – "mutaqorib"da yozdi. "Shohnoma"ning turk, tatar, ozarboyjon, o'zbek, qozoq va boshqa tillarga bo'lgan bir qancha tarjimolari bor. Turk shoirlaridan Sho'hiddin "Shohnoma"dan 4 ming baytni, Mehdi hijriy 1020-yilda nasriy yo'l bilan uni tarjima qilgan. Tatar shoiri Ali Afandi hijriy 916-yilda "Shohnoma"ni nazm bilan tarjima qilib, tatar xalqining muhabbatiga sazovor bo'lgan.

\* \* \*

XVIII asrning boshlarida ashtarxoniylar davlati yemirila boshlagan va Ubaydulla II xonlik qilgan paytda esa (1702-1711) to'la inqirozga yuz tutgan edi. U o'lgandan so'ng ashtarxoniylar davlati butunlay mayda bo'laklarga bo'linib ketdi. 1711-1747-yillargacha xonlik qilgan Abulfayzxonning nufuzi yo'q darajada edi. "U tez orada amirlar qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qoldi"<sup>1</sup>.

Eron shohi Nodirshoh bilan bo'lgan janglardan so'ng Abulfayzxon yengilib, unga itoat qilishga majbur bo'ldi, Buxoro Eron shohining vassaliga aylangan edi. Bu paytda ko'p yerlarda isyonlar chiqdi, mustabid xonlardan, shohlardan norozi bo'lgan, jabr-jafo tortgan xalq bosh ko'tardi. Nodirshoh 1747-yilda o'ldirilgach, ko'p o'tmay Buxoroda mang'itlar sulolasi boshlandi. Bu sulolaning birinchi amiri Abulfayz Muhammad Rahim edi. Keyingi amirlar shu sulolaga mansub bo'lib, to Buxoro inqilobiga qadar (1920-yilgacha) hukmronlik qildilar.

### **"Kalila va Dimna" asarining tarjimalari**

XVIII asrda o'zbek tiliga qilingan eng katta, muhim badiiy tarjimalardan biri – "Kalila va Dimna" tarjimasidir. Asarning yozilishi va uning dunyo tillariga tarjima qilinishi uzoq tarixga borib taqaladi. Sharq va G'arb mamlakatlarining juda ko'p tillariga ag'darilgan, binobarin, dunyoda eng ko'p tillarga tarjima qilingan, ko'p tarqalgan va ommabop asarlardan biri "Kalila va Dimna"dir. Undagi hikoyalar, hikmat va pand-nasihatlar bir necha avlodlar osha og'izdan-og'izga o'tib keladi. Sharqning ulug' yozuvchilari ham "Kalila va Dimna"dagi qiziqarli syujetlarga murojaat qilganlar.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон тарихи. 1-том, 1-китоб. –Б.458.

“Kalila va Dimna”ning tarjimalari haqida oktabr to‘ntarishidan ilgari “Sho‘ro” jurnalida (1913-yil, 5 va 6-sonlarida) “Ibn Muqaffa” nomli katta bir maqolada batafsil yozilgan. Bu maqolaning muallifi “Kalila va Dimna”ni arab tiliga tarjima qilgan ibn Muqaffa’ haqida yozar ekan, shu asar tarjimasining tarixini beradi. Unda juda ko‘p qimmatli fikrlar va materiallar bor.

O‘zbek xalqi ham “Kalila va Dimna”ni qadim zamonlardan beri biladi, bundan 700 yil ilgari asar o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Bu hakda filologiya fanlari doktori G‘ulom Karimov o‘zining “Hind va o‘zbek adabiy munosabatlari tarixidan” degan maqolasida shunday yozadi: “Kalila va Dimna” o‘zbek tiliga bir necha marta tarjima qilingan. Mavjud manbalarning ko‘rsatishiga qaraganda, asarning o‘zbek tiliga (chig‘atoychaga – qadimgi o‘zbekchaga) qilingan birinchi tarjima XIII asrga to‘g‘ri keladi. Bu tarjimaning yagona qo‘lyozmasi Londondagi Indiya Offis kutubxonasida saqlanmoqda”.

Bu tarjimaning tili, uslubi og‘ir bo‘lganidan, mashhur olim, adib va tarjimon mavlono Husayn bin Ali Voiz-ul Koshifiy (910/1505-yilda vafot etgan) uni qayta ishlab, to‘g‘risi, boshqatdan tarjima qilib, asarni Hirot sultoni Husayn mirzoning muhrdori Amir Nizomiddin Shayx Ahmad Suxayliyga bag‘ishlagan. Mana shuning uchun kitobning nomi “Kalila va Dimna” deb atalmay, “Anvori Suxayliy” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Bu haqda Muhammad Temur shunday deb yozadi: Shunday qilib, “Kalila va Dimna” arab va fors tiliga tarjima qilingan bo‘lib, keyinchalik “Anvori Suxayliy” turkiy tillarga, shu jumladan o‘zbekchaga tarjima qilindi. “Anvori Suxayliy”ning fransuzcha tarjimasini 1724 yilda Parijda bosildi.

“Kalila va Dimna” o‘n to‘rt bobdan iborat bo‘lib, ular tubandagilardir: bobi avval, suxani chin va yomonliqqa sa’y qilg‘uchilardan qochmoq bayonida; ikkinchi bob, yomonlar va badkorlarning oqibat jazolarin topg‘onlarin bayonida; uchinchi, do‘stlarning muvofiqlig‘i va dastgirlik qilg‘onlarin bayonida; to‘rtinchi, dushman ahvolin mulo-haza qilmoq va alar makridan emin bo‘lmaslik bayonida; beshinchi, matlubning qo‘lidaya bermoq va g‘ofil bo‘lmoq va fahmlik qilmoq zararini bayonida; oltinchi, shitob va tezlik qilmoq va shosh-moqlik ofatin bayonida; yettinchi, tadbir va hiyla birlan dushman makridin qutulmoq; sakkizinchi, ahli hasaddin e’tiroz qilmoq va olarning tam-miq tazrg‘ig‘a e’timod qilmaslik bayonida; to‘qdizinchi, afv fazilatlarin bayon qilmoqkim, podshohlarning yaxshi sifatleri-dindir; o‘ninchi,

a'molg'a jazo va sazo topmoq va mukofot ko'rmoq bayonida; o'n birinchi, ko'p talab, o'z ishidin qolib zarar ko'rmoq bayonida; o'n ikkinchi, og'irliq va halim va sabot xususan podshoh-larg'a fazilati; o'n uchinchi, podshohlarning ahl xiyonat va yolg'on-chilar so'zidan ixtinob qilmoq xususida; o'n to'rtinchi bob, zamona hrdisotiga iltifot qilmaslik. Asarda asosiy personajlar qush va hayvonlar bo'lib, ular o'z xarakteriga ega va shu fe'l-atvordan chiqib so'zlaydilar, badiiy tugunni yechish uchun har birining o'z roli bor.

Asar sodda, jonli, obrazli, shirin-shakar tilda tarjima qilingan, ammo ba'zan chalkash jumlar ham uchrab qoladi, ayniqsa, qur'ondan keltirilgan suralar tarjimasi og'ir, ularga tushunish qiyin. Hatto forsha originalning o'zi ham arabcha iboralarni murakkab qilib tarjima qilgan. Asarning mulla Muhammad Temur va Almaiy tarjimalarini bir-biriga qiyos qilish uchun bu ikki o'zbekcha tarjima variantidan misol keltiramiz. Mulla Muhammad Temur tarjimasi:

**Hikoyat.** Sichqon aytdi: kelturubdurlarkim, bir kishi tevaga minib safarga chiqib erdi, bir yerga yettikim, korvonlar anda tushub o't qalob erdilar; ko'chkondin keyin cho'g'larini shamol olib borib changol o'tg'a tutoshturub erdi, ul manzilning aksarig'a o't olib ketdi. Anda bir yilon bor erdikim, jo'rasini o't olib, aroda qolib erdi va o't arosidan chiqmoqqa yo'l topolmas edi. Ul holatg'a yettikim, kabobdek kuyub, zaharlik badanidin qatra-qatra qon tomg'oy va chun ul tevalikni ko'rdi, ersa anga zori birla aydi. Qit'a:

*Na bo'lgaykim bu o't ichra menga shafqat suyini sochsang,*

*Tarahhum ilki birla bu girih bo'lg'on ishim ochsang.*

Ul kimarsa base rahmdil erdi va chun aning ul nav'i nolasin eshitib, bechoraligin ko'rdi, ersa o'ziga aydi: "Agarchi yilon odamizodlarning dushmani erur, ammo holo bu darmondalik va hayronliqda hech andin yaxshi ermaski, anga lutf-ehson ko'rguzmoq birla dunyo saodatini va oxirat savobini topg'ayman", deb nayza uchig'a tubrani biritib sundi: yilon ani g'animat bilib, filhol tubra ichiga kirdi. Ul kimarsa ani toshqori olib soldi va aydi: "Endi balodin najot topding, qayon xo-hish etsang, anda borg'il. Ondin keyin kishining ozori qasdida bo'lmog'ilkim, kishiga ozor berguvchi ikki dunyoda la'natga sazovordur, oxiratda uqubatga giriftor.

Bayt:

*Kishiga berma ozori, yiroq bo'l,*

*Xalos o'lmog'liking'a ushbudur yo'l".*

Yilon aydi: “Bu na so‘zdurkim, men senga va tevaga zaxm urmag‘uncha hech sori ketmasman”. Va ul kishi aydi: “Man senga yaxshiliq qilib, o‘tdin olg‘onimning jazosi bumudur? Qit’a:

*Men senga ko‘rguzdum oyini vafo,  
Bas, nedur sendin manga rasmi jafo?”*

Yilon aydi: “Oriy sen yaxshiliq qilding – vale o‘runsuz yerga qilding. Bilurmusankim, men zararning mazhari va zahrning ma‘dani tururman va senkim yomonliq qilur kishiga yaxshilik qilding, senga sazovor uldurkim, alam va jafo ko‘rgoysan, chunkim yomonlarg‘a yaxshilik, yaxshilarg‘a yomonliq hukmida durur. Misra:

*Chunonkim yaxshilar haqida kishi gar  
Ravo ermasdurur kilmoq yomonliq.  
Yomonlar haqida ham joyiz ermas  
Birov ko‘rsa lutfu mehribonliq.*

Va digar ba‘zukum liba‘zin aduvun hukmi birla bizlar oramizda qadimiy adovat bor durur, ya‘ni tovus va yilon, va iblis, Odam va Havo Alayhissalom ba‘zilaringiz ba‘zilarg‘a dushman erursizlar.

Lozim bo‘ldikim, sango zaxm urg‘oyman, to o‘zgalar mundin tanbeh olg‘oylar”. Ul kishi aydi: “Ey yilon, insof hamisha qilg‘ilkim, yaxshiliqg‘a yomonliq qaysi mazhabdadur?” yilon aydi: “Sizlarning odatingizlar shundog‘durur. Man bu rasmni sizlardin o‘rgondim, o‘zingizlardin olg‘anni o‘zungizlarga sotarman. Misra:

*Sotib olg‘ondin, o‘ziga andaki ham sotqoysan”.*

Hikoyatning boshlanishida bir kishining tuyaga minib kelayotganini mulla Muhammad Temur ravishdosh oborot bilan bersa (“bir kishi tevaga minib...”), Almaiy sifatdosh oborot bilan (“bir teva mingan kishi...”) ag‘dargan.

Biroq, ba‘zan shunday hollar ham uchraydiki, bular asarning badiiy qimmatiga ta‘sir qiladi. Masalan, mulla Muhammad Temur tarjimasida berilgan:

*Men senga ko‘rguzdum oyini vafo,  
Bas, nedur sendin menga rasmi jafo?*

misralari Almaiy tarjimasida tashlab ketilgan. Ba‘zan har ikki tarjimada ham asl nusxada aytilgan baytlar aks ettirilgan bo‘lsa-da, ammo ular bir-biridan jiddiy farq qiladi. Masalan, Almaiy ijrosida:

*Xudodin qo‘rqg‘il-u, ozor berma,  
Qutulmog‘ni yo‘li bu bo‘ldi-yu, bas*

deb berilgan misralar mulla Muhammad Temur tarjimasida misralarning to‘laligi va qofiyalanishiga e’tibor qilgan holda ancha mukammal aks ettirilgan edi:

*Kishiga berma ozori, yiroq bo‘l,*

*Xalos o‘lmog‘liqingg‘a ushbudur yo‘l.*

Bu o‘lmas asarning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi ikki xalqning – hind va o‘zbek xalqining yuragini bir-biriga payvand qilishda katta rol o‘ynagan.

### **5.7. XIX asrning birinchi yarmida tarjima qilingan asarlar**

XIX asrda yaratilgan tarjimalar haqida yozar ekanmiz, bu asrning birinchi yarmida qilingan tarjimalar haqida alohida to‘xtashga va ikkinchi yarmida tarjima qilingan asarlarni mustaqil o‘rganishga to‘g‘ri keladi, chunki bu asrda Turkistonda, shu jumladan hozirgi O‘zbekiston hududida juda ko‘p muhim tarixiy voqealar ro‘y bergan va tarjima asarlarining soni va salmog‘i ham ancha oshgan.

XIX asrning birinchi yarmida Xorazmda bir qancha badiiy-tarixiy asarlar tarjima qilindi. Bu faxrli ishni shoir Munis boshlab berdi.

**Munis.** Shoir Munisning asli ismi Shermuhammad bo‘lib, Avazbey mirobning o‘g‘li edi. Munis 1878-yilda Xivadan 8 kilometr, masofada joylashgan Qiyot qishlog‘ida tug‘ilgan. Yoshlik chog‘laridayoq u tarix va adabiyotga qiziqib, tez orada o‘z iste’dodini namoyon qildi. Shoir, tarixchi, tarjimon bo‘lib yetishdi. Muhammad Rahimxon I ning (1806-1825) topshirig‘i bilan u Xorazm tarixini yoza boshladi. Intihosiga yetkazilgan bu kitobga “Firdavsul iqbol” degan nom berilib, unda 1812-yilgacha Xorazmda bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar qamrab olingan. Bu asar katta tarixiy kitoblar majmuasining qaldirg‘ochi edi. Munis bundan tashqari, ulug‘ bir ishni – Mirxondning bir necha tomli tarixiy kitobi – “Ravzatus-safo”ni fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish ishini boshlab yubordi. Muhammad Rahimxon I hayot vaqtida-yoq (1825-yilgacha) Munis bu kitobning birinchi jildini o‘zbekchaga o‘girib bo‘lgan edi. Ikkinchi jild esa Olloqulixon vaqtida (1825-1842) tarjima qilish ishiga kirishildi.

XIX asrning birinchi yarmida qilingan tarjimalardan biri “Chor darvesh” asaridir. Bu haqda “O‘zbek adabiyoti” kitobida qisqagina ma’lumot berilgan: “Farg‘onalik Siddiq degan kishi XIX asrning bi-

rinchi yarmilarida qilingan forsha “Chor darvesh” kitobini o‘zbekchaga tarjima qildi”<sup>1</sup>.

XIX asrning birinchi yarmida tarjima qilingan asarlar tubandagilardir:

1. “Nasihatnoma”, Farididdin Attorning “Pandnoma” asarining tarjimasi bo‘lib, 1255-hijriyda ko‘chirilgan.

2. “Do‘rrul-majolisi” asarini mulla Rahmonquli qori tarjima qilgan. 1238-yilda ko‘chirilgan; 251 varaq.

3. “Maqomati xo‘ja Zayniddin”. Tarjimoni Abulxalil, 1260-hijriyda ko‘chirilgan.

4. “Bahori donish”. Muallifi Shayx Inoyatulla, buni Muhammad Qosim bin mulla Nurmuhammad Buxoriy tarjima qilgan. 1263-yili ko‘chirilgan. Bu asar Xorazmda hijriy 1309-yilda ham tarjima qilingan, 245 bet. (inv. №1790-1, 8188).

5. “Tarixi Amir Temur tarjimasi”. “Zafarnoma”dan tarjima bo‘lib, tarjimoni Xudoyberdi bin Qo‘shmuhammad so‘fi Xivaqiydir. 1238-yilda ko‘chirilgan. 212 bet. Shu kitobning 64-varag‘ida tarjima Munis topshirig‘i bilan bo‘lganligi aytilgan.

6. “Jahonnamo tarjimasi”. Muallifi mulla Kotib Chalabiy bo‘lib, mutarjimi Mir Abulqosim xo‘ja bin Mirbadal Boysuniydir. 1259-hijriyda turk tilidan fors-tojik tiliga tarjima qilingan.

7. “Hikoyatus-solihin tarjimasi”, tarjimon Tolibxo‘ja, Said Abdullo Xorazmiy ko‘chirgan. Tarjima qilingan yili aniq emas.

8. “Qissasul-anbiyo”. Xorazmlik mashhur yozuvchi Rabg‘uziyning o‘zbek tilida yozilgan “Qissasul-anbiyo” kitobi (1309-1310) fors-tojik tiliga ham o‘girilgan bo‘lib, tarjimoni ma’lum emas.

9. “Qissai mirza Hamdam”. Bu asar har ikki tilda (tojikcha va o‘zbekcha) hijriy 1469-yilda ko‘chirilgan.

\* \* \*

O‘zbekistonda XX asrning 20-yillariga qadar eng ko‘p tarjima qilingan davr XIX asrning ikkinchi yarmi hisoblanadi. Bu vaqtda Xorazmda ham ilmiy, ham badiiy, ham tarixiy kitoblar tom-tomlab tarjima qilinadiki, o‘tgan asrlardagiga qaraganda ham son jihatdan, ham tarjima turlari jihatidan ko‘p va ulardan tamom ajralib turadi.

---

<sup>1</sup> Ўзбек адабиёти. IV том, II китоб. –Б. 230.

### **5.8. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida arab, fors-tojik tilidan tarjima qilingan asarlar**

XIX asrning ikkinchi yarmi yangi tipdagi o'zbek demokratik intelligensiyasi shakllana boshlagan davrdir. Bu davrda Ahmad Donish, Muqimiy, Abay, Furqat, Avazlar ijod qilishgan. 1868-yilda Toshkentda bosmaxona, 1874-yilda esa Xivada toshbosma tashkil etilgan. Bular ko'plab kitoblar, tarjima asarlari nashr qilina boshlangan. Rus adib va shoirlaridan A.S.Pushkin, I.A.Krilov va L.N.Tolstoylarning asarlari o'zbek tiliga tarjima qilina boshlangan.

XX asrning boshlarida tarjimachilik ishlari yanada kengaydi. Bu paytda ma'rifatparvar yozuvchilar arab va fors tillaridan ko'p asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish bilan birga, rus tilidan ham ko'plab asarlarni tarjima qildilar. Bu davrda O'zbekistonda tarjima ishlari o'tgan davrlarga qaraganda tez va jadal sur'atlar bilan o'sdi.

**Xorazmda tarjima qilingan asarlar.** Xorazmda tarjima asarlari juda ko'p va ular fundamental kitoblarni tashkil qilardi. Bu masalaga shoir Feruz (Xiva xoni Muhammad Rahim Soniyning taxallusi) umumdavlat ishi deb qaradi va tarjima qilinishi kerak bo'lgan asarlarning ro'yxatini tuzdirib, har qaysi tarjimonning qobiliyatiga qarab asarlar bo'lib berdi. Atoqli shoir, ulug' tarjimon Ogahiy Munis boshlab bergan, lekin intihosiga yetkaza olmagan badiiy va tarixiy asarlarning tarjimasini davom ettirdi. Xorazmda tarjima qilingan tarixiy-badiiy, falsafiy asarlardan ba'zilarini ko'rsatib o'tamiz:

“Mir'otul-koinoti turki” (Koinot oynasi). Tarjimon Xo'janiyoz hoji Xonqohiy Xorazmiy. “Tarixi Tabariy”, tarjimoni Bayoniy.

“Ravzatus-safo” tarjimasi (Safo bog'i). Tarjimonlari: Munis, Ogahiy, Rojiy va boshqalar.

“Zafarnomai Temuriy” tarjimasi Sharafiddin Ali Yazdiyning asari bo'lib, Xudoyberdi Qo'shmuhammad so'fi Xivaqiy Munisning topshirig'i bilan tarjima qilgan.

“Ravzatul-manozir” degan tarixiy asarni mulla Xudoynazir Otajonxo'ja ibn domullo Qalandar-xo'jalar Muhammad Rahimxon I ning buyrug'i bilan tarjima qilishgan.

Eng katta asarlardan biri “Tarixi komil”ning o'n ikki tomi ham Xorazmda tarjima qilingan. Nurullo Isa oxun Muhammad Sharif oxun, domla Xo'ja oxun, Muhammad Rafi' bin Nurullo mahzum va boshqalar mazkur asar tarjimasida ishtirok etdilar. Umumiy tarixga

oid bo'lgan Ibrohim Haqqiyning "Tarixi umumiy" asarini domullo Ro'zimuhammad Xorazmiy tarjima qilgan.

**Ogahiy.** Mashhur shoir, atoqli olim, ulug' tarjimon Ogahiy go'zal original badiiy asarlar va tarixiy kitoblar yaratish bilan birga, o'zidan keyin buyuk tarjima xazinasini meros qilib qoldirdi. U tarjima sohasida katta bir maktab yaratgan siymolardan biridir.

Ulug' shoir-tarjimon Ogahiy 1809-yilda Qiyot qishlog'ida Munis tug'ilgan joyda dunyoga keldi. Munis Ogahiyning tog'asi edi, har ikkovining ota kasbi miroblik bo'lib, bu og'ir, murakkab hunar edi. Munis o'z jiyani Muhammad Rizoga (Ogahiyga) yosh vaqtidanoq ilm o'rgatdi, uning she'r yozish borasidagi noyob qobiliyatini o'z vaqtida payqab, uning kamol topishiga yaqindan yordam berdi.

Munis vafot etgach, Ogahiy uning tugallanmagan "Firdavsul iqbol" nomli asarini intihosiga yetkazdi. Klassik adabiy merosni mufassal bilgan Ogahiy Alisher Navoiyning an'alarini ijodiy ravishda davom ettirdi va unga o'zi ham ko'p yangiliklar qo'sha bildi.

Shoirning "Ta'vizul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") degan Devoni klassik adabiyotimizda katta o'rin egallaydi. Klassik shoir, tarixchi, olim Ogahiy yigirmaga yaqin asarni tarjima qilganligi haqida o'zi quyidagicha ma'lumot berib o'tadi. "Faqirning turkiy tili bilan tarjima qilgan kitoblari: "Ravzatus-safo"ning ikkinchi daftaridan chahor yor izomning voqeasi, uchlanchi daftari, "Nodirnoma", "Zafarnoma", "Zub-datul-hikoyot", "Miftohud-tolibin", "Nasihatnomai Kaykovus"<sup>1</sup>, "Salamoni Ibsoliy" Jomiy, "Gulistoni" Sa'diy, "Bahoristoni" Jomiy, "Ravzatus-safoi" Nasiriyning birinchi daftari, "Daloilul-hayrat" sharhikim, rum turkidan chig'otoy tiliga o'tkarildi: "Tazkirai Muqimxoniy", "Tabaqoti Akbarshohiy", "Haft paykari" Nizomiy, "Hasht bihishti" Xisraviy, "Yusuf va Zulayxo" Jomiykim, manzum bo'ldi va "Shoh va gadoi" Hiloliykim, manzum bo'ldi"<sup>2</sup>. Bulardan o'n sakkiztasi mavjud, ikkitasi hali topilgani yo'q. Ulug' tarjimonning bizga qoldirgan yodgorliklari shulardir:

*O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutidagi tarjimalar:*

---

<sup>1</sup> Bu asar Sharqda "Qobusnoma" degan nom bilan mashhur, inv.№7577-II, 1274-II. "Qobusnoma" fransuz, nemis, turk, tatar, rus tillariga tarjima qilingan. Keyinchalik uni rus tiliga prof. Ye.E.Bertels tarjima qilgan.

<sup>2</sup> Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan "Devoni Ogahiy", inv. №938.

1. “Guliston” (Shayx Sa’diy asari); inv. № 899.
2. “Haft paykar” (Nizomiy asari); inv. № 7695.
3. “Yusuf va Zulayxo” (Jomiy asari); inv. № 6728.
4. “Shoh va gado” (Hiloliy asari); inv. № 809.
5. “Qobusnoma”; inv. № 7577-11.
6. “Axloqi Muhsiniy”; inv. № 1597-1.
7. “Zubdatul-hikoyat”; inv. № 1274-1.
8. “Tarixi jahonkushoyi Nodiriy”(“Nodirnoma”); inv.№1227.
9. “Ravzatus-safo” (II jildning yarmi); inv. №7307.
10. “Ravzatus-safo” (III jild); inv. № 1812.
11. “Ravzatus-safo” (VII jild); inv. № 6787 va 7108.
12. “Miftohut-tolibin”; inv. № 8473.

*Leningrad, ToshDU va boshqa joylarda mavjud tarjimalar:*

1. “Zafarnoma” (Sharafiddin Ali Yazdiy asari).
2. “Salomon va Ibsol” (Jomiy asari).
3. “Bahoriston” (Jomiy asari).
4. “Hasht bihisht” (Amir Xisrav Dehlaviy asari).
5. ‘Daloilul-xayrot’.
6. “Tabaqoti Akbarshohiy”.

Ogahiy o‘zbek tiliga o‘giran asarlar nihoyatda qiyin bo‘lgan monumental asarlar edi. Tarjimon o‘z umrining eng ko‘p qismini va eng jo‘shqin hayotini tarjimaga – buyuk san’atga bag‘ishladi. U tarjima qilar ekan, mas’uliyat naqadar zo‘r ekanini sezib, butun talant, kuchini shunga sarf etdi va natijada yaxshi va o‘lmas tarjimalarni asrlarga yodgor qilib qoldirdi. “Shoh va gado” asarini tarjima qilish sababini Ogahiy she’riy tilda shunday bayon qiladi:

### ***Bu qissa tarjimasining boisi***

*Ey xiradmandi donish ovarlar,  
Meni mahzung ‘a yoru yovarlar,  
Menki ogohlar mahidurmen,  
Ham laqab birla Ogahiydurmen.*

Garchi Ogahiy o‘z tarjimasini shoh Muhammad Rahimxon nomi bilan bog‘lasa-da, aslida bu o‘sha muhit taqozosi bo‘lib, asl muddao boshqa tomonda edi. Ogahiy tarixiy-badiiy va axloqiy-falsafiy asarlarini tarjima qilar ekan, har doim bir o‘y, bir maqsad uning oldida ko‘ndalang turar, u ham bo‘lsa, o‘zbek xalqiga xizmat qilish edi.

Ogahiy o‘z asarlarining litografiyada bosilganini ko‘rmay, 65 yoshida, ya’ni 1874-yilda vafot etdi. Shoirning adabiy asarlari haqida hozir bir qancha olimlar ilmiy ish olib bormoqda. Bizda hozirga qadar Ogahiy lirikasi, uning ijodiy faoliyati hamda tarixiy asarlari haqida uchta nomzodlik dissertatsiyasi yoqlandi. Ammo bu ajoyib shoir va tarixshunos olim ijodiy faoliyatining teng yarmini tashkil qiluvchi ajoyib tarjimalari haqida birorta ham ilmiy-tadqiqot ishi olib borilgani yo‘q. Holbuki, Ogahiy-shoir va Ogahiy-tarixshunosni ham uning fundamental tarjimalaridan ajratib qarash mumkin emas.

Ogahiy Shayx Sa’diyning “Guliston” asarini tarjima qilar ekan, o‘zidan besh asr ilgari Sayf Saroyi tomonidan tarjima qilingan “Guliston”ning qo‘lyozmasini ko‘rmagan, buning asosiy sababi ham bor: u tarjimaning qo‘lyozmasi Xorazmda yo‘q edi. Biz Sayf Saroyidan “Bir kurashchi pahlavon” haqidagi hikoyat tarjimasini yuqorida keltirgan edik (inv. № 899, 40-bob, 43-a varaqqa qarang).

Nodir namunalarni tarjima qilish bilan Ogahiy o‘zbek adabiy tili va uslubini boyitadi. O‘zbek adabiy tilining boyligini yana bir bor ko‘rsatadi. O‘z xalqiga ajoyib madaniy boyliklar baxsh etadi, uning yuksak estetik zavqini oshirishda, uni o‘z davriga ko‘ra ilg‘or g‘oya va intilishlar ruhida tarbiya qilishda ishtirok etadi. Ogahiy o‘zining tarjimalari bilan xalqlar do‘stligi va hamkorligini rivojlantirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi”. Darhaqiqat, Ogahiy tarjimalari badiiy san’atning yuksak namunasidir.

**Komil Xorazmiy.** Polvonniyoz Mirzoboshi bin Abdullo oxun (Komil Xorazmiy) kuchli shoir, xattot, kompozitor, davlat arbobi ham edi. “Xorazm notasi”ni ijod qilgan kishi Komil Xorazmiy bo‘lib, u mavlono Husayn Vo‘iz Koshifiy “Latoifut-tavoif” (Toifalar haqida latifalar) kitobini tarjima qildi. Bu kitob 1300/1882-yilda ko‘chirilgan, 145 varaqdan iborat. Shu kitobning boshqa bir nomi ham bor, u “Latoif va zaroif” bo‘lib, 1303-yilda tarjimon Komil Xorazmiy tomonidan ko‘chirilgan. Qo‘lyozma 185 bet. Bu kitobning tarjimasini qiyin bo‘lib, u aforizm, maqol, matal, hikmatli so‘zlar to‘plamidan iborat. Komil Xorazmiy 1303/1888-1889-yilda vafot etdi.

**Bayoni.** Matbuotimizda Bayoni haqida dastlab ilmiy axborot bergan kishilardan biri O‘zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi, tarix fanlari doktori M.Y.Yo‘ldoshev bo‘ldi. U o‘zining “Ценный источник по истории Хорезма” degan maqolasida Bayoniyning tarixiy kitoblari haqida qimmatli fikrlarni aytadi. 1960-yilda

“O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasining birinchi kitobida Bayoniy haqida qisqacha ma’lumot va shoirning g‘azali hamda muhammaslaridan namuna beriladi.

Bayoniy tarjima qilgan asarlar tubandagilar:

1. “Tarjimai tarixi Tabariy”, hijriy 1311-yilda tarjima qilingan, 1331-yilda kotib Muhammad Rasul bin Muhammad Karimbek ko‘chirgan, 685 bet (Har bir beti hozirgi uch betga to‘g‘ri keladi).

2. “Sahoiful-axbor” (Xabar sahifalari). Muallifi mavlono Darvesh, 1- jild, hijriy 1092-yilda yozilgan. 1319-yilda ko‘chirilgan, 428 bet.

3. “Sahoiful-axbor”, II jild, 1321-yilda ko‘chirilgan, 355 bet.

Bu ikki jild birga qo‘shilib, uchinchi jildning tarjimasi bilan birga katta qo‘lyozma holida Sayd Abdulla va domullo Qalandar ikkovi 1323-1326-hijriyda, ko‘chirganlar, qo‘lyozma hajmi 711 bet.

4. “Ravzatul-ahbob” (Do‘stlar bog‘i), Atoullo bin Fayzullo Husayniy asari bo‘lib, Bayoniy hijriy 1322-yilda tarjima qilgan; 1325-hijriyda ko‘chirilgan, 290 varaq.

5. “Shayboniynoma” Binoiyning asari bo‘lib, uni Bayoniy 1333-hijriyda tarjima qilgan, 106 bet.

Bayoniyning boshqa tarjimalari ham bor<sup>1</sup>. Yuqorida keltirilgan asarlardan ko‘rinib turibdiki, Bayoniy 250 bosma bet asarni tarjima qilgan. She’riy devoni, tarixiy asarlarini ham qo‘shsak, o‘zi shaxsan chiroyli qilib ko‘chirgan kitoblarni hisobga olsak, Bayoniy ijodining naqadar sermahsul ekanligiga iqrar bo‘lamiz.

### **5.9. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoro, Toshkent va Farg‘onada arab va fors-tojik tillaridan qilingan tarjimalar**

Bu davrda Buxoro, Farg‘ona va Toshkentda 25 ga yaqin nomdagi asar o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Ularning ko‘plari fors-tojik tilidan ag‘darilgan badiiy, tarixiy, falsafiy asarlar edi. Bahodir xo‘ja Nozim Siddiq Hazin “G‘azoi Rum” (Rum urushi) ni tarjima qildi.

Tarjimai” “Muxtasarul-viqoya” (Qisqartirilgan viqoya) kitobi 745/1347-yilda vafot etgan. Ubaydullo bin Ma’sud Sadrush Sharia-

---

<sup>1</sup> Ushbu kitobning “Tarixiy asarlar tarjimasi” bo‘limida ham Bayoniyning tarjimachilik sohasidagi xizmatlari qayd etiladi.

ning musulmon qonunshunosligiga oid asarining tarjimasidir. Bu asarning Xorazmda qilingan tarjimasini ham bor<sup>93</sup>.

Shoir **Xiromiy** hind shoiri Xisrav Dehlviyning “Chor darvesh” nomli asarini she’riy yo‘l bilan erkin tarjima qilgan. Bu qo‘lyozma “Chahor darveshi” Xiromiy degan nom bilan 1272/1855-yilda ko‘chirilgan, hajmi 270 bet. “Chor darvesh”ni shoir Siddiq ham nasr va nazm aralash tarjima qilgan. Bu tarjimadan ba’zi bir parchalar va Bu variantda hikoyalar she’riy parchalar bilan qo‘shib beriladi. Asar o‘zbekchaga ham tarjima qilingan, ammo tarjimon nomi noma’lum.

O‘zbek xalqi “Ming bir kecha” asari chiqmasdan ilgari undagi ertaklarni og‘zaki aytib yurar edi. Asarning qayerda va kim tomonidan yozilgani ma’lum emas, hatto, uning dastlabki asl nusxasi arabchami yoki forscha ekanligi ham munozara mavzusi bo‘lgan<sup>1</sup>. 60-yillarda “Ming bir kecha”ning 8 tomlik to‘la nashri Misrdagi originaldan birinchi marta tarjima qilingan. S.Mutallibov asarning 1- va 8-tomlarini tarjima qilgan. “Ming bir kecha” asarining olti tomi bosmadan chiqqan. Sidqiy Xandayliqiy tarjima qilgan “Alf layla va layla” fors tilidan qisqartib ag‘darilgan edi. Keyin u **Ahror mahzum** tomonidan arab tilidan o‘zbek tiliga to‘la tarjima qilingan. (Tarjimon Ahror mahzum).

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Tarjimachilik ishining keksa namoyandalari kimlar edi?
2. XII-XVI asrlarda yaratilgan tarjima asarlaridan qaysilarini bilasiz?
3. “Shohnoma” dostonining tarjimalari haqida so‘zlab bering.
4. “Kalila va Dimna” asarining tarjimalari haqida so‘zlab bering.
5. XIX asr va XX asrning boshlarida arab, fors-tojik tilidan tarjima qilingan asarlar haqida gapiring.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. –Toshkent: ToshDShI, 2016.
2. Sharipov J. O‘zbekistonda tarjima tarixidan (*XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davr*). –Toshkent: ToshDShI, 2017.

---

<sup>1</sup> Минг бир кеча (саккиз томлик). 1-том. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1959. – Б.10-11.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

3. Алишер Навоий. Мажолисун нафоис (Нафис мажлислар). Суйима Ғаниева нашрга тайёрлаган илмий-танқидий матн. – Тошкент: Ўз ФА нашриёти, 1961. –Б.198.

4. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғоти-т турк. –Тошкент: Ўз ФА нашриёти, 1960ю 1-том. –Б.44-бет.

5. Ғуломов Я., Набиев Р.Н., Ваҳобов М.Ғ. Ўзбекистон тарихи (бир жилдлик). –Тошкент: Ўзбекистон ФА нашриёти, 1958.

6. Ўзбекистон тарихи. 1-том, 1-китоб. –Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1956.

## 6-MA'RUZA

### ARAB, FORS-TOJIK TILLARIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILINGAN TARIXIY, ILMIY, FALSAFIY ASARLAR HAQIDA

#### Reja:

1. Tarixiy-adabiy asarlar tarjimasi
2. Axloqqa oid asarlar tarjimalari
3. Diniy asarlarning tarjimalari
4. Musulmon huquqshunosligiga oid kitoblar tarjimasi
5. Leksikografiya tarixidan kuzatishlar

**Tayanch soʻz va iboralar:** *tarix, tabobat, matematika, joʻgʻrofiya, Sharq qoʻlyozmalari, Tarixiy-adabiy asar, “Tarixi komil”, musulmon huquqshunosligi, leksikografiya tarixi.*

Arab va fors tillaridan qilingan tarixiy, ilmiy asarlarning tarjimalari haqida bizda shu vaqtga qadar bironta ilmiy asar yoʻq, bu sohada loaqal katalog, bibliografiya ham tuzilmagan. Garchand biz badiiy asarlarning tarjimasini oʻrganishni asosiy maqsad qilib olgan boʻlsakda, boshqa fanlardan qilingan tarjimalar haqida ham qisqacha maʼlumot berib oʻtmoqchimiz. XX asrning 60-yillariga qadar Oʻzbekiston FAda mavjud Sharq qoʻlyozmalari toʻplamining olti tomi chiqdi. Bu toʻplamlarda falsafa, tarix, joʻgʻrofiya va boshqa fanlarga oid asarlar haqida qisman maʼlumot berilgan.

#### 6.1. Tarixiy-adabiy asarlar tarjimasi

Barcha fanlar ichida eng koʻp tarjima qilingan asarlar tarixga oid boʻlib, Sharqshunoslik instituti fondida 60 ga yaqin tarixiy kitoblarning oʻzbekcha tarjimasi bor. Eng qadimiy kitoblardan biri Abulhasan Ali bin Abulkaram Asiruddin Muhammad bin Muhammad Abulkarim Iz-zuddin bin al asir-al Jazariyning “Tarixi komil” nomli butun dunyo tarixiga oid asaridir (hijriy 628-yil).

“Tarixi komil” oʻn ikki jildidan iborat fundamental asar boʻlib, XIX asr boshlarida Xorazmda tarjima qilingan. Asarning birinchi jildini Nurullo mufti Eshon va mulla Muhammad Sharif oxun, ikkinchi jildini Muhammad Rafiʼ ibn Nurullo mahzum, uchinchi jildini mulla Ibodullo mahzum, toʻrtinchi jildini domla Xudoybergan

oxun, beshinchi jildini Muhammad Sharif xo‘ja valadi Abdurahmon xo‘ja, oltinchi jildini mulla Otaniyoz ibn Xo‘janiyoz, yettinchi jildini Ibodullo xo‘ja oxun valadi Bobo xo‘ja va domla Muhammad Odil valadi Ortiq Niyoz, sakkizinchi jildini Ju-maniyoz oxun bin Omonniyoz so‘fi bin Nurmahammad so‘fi, to‘qqiz-inchi jildini Saidniyoz valadi Muhammad Ya‘qub, o‘ninchi jildini domla Jumaniyoz, o‘n birinchi jildini Saidniyoz valadi mulla Muham-mad Ya‘qub, o‘n ikkinchi jildini domla Otajon valadi Qalandar oxunlar tarjima qilganlar. Bu o‘n ikki tomli ijodiy ishni katta tarjimonlar jamoasi atigi 5-6 yil ichida o‘zbek tiliga tarjima qilib ulgurdilar.

XIV asrning oxiri, XV asr boshida yozilgan “Tuzuki Temuriy” asari o‘zbek tilidan forschaga tarjima qilingan. “Tarjimai Tuzuk Temuriy” – Amir Temurning tarjimai holi bo‘lib, u “Tuzuk Temuriy” yoki “Malfuzoti Amir Temur” deb atalgan kitoblarning tarjimasidir. Bunda Amir Temurning yoshligidan tortib to jahongir bo‘lganiga qadar o‘tgan voqealar yozilgan, dahshatli jang manzaralari tasvirlangan va Temurning aytgan fikrlari bayon etilgan. Asarni Abu Tolib al Husayniy o‘zbek tilidan forschaga o‘giran. U hijriy 1258-yilda ko‘chirilgan.

“Tuzuk Temuriy” kitobi 1894-yilda Qozonda rus tilida bosilib chiqdi. Toshkentda ham “Temur noma” (книги Темура) degan nom bilan asarning birinchi qismi nashr qilindi.

Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” nomli ajoyib asari forsoj va boshqa tillarga bir necha marta tarjima qilindi<sup>1</sup>. Navoiy zamondoshi Mirxondning “Ravzatus-safo” (Safo bog‘i) nomli 7 tomlik tarixiy kitobi o‘zbek tiliga to‘la tarjima qilingan.

Sayid Muhammad bin Burhoniddin Xondshoh – laqabi Mirxond XV asrning eng kuchli tarixchilaridandir (1494-yil 24 fevralda vafot

---

<sup>1</sup> “Majolisun-nafois” va uning tarjimalari to‘g‘risida sharqshunos olimlar V.V.Bartold, Ye.E.Bertels, A.K.Borovkov, A.N.Boldirevlar ko‘pgina qimmatli fikrlarni aytganlar. Shu asarning forsha tarjimalari haqida A.K.Borovkovning “Маджалисун нафаис” va A.N.Boldirevning “Персидские переводы “Маджалис-ан-нафаис” Алишера Навои” nomli asarlarida qimmatli ma‘lumotlar bor. Bu tarjimalar to‘g‘risida S.G‘aniyevaning “Majolisun-nafois” asarining ilmiy-tanqidiy matniga yozgan so‘zboshida ham ancha mufassal ma‘lumot berilgan. Qarang: “Мажолисун-нафоис”, Тошкент, Ўзбекистон ФА нашриёти, 1961, 13-бет.

etgan). U ko‘p tomlik “Ravzatus-safo” asarini A.Navoiy iltimosiga binoan yozdi va unga bag‘ishladi.

Mirxondning “Ravzatus-safo” asari mazmunan keng va chuqur bo‘lib, haliga qadar o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Bu asar dunyoning kelib chiqishidan to muallifning o‘z zamonasigacha, ya’ni Husayn Boyqaro davrigacha bo‘lgan tarixni o‘z ichiga olgan. Mirxond o‘zining shu asari bilan butun dunyoga mashhur bo‘ldi. “Ravzatus-safo”ning birinchi jildi bilan ikkinchi jildining yarmini Munis, ikkinchi jildining qolgan qismi va uchinchi jildni Ogahiy, beshinchi-oltinchi jildlarini Rojiy, oltinchi jildning bir qismini Muhammad Nazar, yettinchi jildini Ogahiy tarjima qilgan<sup>1</sup>. Yettinchi jild o‘z ichiga “Xotima” qismini ham oladi. “Ravzatus-safo”ning ko‘p qismlari usmonli turk tiliga va Yevropa tillariga tarjima qilingan. 1905-yilda uning bir qismi rus tiliga o‘girilgan.

Alisher Navoiy yashagan davrda yaratilgan muhim tarixiy asar<sup>2</sup> “Tazkirai Davlatshohiy” (Shoirlarning tarjimai holi) yoki “Tazkiratush-shuaro” fors tilidan o‘zbek tiliga xivalik Muhammad Rafi’ tomonidan tarjima qilindi. “Tazkiratush-shuaro” asarining muallifi Davlatshoh bin Alouddavla Baxtishoh al-G‘ozi as-Samarqandiy (1495-yilda vafot etgan) o‘z asarida faqat shoirlarning tarjimai holini yozish bilan cheklanmasdan, o‘sha davrdagi voqealar va muhim tarixiy hodisalarni ham bayon qiladi. Navoiy o‘zining “Majolisun-nafois” asarida Davlatshoh haqida shunday yozgan:

“...Amir Davlatshoh xushtab’ va darveshvasht va ko‘p salohiyatlik yigitdur. Obo va ajdodi tariqidinkim, amorat va zohir azamat va tajammuli bo‘lg‘ay, kechiyeb go‘shi ixtiyor qilib, faqr dahqanat bila qanoat qildi, va fazoil, kamolot iktisobi bila umr o‘tkardi. Ushbu mazmundakim, bu muxtasar bitiladur, Majmuatush-shuaro tasnif qilibdurkim, har kishi oni mutolaa qilsa musannifining iste’dod va kamolin ma’lum qilur. Ammo bu yaqinda xabar keldikim, foni olamdin rixlat qilibdur. Voqe’ bo‘lsa tangri anga rahmat qilg‘ay. Bu matla’ aning dururkim:

---

<sup>1</sup> Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, инв. № 7305 (I жилд), инв. № 7108 (II жилд), инв. № 7414 (III жилд), инв. № 1813 (IV-V жилд), инв. № 6789 (VI жилд), инв. № 7108 (VII жилд).

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Танланган асарлар. III том. –Тошкент: Ўздавнашр, 1948. –Б.13-бет. Нашрга тайёрловчилар: Ойбек ва П. Шамсиев.

*Zahi az oftobi orazat chashmi chahon ravshan,  
Zi chashmon ravshani karda dilamro xonumon ravshan”<sup>1</sup>.*

Bayoniy tarixiy kitoblarning o‘zbekcha tarjimasining sifat jihatidan yaxshi chiqishiga katta e’tibor berar edi. Alisher Navoiyga atalgan “Ravzatul-ahbob” kitobining tarjima qilingan variantlarini ko‘rib, bu tarjimaning sifatidan qanoat hosil qilmagani uchun, uni qaytadan tarjima qilib chiqdi.

Usmonli turk tilidan tarjima qilingan katta asarlardan biri Ibrohim Haqqiyning “Tarixi umumiy” asaridir. Bu asar Istanbulda 1889-yilda bosilgan, uni 1908-yilda domla Ro‘zmuhammad Xorazmiy Firuzning topshirig‘i bilan tarjima qilgan. Buxoro tarixiga oid bo‘lmish “Abdullonoma” ba’zan “Sharifnomai shohiy” deb ham ataladi] nomli kitob ham o‘zbek tiliga ag‘darilgan (tarjimon nomi ko‘rsatilmagan).

Fors-tojik adabiyotining ulug‘ namoyandasi Jomiyning “Nafahotul-uns min hazarotil-quds” nomli asarini Navoiydan boshqa yana bir tarjimon – xorazmli oxun Rahmonquli qori ham o‘zbekchaga ag‘dargan. Hajmi 566 betdan iborat bo‘lgan bu asar hijriy 1304-yilda ko‘chirilgan. XVI asrda “Nafahotul-uns”ni Muharram afandi (1591-yilda vafot etgan) arabchaga tarjima qilgan (Bu tarjima Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida mavjud. Qarang: inv. №2441).

O‘zbek tilidan arab, fors-tojik tillariga ham bir qancha tarixiy asar tarjima qilingan. Masalan, “Boburnoma” “Voqioti Zahiriddin Muhammad Bobur podsho” degan nom bilan o‘zbekchadan tojik tiliga Tog‘aymurod Qarluqi Xotlani al Baljuoniy (taxallusi Oxund) tomonidan 1328/1910-yilda Baljuvon hokimi Jahongirbekning buyrug‘i bilan tarjima qilingan, hajmi 270 bet. Ashtarxoniylarning shahzodasi Iskandar Sulton topshirig‘i bilan “Tarixi G‘ozoniy” kitobini Amir Abdullo o‘zbek tilidan tojikchaga tarjima qilgan va o‘sha shahzodaga bag‘ishlab, nomini “Iskandarnoma” deb atagan. Asar o‘zbeklar tarixiga oid va 1533-1535-yillarda Movarounnahrda hukmronlik qilgan shahzoda Ubaydullogacha bo‘lgan tarixiy voqealar haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

O‘zbek tilidan arab, fors-tojik, hind va boshqa tillarga tarjima qilingan tarixiy kitoblar hali chuqur o‘rganilmagan. Bu galdagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

---

<sup>1</sup> Bayoniyning tarjimachilik sohasidagi xizmatlari ushbu kitobning “Bayoniy” qismida yoritilgan.

## **6.2. Axloqqa oid asarlar tarjimalari**

“Axloqi Muhsiniy” mavlono Husayn bin Ali Voiz al Koshifiyning (910/1505-yilda vafot etgan) asari bo‘lib, u temuriylardan Sulton Husayn Mirzoning o‘g‘li shahzoda Muhsinga bag‘ishlagan. (Kitobning nomi ham shundan olingan). Bu kitob o‘zbek tiliga bir necha marta tarjima qilingan. Birinchi marta Xivada mashhur shoir Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan forschadan 1275/1858-yilda o‘zbek tiliga ag‘darildi (inv. № 1597/1); qo‘lyozmaning hajmi 432 bet bo‘lib, mulla Bobojon Xudoyberdi o‘g‘li Sanoiy tomonidan ko‘chirilgan.

“Haft kishvar” (Yetti mamlakat) nomli asarni kotib Sanoiy laqabli mulla Bobojon Xudoyberdi o‘g‘li 1278/1861-1862-yilda ag‘darib, qo‘lyozmani o‘zi ko‘chirgan. “Haft kishvar”ning muallifi Faxri bin Amiri Heraviy bo‘lib, uning o‘zi Navoiyning “Majolisun-nafois” asarini fors tiliga tarjima qilgan, “Haft kishvar” axloqqa oid she‘riy asardir. “Nasihatul-mulk” (Podshohlarga nasihat) Abu Homid Muhammad bin Muhammad ul-G‘azzoliy tomonidan fors tilida yozilgan. U 505/1111-yilda vafot qilgan. Bu asar fors tilidan arab tiliga tarjima qilingan. Muallif asarni saljuqiylardan 1105–1118-yillarda hukm surgan Malikshohga bag‘ishlagan.

## **6.3. Diniy asarlarning tarjimalari**

“Tazkirai Bo‘g‘roxoniy”. Bu birinchi qoraxoniylar Sotuq Bo‘g‘roxonga (344/955-yilda o‘lgan) bag‘ishlanib yozilgan so‘fizmgaga oid asardir. Muallifi Ahmad bin Sa‘diddin al O‘zgan an-Namongoniy bo‘lib, tojikchadan o‘zbek tiliga katta o‘zgarishlar bilan tarjima qilingan. Tarjimoni ma‘lum emas. Qo‘lyozma XIX asrning birinchi yarmida ko‘chirilgan. Bu asarning o‘zbekcha ikkinchi, qisqartirilgan tarjimasini ham bor (inv. № 1818-1). Tarjimon Niyoziy Qashg‘ariy qo‘lyozmani o‘zi 1230/1830-yilda ko‘chirgan.

“Tazkiratul-avliyo”. Shayx Farididdin Muhammad bin Ibrohim Attor (627/1230-yilda vafot etgan) bu asarni yozgan. Kitob inqilobdan ilgari bir necha marta ko‘chirilgan va o‘zbek, tatar tillariga tarjima qilingan. Xorazmda XIX asrning birinchi yarmida noma‘lum tarjimon tomonidan o‘zbek tiliga ag‘darilgan. 1243/1827–1828-yilda qisqartirilgan varianti ham o‘zbekchaga tarjima qilingan (inv. № 77-P). Bundan boshqa yana xo‘ja Shoh bin Sayd Ahmad ham 1275/1858-yilda tarjima qilgan (inv. № 1759). Bu tarjima 1874-yilda (inv. № 868) va 1906-yilda (inv. № 870) ham ko‘chirilgan.

“Silsilai xo‘jagoni naqshbandiya” (Naqshbandiya xo‘jalarining yo‘li) asarining muallifi Tohir Muhammad bin Muhammad Toyibi Xorazmiy bo‘lib, bu asar “Tazkirai Tohir eshoni” degan nom bilan mashhurdir. Asar Abulg‘ozi Muhammad Bahodirxon davrida 1744-yilda yozilgan. Naqshbandi tariqatida 32 ta shayx haqida qisqacha ma‘lumot berilgan. Bu asarni 1327/1909-yilda beshariqlik domla Muhammad Yoqub oxun o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Xo‘ja Niyoz so‘fi bin Eshbobo 1912-yilda ko‘chirgan. Asarning asl nusxasi Xorazmda dastlab XIX asr o‘rtasi, so‘ngra 1894-yilda ko‘chirilgan.

“Ravzatush-shuhado” (Shahidlar bog‘i) asarining muallifi 910/1504-1505-yilda vafot etgan Husayn bin Ali al Voiz al Koshifiy bo‘lib, Muhammad payg‘ambar, imom, xalifalarning tarixi haqida yozilgan. Bu asarni ozarbayjon tiliga mashhur shoir Muhammad bin Sulaymon Fuzuliy (1498-1556) tarjima qilgan. Sayqaliy ham buni she‘riy yo‘l bilan o‘zbekchaga ag‘dargan. Mazkur kitobni Xorazmda domla Qurbonniyoz bin usta Polvonniyoz ham tarjima qilgan.

“Tarjimai risolai miata salavot” Muhammadning hayoti haqida yozilgan asardir. Tarjimon hoji Abulfatx mudarrisi Multoniy kitobni arab tilidan fors tiliga tarjima qilib, o‘zi ham sharhlar yozgan, qachon tarjima qilingani ma‘lum emas. Asar XVII asrda ko‘chirilgan.

“Al-Qur‘on” XIII-asrda tarjima qilingan, bu qo‘lyozmada avvalo arabcha matn, so‘ngra tojikcha va o‘zbekcha tarjimalari berilgan. Bu tarjima qadimgi o‘zbek tilining tarixini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Qur‘onning fors tiliga yana bir qancha tarjimalari bor (inv. №2172, 2891 va h).

#### **6.4. Musulmon huquqshunosligiga oid kitoblar tarjimasi**

Shariat qonunlarini sharhlagan va shariat ahllariga qo‘llanma bo‘lgan huquqshunoslikka oid “Muxtasarul-viqoya” nomli asarning muallifi Ubaydullo al Mahbubiydir. Bu kitobning tarjimoni noma‘lum. U “Muxtasar ul viqoya” tarjimasi degan nom bilan 1906-yilda ko‘chirilgan. Asar Xorazmda o‘zbek tiliga o‘girilgan. Uning bundan boshqa ham tarjimasi bor; bu domla Muhammad Salah tarjimasi bo‘lib, qo‘lyozmani Muhammad Sharif oxun bin domla oxun 1905-yilda ko‘chirgan. Bu tarjima ham Xorazmda qilingan (inv. №7282).

Islom va shariat huquqshunosi Abu Hafs Umar bin Muhammad bin Ahmad bin Ismoil Nasafiyning (537/1142-yilda vafot qilgan) “Tarjimai aqoid” nomli asari islom aqidasi oiddir. Asar bir necha

marotaba ko‘chirilgan. Dunyoning mashhur kutubxonalarida ham uning qo‘lyozmasi bor. Bu asar ashtarxoniylar davrida (1680-1702) tojik tiliga ham tarjima bo‘lgan, lekin tarjimoni ma’lum emas.

“Durrul-ajoyib” (Ajoyib durlar) asari musulmonlarning diniy e’tiqod va urf-odatlarini haqida muhokama yuritadi; muallifi ma’lum emas. U O‘rta Osiyo va Volga bo‘ylarida keng tarqalgan edi. O‘zbek tiliga ham ag‘darilgan, tarjimoni ma’lum emas; kotib mulla Muhammadshoh bin Xizr so‘fi 1253/1837-yilda ko‘chirgan.

### **6.5. Leksikografiya tarixidan kuzatishlar**

Tarjima tarixini o‘rganar ekanmiz, lug‘at tuzish tarixi va bu sohadagi tajriba va urinishlarni chetlab o‘tish mumkin emas. Chunki bu ikki soha bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Lugatchilik ishi katta tarixga ega. O‘zbek va fors tillarini muhoyasa qilib tekshirgan ulug‘ Alisher Navoiyning “Muhokamatul-lug‘atayn” asari uning qariyb yarim asr mobaynida olib borgan kuzatishlarining ajoyib samarasi sifatida yuzaga chiqdi. Bu asarini Navoiy umrining oxirida, 1419-yilda yaratgan. “Muhokamatul-lug‘atayn” bir necha marotaba nashr etilgan. Chunonchi, Parijda (1844-yil), Qrimda (1895-yil), Istanbulda (1895-yil) va Qo‘qonda (1917-yil) bosilib chiqqan. O‘zbekistonda bu asar 1917-1965-yillar orasida uch marta nashr qilingan.

Navoiy asarlarining leksikasini talqin qiluvchi lug‘atlar ham yaratilgan. Shunday lug‘atlardan biri “Al-lug‘otun-Navoiya va al istish hodatul chig‘atoiya” (Navoiy lug‘ati va chig‘atoy tili dalillari) asarini Aloyi binni Muhibiy 1560-yilda tuzgan. Bu asarni ko‘pincha lug‘atning birinchi bobi “Harful-alfi maftuha” boshida kelgan so‘zdan olinib, qisqartirilgan holda “Abushqa” ham deyilar. Ilmiy jamoatchilik o‘rtasida bu lug‘at shu nom bilan mashhurdir.

“Abushqa”ni 1869-yilda rus olimi Velyaminov-Zernov Sankt-Peterburgda nashr qilgan va unga fransuz tilida so‘z boshi yozgan. Qozon va Boku shaharlarida ham “Abushqa” lug‘ati bosilgan.

Lug‘at muallifi Navoiyning barcha (badiiy, ilmiy, tarixiy va boshqa) asarlaridagi so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarini beradi, hamda uning she’r, g‘azal va dostonlaridan misollar keltiradi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan “Arabcha-o‘zbekcha-tojikcha lug‘at” “Muntaxabul-lug‘ot” (Tanlangan so‘zlar lug‘ati) bilan shu nomdagi “O‘zbekcha-tojikcha lug‘at” alohida diqqatga sazovordir. Har ikki

lugʻatning muallifi Muhammad Rizo boʻlib, biri 1798-yilda, ikkinchisi 1799-yilda yozilgan. Bu asarlar Xivada tuzilgan boʻlib, “Abushqa”ga oʻxshash, asosan Navoiy asarlaridagi soʻzlarni izohlaydi va arab, fors soʻzlarini tarjima qilib beradi. Muallifning bu lugʻatga yozgan bosh soʻzida lugʻat tarixiga oid va baʼzi bir terminlarni izoh qilish masalasida qimmatli fikrlar bor. Muallifning bu lugʻatni tuzishdan maqsadi uning bosh soʻzida aytilgan. Chunonchi, u yozadi:

“...Xotiri fotirgʻa muqarrar qilindiki, risolai lugʻot fanida jamʻi qilgʻoy to ahbobgʻa boisi yod ovarliq va ashobgʻa sababi madh gustarliq boʻlgʻoy, bar vajhiki, atnob va askordin mubarro, ajoz va ixtisordin muarro boʻlgʻoy, agarchandiki bu bobda kitoblar tasnif qilmishlar va mujalladilar tartib bermishlar,... ..“Navodirush-shabob” va “Badoyeulvasat” boʻlgʻoy, biror bayt az jihati istishhod tariqasida kelturdim. Muxotab koʻngliga izola i shak va izdiyodi yaqin boʻlgʻoy deb va agar fors boʻlsa majmaul forsdin jamʻ va intihob qildim...”

Muallif Navoiy va Fuzuliy asarlarida uchragan soʻz va iboralarining toʻgʻri va majoziy maʼnolarini bir-biriga qiyos qilib tushuntirib beradi. Bitta misol: “*Mil* – sulsi farsah buvad, amir “Xayratul abror”da buyururlar. Masnaviy:

*Oʻq kabi turlar bori endin zalil,  
Kishidin ixroj boʻlub mil-mil.*

Va yana *mil* ulkim, podshohlar gʻazab qilgʻon odamini koʻziga qizutub chekorlar, no bino boʻlur ermish, bu maʼnigʻa mavlono Fuzuliy buyururlar. Masnaviy:

*Ey Fuzuliy boxmayam to gʻayra har hunin mija,  
Otashin bir mildurkim, chashmai gʻayrat chekar.*

Biz Alisher Navoiy yashagan davrga qadar va undan keyin chiqqan ikki tilli va koʻp tilli lugʻatlar haqida qisqacha maʼlumot berdik. Lugʻat tuzish tajribasining katta tarixi bor. Lugʻat tuzish prinsiplari ham xilma-xil. Bularni qunt bilan oʻrganish, lugʻat tuzish tarixi ustida ilmiy tekshirish ishi olib borish lugʻatshunoslarimizning muhim vazifasidir.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Tarixiy-adabiy asarlar tarjimasi
2. Axloqqa oid asarlar tarjimalari
3. Diniy asarlarning tarjimalari
4. Musulmon huquqshunosligiga oid kitoblar tarjimasi

## 5. Leksikografiya tarixidan kuzatishlar

### **Adabiyotlar:**

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. –Toshkent: ToshDShI, 2016.

2. Sharipov J. O'zbekistonda tarjima tarixidan (*XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davr*). – Toshkent: ToshDShI, 2017.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

3. Алишер Навоий. Танланган асарлар. III том. –Тошкент: Ўздавнашр, 1948, 13-бет. Нашрга тайёрловчилар: Ойбек ва П.Шамсиев.

4. Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, инв. № 7305 (I жилд), инв. № 7108 (II жилд), инв. № 7414 (III жилд), инв.№1813 (IV-V жилд), инв. № 6789 (VI жилд), инв. № 7108 (VII жилд).

**7-MA'RUZA**  
**XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA**  
**TOSHBOSMADA NASHR QILINGAN TARJIMA**  
**ASARLARI VA TARJIMONLAR HAQIDA**

**Reja:**

1. XIX asr oxiri va XX asr boshida Makaziy Osiyo va O'zbekistonda ilg'or, demokratik adabiyotning vujudga kelishi.
2. XX asrning 20-yillariga qadar tosh bosma-litografiyalarda bosilgan tarix, jo'g'rofiya, falsafa, axloq va tibbiyotga doir ilmiy kitoblar, darsliklarning o'zbek tiliga tarjimasi.
3. Tibbiyotga oid "Xazinatul-hikmat" va "Tibbi Yusufiy" asarlari

**Tayanch so'z va iboralar:** *demokratik adabiyot, tosh bosma-litografiya, "Xazinatul-hikmat" va "Tibbi Yusufiy" asarlari.*

**7.1. XIX asr oxiri va XX asr boshida Makaziy Osiyo va O'zbekistonda ilg'or, demokratik adabiyotning vujudga kelishi**

O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olinganidan keyin Buxoro va Xiva xonliklarida hamda Turkiston General gubernatorligiga qarashli oblast va uyezdlarda bosmaxona va toshbosma (litografiya)lar tashkil etilib, ularda original va tarjima asarlari nashr etila boshlandi. Kitob chiqarish ishi bilan bir qancha xususiy nashrlar mashg'ul bo'ldi. Toshkent, Qo'qon, Samarqand, Buxoroda ham gazeta-jurnallar chiqa boshladi. Endi asarlarni qo'lda ikki-uch nusxa ko'chirishdan ko'ra, bosmaxona va litografiyada bosib, ko'p nusxalarda tarqatish imkoni tug'ildi. Kitob sotuvchilar, kitob chiqaruvchilar, shirkat va jamiyatlar tashkil bo'ldi. Chunonchi, Buxoroda noshir Solih xo'ja Buxoriy, Toshkentda G'ulomiya (Orifjonovlar matbaasi) va shirkati "Xayriya" Qo'qonda noshir OqaeV, Samarqandda noshir qori Abduraufov va "Turkiston kutubxonasi" shirkati, Xivada Muhammad Rahimxon shirkati va b. Bulardan tashqari, rus matbaalarida ham o'zbekcha kitob, gazeta-jurnallar nashr etildi.

XX asr boshlarida Samarqand, Toshkent, Buxoro, Farg'ona shaharlarida tarjimalarning qo'lyozmalari kamdan-kam uchraydi, lekin Xorazmda litografiyada, ko'pincha, original asarlar (bayozlar, she'riy to'plamlar, devonlar) bosilsa ham, tarjima asarlari kamdan-kam bosilar, shuning uchun qo'lyozma holidagi ko'chirib tarqatilardi.

XIX asr oxiri va XX asr boshida Makaziy Osiyo, jumladan O‘zbekistonda ilg‘or, demokratik adabiyot vujudga keldi. Mehnatkash xalq orasidan o‘tib chiqqan Muqimiy, Furqat, Avaz, Zavqiy, Hamza kabi shoirlar o‘z ijodlari bilan ezilgan xalqqa xizmat qildilar. Bu ilg‘or, demokratik reaksiya g‘oyalarga qarshi chiqib, kambag‘al dehqonlar, bechora hunarmandlar, mehnatkashlar manfaatini ko‘zlardi. Demokrat shoirlar, bir tomondan, mehnatkashlarni ezib kelayotgan boy, savdogar, ulamo-sipohilarga qarshi hajviy she‘rlar yozib, ularni savalasa, ikkinchi tomondan, chor amaldorlari, mustamlakachi to‘ralar qilmishlarini fosh qilar edilar.

**Almai**y (asl ismi qori Fozzullo) o‘z zamonasining kuchli shoirlaridan bo‘lib, o‘sha vaqtlarda gazeta-jurnallarda va she‘riy to‘plamlar, bayozlarda she‘rlari chiqib turar edi. Toshkentda toshbosmada “Kalila va Dimna” asari 1898-yilda Almaiy tarjimasida nashr etildi<sup>1</sup>. Almaiyning bu arjimasini Toshkentda toshbosmada uch marta bosilib chiqdi. Chunonchi, 1898-yilgi nashridan keyin 1905- va 1913-yillarda qayta bosildi. (“Kalila va Dimna” asarining fors tilidan qilingan tarjimasidan boshqa Almaiyning yana qanday tarjima asarlari borligi hozirgacha (XX asrning 60-yillarigacha) ma‘lum emas).

Biz yuqorida Shavkat Sidqiy Xandayliqiy tomonidan qilingan “Ming bir kecha” “Alf layla va layla” arab ertaklari to‘plamining tarjimasini haqida ma‘lumot berib o‘tgan edik. Bu asar 1912-yilda toshbosmada nashr qilinadi. Shu asarning ikkinchi qayta nashri haqida “Oyna” jurnalining 1914-yil, 27-son, 523-betida “Yangi tarjima” degan xabar bosilgan. Sidqiy Xandayliqiy “Ming bir kecha”ni forschadan qisqartib tarjima qilgani uchun Sayd Ahror mahzum uni arabchadan to‘la qayta tarjima qilgan deb tushunmaslik kerak. Haqiqatda esa, 1912-yilning o‘zidayoq har ikki tarjima baravar bosilib chiqdi. (Buni aniqlash uchun Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 10551-raqamli (Sidqiy Xandayliqiy tarjimasini) va 8938 yoki 75-raqamli (Said Ahror mahzum tarjimasini) kitoblarga qarang: ikkalasining chiqqan yili 1912 deb ko‘rsatilgan).

“Qissasi Ibrohim bin Adham” asarining tarjimasini Toshkentda Abdulla hoji nashrida 1906, 1911, 1913 va 1914-yillarda to‘rt marta qayta nashr qilindi. Ushbu asar Samarqandda 1910-yilda Demurov

---

<sup>1</sup> Yuqorida biz “Kalila va Dimna” asarining dastlabki o‘zbekcha tarjimalari xususida maxsus to‘xtab o‘tgan edik.

bosmaxonasida va Kogonda ikki marta bosildi. Asar Lohurda urdu tilida ham bosilib chiqqan edi.

“Dostoni Said Battol G‘oziy” asari “Said Battol G‘oziy” degan nom bilan usmonli turkchadan tarjima qilinib, toshbosmada bosilib chiqdi. Tarjimoni noma’lum. Asar qozoq, tatar tillarida ham bosilgan.

“Said Battol G‘oziy” haqida kekxa adabiyotshunos, Tojikistonlik olim Vadud Mahmudiy 1926-yilda “Navoiygacha turk adabiyoti” degan maqolasida shunday deb yozgan edi: “El adabiyotining eskidan yozilganlari orasida (211-hijriyda) forschadan arabchaga tarjima qilingan “O‘g‘uznoma” atalgan milliy doston borkim, asosan turkchadan o‘zgartirilgandir. Bu dostonning muhim bir qismi bo‘lg‘on “Dada Qo‘rqut” yoki “Qitobi Qo‘rqut” kabi “Said Battol G‘oziy” dostonida el adabiyotidandur. Bu “O‘g‘uznoma” islomiyatdan burun tasbit etilganiga hukm etish mumkindir. Chunki 211-hijriyda forschadan arabchaga tarjima qiling‘on bu dostonning forschaga tarjima qiling‘oni bilan arabchalanish orasida har holda anchagina vaqt o‘tishi ehtimoli bo‘lg‘oni kabi, forsha tarjimasi uchunda, avvalan turkcha yozilgan (tasnif etilgan) bo‘lishi lozimdir”.

Firdavsiyning “Shohnoma” dostonining bir qismi 1908-yilda “Shirkati xayriya” nashrida (hajmi 642 bet) Xomushiy tarjimasida bosilib chiqdi. O‘sha yilning o‘zidayoq noshir Saidakbar shu kitobning birinchi jildini (hajmi 567 bet) rasmlil qilib G‘ulomiya (Orifjonov) bosmaxonasida nashr qildirdi. Toshbosmalarda nashr etishda eski tarjima qilingan qo‘lyozmalardan foydalanish faqat Xomushiyning tarjimasida o‘z aksini topdi. Boshqa tarjimalarning qo‘lyozma nusxalaridan negadir kam foydalandilar. Bizga buning sabablari ayon emas, balki noshir va bosmaxona, litografiya egalari Farg‘ona, Buxoro, Xorazmdagi qo‘lyozmalarni ko‘rmagandirlar. Masalan, Xorazmda “Guliston”ning Ogahiy tarjima qilgan, badiiy jihatdan yuksak nodir nusxasi bo‘lgani holda, Toshkentdagi noshir boshqa bir tarjimani bosib chiqardi. Toshkentdagi noshir Xiva xonligida qilingan tarjimani bilmaganligi bunga sabab bo‘lishi ehtimol. Shuning uchun Toshkentda Shayx Sa‘diyning “Guliston” dostoni Murodxo‘ja domla tarjimasida “Shavqi Guliston” nomi bilan bosilib chiqqan. Murodxo‘ja domlaning tarjimasi ham muvaffaqiyatli chiqqan. Bu tarjimada asarning forsha matnda ham berilib, hoshiyasida ayrim so‘zlarning izohi bor.

Xisrav Dehlaviyning “Chor darvesh” nomli asari har xil variantlarda: goh nasr-nazm bilan naql qilinib, goh qisqartirilgan holda, goh

rasm-bezaklar bilan chiryli jihozlanib, Tehron, Bombay va boshqa shaharlardagi turli-tuman tipografiyalarda fors tilida chop etildi.

“Chor darvesh” o‘zbek tiliga uch marta tarjima qilingan qilinib, Toshkent, Kogon va boshqa shaharlarda bosilib chiqdi.

20-yillarga qadar qilingan “Chor darvesh”ning tarjimalaridan ba’zilar keyinroq ham qayta bosildi. Masalan Xiromiy tarjima qilgan asar alohida 1960-yilda nashr etildi. (Til va adabiyot institutining ilmiy xodimi shoir Anisiy nasrga tayyorlangan). Ulug‘ fors-tojik shoiri Shayx Sa’diyning mashhur “Guliston” dostonidan boshqa “Karimo” nomli kitobi “Rahimo tarjimai Karimo” nomi bilan o‘zbek tiliga tarjima qilildi. Bu pand-nasixat to‘la maqol, aforizmlardan iborat asardir” Karimo asarining Faqat bir tarjimasi bo‘lib, u ham toshbosmada bosilgan. Kitobda mana shunday deb yozilgan:

“Bu risolai majma’i pandki, tasnifkardai allomai qutbi baland martaba shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy erdi, Madrasa va maktablarimizdagi yosh talabalarning foydalanmoqlari uchun tarjima qilindi va nomi “Rahimo tarjimai Karimo” deb qo‘yuldi va mullo Kamolxon bin mullo G‘ulomxon qori Shoshiy Qarotoshiyning yoriylari birlan va faqir Sirojiddin mahzum Shavkatning tarjimasi va o‘z qalami birla orosta bo‘ldi”.

## **7.2. XX asrning 20-yillariga qadar tosh bosma-litografiyalarda bosilgan tarix, jo‘g‘rofiya, falsafa, axloq va tibbiyotga doir ilmiy kitoblar, darsliklarning o‘zbek tiliga tarjimasi**

XX asrning 20-yillariga qadar chorak asr davomida tosh bosma-litografiyalarda tarix, jo‘g‘rofiya, falsafa, axloq va tibbiyotga doir bir qancha ilmiy kitoblar, darsliklar o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Bular orasida tibbiyotga oid “Xazinatul-hikmat” va “Tibbi Yusufiy” nomli muhim asarlar bor. Abu Ali ibn Sino haqida yozilgan afsonaviy hikoyalardan iborat “Xazinatul hikmat”ni tatarchadan Abdul Rojiy mulla Karim qori Ho‘qondiy tarjima qilib, Toshkentda 1912-yilda bosib chiqardi. “Tibbi Yusufiy” asarini Muhammadshoh bin Shohfayzullo tarjima qilib, 1898- yilda Toshkentda bostirdi (207- bet).

Axloqqa oid “Majmaul-odob” (Odob majmuasi) nomli asar 1917-yilda Maqsud xo‘ja bin Mansur xo‘ja tarjimasida chop qilindi. Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida shu kitobning usmonli turk tiliga qilingan tarjimasi (inv. № 11006) va tatarcha tarjimasi (inv. № 3947, 10246 va 11979) dan bir necha nusxalar bor.

“Maxzanul-maqsud” (Maqsadlar xazinasini) nomli asarni Maqsud xo‘ja bin Mansur xo‘ja fors tilidan tarjima qilgan va bu 1909-yilda Yakovlev matbaasida nashr qilingan.

“Temurnoma” asari Amir Temur haqida yozilgan forsi kitobning tarjimasi bo‘lib, mutarjim Salohiddin xo‘ja Alovuddin o‘gli 1910-yilda Toshkentda nashr qildirgan. Toshbosmalarda bosilgan tarjimalar ichida diniy kitoblar ko‘p qismni tashkil qiladi. Ularning ba‘zilarini payg‘ambarlar haqida “Durrul-majolis” (Majlislar duri), ba‘zilarini ibodat, duo, radnoma, aqidalar haqida “Durrul-masoil” (Masalalar duri), “Duoi ismi a‘zam”, “Radnoma”, “Ibodati islomiya”, “Iqdu-durar” (Durlar shodasi), ba‘zilarini tush ta‘birlari haqida (Ta‘birnoma) yozilgan asarlar bo‘lib, bularda aslga to‘g‘ri kelmaydigan, hayoliy, diniy, reaksiya fikrlari talqin qilinadi. Chunonchi, tush ta‘birlari haqida tarjima qilingan kitobdan bitta misol keltiramiz:

“Asb, aytibdurlarkim, har kim tushida xushjilov otga minsa, izzat va davlat va obro‘ tobog‘oy; va agar otni ba‘zi asbobi kam bulsa, o‘shar miqdor obro‘si ham kam bo‘lg‘oy; va agar otni dumi va yoli ko‘b bo‘lsa, xizmatkorlari ham ko‘b bo‘lg‘oy; va agar bo‘lmasa - bo‘lmas; va agar otg‘a yalang‘och minsa, musibatga qolg‘oy...”

### **Nazorat uchun savollar:**

1. XIX asr oxiri va XX asr boshida Makaziy Osiyo va O‘zbekistonda ilg‘or, demokratik adabiyotning vujudga kelishi.
2. XX asrning 20-yillariga qadar tosh bosma-litografiyalarda bosilgan tarix va jo‘g‘rofiyaga doir ilmiy kitoblar, darsliklarning o‘zbek tiliga tarjimasi.
3. XX asrning 20-yillariga qadar tosh bosma-litografiyalarda bosilgan falsafa, axloq va tibbiyotga doir ilmiy kitoblar, darsliklarning o‘zbek tiliga tarjimasi.
4. Tibbiyotga oid “Xazinatul-hikmat” va “Tibbi Yusufiy” asarlari

### **Adabiyotlar:**

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. –Toshkent, ToshDShI, 2016.
2. Sharipov J. O‘zbekistonda tarjima tarixidan (XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davr). – Toshkent: ToshDShI, 2017.

## 8-MA'RUZA

### VAQTLI MATBUOTDA TARJIMA QILINGAN ASARLAR HAQIDA

#### Reja:

1. "Sho'ro" jurnalida arab, fors, turk tillarida qilingan tarjimalar
2. "Sho'ro" jurnalida rus tilidan tarjima qilingan asarlar
3. Vaqtli matbuotda 1905-yildan keyin bosilgan tarjimalar

**Tayanch so'z va iboralar:** *"Sho'ro" jurnali, "Tarjimon" gazetas*i, *"Turkiston viloyatining gazet*i", *vaqtli matbuot, ilg'or demokratik intelligensiya*.

O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda gazeta va jurnallar dastlab chiqarila boshlagan davrdan uning sahifalarida diplomatik hujjatlar, telegramma xabarlardan tortib, arab, fors-tojik tillaridan ba'zi bir hikoyalar, rus tilidan ilmiy, badiiy asarlarning tarjimalari bosila bordi. Ma'lumki, XIX asr oxiri, XX-asr boshlarida, ayniqsa, 1905-yil to'ntarishidan so'ng turkiy tillarda gazeta-jurnallar chiqqa boshladi. Rossiya tarkibida yashovchi turkiy xalqlar ichida tatar tilida ko'proq gazeta-jurnallar chiqar, ular tarjima ishlarida ham boshqalarga qaraganda oldinda edi. Qrimda 1882-yilda "Tarjimon" nomli maxsus gazeta chiqarilib, uning bir tomonida rus tilida, ikkinchi tomonida qrim-tatar tilida ayni bir material tarjima qilinib bosilar edi.

"Tarjimon" Osiyoda, jumladan hozirgi O'zbekiston hududida ko'p tarqalgan gazetalardan biri edi. Bu tipdagi, ya'ni ikki tilli gazeta 1882-yilgacha boshqa turkiy tillarning birontasida chiqarilmas edi.

"Tarjimon" gazetasida maqola, xabarlar ruscha yozilsa, uni qrim-tatar tiliga, agar qrim-tatar tilida yozilsa, rus tiliga sistemali ravishda tarjima qilinar edi. Faqat ba'zi mahalliy xabarlar yoki arabcha, forschadan tarjima qilingan hikoyalargina rus tilida berilmas edi.

"Tarjimon" gazetasi "Hikoya" rubrikasi ostida 50-sonidan boshlab "Ming bir kecha"ning tarjimasi bosa boshladi. Bu bilan gazetxonlarni arab xalqining ajoyib adabiy yodgorligi bilan birinchi martaba vaqtli matbuotda tanishtirdi.

"Turkiston viloyatining gazeti" (u "Tarjimon"ga qaraganda o'n ikki yil ilgari chiqqa boshlagan) ikki tilda nashr etilmasa ham, dastlabki yillardanoq tarjima ishlariga o'z sahifalaridan o'rin ajratdi.

“Turkiston viloyatining gazetasi” sahifalarida tizimli ravishda ilmiy va badiiy tarjima asarlari bosilib turdi. Gazetadagi barcha materiallarni Shohmardon Ibrohimov tarjima qilgan. Bu gazeta sahifalarida 1872-yil dekabridan boshlab “Bir ming va bir kechada aytilgan afsonalar” tarjimasi berib borildi va bu ish 2 yilga yaqin davom etdi. “Turkiston viloyatining gazetasi” chorizm manfaatlarini qanchalik ko‘zlamasin, baribir uning sahifalarida progressiv olimlar, shoirlar-ning so‘zlari, rus tili, madaniyati haqidagi qimmatli fikrlar bor edi. 1906-yil, 2-yanvarda “O‘rta Osiyoning umr guzorligi” gazetasi chiqq boshladi. Gazeta muallifi, muharriri va noshiri Ivan Geyr bo‘lib, uning yordamchilari mulla Olim mahzum bilan tarjimon Aydarov edi. Ammo gazetaning umri uzoq bo‘lmadi: 3 oydan so‘ng hukumat uni taqiqlagan sababli yopilgan edi.

### **8.1. “Sho‘ro” jurnalida arab, fors, turk tillarida qilingan tarjimalar**

1910-yilda shoir Dardmand Shayx Sa‘diydan bir qancha she‘rni tarjima qiladi<sup>5</sup>, shu vaqtdan boshlab uning “Guliston” dostonidan bir qancha she‘r, hikoyalar bosila boshlaydi. Jurnal “Guliston” va “Bo‘ston” asarlarining tarjimasiga alohida ahamiyat berib, bu haqda qator maqolalarni bosib chiqardi. 1914-yil Najib bin Badriddinning “Guliston tarjimasi munosabati bilan” degan maqolasi bosiladi. “Guliston”ni tarjima qilishni istagan bir tarjimonning (muallif o‘z nomini aytmaydi) “Muhtaram shoirlarimizdan bir rijo” degan maqolasi e‘lon qilinadi. Unda tarjimon “Guliston”ni tarjima qilish prinsiplari haqida o‘z fikrini aytib, shoirlardan bu haqda fikr-maslahatlar so‘raydi<sup>8</sup>. Shundan keyin juda ko‘p shoir, tanqidchi, tarjimonlar bu masala haqida o‘z fikr-mulohazalarini jurnal sahifalari-da bayon qiladilar. Ufadan Said Ramiyev “Guliston” tarjimasi haqi-da» degan sarlavha ostida ushbu asarni tarjima qilish prinsiplarini mufassal yozadi. Yana Shayx Sa‘diyning bu dostonini tarjima qilishga talabgor bo‘lgan o‘sha kishi “Guliston” tarjimasi haqida» qator-qator maqola va o‘z tarjimasidan namunalar bostirib chiqardi.

Olimjon-ul Idris o‘z davrining madaniy, o‘qimishli bir tarjimoni bo‘lib, u fransuz tilidan xam bermalol tarjima qila bilgan (“Sho‘ro” jurnalining 1914-yil,8-soniga qarang). 1914-yilning o‘rtalariga borib, Umar Xayyomning ruboiyotida she‘riy tarjimalar bosildi.

Umar Xayyom ruboiylarini kollektiv bo'lib tarjima qilish tajribasi ham ro'y berdi. Bu tarjimalar jurnalning 1917-yilda chiqqan bir qancha sonlarida bosila bordi (2 va 4-sonlariga qarang). Lekin mualliflar o'z nomlarini to'la yozmay, faqat bosh harflarini ("M.S.I.Ch") qo'yganlar, xolos. Jurnalning 11 va 13-sonlarida chiqqan Umar Xayyom ruboiylarining tarjimasiga esa "M.S" deb imzo chekilgan.

Jurnal Hofiz Sheroziy she'rlari tarjimasiga ham alohida diqqat qildi va shoirning ijodi hamda uning asarlari tarjimasining sifati to'g'risida bir qancha maqolalar bosib chiqardi.

Tarjimon Musa afandi Hofizning devonini tarjima qilar ekan, jurnal bu haqda o'quvchilarga darhol ma'lumot berdi (1912-yil, 6-soniga qarang). Ikki yildan so'ng' (1914-yil, 18-sonda) Hofiz Sheroziy haqida katta bir maqola yozilib, unda shoirning devoni Yevropa tillariga tarjima qilingani haqida mufassal ma'lumot berilgan.

Shayx Sa'diyning she'rlarini tarjima qilgan Muhammad Said Ahmad Jalil ham Hofiz Sheroziyning devonidan bir qancha she'rlarni 1916-yilda tarjima qildi. Bular ham jurnal sahifalaridan o'rin olgan.

"Kalila va Dimna"ni arab tiliga tarjima qilgan ibn Muqaffa' haqidagi maqolalar "Sho'ro" jurnalida tarjima masalalariga oid bosilgan eng yaxshi ilmiy maqolalardan hisoblanadi. Biz bu maqola haqida yuqorida "Kalila va Dimna" tarjimasini to'g'risida yozganimizda to'xtab o'tgan edik. A.Sa'diev tomonidan yozilgan "Tarixul-ulum" (Ilmlar tarixi) sarlavhali ilmiy maqolada (1909-yil, 5-son) tarjimaga aloqador ko'p gaplar bor. Bizningcha, "A.Sa'diev" 20-yillardan keyin umrini O'zbekistonda o'tkazgan prof. Abdurahmon Sa'diyning yoshlikda qo'ygan imzosi bo'lsa kerak. Prof. A.Sa'diyning o'zi ham 20-yillardan ilgari badiiy tarjima bilan shug'ullangan edi. U 1910-yilda Xolid Ziyobekning "Qabrdan tovushlar" degan asarini turkchadan tatar tiliga tarjima qilgan bo'lib, bu asar "Sho'ro" jurnalining bir qancha sonida bosilgan (1909-yil, 7-12-sonlar).

"Sho'ro" jurnali sahifalarida badiiy tarjima sohasida qo'llanilgan diqqatga sazovor bir tajribani qayd etib o'tamiz. Chunonchi, o'quvchilardan biri tahririyatga xat yozib, falon muallifning falon she'rlarini tarjima qilishni iltimos qiladi. Tahririyat bu she'rning asl nusxasini jurnal sahifasida e'lon qilib, har bir tarjimonni o'sha she'rni ag'darishga da'vat etadi. Shundan so'ng tarjimon o'z variantini yuboradi. (Bunday ijodiy musobaqada Toshkent, Qo'qon, Karmana tarjimonlari ham

o‘z tarjimalari bilan ishtirok etganlar). Tahririyat ularni o‘z navbati bilan bosib chiqaradi.

Yozuvchi Jyul Vern haqida jurnalda maqola bosilib (1911-yil, 15-son), unda yozuvchining asarlari tarjimasiga katta e‘tibor qilingan. 1911-yilda “So‘ng‘i dars” degan hikoya fransuz tilidan tarjima qilinib, ko‘pchilikka manzur bo‘lgan (Tarjimon bu hikoyaga “B.Sh” deb imzo qo‘ygan). Shillerning “Makr va muhabbat” asari L.Mustafiy tarjimasida, Ahmad Gerey Husni noshirligida bosilib chiqdi. (“Sho‘ro” jurnalining 1912-yil, 9-sonida bu tarjimaning sifati haqida taqriz bosilgan). Jurnal sahifalarida leksikografiyaga doir ancha boy material e‘lon qilindi. Usha davr sharoitida eng katta ishlardan “Lug‘ati Xamsa” bosilib chiqdiki, bunda turkcha-arab-cha-forscha-ruscha-fransuzcha lug‘atlar tartib qilingan. Bu lug‘atni Kamoliddin afandi ibn mulla Tojiddin tuzgan va uni Qozonda Xaritonov matbaasida bostirgan. “Sho‘ro” jurnalida “sart” so‘zi haqida 1912-yildan tortib to 1917-yilgacha munozarali maqolalar bosildi.<sup>12</sup> Bu maqolalarda “Turkiston viloyatining gazetasi” da o‘zbeklarga nisbatan ishlatiladigan “sart” so‘ziga qarshi keskin gaplar aytilgan.

Jurnal sahifalarida, bulardan tashqari, izohli lug‘atlar, ona tili va lug‘atlarning ahamiyati, turkiy tillarda lug‘at masalasi, uyg‘ur tili lug‘ati va hokazolar haqida ko‘p maqolalar bosilgan.

## **8.2. “Sho‘ro” jurnalida rus tilidan tarjima qilingan asarlar**

XX asrning 20-yillariga qadar tatar ziyolilari o‘rtasida rus tilini bilgan kishilar Rossiyaning boshqa chekka o‘lkalariga (masalan, Turkistonga) qaraganda ko‘pchilikni tashkil qilar edi. Buning tarixiy sabablari bor, albatta. Gazeta va jurnal sahifalarida rus tilini o‘qitish va o‘rganishga bag‘ishlab chiqqan maqolalar ko‘p, rus tilidan badiiy asarlarni tarjima qiluvchi shoir, adiblar ham yetarli edi. “Ruslar ila yaqinlashdiruv uchun onlarning (yerli xalqlarning – J. Sh.) o‘z tillariga ruschadan kitoblar tarjima qiluv bik foydalidir”<sup>13</sup>, – deb yozgan edi mashhur adib va tarjimon Fotih Karimiy.

Bu vaqtlarda yangi chiqqan gazeta, jurnal va yangi tashkil etilgan nashriyotlarda rus klassik adabiyotining namoyandalari Jukovskiy, Pushkin, Gogol, Lermontov, Goncharov, Chexov, Pisarev, Gorkiy va boshqa shoir, adiblarning asarlari tatarcha tarjimada alohida kitob yoki maqola tarzida bosilib chiqdi. Bu tarjima asarlari Boku, Ashxobod, Xorazm, Buxoro va boshqa joylarga ham tarqatilar edi.

L.N.Tolstoyning tatar tiliga tarjima qilingan asarlari faqat Tataristonda emas, balki O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekistonda ham keng tarqaldi. Masalan, "Hoji Murod", "Kavkaz asiri" Toshkent, Farg'ona, Samarqandda ham mashhur edi. "Sho'ro" jurnali sahifalarida Jukovskiy (1914-yil, 10,17-sonlarida), A.P.Chexov kabi yozuvchilarning asarlari tarjimasiga ham o'rin berilgan.

Tabiiyot, tibbiyot, ta'lim-tarbiyaga hamda tarix va musiqashunoslikka doir asarlar ham "Sho'ro" jurnali sahifalarida muntazam berib borilar edi. Masalan, "O'pka og'rig'i" (chaxotqa), "Sutdagi mikroblar va onlarning sovliqg'a foydasi" (Mechnikov maqolasi), "Qartliq ham o'lim" (Mechnikov asari) va hokazo (jurnalning 1910-yil, 1-,3-sonlari; 1911-yil, 6-9-sonlari hamda 1912-yil, 21-soniga qarang).

Rus olimi M.Kovalevskiy va sharqshunos V.V.Radlovlarining ham qator asarlari tatar tiliga ag'darilib, ular haqida maqolalar yozilgan.

### **8.3. Vaqtli matbuotda 1905-yildan keyin bosilgan tarjimalar**

Biz yuqorida 1908-1913-yillar davomida Toshkent, Samarqand va Farg'onada bironta gazeta yoki jurnal chiqmaganligi haqida yozgan edik. Faqat 1913-yil oktabr oyidagina "Zerkola" (Oina) nomida jurnal chiqa boshladi. "Еженедельный журнал на узбекском и персидском языках". Turki va forsi o'rta shevada ba'zan ruscha har shaydan bohis musavvar haftalik masallai islomiyadir. Millati islomiyaning saodat va islohina, musulmonlarni[ng] madaniyat va fununi zamoniyadan naf'lanmoqlariga xodimdur. Mas'ul muharrir va noshiri mufti Mahmud xo'ja Behbudiy. Редактор, издатель Махмуд Ходжа Бегбуди". Bu jurnal ikki, ba'zan uch tilda chiqib, xabar, maqolalar ruschadan tarjima qilib bosilardi.

1914-yil, 4-aprelda Toshkentda "Sadoyi Turkiston" gazetasi chiqa boshladi. Gazetaning oxirida "Редактор, издатель У.А.Ходжаев", gazetaning tepasida esa "Hozirda haftada ikki marta chiqadigan turkcha maishiy jarida" deb yozilgan. Gazeta o'zining bosh maqolasi "Maromnomamiz"da o'z programmasi va maslagini quyidagi so'zlar bilan ifodalaydi: "Boshqa millatlar o'zlarining o'tgan olim va adiblari-ning ismini qiyomatgacha boqi qoldirmak harakatida onlarning ismlarina ulug'-ulug' haykallar, ko'chalar, maktablar va madrasalar bino qiliyub turgan bir zamonlarida biz turkistonliklar o'tgan olimlarimizning ismlarini avlodimizdan unutmakdamiz". Bu gazeta ham milliy madaniyat taraqqiyoti yo'lini topa olmadi.

“Sadoyi Turkiston” gazetasi sahifalarida “Til va din”, “Til va imlo masalasi”, “Til masalasi” kabi maqolalar bosildi (1915-yil, 60, 63, 64-sonlariga qarang). Samarqandda haftada ikki marta chiqadigan “siyosiy, adabiy, iqtisodiy va ilmiy jarida” bo‘lgan “Hurriyat” ham xalqni sinfiy kurashdan chetlashtirish, sinflarga ajratilmagan holda, jadidchilik nuqtai nazaridan ish ko‘rdi. Bu gazetaga asosan Behbudiy, Abdu-rauf Fitrat, Mardonquli Shohmahmudzodalar rahbarlik qildilar. Gazetaning uchinchi sonidan boshlab Fitrat unga muharrirlik qila boshladi. O‘sha vaqtda Samarqandda Behbudiy bilan Fitrat jadidlarning eng faol, eng kurashchan rahbarlari edilar. Ular ham tojik, ham o‘zbek tilida maqola va asarlar yozdilar. Ularning asarlari ba’zan ruscha tarjimada ham bosilar edi.

“Tilmochlar byurosi. Rus tilinda yozilgan har xil qog‘ozlarni: gazeta maqolalarni, maktublar va arizalarni, jamiyatlarning ustaf, qonun, loyiha va qarorlarin sart-o‘zbek, qozoq va tatar tillarina tarjima qila, shuluq tillarda arizalar, maktublar va maqolalar yozub bera” (1918-yil, 21- fevral). Bu gazetada tarjima va tarjimonlarga oid xabar, maqolalar, hatto “ajnabiy tillar o‘qutg‘uchi”lari haqida ham e‘lon bosildi. Xulosa qilib aytganda, 1905-yildan keyin chiqqan gazetalar hali kattaroq tarixiy, ilmiy asarlarni tarjima qilib ulgura olmadilar. Ularda arab, fors-tojik tillaridan kichik she‘rlar, ayrim badiiy parchalar tarjima qilib bosildi, xolos. Vaqtli matbuotda ilg‘or demokratik intelligensiya rus tilini o‘rganish va rus xalqi bilan hamkorlikda bo‘lishni targ‘ib qildi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. “Sho‘ro” jurnalida arab va fors tillaridan qilingan tarjimalar
2. “Sho‘ro” jurnalida turk tilidan qilingan tarjimalar
3. “Sho‘ro” jurnalida rus tilidan qilingan tarjimalar
4. Vaqtli matbuotda 1905-yildan keyin bosilgan tarjimalar

### **Adabiyotlar:**

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. –Toshkent: ToshDShI, 2016
2. Sharipov J. O‘zbekistonda tarjima tarixidan (*XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davr*). –Toshkent: ToshDShI, 2017.

## 9-MA'RUZA

### TARJIMA TARIXINING BA'ZI NAZARIY MASALALARI

#### Reja:

1. Tarjima san'atida ayrim umumiy va xususiy holatlar
2. Arab, fors-tojik tillaridan qilingan tarjimalar orqali o'zbek tiliga kirgan so'z va terminlar
3. Tarjimada sinonim so'zlarning o'rni va ishlatilishi
5. Maqol, matal va frazeologik iboralar tarjimasi tarixidan
6. She'riy tarjimaning ba'zi xususiyatlari

**Tayanch so'z va iboralar:** *tarjima san'ati, erkin tarjima, ijodiy tarjima, ilmiy aniq va badiiy muqobil tarjima, "Ravzatus-safo", "Tazkirat ul-avliyo" asarlari.*

#### 9.1. Tarjima san'atida ayrim umumiy va xususiy holatlar

Tarjima san'atida bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilina boshlagan davrdan to hozirgacha ikki tendensiya hukm surib, ularning tarafdorlari o'rtasida munozara davom etadi. Birinchisi – erkin tarjima, ikkinchisi – aniq va to'g'ri tarjima. Erkin tarjimada tarjimon o'z istagi bilan tarjima qilayotgan asarni o'zgartirib, ba'zan unga hatto yangi boblar qo'shib, syujetlarni qisqartirib yoki kengaytirib beradi. Bunday tarjimada asarning nomini ham o'zgartirish hollari uchraydi.

Tarjima tarixida erkin tarjima qilish hollari tez-tez uchrab turadi. Bizningcha, "erkin" va "ijodiy" tarjima tushunchalarini bir-biridan farqlamoq kerak. Ijodiy tarjima ilmiy aniq va badiiy muqobil tarjima demakdir, ya'ni asarning ruhini, ma'nosini, obrazlarini to'la berish demakdir. Erkin tarjima qilish tendentsiyasi hech qachon ustun bo'lgan emas. Qadimgi tarjimonlar original asarga va uni ijod qilgan muallifga katta hurmat bilan qaraganlar.

XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan tarjimalarning umumiy xususiyatlaridan biri shuki, tarjimonlarning ko'pchiligi shoir va adiblar bo'lib, ular badiiy, tarixiy-falsafiy asarlarni ham tarjima qilganlar. Original tarixiy asarlar mualliflarining o'zlari ham ko'pincha shoir yoki adib bo'lganlar. Tarjimonlar hozirgiday maxsus soha yoki ayrim janrlar bo'yicha ixtisoslashmagan. Hikoyani tarjima qilgan adib tarixiy asarni, falsafiy kitoblarni ham tarjima qilgan.

XX asrning 20-yillariga qadar O‘zbekiston hududida biron nashriyot va yoki biron tashkilot tarjima ishlarini xalqning talab va ehtiyojlari asosida rejalashtirib nashr qilmagan. Ko‘pincha tarjimonlarning o‘zlari asar tanlab o‘zlari tashabbus ko‘rsatganlar, ba’zan kitoblar ayrim hukmdorlar, beklar yoki ruhoniylar talabi bilan tarjima qilingan. Tarjima asarlari qo‘lyozma holida tarqatilgan, kotiblar ularni ko‘chirganda ba’zi bir o‘zgarishlar kiritganlar. Shuning uchun tarjima asarlarining qo‘lyozma nusxalarida har xillik bo‘lgan.

XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan tarjima amaliyotida ikki turli yo‘nalish mavjud edi. Birinchi yo‘nalish – asarlarni murakkab yo‘l bilan, ya’ni uzundan-uzoq tuzilgan jumlar, oddiy kitobxon tushunishi qiyin bo‘lgan arabcha, forsha so‘zlar, dabdabali iboralar bilan tarjima qilish bo‘lsa, ikkinchisi – qisqa va aniq jumlar bilan, xalq jonli tilida, sodda uslubda tarjima qilishdir.

O‘zbek tarjimachiligi tarixining asosiy xususiyatlaridan biri shuki, arab va fors tillaridan ko‘plab yirik va fundamental asarlar to‘la-to‘kis, aniq va to‘g‘ri tarjima qilingan. Halol mehnat bilan tirikchilik qilgan zahmatkash tarjimonlarimiz dunyo adabiyoti xazinasiga kirgan asarlar bilan o‘zbek xalqini tanishtirdilar va xalqlar o‘rtasidagi madaniy, adabiy aloqani kuchaytirishga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan tarjimalarning ayrim xususiy tomonlari ham bor edi. Ma’lumki, eski vaqtda kitoblarning nomlari arabcha yozilar edi. Bu hol musulmon xalqlari ichida an’ana bo‘lib qolgan edi. Masalan, fors-tojik shoiri Nosir Xisravning (1004–1088/89) falsafiy, axloqiy asarlari “Jome ul-hikmatayn” (Ikki hikmatning jami), “Vajhi din” (Diniy dalillar) deb atalgan, Ulug‘ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning (1121–1203) mashhur asarlari “Xamsa” (Beshlik), “Maxzan ul-asror” (Sirlar xazinasini) deb nomlangan. Ulug‘ shoir Navoiyning adabiy, tarixiy, ilmiy asarlarining nomlari ham arabchadir. Masalan: “Xamsa” (Beshlik), “Hayrat ul-abror” (Yaxshi kishilarning hayratlanishi), “Mezon ul-avzon” (Vaznlar o‘lchovi), “Mahbub ul-qulub” (Ko‘ngillarning sevgani), “Xazoyin ul-maoniy” (Ma’nolar xazinasini), “Sab’a-i sayyor” (Yeti sayyora yoki yetti kezuvchi) va b. XIX asrda ham xuddi shu holni ko‘ramiz. Masalan, Ogahiy ham ba’zi asarlariga arabcha nom qo‘ygan: “Ta’viz ul-oshiqin” (Oshiqlarning tumori), “Firdavs ul-iqbol” (Iqbol bog‘i) kabi.

Tarjima kitoblarining nomlari ba'zan tamom o'zgartirilib, ularga yangi nom qo'yilish hollarini aytgan edik. Masalan, Jomiyning "Nafahot ul-uns" asarini Navoiy tarjima qilib, unga yangi boblar qo'shib, nomini "Nasoyim ul-muhabbat" deb qo'ygan.

Ayrim tarjima asarlariga yozilgan so'z boshilarda xonlar va ularning vazirlariga atab madhiyalar bitilgan, ayniqsa Xorazm xoni Muhammad Rahimxon haqida haddan ortiq xushomadgo'y maqtovlar, madhiyalar uchraydi. Tarjima qililgan asarlarning xotimasida ba'zan ayni asarni tarjima qilishning qisqacha tarixi va uning nechanchi yilda ag'darilganligi nazm bilan bayon qilinadi. Masalan, Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" asarini tarjima qilgan Ogahiy kitob oxirida:

*Bu nodir nusxai farxanda anjom,  
Muborak soat ichra topdi anjom,  
Yil hijridin erdi bekamu bish,  
Ming ikki yuz ham sakson besh<sup>1</sup> deb yozadi.*

Tarjimonlarning kirish so'zlari ularga tarjima qilayotgan asar haqida o'z munosabatlarini bildirishga va shu yo'l bilan asar muallifi-ning ijodini tashviq qilishga katta imkon bergan.

## **9.2. Arab, fors-tojik tillaridan qilingan tarjimalar orqali o'zbek tiliga kirgan so'z va terminlar**

VII asrda O'rta Osiyoni zabt qilgan arab istilochilari o'z dini, o'z madaniyati va tilini O'rta Osiyo xalqlariga zo'rlab qabul qildirishga urindilar. Islom dini – hukmron din, "Qur'on" – xudo osmondan tushirgan kitob, arab tili esa muqaddas til deb da'vat qilindi. Ko'p asrlargacha arab tili O'rta Osiyoda, jumladan hozirgi O'zbekiston Respublikasi hududida ham mahkama tili, ham adabiy til bo'lib qoldi.

Qadim zamonlardan beri o'zbek xalqi qo'shni xalqlar, ayniqsa forslar va tojik xalqi bilan o'zaro munosabatlarda bo'lib keldi. Ular-ning juda ko'p sozlari o'zbek tiliga kirib keldi. Buning ustiga, IX-X asrlarda O'rta Osiyoning arab hukmroligidan chiqishi va somoniylar davrida fors tilining adabiy til bo'lib qolishi bu jarayonni tezlashtirdi.

Arab va fors so'zlarining o'zbek tiliga kirib kelishida tarjimonlar ham katta hissa qo'shdilar. Bundan olti asr ilgari Qutb Xorazmiy tarjima qilgan "Xusrav va Shirin" dostonida arabcha, forsha so'zlar juda ko'p ishlatilganki, ularning aksariyati hozir o'z so'zlarimiz bo'lib

---

<sup>1</sup> Юсуф ва Зулайхо, инв, № 809-1, 144-варақ.

ketgan. Masalan, “nazm”, “asr”, “kitob”, “farmon”, “jahon”, “xurram”, “ishq”, “doston”, “san’at”, “ta’lim”, “munavvar”, “jamol”, “haq”, “xushnud”, “maqsud”, “dil” va boshqalar. Shoir Qutb yuksak badiiy nafosat va musiqiy lavhalar yaratishda bu soʻzlarni oʻz oʻrnida, ustalik bilan ishlatgan. Sulton, farmon:

*Bo‘yum shahring‘a ko‘nglum erdi sulton,  
Jonim andin qabul qildi bu farmon.*

Jahon, xurram, ishq, bo‘ston:

*Jahon bo‘stoni qayda bo‘ldi xurram,  
Bor ersa ishqing emdi so‘zla san ham.*

San’at, ta’lim:

*Qilib ko‘rgazdi ul tosh uzra san‘at,  
Ta‘lim emgandi qildi ko‘rkli surat.*

Sabr, jahl, dil:

*Ayitti: Sabrsizluq jahl erur, bil,*

*Aytti: Sabr qilmoqqa kerak dil.*

XIV asrda yashab ijod etgan Sayf Saroyi “Guliston” asarini tarjima qilarkan, u ham “ash’or”, “ta’rif”, “qanoat”, “tarbiya”, “suhbat”, “odob”, “sohib jamol”, “ustod”, “tasvir”, “ne’mat”, “quvvat”, “zafar”, “vafo”, “oqibat” va boshqa shu kabi arabcha, forsha soʻzlardan barakali foydalandi. Ash’or:

Kimi o‘zganing *ash‘orin* menim der,

Kim hayvon kibi shalg‘am cho‘pin yer.

Ma’ni, lafz, vazn, san’at:

Kimi *ma‘ni* ko‘rub, *lafzin* tuzotur,

Kimi *vaznin* buzub, *san‘at* kuzotur.

Adab: “Luqmoni hakimdan so‘rdilar: “Adabni kimdan o‘rgan-ding?” Aytti: “Adabsizlardan”.

Qutb Xorazmiy, Sayf Saroyi, Haydar Xorazmiylar arab, fors soʻz-larini o‘rinsiz ishlatmadilar, ular ma’lum bir me’yorda, ko‘p hollarda ayni soʻzning ekvivalenti o‘zbek tilida bo‘lmagan taqdirda, xalqqa qanchalik tushunarli bo‘lishini hisobga olgan holda, o‘z tarjimalarida ishlatdilar. Masalan, Haydar Xorazmiy o‘z tarjimasida ishlatgan arab-cha, forsha soʻzlarning hozirgi zamonimizda ham, aynan o‘sha ma’noda qo‘llanayotganini ko‘ramiz. Masalan “oqil”, “gavhar”, “ganj”, “ranj”, “meros”, “ayol”, “pisand”, “ma’ni” va b.

Guhar: Ulki bilur so‘z *guhari* qiymatin,

So‘zda topar so‘zlaguchining otin.

Qalam, qadam:

Men bitgan xat bila yo‘ng‘il *qalam*,

Men yurgan yo‘l bilaqo‘yg‘il *qadam*.

Ma‘ni, yorliq, farmon:

Shayx Nizomiy damidin jon topib,

*Ma‘nisidin yorliq farmon topib*.

Alisher Navoiy arab tiliga juda katta baho berib, shunday deb yozgan edi: “Barchasidin arab tili fasohat oyini bila mumtoz va balog‘at taz‘yini bila mo‘jiza tirozdurkim, hech takallum ahlining munda da‘vosi yo‘qtur”<sup>1</sup> (“Bu tillarning barchasidan arab tili nafislik bilan ajralgan va badiiylik bezagi bilan mo‘jiza ko‘rsatuvchandirki, bunda hech bir til ahllarining da‘vosi yo‘q”)<sup>2</sup>.

Navoiy o‘zining prozaik asarlarida arabcha, forsha ayrim so‘zlarnigina emas, balki iboralarni ham keng qo‘llaydi. Masalan: “Yana bu *faqirning piri* va *ustoz* va *tariqat ahlining sohibi irshodi, jami’ ahlulloning muqtado* va *shayxul-islomi hazrati mahdumiy nurul-millati vad-din* Mavloni Abdurahmon Jomiy *qaddasa sirrahuning ruhparvar latoyifi* va *ruh gustar zaroyifikim*, andin har *g‘azal* kalvahiyl - *munzal* va har *risola* kal-*ahodisin nabiyl mursal oliy shon* va *rafi’ makondur* kim, alardin har *lafz* qiymatda durri samindin *abdorroq* va *hirqatda* la‘li otashindin barq *kirdorroq*. Va ikkalasi mazkur bo‘lg‘on aziz kalomi *mo‘jiz nizomidin* anda *chashni* va *nasib* va o‘z ishq va *kamoloti* va *nihoti holati* munga *izofaki, hozi shay’un* ajib! Barchasig‘a ko‘p qatla o‘tubmen, balki ko‘pin yod tutubmen, va *qasoyid* va g‘azaliyotlarining g‘arib va *latofatin* bilibmen, balki g‘aribroq va latifroqlarig‘a tatabbu‘dag‘i qilibmen”<sup>3</sup> (“Yana bu faqirning piri va ustoz, tariqat ahlining to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchisi, xudoga yaqinlarning yo‘l boshlovchisi va Shayxul-islomi hazrati mahdum-din va millatning nuri Mavloni Abdurahmon Jomiyning ruhparvar latifalarini va jon bag‘ishlovchi asarlarini o‘qig‘anman, u kishining har bir g‘azali xudodan kelgan vahiydek va har bir risolasi payg‘ambarning hadisidek yuqori darajali va yuksak o‘rinlidir. Har so‘zi qiymatda asl marva-

---

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Muhokamatul-luqatain. O‘z, Goslitizdat. –Toshkent, 1940. – B.16.

<sup>2</sup>Misollar “Muhokamat ul-lug‘atayn”ning Porso Shamsiyev tomonidan soddalashtirilgan matnidan olingan.

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. Muhokamatul-luqatain. –B.31-32.

riddan yuksakroq va toblanishida o'tli la'ldan ko'ra yonuvchanroqdir, bunda yuqorida mazkur bo'lgan ikki azizning mo'jizali so'zidan ta'm va bahra bor, bunga o'zining ishq yetukligi hamda yetishgan kayfiyati qo'shiladiki, bu juda qiziq narsa! Mana shularning barchasini ko'p qatla o'qib o'tganman, balki ko'pini yodlaganman, qasida va g'azallarining nozik nuqtalari bilganman. Balki qiziqroq va nozikroqlari ustida tekshirishlar qilganman").

Shuni aytish kerakki, arab, fors so'zlarining oz yoki ko'p ishlatilishi o'sha asarning xarakteriga va janriga ham bog'liq bo'lgan.

Ayrim olimlar arab, fors, rus va boshqa tillardan kirgan so'zlarni tilimiz tarkibidan chiqarish, faqat turkiy leksikani qoldirish va shu bilan til "sof"ligini saqlash kabi puristik g'oyani targ'ib qildilar.

Hoji Mo'in "Oina" jurnalida "Til birlashtirmoq haqida" degan maqolasida: "Mumkin qadar ajnabiy so'zlardan tilni soflandurmoq ham til birlashdurarga xeyli yordam beradur", – deb yozgan edi. Ayrimlar iste'moldan allaqachon chiqib ketgan eski turkiy so'zlarni adabiy tilga kiritishga urindilar va xalq tiliga singib, fuqarolik huquqini olgan arab, fors so'zlarini chiqarib tashlamoqchi bo'lganlar. Masalan, "dunyo" so'zi o'rniga "ochun", "kitob" o'rniga "bitik", "mushkul" o'rniga "chetin" so'zini olishni va shu tariqa boshqa so'zlarni ham qadimiy "chig'atoy tili"dagi so'zlar bilan almashtirishni targ'ib qildilar. Ular arab, fors so'zlarigagina qarshi bo'lib qolmay, rus va internasional so'zlarga ham qarshi kurash ochdilar. Ular "samovar" o'rniga "o'zi qaynar", "samolyot" – "o'zi uchar", "poezd" – "otash arava", "velosiped" – "shayton arava" va hokazolarni taklif qildilar. Albatta, har bir tilning o'ziga yarasha normalari bor.

### **9.3. Tarjimada sinonim so'zlarning o'rni va ishlatilishi**

Sinonimlarni o'z o'rnida ishlatish yozuvchining kuch-quvvati va iste'dodidan darak beradi hamda har bir shoir, har bir adibning bilim doirasi, turmushni anglashi va ayniqsa, xalq jonli tilini qanchalik bilishini ko'rsatadi. Ulug' yozuvchilarning asarlarini tekshirib ko'rganda, ularda rang-barang sinonim so'zlarning keng va o'rinli ishla-tilganligining shohidi bo'lamiz.

Sinonimlar tilning turli nozik ma'no qirralarini ifodalaydi. Ular fikrni aniqroq, chuqurroq va mukammalroq ifodalashga yordam beradi. *Sinonim* grekcha "synonymos" so'zidan olingan bo'lib, "nom-

dosh”, “otdosh” degan ma’noni beradi. Demak, shakl jihatdan har xil, ma’nolari bir xil yoki uyg’un bo’lgan soʻzlar sinonimlardir.

Sinonim soʻzlarni ishlatish tarixi qadim davrlarga borib taqaladi. XI asr yozma yodgorligi “Devonu lugʻotit turk”da ham sinonim soʻzlarning keng koʻlamda qoʻllanilgani ma’lum. S.Mutallibov XI asr yozma yodgorliklarida ishlatilgan soʻzlarni uchga boʻladi:

1. Juda qadimgi vaqtlardan boshlab qabilalarning xos soʻzlari tarzida qoʻllanib, u qabilalar birikkanda sinonim holiga koʻchgan soʻzlar;

2. Turmush zarurati bilan til taraqqiy qoidalariga muvofiq qoʻllanib turgan soʻzlardan yangi soʻzlar yasash asosida kelib chiqqan sinonimlar;

3. Turmush talablariga muvofiq, chet soʻzlarni qoʻllash natijasida maydonga kelgan sinonimlar».

XI asrdagi yozma yodgorliklarda uchragan sinonim soʻzlar juda koʻp, masalan:

“Qaychi”ni bildiradigan soʻzlar: “kaytu”, “sijdu”, “qoʻshpichoq”.

“Shahar”ni bildiradigan soʻzlar: “qand”, “ulush”, “baliq”.

“Molxona” – “ogʻil”, “otxona”, “uzliq”.

“Chumchuq”ni bildiradigan soʻzlar: “chungurxa”, “sajo”, “qoʻshgʻoch” va b. Bu sinonimlarning bir qismi hozir ham tilimizda aynan oʻsha ma’noda ishlatilsa, koʻpgina soʻzlarning ma’nolari davrlar oʻtishi bilan oʻzgarib ketgan va baʼzilar isteʼmoldan chiqib qolgan yoki oʻsha vaqtda sinonim boʻlgan soʻzlar hozir sinonimlikdan chiqqan boʻlishi mumkin. Chunonchi, ilgari “tuya” soʻzining “tavay - atay – engon – davay” kabi hozir ishlatilmaydigan sinonimlari bor.

Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lugʻatayn” nomli asarida oʻzbek tilining sinonimlarga nihoyatda boy ekanligini ilmiy dalillar bilan isbotlab berdi. Masalan, u oʻzbek tilida “ot” ma’nosida juda koʻp soʻzlar ishlatilishini quyidagicha koʻrsatgan edi.

“Yana ot anvoidagi, *tubuchiq* va *argʻumoq* va *yaka* va *yobu* va *totu* yoʻsunliq – barini turkcha-oʻq ayturlar. Va otning yoshin dagʻi koʻprakini turkcha ayturlar. Bir *qulunni* “*kurra*” derlar. Oʻzga: *toy* va *gʻoʻnan* va *doʻnan* va *tulan* va *chirgʻa* va *langʻa* deguncha fasihiroqlari turkcha derlar”<sup>1</sup>

Oʻzbek klassik shoirlarining koʻplari ham ikki tilda (oʻzbek va tojik tillarida) soʻzlashib, oʻsha tillarda sheʼrlar yozganlar. Shu yoʻl

---

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Muhokamatul-luqatain. –Tashkent, 1940. –B.25.

bilan o‘zbek tiliga tojikchadan kirgan bir qancha so‘zlar sinonimik shaklga kirib qolgan. Masalan, “oltin–tilla”, “yayov–piyoda”, “buloq–chashma”, “o‘rnak–namuna”, “manglay–peshona”, “kulgi–xanda”, “kiyik–ohu”, “ulug‘vor–buzrukvor”, “yuz–chehra”, “bilim–donish”, “ko‘ngil–dil”, “erkak–nar”, “so‘z–suxan” va h.

Arabchadan kirgan so‘zlar evaziga ham sinonimlar ko‘paygan. Masalan, “yer yuzi–olam–jahon–dunyo”, “payt–vaqt–zamon”, “go‘zal – chiroyli–badiiy”, “daryo–bahr”, “mayda–juz‘iy”, “kunlar–ayyom”, “bog‘-firdavs–jannat”, “ayriliq–firoq–hijron”, “tonmoq–inkor”, “yagona–nodir–kamyob”, “sevgi–muhabbat” va h. Arab, fors-tojik tilidan kirib kelgan so‘zlar o‘zbek tilidagi boshqa so‘zlar bilan sinonimlarni hosil qiladi. Bunday sinonim so‘zlar o‘zbek tiliga boshqa tillar: turk, hind, mo‘g‘ul tillaridan ham kirib kelgan.

Forscha matnning eng oxirida kelgan “beguyad” so‘zini Ogahiy “dedi”, “aytdi” shaklida tarjima qilmasdan, “izhor etdi” deb juda to‘g‘ri bergan, zotan, matnda “Andoqkim, debdurlar” so‘zlari ishlatilgach, bosh “dedi” so‘zining ishlatilishi takror bo‘lib qolar edi. Yuqorida aytilganlardan xulosa shuki, har bir tarjimon sinonim so‘zlarni o‘z o‘rnida, ma‘nosiga qarab, to‘g‘ri ishlata bilishi kerak. Sinonimlarni o‘z joyida ma‘noga muvofiq holda qo‘llash tarjimonning tilga boyligini ko‘rsatishi bilan birga, adabiy tilning tobora boyishida katta ahamiyat kasb etadi.

#### **9.4. Maqol, matal va frazeologik iboralar tarjimasini tarixidan**

Maqol, matal, hikmatli so‘zlar va idiomatik ta‘birlarni tarjima qilish qiyin ish, chunki ular har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Bunday xususiyatlarni boshqa til vositalari bilan ifodalash oson emas, albatta. Xalq maqol va matallari til xazinasidir. Maqol haqida xalqning o‘zi yaxshi maqol to‘qigan: “So‘z ko‘rki – maqol”, “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi”, “Yaxshi naql – tomiri aql”.

Frazeologizmlarni tarjima qilish masalasi keyingi yillarda tarjima nazariyasiga doir bir qancha asarlarda ancha mukammal ishlandi. Chunonchi, G‘.Salomov o‘zining «Maqol va idiomalar tarjimasini»<sup>1</sup> nomli kitobida hamda shu mavzuda yozilgan dissertatsion ishida ma-

---

<sup>1</sup> Саломов Г. Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. –Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1961.

qol, matal va idiomalarga ta'rif bergan, ularning bir-biridan farq qiluvchi tomonlarini ko'rsatgan hamda frazeologizmlarni rus tilidan o'zbekchaga ag'darish prinsiplarini ishlab chiqqan.

Biz bu o'rinda maqol va matallarni tarjima qilish masalasini tarixiy aspektida olib qaraymiz hamda arab va fors-tojik tillaridan tarjima qilingan asarlar materialini asosida bu muammoga yondashamiz.

Shayx Sa'diyning "Guliston" dostonida maqol, matal va aforizmlar juda serob, umuman bu kitobning turgan-bitgani hikmatdan iborat. Bularni Sayf Saroyi ham, Ogahiy ham o'zlariga xos uslub va maroq bilan o'zbek tiliga ag'darganlar.

So'zimiz dalili uchun "Guliston"dan bir necha misol keltiramiz:

Shayx Sa'diyda:

"Luqmonro guftand ki: Adabro az ki omuxti? Guft: Az be adabon, har chi az ishon dar nazaram omad, az fe'li on parhez kardam".

Sayf Saroyida:

"Luqmoni hakimdan so'radilar: Adabni kimdan o'rganding? Aytti: Adabsizlardan, alarning qaysi harakatlari menga xush kelmadi, ondin ihtiroz qildim".

Ogahiy tarjimasidan misollar:

Andoqkim, xiradmandlar aytibdurlar: maslahatomiz yolg'on so'z fitna angiz rost so'zdan yaxshiroqdir<sup>1</sup>

Parhezgor bo'lmag'on olim mash'alador bo'lg'on ko'rdur o'zgani yo'lg'a solur, o'zi yo'ldin qolur. Bayt:

*Ilmdin har kishiki olmadi kom,*

*Bir mato' olmay etdi zarin tamom.*<sup>2</sup>

Nizomiy Ganjaviyning hikmatli so'zlar to'la dostoni "Mahzan ul-asror"ni o'zbek tiliga tarjima qilgan Haydar Xorazmiy avlodlar uchun ajoyib bir yodgorlik qoldirdi. Haydar Xorazmiy tarjima qilgan aforizmlarni o'qir ekansiz, ularning tarjima ekanligiga ishonmaysiz, go'yo Nizomiy o'zbek tilida yozgan deb o'ylaysiz.

*Boy daguldur dirami bor esa,*

*Faqir g'anidur karami bor esa.*<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Ўзбек адабиёти. IV том, II китоб. –Б.354.

<sup>2</sup> O'sha kitob. –Б.370.

<sup>3</sup> Ўзбек адабиёти. I том. –Б.207.

*Bordur-u bermas, ne yedurur, ne yer,  
O‘zi bila go‘rgamu eltur, ne der?!!<sup>1</sup>*

*Er kishiga hikmat agar bo‘lsa yor,  
Oqibat ul-amr murodin topor<sup>2</sup>.*

Tarjima asarlarida kuzatilgan maqol va aforizmlar bilan o‘zbek xalq maqollari va matallari o‘rtasida o‘xshashlik va yaqinlikni ko‘ramiz. Bu hol xalqlar o‘rtasida qadim zamonlardan beri davom etib kelgan do‘stlik va o‘zaro munosabatdan dalolat beradi. Masalan, “Do‘sting uchun zahar yut”, “Do‘stingni yomonlagandan qoch”, “Ahmoq do‘st yovdan yomon”, “Ahmoq do‘stdan aqlli dushman yaxshi”, “Haq joyiga qaror topar” va h.

Xalq ichida keng tarqalgan “Kalila va Dimna”, “Alf layla va layla” (“Ming bir kecha”), “Chor darvesh” va boshqa badiiy tarjima asarlarda hikmatli so‘zlar ko‘pincha nazm bilan tarjima qilingan.

“Kalila va Dimna”dan:

*Qilmag‘onni qilsa bo‘lur har zamon,  
Qilg‘ondin so‘ng pushaymonliq yomon.*

*Do‘st yuzluk dushmaningdin nari qoch –  
O‘tdir ul, kuydurmasdin suvni soch<sup>3</sup>*

“Chor darvesh”dan:

*Rostliq keltur – topormushsan najot,  
Rostliq bir chashmai obi hayot<sup>4</sup>*

Ba‘zi bir aforizmlar aynan o‘ziday tarjimasiz qoldirilib, keyingi satrda uning ma‘nosi talqin qilib berilgan. Masalan,

“To‘tinoma”dan ba‘zi bir misollar:

Chunonchi, donolar aytibdurlarkim:

Bayt:

*Kunad hamjins bo hamjins parvoz,  
Qabutar bo kabutar, boz bo boz.*

---

<sup>1</sup> O‘sha kitob. –B.208.

<sup>2</sup> O‘sha kitob. –B.209.

<sup>3</sup> O‘sha kitob. IV tom, II kitob. –B.232.

<sup>4</sup> O‘sha kitob. –B.308.

Maymunning g'arazi bu erdiki, bu ikki jonivor (kabutar – J.Sh) bir yerda bo'lsa, bir-biri birla suhbat qilub, xursand va masrur bo'lg'aylar.<sup>1</sup>

Biz quyida fors adabiyoti klassigi Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning pand va nasihat to'la, hikmatli so'zlar majmuidan iborat "Rahimo tarjimai Karimo" degan asarining Sirojiddin Mahdum Shavkat tomonidan qilingan tarjimasi xususida ikki og'iz so'z aytmoqchimiz. Asar "kirish" va "xotima" va 21 bobdan iborat.

1. Qaramning madhi bayonida.
2. Saxovatning sifoti bayonida.
3. Baxilning mazammati bayonida.
4. Tavozi'ning sifoti bayonida.
5. Takaburning mazammati bayonida.
6. Ilmning fazilati bayonida.
7. Johillarning suhbatidan qochmoq xususida.
8. Adolatning sifoti bayonida.
9. Zolimning mazammati bayonida.
10. Qanoatning sifoti bayonida.
11. Hirsning mazammati bayonida.
12. Ibodatning sifoti bayonida.
13. Shaytonning mazammati bayonida.
14. Muhabbat sharobining bayonida.
15. Vafoning sifoti bayonida.
16. Shukrning fazilati bayonida.
17. Sabrning fazilati bayonida.
18. Rostlikning sifoti bayonida.
19. Yolg'onning mazammati bayonida.
20. Haq taoloning sifoti bayonida.
21. Maxluqotdin umid uzmoq bayonida.

Mana shu 21 bobdan to'rt bobi (1, 12, 13, 20-boblar) diniy aqidalarga oid bo'lib, qolgan 17 bobi xulq-atvor, ilm-fan, vafo-muhabbat, adolat va rostlikka oid hikmatli so'zlar, zolim va zulmga qarshi aytilgan otashin iboralar, avlodlarga foydali o'git-nasihat to'la maqollardan iborat bo'lgan boblardir. Tarjimon-shoir har qaysi bobda ko'p falsafiy iboralarga izoh beradi, sharhlar yozadi. Ayniqsa hikmatli so'zlar tarjimasi diqqatga loyiqdir.

---

<sup>1</sup> Ўзбек адабиёти. IV том, II китоб. –В.252.

Shayx Sa'diyda:  
*"Baxil, takabburlar haqida:  
Takabbur makun zinhor, ey pisar,  
Ki ro'ze zi dastash daroiy basar.*

Ilm haqida:  
*Mayomuz chuz gar oqili,  
Ki be ilm bundan buvad chohili.  
Johillar haqida;  
Chu chohil kase dar chahon xor  
nest,  
Ki nodontar az chohili kor nest.*

Sabr va qanoat haqida:  
*Saburi turo komroni dihad.  
Qanoat ba harhol avlotar ast,  
Qanoat kunad har ki nek axtar  
ast.*

Vafo to'g'risida:  
*Magardon zi ko'i vafo ro'y dil,  
Ki dar ro'y chonon naboshi xijil.*

Rostlikni sifati bayoni:  
*Bih az rosti dar chahon kori nest,  
Ki dar gulbuni rosti xori nest.  
Yolg'onchi va yomonlik haqida:  
Dug'ur odamiro kunad sharmsor,  
Durug' odamiro kunad be viqor.*

*Makun bad ki bad bini az yori  
nek,  
Nameruyad az tuxmi bad bori  
nek."*

Sirojiddin Shavkat tarjimasida:

*"Takabburdin, albatta, qil o'zni  
pok,  
Ki bir kun qo'lidan o'larsen halok.*

*O'qush aylamoq doyim oqil ishi,  
Ki beilm bo'lmoq – bu johil ishi.*

*Jahonda chu johil kishi xor yo'q,  
Ki johil kabi bir yomon kor yo'q.*

*Saburiy sening maqsadingni  
berur,  
Balovu-alamdan seni qutqarur.  
Qanoat hama vaqt aro xo'b erur,  
Qanoat qilur kimki-mahbub erur.*

*O'gurma vafo ko'yidin ro'yi dil,  
Ki yor oldida bo'lmag'aysan xijil.*

*Go'zal rostdin dunyoda kori yo'q,  
Ki sadbargida rostning xori yo'q.*

*Durug' odamini qilur sharmisor,  
Durug' odamini qilur be viqor.*

*Yomon bo'lma, ko'rg'ung ziyonini  
yor,  
Yomon tuxmidin unmag'ay yaxshi  
bor."*

Tarjimon Sirojiddin Shavkat ba'zan Shayx Sa'diyning baytlarini tarjima qilmay, aynan o'zini qoldirgan.

### **9.5. She'riy tarjimaning ba'zi xususiyatlari**

Har qaysi janrdagi asar tarjimasining o'ziga xos xususiyati, yo'li, uslubi va usullari mavjud. Chunonchi, she'r bilan tarjima qilish nasriy asarlar tarjimasidan tamomila farq qiladi. Nasriy asarlarni tarjima qilish qanchalik qiyin bo'lsa, she'riy kitoblarni tarjima qilish undan ham qiyinroqdir. She'riy asarni ag'daruvchi tarjimon, albatta, shoir bo'lishi kerak. Unda shoirlik mahorati bilan birga tarjimonlik iste'dodi ham mujassam bo'lishi zarur. Har qanday shoir ham she'riy asarlarni tarjima qila olmaydi, ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalarini tarjima qilish juda ham murakkab ish. Tarjimon-shoir she'riy asarning mazmuni, uslubi, obrazlarini to'g'ri aks ettirish bilan birga, undagi vazn, qofiyalarni ham aniq bera olishi kerak. Bu she'riy asar tarjimasining asosiy shartlaridan biridir.

Ma'lumki, she'r o'zining vazni, ritmi, qofiyasi bilan nasrdan ajralib turadi. She'rning cheklangan shakli (ramkasi) tarjimon-shoirni har tomonlama qiynab qo'yadi. Agar tarjimon she'rning mazmunini tarjima qilib, vaznini bera olmasa, bu mukammal tarjima hisoblanmaydi, basharti, vazn, qofiyani beraman deb mazmunni qurbon qilsa, bu formalizmga olib boradi. Tarjimon ham mazmun, ham vaznni durust bera bilishi kerak. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tarjima san'atining o'sishiga bir qancha sabablar bor. O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shili-shining progressiv samarasi, rus xalqining boy madaniyatidan bahramand bo'lish, Turkistonda toshbosmalarning vujudga kelishi, Rossiya-ning milliy o'lkalari va shaharlari (Qozon, Ufa, Boku, Boqchasaroy, Orenburg va boshqa shaharlar) bilan yaqindan aloqa qilish va boshqalar tarjima ishlarining rivojida juda katta rol o'ynadi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Tarjima san'atidagi ayrim umumiy va xususiy holatlar.
2. Arab, fors-tojik tillaridan qilingan tarjimalar orqali o'zbek tiliga kirgan so'z va terminlar.
3. Tarjimada sinonim so'zlarning o'rni va ishlatilishi.
5. Maqol, matal va frazeologik iboralar tarjimasi tarixidan.
6. She'riy tarjimaning ba'zi xususiyatlari.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Salomov G', Tarjima nazariyasiga kirish, Toshkent, ToshDShI, 2016

2. Sharipov J., O‘zbekistonda tarjima tarixidan (*XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davr*). – Toshkent, ToshDShI, 2017.

**Qo‘shimcha adabiyotlar:**

3. Alisher Navoiy. Muhokamatul-luqatain. –Tashkent, 1940.
4. Fitrat. Aruz haqida. O‘zbekiston Fanlar komitetining nashriyati. –Tashkent, 1936. –B.14.
5. Саломов Ғ. Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. –Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1961.
6. Ўзбек адабиёти. IV том, II китоб.

## **10-MA'RUZA**

### **XX ASRNING 20-YILLARIGA QADAR RUS TILIDAN QILINGAN TARJIMALAR HAQIDA**

#### **Reja:**

1. Ilk tarjimalar haqida
2. Terma kitob – xrestomatiyalarda bosilgan tarjimalar
3. Ilmiy jamiyatlar va ularning asarlari tarjimasi
4. Adabiy tanqidchilik va badiiy tarjima
5. O'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilingan asarlar
6. Sattorxonning ma'rifatparvarlik g'oyalari va tarjimonlik faoliyati
7. Birinchi tarjimonlar va dastlabki tarjimalarning turlari
8. Badiiy tarjima tarixiga doir
9. Tarjimalar vositasida o'zbek tili lug'at manbaining boyishi

**Tayanch so'z va iboralar:** *terma kitob – xrestomatiya, ilmiy jamiyatlar, adabiy tanqidchilik va badiiy tarjima, ma'rifatparvarlik, lug'at manbaining boyishi.*

#### **10.1. Ilk tarjimalar haqida**

XX asrning 20-yillariga qadar rus tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjimalar madaniyatimiz tarixida muhim o'rin egallaydi. Rus tilidan qilingan tarjimalar tarixini yaratish tarjimashunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Bu davrga qadar rus tilidan qilingan tarjimalarni chuqur ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan maxsus monografik ish, afsuski, hozirgacha yaratilgan emas. Lekin ayrim katta ishlar tarkibida yoki maxsus maqolalarda bu masala ma'lum darajada o'rganilgan. Masalan, I.O.Sultonovning "Pushkin va o'zbek adabiyoti", M.Troitskiyning "O'zbekistonda Pushkin merosi" nomli maqolalarida shoirning o'zbek tiliga qilingan dastlabki tarjimalari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Akademik T.N.Qori-Niyozov o'zining "O'zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar" va akademik I.M.Mo'minovning "O'zbekistonda ijtimoiy–falsafiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan" nomli monografiyalarida ham ruschadan qilingan tarjimalar haqida qimmatli fikrlar berilgan.

G'.Karimov "Rus madaniyati va rus klassik adabiyotining o'zbek adabiyotiga ta'siri masalalariga doir" va A.Boboxonov "Qardoshlar-

cha do'stlikning manbai" nomli maqolalarida rus – o'zbek adabiy aloqalari tarixiga doir muhim fikrlarni bayon qilganlar.

1963-yilda A.Hojiahmedov "Rus klassik adabiyotidan ilk tarjimalar va ularning o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi ahamiyati" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasi yozdi va ish yuzasidan bir qancha maqolalar nashr ettirdi. Shu satrlar muallifi ham o'zining "Rus tilidan o'zbekchaga she'riy tarjimaning ba'zi masalalari" nomli asari va boshqa bir qancha maqolalarida bu haqda ba'zi fikrlarni aytgan.

O'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilingan asarlar tarixi haqida so'z borganda akademik V.V.Bartoldning "Turkistonda madaniy hayot tarixi" degan ajoyib kitobini tilga olmaslik mumkin emas. Rus tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan ruschaga tarjima qilgan o'zbek ma'rifatparvari Sattorxon haqida N.P.Ostroumov bir qancha materiallarni beradi. O'zbekistonda rus tilining ilk targ'ibotchilari Sattorxon bilan Is'hoqxon haqida filologiya fanlari nomzodi Olim Usmonov ham juda muhim fikrlarni bayon qilgan.

N.Vladimirovaning "Rus tilidan o'zbekchaga badiiy tarjimaning ba'zi masalalari" nomli kitobida ham Tolstoyning Oktabr to'ntarilishidan oldin o'zbek tiliga o'girilgan faqat ikkita hikoyasi tilga olinadi, xolos. Bu asarda Oktabr to'ntarilishidan ilgari qilingan tarjimalar haqida umuman noaniq fikrlar aytilgan: "Задолго до Октябрьской революции были попытки переводить Пушкина, Крылова, Чехова, Толстого. Правда, эти переводы не отражали полностью идейные и художественные достоинства оригинала. Их можно оценить как своеобразные сочинения на заданную тему".

Rus tilidan qilingan tarjimalar tarixini ba'zi olimlarimiz XIX asrning 2-yarmidan boshlaydilar. Vaholanki, rus va o'zbek xalqlarining o'zaro aloqalari, iqtisodiy munosabatlari qadim zamonlardan beri mavjud. Bu munosabat va o'zaro aloqa jarayonida, albatta, tarjimonlar rus tilidan o'zbek tiliga va, aksincha, o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilganlar. Rus tilidan qilingan tarjimalarning birinchi yodgorliklari diplomatik hujjatlar bo'lib, ular bir necha yuz yillar ilgari o'zbek tiliga tarjima qilina boshlagan edi.

Ma'rifatparvar shoir Furqat rus tili va madaniyatidan barcha xalqning bahramand bo'lishi zarur deb da'vat qiladi. U: "...Rusiya xalqi xat va lison o'rgatmoqqa bizni taklif qilsa, murodi yomon emasdur. Balki mamlakat obod bo'lib, fuqaro va raiyalar osoyishta bo'lmoqlarini xohlaydir. Az baski, Rossiya xalqi hamma vaqt biz musulmon xal-

qini davlatmand va xursand bo‘lmog‘imizga ko‘shish qiladi” – deb yozgan edi. Rus tili va madaniyatini egallashga da‘vat qilganlar ichida ma‘rifatparvar olimlardan biri Is‘hoqxon bo‘lib, u “Lug‘ati sitta alsina” (“olti til lug‘ati”) va boshqa bir qancha asarlarning muallifi ham shoirdir (u “Ibrat” taxallusi bilan she‘rlar yozgan). “Biz turkistonliklarga birinchi zarurimiz *rusiya* xatidir” (“Rusiya xati” – *rus tili* ma‘nosida – J. Sh.) deb qat‘iy ishongan Is‘hoqxon maktab ochib, unda rus tilini o‘rgata boshladi. U tipolitografiya tashkil qilib, ilm-ma‘rifatga da‘vat qiladigan bir qancha asarlar va shu jumladan “Lug‘at kitob” nashr qildirdi.

Shoir Avaz O‘tar o‘g‘li hamda o‘z ijodiy faoliyatini XX asr boshlarida boshlagan, Hamza va Sadridin Ayniy ham yoshlarni rus tili va rus madaniyatini egallashga chaqirgan.

Turkiston viloyatida XX asrning 20-yillariga qadar tarjimon kadr-larga ehtiyoj juda katta bo‘lishiga qaramay bironta ham maxsus tarjimonlar maktabi yoki tarjimonlar tayyorlovchi kurs ochilmagan. Garchi o‘lkada mavjud rus va rus – tuzem maktablari o‘z oldiga maxsus tarjimonlar tayyorlash maqsadini qo‘ymagan bo‘lsa ham, bu maktablarni bitirganlar orasidan ancha tarjimon yetishib chiqqan. Mazkur maktablarda rus tili darslarida tarjima mashqlari o‘tkazilgan, kichik-kichik adabiy asarlar – masal, hikoyalar tarjima qilingan. Turkistonda ochilgan rus maktablari, gimnaziya va seminariyalarga qozoq, qirg‘iz, o‘zbek va boshqa mahalliy xalq bolalari ham, asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da, kirib o‘qiy boshladilar. Masalan, 1896-yilda Toshkentdagi o‘g‘il bola va xotin-qizlar gimnaziyasida mahalliy xalqdan 10 o‘g‘il va 8 ta qiz bola o‘qir edi.

Turkistonda 1874-yildan boshlab rus tuzem maktablari ochildi. Birinchi maktab Chimkentda ochilgan bo‘lib, unda yerli xalqdan chiqqan o‘qituvchi Sattorxon birinchi bo‘lib dars bergan edi.

Toshkentda rus tuzem maktabi o‘n yildan keyin–1884-yilda eski shaharda Said Azim boyning uyida ochildi. Unda o‘zbek tili va odatlarini yaxshi bilgan V.Nalivkin muallim bo‘lib, maktabning ochilish kunida 39 talaba to‘plangan edi. Bu maktabdan keyin Toshkentda, Turkistonning boshqa katta shaharlarida yana bir nechta rus tuzem maktablari birin-ketin ochila bordi. Toshkentdagi ikkinchi rus tuzem maktabi qoshidagi kechki kursda o‘quvchilarning soni 30 ga yetgan.

## **10.2. Terma kitob – xrestomatiyalarda bosilgan tarjimalar**

Rus-tuzem maktablari ochilgan dastlabki yillarda na fan dasturi, na darslik va na biron qo‘llanma bor edi. Har qaysi muallim o‘z bilganicha o‘qitar, shuning uchun darslik va qo‘llanmalarga bo‘lgan ehtiyoj va talab kundan-kunga ortib borar edi.

Rus tilini o‘rgatishda, rus tuzem maktablari uchun terma kitob – xrestomatiyalar va darsliklar tuzishda mashhur pedagog S.Grameniskiyning “Ўқув китоблари” katta rol o‘ynadi. S.Grameniskiy rus tuzem maktablari uchun to‘rtta “Ўқув китоб” tuzib, 1895-1899-yillar ichida nashr qildirdi. Ular qisqa fursatda bir qancha marta qayta nashr qilindi. Masalan, uning talabalarga rus bo‘lmagan o‘quv yurtlarida rus tili o‘qitish bo‘yicha tuzgan “Биринчи ўқиш китоб” 1906-yilga borib olti marta qayta nashr qilingan bo‘lsa, ikkinchi kitobi 1913-yilga borib sakkiz marta qayta nashr qilindi. S.Grameniskiy o‘z o‘quv kitoblariga I.A.Krilov masallari, A.S.Pushkin she‘rlari, L.N.Tolstoy hikoyalaridan tanlab kiritgan edi.

O‘zbek tilida rus tuzem maktablari uchun birinchi darslik yozgan kishi Toshkentdagi birinchi rus tuzem maktabining muallimi Sayd Rasul xo‘ja Said Aziz xo‘ja mufti o‘g‘li bo‘lib, u “Ustodi avval” kitobini 1900-yilda nashr ettirdi. Kitobning nomi muqovada rus va o‘zbek tillarida yozilgan. Kitob 1913-yilga borib 14 marta qayta nashr etildi.

Qo‘qon shahridagi rus tuzem maktabining muallimi Serikboy Oqayev 1912-yilda “Xrestomatiya, ya’ni terma kitob” ni nashr qildi. Bu kitobning kotibi va muharriri tilshunos olim Ashur Ali Zohiriydir. Xrestomatiyaga 60 dan ortiq masal va hikoyalar kirgan, ularning yarmi deyarli tarjima asarlaridir. Bular orasida I.A.Krilov, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy asarlari tarjima qilib berilganligi diqqatga sazovor.

## **10.3. Ilmiy jamiyatlar va ularning asarlari tarjimasi**

O‘rta Osiyo Rossiya tarkibiga qo‘shib olingandan keyin mamlakatda juda muhim voqealar ro‘y berdi. Shulardan biri, Toshkent va boshqa shaharlarda bir qancha ilmiy jamiyatlarning tashkil topishidir. Ilmiy jamiyatlar fan yutuqlarini targ‘ib qilish, o‘lka tarixini o‘rganish, xalqqa tibbiy yordam ko‘rsatishda, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida o‘z zamonasining mashina-texnikasini kiritishda katta ahamiyat kasb etgan edilar. Bu ilmiy jamiyatlarda rus olimlaridan V.V.Bartold, V.V.Radlov, N.I.Veselovskiy, P.I.Xomutov, V.L.Vyatkin, A.P.Shishov, L.V.Oshanin, M.S.Andreyev, M.I.Slonim, M.I.Shishovalar be-

vosita qatnashganlar. O‘lkaning geografik tuzilishi, yer osti boyliklari, ishlab chiqarish kuchlarini o‘rganishda rus olimlari – P.P.Semenov-Tyanshanskiy, I.V.Mushketov, A.P.Fedchenkolar hissa qo‘shganlar.

“Туркистон вилояти газети”ning 1896-yil 2–4-sonlarida “Arxeologiya havaskorlari Turkiston to‘garagi ustavi”ning tarjimasini bosildi. Tarjima ustavning moddalarini tushuntirib, uzundan-uzun jumlar bilan, ko‘p narsalarni o‘zidan qo‘shib, sharhlab berdi. Masalan, o‘sha ustavning nomi – “Устав Туркестанского кружка любителей археологии” so‘zlarining o‘zbekcha tarjimasini qarang: “Turkiston viloyatida qadimgi vaqtda bo‘lgan shaharning asorat va nishonlarini va ko‘hna imoratlarini va eski asbob va idish va har xil pullarni topib, ilm, tarix ma’nosida bilmak va saqlamoq uchun Toshkent shahrida barpo bo‘lgan arxeologicheskiy degan alohida jamoaning sa’y-harakatlari qoida va nizomlari ushbudir”. Asl nusxada besh so‘zdan iborat jumla “tarjima”da qirq to‘rtta so‘z bilan berilgan! Chunonchi, “va” bog‘lovchisining o‘zi 8 marta takrorlangan. O‘sha ustavning 1-moddasi (§ 1) quyidagicha tarjima qilingan:

R u s c h a s i:

§1. В Туркестанском крае учреждается кружок любителей археологии.

O‘ z b e k c h a s i:

§1. Turkiston viloyatida qadimgi vaqtdan qolgan mazkur ko‘hna joy, shahar va imoratlarining asoratlarini bilmoq va eski asboblarni saqlamoq uchun ilm tarixini yaxshi ijtihod aylagan odamlardan *arxeologicheskiy* degan nom maxsus jamoa barpo bo‘lindi.

Ko‘rasizki, yetti so‘zdan iborat axborot o‘zbekchaga 30 so‘zlik uzundan-uzun izohlar va ta’rif-tavsiflar bilan “tarjima” qilingan. Keyingi moddalarda ham ahvol shu. Yoyiq va cho‘ziq jumlar, takror qilingan sharhlar kelaveradi. Zotan, sarlavhada “археология”, “кружок” degan so‘zlarga izoh berilgan bo‘lsa-da, matn ichida uni har moddada o‘nlab so‘zlar bilan izohlayverish kulgili tuyuladi. Bu ustav alohida kitob “Turkiston arxeologiya jamiyati” tarzida bosilib chiqdi.

Bu yerda yuqorida keltirilgan misollardagi kabi cho‘ziq va uzundan-uzun jumlar yo‘q. Lekin tarjimon “природа” so‘zini “tabiat” deb berish o‘rniga “havo” deb tarjima qilish bilan qo‘pol xatoga yo‘l qo‘ygan. Tarjimon bu maqolada “elektr”, “magnit”, “mashina”, “telegraf”, “telefon” va boshqa baynalminal so‘zlarni aynan o‘zicha

olib ishlatgan. Lekin terminologiya sohasida ayrim siyqalashtirishlar ham yo‘q emas. Chunonchi, “telefon” so‘zining “telepun surnay” deb olinishi g‘alati tuyuladi: “Va yana *elektrichestvo* vositasi ilan odamlar bir-biridan miqdor, ming chaqrim masofada va ajrab qolg‘onda, chunonchi bir odam bir shaharda va bo‘lak odam boshqa shaharda o‘z vatanida turub, telegraf birlan bir lahzada xabar yetkazadur va ham *telepun surnay* ilan to‘g‘ri so‘zlashadur”.

Shunisi diqqatga sazovorki, muallif o‘z maqolasida faqat fan va texnika yutuqlarini bayon qilibgina qolmay, balki bundan tegishli amaliy xulosalar ham chiqargan: “Rossiya fuqarolari birlan yaqin turub, mazkur rusiyalardan har xil ilmning yorig‘lig‘ini va manfaatini olsalar bo‘ladur, va agar mazkur musulmoniyalar rusiya tilini va xatini bilib, o‘rganishib, rusiya kitoblarini o‘qub, mazkur kitoblardan har tariqa ilmlarning bayonini bilsalar bo‘ladur. Bul tariqa fahmlab, musulmoniya fuqarolarning madrasalarida turadurg‘on mudarrislar va shogirdlar bo‘lak fuqarolarg‘a o‘zlari ibrat bersalar kerak va bu vajdan mazkur madrasalarda har xil arabi va forsi ilmlardan boshqa, rusiya zabonini ham o‘rgansalar kerak”.

#### **10.4. Adabiy tanqidchilik va badiiy tarjima**

Mahalliy xalq bilan rus yozuvchilari ijodini tanishtirish ishi bir qancha yo‘llar bilan olib borildi. Bular rus yozuvchilari haqida maxsus maqolalar yozish, yubiley kunlarida o‘tkazilgan tantanalar, ularning ijodiy faoliyati to‘g‘risida ma’ruzalar o‘qish, axborotlar yozish, rus yozuvchilarining asarlarini tarjima qilish; badiiy o‘qishlar va h.

1883-yilda “Turkiston viloyati gazet”da Jukovskiy, A.S.Pushkin, N.V.Gogol, I.S.Turgenev haqida ma’lumot berilib, bu yozuvchilarning asarlari Yevropaning bir qancha tillariga tarjima qililgani bayon qilindi. Chunonchi: “Va andoq shoirlar va musanniflarning tasniflarini qadrlik tutadigan o‘rusiya xalqigina emas, balki Farangiston mamlakatlaridagi odamlar ham qadrlik ko‘rib, o‘z tillariga tarjima qilib, o‘qib, ko‘p foyda ko‘radilar”, – deb yozadi gazeta”. Matbuot sahifalarida rus yozuvchilarining ijodiy faoliyatiga doir bosilib chiqqan maqolalarda ularning asarlari boshqa tillarga tarjima qilinishi qayd etilar ekan, qissadan hissa chiqarilib, o‘zbeklarning ma’naviy hayotiga doir amaliy fikrlar ham aytiladi:

“Turkiston viloyati gazet”ning 1889-yil, 25-fevral sonida bosilgan “Fet nomlik rusiya shoirining shoirlik qilg‘anig‘a 50 yil to‘lgani

xususida qilingan muborakbodlik” degan axborotda shoirning yubileyi qanday o‘tganligi haqida to‘la tafsilot berilgan.

Rus xalqining genial shoiri A.S.Pushkinning tug‘ilganiga 100 yil to‘lishi munosabati bilan 1899-yilda o‘tkazilgan yubiley tantanasini o‘zbek xalqi o‘z shoirining bayramiday o‘tkazdi. A.S.Pushkinning tarjimai holi, ijodiy faoliyati haqida bir qancha maqolalar bosilib chiqdi. “Aleksandr Sergeyevich Pushkin (1799-1899)” nomli maqolada ulug‘ rus shoirining ijodiga g‘oyat yuksak baho berilib, u buyuk Firdavsiyga qiyos qilinadi: “Hurmatlik gazet o‘quvchilarg‘a bayon qilamizki, mazkur Pushkin shoir Rusiya mamlakatlaridagi bo‘lak shoirlar orasida musulmoniyaning Firdavsiy shoiri qatorida bosh shoir bo‘lib, benihoyat yaxshi mazmunlik va ko‘p fosih alfozlar bilan o‘zini devonig‘a yozib, Rusiya mamlakatlarida emas, va tamomiy Yevropadagi har xil xalqlarning tillariga va ham ba’zi Osiyo iqlimidagi xalqlarning tillarig‘a, chunonchi turk va no‘g‘oy va g‘ayri xaloyiqlarning zabonida tarjima qilindi va bul vajdan biz Turkiston viloyatidagi musulmoniya xalqlari uchun o‘shal marhum Pushkin shoirning umri xususida gazetamizda bayon qilmoqqa niyat ayladik”.

XX asrning 20-yillariga qadar bir qancha masal, hikoyalari o‘zbek tiliga tarjima qilingan L.N.Tolstoyning ijodini yerli xalq o‘rtasida targ‘ib etuvchi, matbuot sahifalarida bosilib chiqqan bir qancha maqolalar ham bizga ma’lum. Ulug‘ adib vafotidan so‘ng uning haqida yana yangi maqolalar yozilib, anchagina hikoyalari o‘zbek tiliga ag‘darildi va gazeta sahifalarida, xrestomatiya, terma kitoblarda bosilib chiqdi.

XX asrning 20-yillariga qadar garchi rus yozuvchilari to‘g‘risida maxsus bir kitob yoki biron risola yozilmagan bo‘lsa ham, gazetalaridagi materiallar o‘sha yozuvchilar ijodi bilan xalqimizni, xiragina bo‘lsa-da, tanishtirish ishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

### **10.5. O‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilingan asarlar**

O‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish ishlari qadim zamonlardan beri davom etib kelgan. Bu tarjimaning birinchi yozma yodgorliklari diplomatik hujjatlar, turli shartnomalar va hokazolardan iborat edi. O‘sha davrda tarjimaning bu turi yanada kuchaydi. Endi tarixiy asarlar, etnografik materiallar, folklor asarlari, ocherk, memuarlar va turli hikoyalar ham o‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilina boshladi.

O‘zbek tilidan ruschaga tarjima qilingan dastlabki asarlardan biri “Boburnoma” edi. 1857-yilda sharqshunos olim N.I.Il’inskiy “Bobur-

noma”ning matnini Qozonda bostirib chiqardi. 1871-yilda N.N.Pantusov, S.I.Polyakovlar mazkur asarning ayrim boblarini rus tiliga ag’dardilar. (M.Sale “Boburnoma”ning to’la matnini tarjima qilib, birinchi kitobni 1948-da chiqardi, 1958-da esa asarning to’la to’kis tarjima nashrini ta’minladi).

XVII asrga doir tarixiy asarlardan biri – Abulg’oziyning “Shajara-i tarokima” asarini sharqshunos olim A.G.Tumanskiy rus tiliga tarjima qilib, 1897-yilda Ashxobodda chiqardi. Boshqa bir tarixiy asar – “Samariya”ni Ulug’bek observatoriyasini birinchi bo’lib topgan sharqshunos olim V.L.Vyatkin rus tiliga tarjima qilib, 1904-da Peterburgda nashr qildirdi. Musulmon odati va huquqiga oid (“Hidoya”) nomli asarni sobiq Samarqand gubernatori Grodekov rus tiliga tarjima qilib, 1893-yilda nashr qildirdi. Arab tilini mukammal bilgan Sattorxon Grodekovga o’zining qimmatli maslahatlari bilan juda katta yordam bergan edi. Rus olimlari o’zbek adabiyoti namunalarini qidirib topib, nashr va tarjima qilib, bular to’g’risida maqola va katta asarlar yozganlar. Ayni zamonda ruschadan ko’pgina risola, badiiy asarlarni ham o’zbek tiliga tarjima qilganlar. Masalan, akademik A.N.Samoylovich, Fuzuliy, Mashrab, Huvaydo, Sidqiy, Furqat, Bahodir, mulla G’oyib, Bahriy, Do’st Ali, Xoksor, mulla Mirzo kabi 38 ta shoirning asarini to’plash bilan birga, ularning ba’zilarini tarjima qilishga ham kirishdi va ko’plari haqida ilmiy asarlar yozdi.

Akademik V.V.Bartold turkiy tillarni, jumladan o’zbek tilini bilishidan tashqari, fors, arab tillarini ham egallagan edi. U ko’pgina tarjima asarlarining mas’ul muharriri bo’lgan. Akademik V.V.Bartold O’rta Osiyo xalqlari madaniyati va adabiyoti to’g’risida yozgan asarlari bilan butun dunyoga mashhurdir.

N.P.Ostroumov shoir Furqatning “Akt majlisi xususida”, “Toshkent shahrida bo’lgan na’ma bazmi xususida”, “Suvorov haqida”, “Shoir ahvoli va she’r mubolag’asi xususida”, “1891-22-yil yanvarda...”, “1891-yil 10-fevralda...” kabi she’rlarini tarjima qilib, uning asarlarini rus xalqiga birinchi bo’lib tanitdi. Tarjimon “Sattorxon Abdul G’afforovning xotiralari” (“Воспоминание Саттархана Абдул Гаффарова”), “Qo’qon shoiri Zokirjon Furqatning avtobiografiyasi” (“Автобиография Кокандского поэта Закирджан Фурката”) kabi memuar asarlarni ham ruschaga tarjima qilgan.

Furqat 1890-yil, 5-oktyabrda Toshkent teatrida bo’lgan vaqtida “Suvorov” spektaklini ko’rganidan so’ng ilhom bilan o’zining “Suvo-

rov haqida” she’rini yozadi. N.P.Ostroumov shoirning ana shu she’rini rus tiliga satrma-satr tarjima yo’li bilan tarjima qilgan edi. Bitta misol keltiramiz. Shoir Suvorov haqidagi voqeani boshlamasdan ilgari, mug’anniyga murojaat qilib, shunday deydi:

*Mug’anni, nag’mani kel aylab og’oz,*

*Urush ohangida qil pardasin soz.*

*Teatr bazmini obod qilg’il,*

*Tamosho ahli ko’nglin shod qilg’il.*

Bu satrlarni N. P. Ostroumov ruschaga shunday tarjima qilgan:

*Приди певец и начинай петь!*

*Настрой свою арфу и приступай к мелодиям.*

*Впроизведи театральное представление,*

*Повесели сердца слушателей...*

She’rning mazmuni asosan to’g’ri berilgan. Bunda o’zbekcha soz ruscha *arfa* bilan almashtirib berilganligini to’g’ri deb bilmoq kerak (shoir V.Lipko uni aynan “saz” deb qoldirgan), chunki “arfa” so’zi bu o’rinda umuman “kuylovchi” obrazini aks ettirib, majoziy ma’no kasb etgan. Afsuski, oradan rosa 60 yil o’tgandan keyin V.Lugovskoy va S.Somovalarning ruscha “tarjima”sida Furqatning ayni o’sha she’ri butunlay o’ziga o’xshamay qolgan.

#### **10.6. Sattorxonning ma’rifatparvarlik g’oyalari va tarjimonlik faoliyati**

Biz XIX asrning ikkinchi yarmidagi tarjimachilik harakatini tekshira turib, Sattorxon haqida yangi-yangi qiziqarli materiallarga duch keldik. Shulardan biri “Туркистон вилояти газети”da 1890-yilda o’zbek va rus tillarida chiqqan “Bir chimkentlik musulmon o’tgan voqealarni yodig’a olib yozg’ani” memuari bo’lib, unda muallifning nomi qo’yilmagan bo’lsa ham, Sattorxon yozganligi ma’lum bo’ldi. Chunonchi, bu xotira keyinchalik to’plamlarda bosilib chiqqanida uning muallifning – Sattorxonning nomi ochiq qo’yilgan edi. Ushbu xotiraga qaraganda, Sattorxon o’zi tug’ilgan (1843-yil) Chimkent shahrida o’qib, u yerda boshlang’ich ma’lumot olganidan so’ng, Toshkentdagi Shukurxon madrasasida o’qigan. Sattorxonning iste’dodi, zehni uning arab, fors tillarini tez va yaxshi o’rganib olishiga imkon bergan. U 1862-yilda, 19 yoshida Chimkentda muftilik qila boshlagan. Ammo bundan muqaddam uning o’rnida ishlab turgan mutasavvuf

qozilar unga qarshi igʻvo qiladilar. Shundan soʻng u Toshkentga ketishga majbur boʻladi. Bu haqda Sattorxon shunday yozadi:

“1883-yilda men, – deb yozadi Sattorxon, – Turkiston viloyatida sartiya tilida chiqib turgan rusiya gazetigʻa tarjimonlikka tayinlanib, 1884-yilda, birinchi avgustda Turkiston viloyatining uchitelskaya seminariya madrasasigʻa sartiya va forsiy tilini mukolama qilib turmoqqa tayinlanib, mansabda 1889-yil 1-martgacha turub, andin keyin Sirdaryo muzofotidagʻy oblast mahkamasida yer soligʻini tayiv qiladigan komissiyasigʻa tarjimonlikka tayinlandim. Ushbu mansabda va mazkur gazetada alhol ham tarjimonlikda turibman”.

Oradan toʻrt oʻtgach, 1893-da Sattorxon Chimkentga qozi boʻlib saylanadi va 1899-gacha shu vazifada ishlaydi, bolalarini rus tuzem maktabiga berib oʻqitadi. Umrining oxirgi yillarini (1899-1901) Sattorxon Toshkentda ogʻir ahvolda oʻtkazadi. Uni, bir tomondan, chor, amaldorlari oʻzlari uchun “begona” deb hisoblasalar, ikkinchi tomondan, oʻzbek ruhoniylari “kofir”likda ayblab, boʻhton ustiga boʻhton yogʻdirar edilar. Sattorxon moddiy tomondan qiynalib, Chimkentdagi uyini sotadi, Toshkentdagi uyini esa ijaraga qoʻyib, oʻzi ish topolmay azob chekib, faqirlikda 1901-yil 22-dekabrda 58 yoshida vafot etgan. Uning vafotidan soʻng, gazetalarda oʻzbek va rus tillarida chuqur taʼziyalar bildirilib, Sattorxonning oliyjanob maʼrifatparvarlik ishlari, rus xalqining doʻsti, rus tili, madaniyatining targʻibotchisi ekanligi qayd etildi. Shuni aytish kerakki, Sattorxon oʻzining oʻtkir maqolalarini oʻzbek gazetasida turli taxalluslar ostida bostirib chiqardi. 1883-yilda “Туркистон вилояти газети”ga ishga kirishi bilanoq “mulla Abdullo”, keyinchalik yana boshqa taxallusda maqolalar yozib, rus tilini targʻib qilar edi. U shunday yozadi: “Umid qilamiz va ishonamizkim, imkoni boricha oʻzlaringiz oʻrusiya tilini bilmoq toʻgʻrisida, xususan farzandlaringizni ham oʻrusiya tiliga oʻrgatmoqda taraddud qilursizlar deb. Agar oʻrusiya tilini bizlar oʻzimiz bilmasak va bolalarimiz bilmasalar, bizlar har toʻgʻrida qiyinlik holda boʻlub, har vaqtda zarar va ziyon tortsaq kerak. Masalan, har vaqtda bizlar oʻrusiya xalqi birlan aralashib va ishlashib turamiz, nechukkim, bizlarga alhol hukumat yurgizib turgʻan oʻrusiya xalqidur. Boshimizga bir ish va daʼvo – janjal tushsa, albatta, noiloj hokimlarga bormay boʻlmaydur. Hokimlarga arz qilganda oʻzimiz oʻrusiya tilini bilmagan sababdin, bizlar birla hokimlar oʻrtasida bir tarjimon turub, bizlarning arzimizni hokimlarga aytadur”. Sattorxon rus tilini oʻrganish masalasi hayotiy

zaruriyatdan kelib chiqqanini aytadi: “Bizlar o‘rusiya xalqi birlan har vaqt uchrashib turamiz, chunonchi savdo va bo‘lak ishlar xususida so‘zlashib turmoqimiz zarur bo‘lib turibdur. O‘rusiya tilini bilmaganimiz sababidin o‘z foydamizni qilishga qisqalik qilib qolamiz. Agar aytsakkim, “o‘rusiya tilini bilmoq bizlarga zarur emas, tarjimon birlan ishimiz bitadur”, lekin har vaqt va har soat tarjimonni topib bo‘lmaydi. Bizlar o‘rusiya xalqi birlan bozorlarda va ko‘chalarda va yo‘llarda va do‘konlarda uchrashib, savdo va yo bir zarur ish xususida so‘zlashmoqchi bo‘lsak, shu zamon tarjimon topmoq ko‘p mahol ishdur. Mabodo agar tarjimon uchrab qolsa ham, o‘zimiz so‘zlashgan barobari, albatta, bo‘lmaydur”.

XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan iste’dodli, taraqqiyparvar olim, murabbiy, rus tilining birinchi targ‘ibotchisi va birinchi jurnalist, juda ko‘p badiiy, tarixiy, tibbiy asarlarni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan Sattorxon umrining oxiriga qadar tarjima ishlari bilan shug‘ullandi.

### **10.7. Birinchi tarjimonlar va dastlabki tarjimalarning turlari**

Turkiston general gubernatorligi uyezd, viloyat va shaharlardagi barcha mahkama idoralarni tarjimonlar bilan ta‘minlash masalasiga muhim vazifa deb qarar edi. Hatto har bir tarjimon general gubernator farmoni bilan ishga tayinlangan. General gubernatorlik mahkamasida tarjimon bo‘lib ishlagan Sh.Ibrohimov, Chanishev, Hasanovlar o‘zbek tilida chiqadigan gazetada ham muharrir va tarjimonlik qilganlar. Guberna, shahar mahkamalariga tilmoch (tarjimon) qilib tayinlash haqidagi general gubernator buyruqlari “Turkiston viloyati gazetasi”da maxsus e‘lon qilinardi. Masalan: “Alimuhammad Urazaevni Chust mahkamasiga tilmoch ayladim”; “Sultonxon Garay Muhammad Hasan o‘g‘lining Ho‘qand hokimining mahkamasiga tilmoch qildim”; “Meni[ng] mirzoxonamda xizmat qilib turg‘an mirzo To‘g‘onbek Abdullo o‘g‘lini Andijon uyezdini[ng] mahkamasig‘a tilmoch ayladim”. “Ho‘qand mahkamasida tilmoch bo‘lib turuvchi podporutchik Bogdanovni Ho‘qand uyezdining hokimiga tilmoch ayladim” va h. Mulla Olim mahzum mulla Abul Qosim Xalifa o‘g‘li 1890-yilda Sattorxon Chimkentga qozi bo‘lib saylangach, uning o‘rniga “Turkiston viloyati gazetasi” ga ishga kirdi. U ilgari ham gazetada Sh.Ibrohimov bilan birga ishlagan edi.

*Diplomatik hujjatlar va ma'muriy rasmiy yozishmalar yozma tarjima turlaridan biri bo'lib, shartnoma, bitim, ahdnoma, ittifoqnoma, oliy farmon, manifest, dasturilamal, buyruq, nizomnoma kabi shakllarga ega. Gazeta-informasion materiallar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari bor. Gazeta tili va gazeta uslubi tarjima ishlariga ham ta'sir qiladi. Har qaysi davrda chiqqan gazetaning o'ziga yarasha uslubi bo'lganiday, tarjimada ham bu xususiyat o'z in'ikosini topadi. Masalan, "Turkiston viloyati gazetasi"dagi tarjima materiallari bilan "Sadoyi Farg'ona" yoki "Turkiston" gazetalarining tarjimalarini bir-biriga solishtirsangiz, katta farq borligini ko'rasiz. Bu farq material tanlashda, leksikada, termin qo'llashda, umuman til va uslubda yaqqol ko'zga tashlanadi.*

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqi ichidan yetishib chiqqan tarjimonlar rus tilidan bir qancha foydali asarlarni tarjima qilib, fan va madaniyatimizni boyitishda va uning ravnaqida katta xizmat qildilar.

### **10.8. Badiiy tarjima tarixiga doir**

Badiiy tarjima siyosiy, ilmiy va publisistik asarlar tarjimasidan tamom ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyatlari bor. XX asrning 20-yillariga qadar rus tilidan o'zbek tiliga maqol, matal, masal, ertak, hikoya, she'rlar tarjima qilingan bo'lsa-da, katta asarlar, qissa, poema, romanlar va dramatik asarlar tarjima qilinmagan.

Birinchi marta tarjima qililgan nasriy asar 1873-yilda "Turkiston viloyati gazetasi"ning 5-sonida bosilgan "Hikoyat" nomidagi asar bo'lib, unda Kavkaz asiri Kashimirovning sarguzashti yoziladi. Bu hikoyaning davomi gazetaning bir qancha (6, 18, 25) sonlarida bosildi.

She'riy asarlar ichida dastlab tarjima qilingani I.A.Krilov masallari "Fil va laycha", "Qarg'a va tulki", "Maymun bilan ko'zoynak" edi. (Bular "Turkiston viloyati gazetasi"ning 1875-yil, 21-aprel, 10-sonida bosilgan). Birinchi ocherk – "Magilan hikoyasi" 1875-yil, 10-sentyabrda (№ 22), rus tili orqali ag'darilgan birinchi nemis ertagi "Latifa" nomli asar edi. 1885-yil 12-apreldan boshlab (Sattorxonning gazetada tarjimon bo'lib ishlashining ikkinchi yilida) yunon faylasuflarining hikmatli so'zlari turkumi tarjima qilila bordi.

"Turkiston viloyati gazeta" yunon donishmandlarining hikmatli so'zlari tarjimasini siklini bosib tugallagach, o'sha yili 10-oktyabrdan boshlab L.Tolstoyning "Odamlar nima birlan tirik" hikoyasining tarjimasini bera boshladi. 1887-yilning oxirida bu hikoya tarjimasini to'la

nashr etib tugallandi. 1888-yilda esa Maykovga bag‘ishlangan she‘r, 1889-yilda A.Fetning she‘rlari va uning ijodiga bag‘ishlangan maqolalar bosildi. 1889-yilda “Bir rusiya shoiri”, “Ko‘klam”, “Yulduzlar”, “Oy” nomli she‘rlarining satrma-satr ag‘darmasi o‘quvchilarga taqdim qilindi. Gazetaning 1890-yil 11-sentyabr sonida “Odam ko‘ngli avsari”<sup>1</sup> asarining tarjimasi bosilarkan, redaksiya: “Ushbu baytni biz rusiya kitobida o‘qib, ushbu gazetamizda tarjima qilduk” deb yozgan.

Oradan bir necha yillar o‘tgach, 1899-yilda A.S.Pushkinning tug‘ilganiga yuz yil to‘lishi munosabati bilan o‘tkazilgan yubiley kunlari uning haqida maqolalar va yuqorida qayd qilingan “Shoir”, “Shoirlar” she‘rlari (1899-yil, 20, 28-may), “mazkur Pushkin shoir shoirlik xususida bul tariqa mazmunlik nazm etibdurlar” degan nom bilan “Baxcha saroy fontani” [1899-yil, 3-iyul (nasriy yo‘l bilan)] kabi asarlarining tarjimalari bosildi. Bulardan tashqari, o‘sha yilning 24-iyulida shoirning “Baliqchi va baliq haqida ertak” nomli asari xam nasriy yo‘l bilan tarjima qililgan. Mazkur asarning she‘riy tarjimasi gazetaning 1899-yil 14-avgust sonida bosilgan bo‘lib, bu Pushkin asarlarining birinchi she‘riy tarjimasi edi.

1902-yilga borib L.Tolstoyning “Бог правду видит, да не скоро скажет” degan hikoyasi o‘zbek tiliga o‘girilib, mazkur gazetaning 22-fevral, 2-mart sonlarida nashr qilindi. (Hikoyaning sarlavhasi o‘zbekchaga tarjima qililmagan, shuning uchun biz ham asarning nomini aynan keltirdik). O‘sha sonda I.A.Krilovning “Волк и журавль” nomli masali qozoqchaga tarjima qilib berilgan. Ammo na Krilovning va na tarjimonning nomi ko‘rsatilmagan, hatto sarlavhasi ham tarjima qililmagan. Gazetaning o‘sha yil 24-oktabr sonida “Krilov nomli katta rus shoir musannifining timsoli “Maymun ila ko‘zoynak” va “Лев на ловле” (keyingi masalning sarlavhasi tarjima qililmay ruscha yozilgan) hamda “Tulki bilan uzum”, “Oqqush, qisqichbaqa va cho‘rton” kabi masalalarning tarjimalarini ko‘ramiz.

1900-1917-yillar mobaynida o‘zbek tilida chiqqan terma kitob-xrestomatiyalarda ham I.A.Krilovning bir qancha masallari tarjima qilib bosildi. Masalan, Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval” kitobida “Bo‘ri bilan turna”, “Tulki bilan xo‘roz”, “Pashsha bilan ari”, “Qurbaqa bilan ho‘kiz” masallari, Ali Asqar ibn Bayram Ali Kalinening “Muallim us-soniy” xrestomatiyasida “Tulki bilan uzum”, “Bog‘-

---

<sup>1</sup> Sifati – maqtovlari.

bon bilan ayiq”, “Eshak bilan bulbul”, “Oqqush, qisqichbaqa va choʻr-ton”, Gʻulomiddin Kabirzodaning “Taʼlimi soniy” toʻplamida “Tikanlik daraxt bilan bogʻbon”, “Pashsha bilan hoʻkiz”, “Ari bilan asalari”, Serikboy Oqaeving “Xrestomatiya, yaʼni terma kitob”ida esa “Sichqon bilan kalamush”, “Boʻri bilan turna”, “Dehqon bilan ot”, “Doʻsti nodon” (“Пустынник и медведь”) va boshqa masallarning tarjimalari berilgan. Bularning baʼzilari nasriy va ayrimlari sheʼriy tarjimalardir.

Yuqorida qayd qilib oʻtilgan kitoblarda A.S.Pushkin sheʼrlari, Lev Tolstoy hikoyalari va mualliflari maʼlum boʻlmagan masal, hikoyalarining tarjimalari ham mavjud. Masalan, Oqaeving xrestomatiyasida “Urus bilan tatar”, “Tulki bilan boʻri”, “Ilgari aytma”, “Qalmoqning hikoyasi”, Kalinenning “Muallim us-soniy” xrestomatiyasida “Oʻqi bilan choʻpi”, “Sud, yaʼni soʻrogʻ” va boshqalar bor.

Yuqorida nomlari qayd etilgan tarjima asarlari rus tilidan oʻzbek tiliga qilingan badiiy tarjima tarixining ilk sahifalarini tashkil etadi.

**I.A.Krilov masallarining XX asrning 20-yillarigacha boʻlgan ilgarigi tarjimalari haqida.** I.A.Krilovning nomi dunyoga mashhur boʻlgan ulugʻ masalchi Ezop bilan bir qatorda turadi. I.A.Krilov masallari haqsizlik, adolatsizlik, zulm, riyokorlik, makkorlik, maqtanchoqlik, munofiqlik, poraxoʻrlik va amaldorlik kabi maraz, illatlarga qarshi yozilgan otashin asarlar edi. Uning asarlari sodda, jonli xalq tilida yozilib, maʼnosi chuqur va tarbiyaviy jihatdan zoʻr ahamiyatga ega edi. Ular har bir xalqqa tushunarli va uning yuragiga tez yetib borar edi. Oʻzbek xalqi ham bundan toʻqson yil ilgari bu masallarni oʻz tiliga tarjima qilib, ularni sevib oʻqigan.

I.A.Krilovning “Крестьянин и лошадь” (“Dehqon bilan ot”) masali Serikboy Oqaeving “Xrestomatiya, yaʼni terma kitob”iga kirgan. Lekin I.A.Krilovning nomi koʻrsatilmagan. Mazkur masal I.A.Krilovniki ekanligini aniqlash uchun ularni bir-biriga solishtirib koʻraylik:

#### **I.A. Krilovda:**

Крестьянин и лошадь  
Крестьянин заседал овес;  
То видя Лошадь молодая  
Так про себя ворчала, рассуждая:  
“За делом столько он овса сюда  
принес!  
Вот говорят, что люди нас умнее,

#### **Serikboy Oqayev tarjimasi:**

Dehqon bilan ot  
Dehqon ot qoʻshi qilib  
yerga arfa sepib erdi. Ot  
oʻyladi:  
“Odamni bizdan aqllik  
deydurlar. Qani muning

Что! Может быть безумней и смешнее  
 Как поле целое изрыть,  
 Что после рассорить  
 На нем овес свой по пустому!  
 Стравил бы он его или мне, или  
 гнедому;  
 Хоть курам бы его он вздумал  
 разбросать,  
 Всё было б более похоже то на стать.  
 Хот спрятал бы его: я видела в том  
 скупость;  
 А попусту бросать! Нет, это просто  
 глупость».  
 Вот к осени меж тем, овес тот убран  
 был,  
 И наш Крестьянин им того ж коня  
 кормил”.<sup>1</sup>

aqli! Bekorga yerni  
 omoch bilan yorub, arfani  
 behudaga sochadur.  
 Mundin yaxshi emasmi,  
 menga bersa. Yoki tovuqqa  
 sepsa edi” deb.  
 Har kim o‘z nafsini[ng]  
 yo‘lida kirsas, aqlini  
 yo‘qatadur”<sup>2</sup>.

Albatta, bu nasriy tarjimaga I.A.Krilovning masali asos bo‘lganligi shubhasiz. Bularning mazmuni aynan to‘g‘ri kelgani holda, masal ancha qisqartib ag‘darilgani ham ko‘rinib turibdi. Biz yana “Do‘sti nodon” va “Tulki bilan bo‘ri” nomli masallarning tarjimalarini ham topdik. Ammo bularni aniqlash oson bo‘lmadi. Oqaevning “Xrestomatiya, ya’ni terma kitob”iga kirgan va muallifi ko‘rsatilmagan “Do‘sti nodon” degan masalini ruschaga teskari tarjima qilsak, “Глупый друг” bo‘lib chiqadi, Krilovda esa bunday masal yo‘q. O‘zbek masalchilarining kitoblarini qaradik, ularda ham bunday masal topilmadi. I.A.Krilovning hamma kitoblarini qayta-qayta o‘qib solishtirib chiqqanimizdagina, “Do‘sti nodon” – I.A.Krilovning «Пустынник<sup>3</sup> и медведь» masalining qisqartirilgan tarjimasi ekanligi ekanligi aniqlandi. So‘zimizning dalili uchun quyida o‘sha masal bilan uning o‘zbekcha variantidan misollar keltiramiz:

... И точно, встретился с

Bir odam ayiq bilan do‘st

<sup>1</sup> Крылов И.А. Басни. –М.-Л.: Изд-во, 1956, стр. 219-220.

<sup>2</sup> Хрестоматия, яъни терма китоб. 1912, 20-бет.

<sup>3</sup> Пустынник – odamga qo‘shilmay, jamiyatdan ajralib, yakka, yolg‘iz turadigan kishi, “qalandar”, “darvesh” ma’nosida.

большим медведем он, ...  
 И слова за слово знакомятся они.  
 Потом дружатся,  
 Потом не могут уж расстаться  
 И целые проводят вместе дни.  
 ...  
 То видя, говорит, как путный  
 Мишка другу:  
 «Приляг-ка брат, и отдохни,  
 Да коли хочешь, так сосни;  
 А я постерегу тебя здесь у  
 досугу».  
 Пустынник был сговорчив, лег,  
 зевнул,  
 Да тот час и заснул,  
 А Мишка на часах-да он и не без  
 дела:  
 У друга на нос муха села  
 Он друга обмахнул; Взглянул,  
 А муха на щеке; согнал, а муха  
 снова  
 У друга на носу,  
 И неотвязчивей час от часу.  
 Вот Мишенька, не говоря ни  
 слова,  
 Увесистый булыжник в лапы  
 сгреб,  
 Присел на корточки, не  
 переводит духу,  
 Сам думает: «Молчи ж уж я  
 тебя воструху!»  
 И, у друга на лбу подкарауля муху,  
 Что силы есть-хватить друга  
 камнем в лоб!  
 Удар так ловок был, что череп  
 врознь раздался,

bo 'lubdur, oxirida do 'stliklari  
 ziyoda bo 'lubdur.  
 Kunlardan bir kun ayiq do 'sti  
 bilan ko 'p o 'ltirishib, odam  
 do 'sti uxlab qolibdur.  
 Shu holda odamni[ng] yuziga  
 qora pashsha kelib qo 'nganini  
 ayiq ko 'rib, do 'stini pashsha  
 behuzur qilg 'anig 'a ko 'ngli  
 chidalmay, pashshani  
 uchirmoq qasdida, bir kata  
 toshni olib kelib, do 'stining  
 yuziga qo 'ngan pashshani  
 o 'ldiray deb tosh bilan solsa,  
 pashsha bilan baravar odam  
 do 'stining ham o 'ldiribdur.  
 Maqol: do 'sti nodondan-  
 dushmani ziyrak afzaldur<sup>1</sup>.

*И Мишин друг лежать на долго  
там остался<sup>1</sup>.*

Bir qator she'riy tarjimalarda mazmun, obraz, musiqiy ohang, badiiy ifodalar ham mumkin qadar mukammal berishga harakat qilingan. Chunonchi, "Ustodi avval" kitobidan olinib "Muallim us-so-niy" xrestomatiyasida bosilgan "Tulki bilan uzum" masalini uning she'riy tarjimasi bilan chog'ishtirib ko'raylik:

*Голодная кума – Лиса залезла в сад.  
В нем винограду кисти рделись,  
У кумушки глаза и зубы разгорелись:  
А кисти сочные, как яхонты горят.  
Лишь то беда, висят они высоко:  
Отколь и как она к ним ни зайдет,  
Хоть видит око,  
Да зуб неймет.  
Пробившись попусту час целой,  
Пошла и говорит с досадою: «Ну, что ж!  
На взгляд-то он хорош,  
Да зелен-ягодки нет зрелой,  
Тотчас оскомину набьешь»<sup>3</sup>.*

Bu masal o'zbekchaga shunday tarjima qililgan:

*Bir kuni tulki boqqa kirdi kelib,  
Qaradi o'ng-u so'lg'a ul egilib,  
Ishkom ustida ko'rdi bir bosh uzum,  
Yaxshi pishgan qizil edi yetilib.  
Tulkining yegusi kelib oni,  
Keldi og'zin suvi anga tikilib,  
Bir necha soat ayladi harakat,  
Irg'ib-irg'ib nafasleri tiqilib,  
Bo'lubon noumid-u zor anga,  
Jo'nadi ololmasini bilib,  
Der edi ketayotib uzumga qarab,  
"Ko'ksan-u, g'o'rasan, - bo'lmaydi tegib,*

---

<sup>2</sup> Хрестоматия, яъни терма китоб. 1912, 32-бет.

<sup>1</sup> Крылов А.И. Басни. стр.109.

<sup>3</sup> Крылов И.А. Басни. стр. 171.

*Negakim, tishlasam tishim qamashur,  
Arzimaydir senga qarash cho‘zilib”,  
Ul uzum ishkomin balandligidan  
Chiqdi noumid yuraklari ezilib<sup>1</sup>.*

Bu masal tarjimasida asl nusxaning ma’nosini to‘la berishga harakat qilingan. Albatta, o‘sha vaqtda, umuman, she’riy tarjimani uddalash juda qiyin ish edi. Ammo bu she’riy tarjima sohasida qilingan dastlabki tajribalardan biri sifatida, shubhasiz, taqdirlashga arziydi. Qofiyalarning zanjirday bir-biriga bog‘lanib borishiga bir nazar tashlang: “kelib – egilib – yetilib – tikilib - tiqilib...” va shu kabilar. Bular she’rga musiqiy ohang beradi.

**A.S.Pushkin asarlarining dastlabki tarjimalari.** A.S.Pushkin o‘limidan bir yil avval shunday yozgan edi:

*Butun buyuk Rossiyani chulg‘ab olur ovozim,  
Undagi har bir ulus meni yodlaydi har choq:  
Mag‘rur slavyan zoti, bukun vahshiy tungus ham,  
Fin ham, hatto o‘sha sahroyi qalmoq<sup>2</sup>.*

Ulug‘ shoirning bu aytgan so‘zlari ro‘yobga chiqdi. Uning o‘limas asarlari dunyoning o‘nlab tillariga tarjima qilinib, yer yuzidagi xalqlarning sevib o‘qiladigan kitoblari bo‘lib qoldi.

A.S.Pushkin asarlarining O‘zbekistonda tarqalishi, uning o‘zbek yozuvchilariga ta’siri, asarlarining tarjimalari to‘g‘risida bir qancha ilmiy ishlar qilingan. Pushkin tavalludining 150 yilligi munosabati bilan I.O.Sultonovning «Звезда Востока» jurnalida bosilgan “Pushkin va o‘zbek adabiyoti” (1949-yil, 6-son) sarlavhali va o‘sha yili yubiley kunlarida adabiyotshunos M.Troiskiyning “O‘zFA axboroti”da chiqqan “O‘zbekistonda Pushkin yodgorliklari” (1949-yil, 3-son) nomli maqolalarida shoir asarlarining birinchi tarjimalari haqida axborot berilgan.

A.S.Pushkinning tarjima qililgan birinchi asariga gazetada sarlavha qo‘yilmasdan, “Mazkur Pushkin shoir, shoirlik xususida bul tariqa mazmunlik nazm etibdurlar” deb yozilgan va o‘sha jumla ketidan tarjima teksti bosilgan. Mazkur tarjimaning teksti 1960-yilda chiqqan “O‘zbek adabiyoti” to‘rt tomlik xrestomatiyasining ikkin-

---

<sup>1</sup> Хрестомати. Муаллим ус-соний. 1903. 28-бет.

<sup>2</sup> Пушкин А.С. Танланган асарлар. 1 том. –Тошкент: Ўздаврناшр, 1949. – Б.248-бет. (М.Шайхзода таржимаси).

chi kitobida “Shoirga” sarlavhasi ostida aynan ko‘chirib bosilgan. Biz bu tarjimani sinchiklab tekshirganimizda, u tekstning ichida bir she‘r emas, balki ikki she‘r borligini aniqladik. Biri “Shoir” («Поет»), ikkinchisi esa “Shoirga” («Поэты») she‘rlari bo‘lib, negadir ular bir sarlavha ostida berilgan.

A.S.Pushkinning “Baliqchi va baliq ertagi”ning bir qancha tarjima nusxalari mavjud. “Turkiston viloyati gazet”da bu ertakning nasriy va she‘riy tarjimasi va Ali Asqar Kalinen xrestomatiyasida nasriy tarjimasi berilgan. Biz ushbu ertakning nasriy tarjimasi xususida muhokama yuritganimizda Ali Asqarning originalga ancha yaqin tarjima nusxasiga murojaat etamiz. Ali Asqar bu ertakka “Baliqchi bilan tilla baliq hikoyasi” deb sarlavha qo‘yib, uning tarjimasi haqida kichik bir kirish so‘zi yozadi:

“Ushbu hikoyani Pushkin nomlik<sup>1</sup> Rusiyani ulug‘ va mo‘tabar shoiri she‘r bilan yozmishdir. Ammo biz she‘r bilan tarjima qilmoqqa qodir bo‘lolmay, rasmiy til ilan tarjima qilduk, Pushkin vafot bo‘lganig‘a ushbu vaqtlarda bir yuz sanadin ziyod bo‘lubdur”.

Bizning fikrimizcha, bu ertakning tarjimasi Pushkin asarlari ichida eng to‘g‘ri va durust tarjima hisoblanadi. (Mazkur tarjima keyingi yillarda matbuotimiz sahifalarida e‘lon qilinmaganligi uchun uni asar oxirida berilgan ilovaga kiritdik). Ali Asqar “Baliqchi bilan baliq ertagi”ni tarjima qilar ekan, asl nusxaning nozik tomonlariga diqqat qilib, asarni mazmunan to‘la tarjima qiladi. So‘zimizning dalili uchun misollar keltiramiz:

*Жил старик со своею старухой  
У самого синего моря;  
Они жили в ветхой землянке  
Ровно тридцать лет и три года.  
Старик ловил неводом рыбу,  
Старуха пряла свою пряжу.  
Раз он в море закинул невод,-  
Пришел невод с одною тиной.  
Он в другой раз закинул невод,-  
Пришел невод с травой морскою,  
В третий раз закинул он невод,-  
Пришел невод с одною рыбкой,*

---

<sup>1</sup> Keyingi nashrida “Pushkin nom” deb olingan.

*С непростой рыбкой, - золотою.*

Buni Ali Asqar shunday tarjima qilgan: “Bir kambag‘al chol kampir xotini ilan ko‘k dengizni[ng] kanorida bir yerto‘la uyda istiqomat qilar erdi. Chol to‘r bilan dengizdan baliq tutar erdi va xotuni charx yigirib, kalava qilar erdi. Shul ahvolda bular mazkur yer uyda miqdor o‘ttiz uch sana umr kechirmishlar erdi. Bir kuni mazkur chol turini olib borib dengizg‘a soldi, to‘ri faqat balchiq olib chiqdi. Yana tashladi, dengiz tagida o‘sadurg‘an o‘tlar chiqdi. Uchinchi marotaba tashlab erdiki, birgina baliq chiqdi, ammo ul baliq rasmiy baliqlardan emas, taajjub va g‘ayr muqarrar bir tilla baliq erdi”. Mana bu keltirilgan misoldan ko‘rinib turibdiki, tarjima originalga monandir. Yuqoridagi misralarning mazmunini to‘la va keng aks ettiruvchi bu parchada ba‘zi bir kitobiy jumlar asarning uslubiga ma‘lum darajada ziyor yetkazadi.

“Turkiston viloyati gazetasi”da chiqqan she‘riy tarjimaning kim tomonidan qilinganligi aytilmagan. U masnaviy yo‘lida tarjima qilingan. Qofiyalar sistemasi “aa bb ee zz” bo‘lib, bu tartib asar oxirigacha saqlangan. Mazkur she‘riy tarjimada ba‘zi bir epizodlar to‘g‘ri berilgan, ularda soxtalik, zo‘rma-zo‘rakilik yo‘q, chunonchi, cholning xotini dvoryanka bo‘lib olgach, uning fe‘l-atvorida yuz bergan o‘zgarishlar tasvirini ko‘ring:

*Kelibon ko‘rsa ul ajuzani pir,  
Faxri saodat etardi ul kampir.  
Egnida shol va zarafshonlar,  
Xizmatini qilurdi jononlar.  
Ba‘zi jononlarga adovatlik,  
Ba‘zilarg‘a bo‘lib siyosatlik,  
Shul zamon pir anga salom qilib,  
Arz etardi anga qiyom qilib:  
- “Bo‘yla tabiat bilan tabiat chog‘,  
Qolmagandir ko‘ngil ora bir dog‘”<sup>1</sup>.*

Ammo bu she‘riy tarjimada bir qancha satrlar qo‘shilgan va ba‘zilari tushib qolgan, arabcha, forsha so‘zlar ko‘p. Ertakni sodda tilda berish o‘rniga og‘ir iboralar ishlatilgan. Masalan, ertakning boshlanishini olib ko‘raylik:

*Bir hikoyat ekan bidoyatdin,*

---

<sup>1</sup> Туркистон вилояти газетаси. 1902, 14 август.

*Har kishi fahm etar diroyatdin.  
 Pir mardeki ul qilurdi sayd,  
 Mohilar yo 'lig 'a solurdi qayd,  
 Manzil erdi anga labi daryo,  
 Hafar kuhi edi anga ma 'vo.  
 Sayd chun ittifoq chiqmish edi,  
 Qutini sayd ila qidirmish edi.  
 Ko 'k dengiz der, anga solub to 'rin,  
 Qildi sa 'y-u, taraddudu, zo 'rin,  
 Olibon ko 'rsa to 'rga to 'lmish loy,  
 Ul malul o 'ldi, qildi boz bajoy,  
 Ko 'rdi ikkinchisida to 'r ko 'torib,  
 Xas-xashak ekan, ani chiqorib,  
 Soldi to 'rni uchinchi martaba ul,  
 Sarig ' oltin balig ' chiqordi bu yo 'l.*

Agar bu satrlarning asl nusxasi bilan solishtirsangiz, bir qancha jumlarlar tushib qolganini ko'rasiz: chol bilan kampir o'ttiz uch yil umr ko'rgani, kampirning urchiq yigirishi va boshqalar tarjima qililmagan, buning o'rniga "Bir hikoyat ekan bidoyatdin, Har kishi fahm etar diroyatdin, Hafar kuhi edi anga ma'vo" kabi ortiqcha misralar qo'shilgan. Ertakning eski tarjimasi bilan keyingi tarjimasi bir-biriga solishtirilsa, katta farq borligi yaqqol ko'zga tashlanadi:

*O'tgan choqda dengiz bo'yida  
 Chol va kampir umr suripti,  
 Yerto'lada - eski uyida  
 O'ttiz uch yil birga turipti,  
 Chol to'r solib ovlarkan baliq,  
 Kampir esa yigirar urchiq.  
 Chol dengizga to'r solsa bir gal,  
 Baqa yaproq tushipti yolg'iz:  
 To'r solganda chol ikkinchi gal  
 Ilinipti dengiz o'lani.  
 To'r solganda chol uchinchi gal,  
 To'rga tushmish bir mitti baliq,  
 Jo'n baliqmas, naq oltin baliq.  
 (Mirtemir tarjimasi).*

Asl nusxaning quyidagi ikki misrasi:  
*Хоть бы взял ты с нее корыто,*

*Наше-то совсем раскололось*  
 eski tarjimada naq o‘n to‘rt misra bilan berilgan:  
*Aytdikim: – Bul nechuk balohatdur,*  
*Xalqaro tushmagan balodatdur.*  
*O‘ylasmu kishi nadir holi,*  
*Kimga qilmish ziyon jahon moli,*  
*Garchi shoh o‘lsa ham yig‘ar amvol,*  
*Tark qilmas xirojini bir sol.*  
*San agar shohdin baland o‘lsang,*  
*Ayb emas qut uchun agar so‘rsang.*  
*Xonamiz ichra yo‘q bir asbobim,*  
*Bu chuqurda turarga yo‘q tobim,*  
*Bul kuni bir xusus odatim,*  
*Sindi-yu o‘rtada dili chokim,*  
*Jomashovdurki, ul kerak bizga,*  
*So‘ragaysan agarchi yo‘q o‘zga.*  
 Mirtemir tarjimasi esa asl nusxaga to‘la monand:  
*Hech bo‘lmasa bitta tog‘ora –*  
*Olmaysanmi undan oxir sen,*  
*Tog‘oramiz, bilasan, teshik.*

Personaj tili individual xususiyatlarini aks ettirishda ham bu ikki tarjima o‘rtasida tafovut borligi quyidagi misollardan aniq bo‘ladi:

1. *Piri zan boz anga qilib janjal*  
*Aydikim: - “Naylaram muni*  
*tanho,*  
*Bizga lozim edi yangi ma’vo”,*  
*“Qayta bor!” - deb, xitob qilib...*

II. *“Bul nechuk”, – deb, imorati*  
*oliy,*  
*Loyiq ermas anga turon voliy,*  
*Manga ko‘p hullai g‘arib kerak,*  
*Hech kishi ko‘rmagan ajib*  
*kerak,*  
*Bir necha xodimi diloavorlar*  
*Ham yana ne‘mati sarosarlar”.*

III. *“Shul kun oltun baliqq‘a*

I. *Urishipti kampir battarroq,*  
*“Ey tentak chol, go‘l, devona*  
*chol!*

*Kir tog‘ora boy qilarmidi.*  
*Jo‘na tentak, baliqda borgil,*  
*Ta‘zim qil-u, uy so‘rab olgil”.*

II. *“Ey tentak chol, go‘l, devona*  
*chol!*

*Kelib-kelib uy so‘rabsan-da!*  
*Jo‘na darrov baliq yoniga,*  
*Ta‘zim qilg‘il unga sen tag‘in,*  
*Qora dehqon bo‘lmayman ortiq*  
*Men – begoyim bo‘lish istayman”*

III. *“Tez bor, ta‘zim qilgil*

|                                       |                                   |
|---------------------------------------|-----------------------------------|
| <i>borgaysan,</i>                     | <i>baliqqa, Ortiq men begoyim</i> |
| <i>Anga bu so‘zlarimni aytgaysan:</i> | <i>bo‘lmayman.</i>                |
| <i>“Bo‘yla davlat netay farog‘at</i>  | <i>Poshsho xotin bo‘lish</i>      |
| <i>yo‘q.</i>                          | <i>xohlayman”</i>                 |
| <i>G‘ayra tobi‘ bo‘lurg‘a toqat</i>   |                                   |
| <i>yo‘q.</i>                          |                                   |
| <i>Xohlarman malika bo‘lmoqni</i>     |                                   |
| <i>Orzu dodi raiya so‘rmoqni”</i>     |                                   |

I.O.Sultonov “Baliqchi va baliq ertagi”ning she’riy tarjimasiga yuksak baho beradi. U shunday deb yozadi: “Tarjimon to‘g‘risida shuni aytish kerakki, u tekstning ma’nosini juda to‘g‘ri tushungan, uni aniq, to‘la-to‘kis berishga hamda kitobxonga tushunarli qilib ifodalashga harakat qilgan. Bu tarjima XIX asr o‘zbek adabiyotining eng yaxshi namunalaridan biridir”.

A.S.Pushkin asarlari tarjimasining ahamiyati juda katta. Ularni o‘qigan o‘zbek demokrat yozuvchilari shoirdan ilhomlanib, ozodlikka chorlovchi o‘tkir asarlar yozganlar. Ma’rifatparvar shoir Furqat Pushkin asarlarini o‘qib, ularning ta’siri ostida yangi-yangi she’rlar yozdi. Adabiyotshunos olimlarimizning yozishlariga qaraganda, o‘zbek adabiyotining asoschisi Hamza Hakimzoda Niyoziy Pushkin she’rlarini rus va o‘zbek tillarida o‘qib, undan ilhomlanib, yuksak badiiy asarlar yaratdi. Pushkin asarlarining tarjimalari adabiyotimizga, shoirlarimizning ijodiga katta ta’sir etdi.

**L.N.Tolstoy asarlarining dastlabki o‘zbekcha tarjimalari.** Rus klassik adabiyoti namoyandasi, jahon adabiyotining buyuk dahosi Lev Nikolaevich Tolstoy asarlarining XX asrning 20-yillariga qadar o‘zbek tiliga qilingan tarjimalari g‘oyat katta ahamiyatga ega bo‘lib, tarjima tarixida alohida bobni tashkil qiladi.

Biz yuqorida adib L.Tolstoyning «Odamlar nima birlan tirik» degan asari «Turkiston viloyati gazetida»da 1887-yilda bosilib chiqqani haqida yozgan edik. Keyinchalik bu asar alohida kitob qilib nashr etildi. 1902-yilda o‘sha gazetada «Xudo haqni ko‘radiyu, tezda aytavermaydi» hikoyasi tarjima qilib bosildi. 8-9-sonlarga qarang. Bu tarjimalarning sarlavhasiga «Graf Lev Tolstoy nomlik Rusiyaning mashhur musannifining tasnif qilgan hikoyati» deb yozilgan.

Bu ikki hikoyaning tarjimasidan to‘rt tomlik «O‘zbek adabiyoti» xrestomatiyasida parchalar bosilgan (IV tom, 2-kitob, 421-430-betlar).

L.N.Tolstoyning o‘zbek tiliga tarjima qilingan hikoyalari orasida asl nusxaga mazmunan to‘la muvofiqlari ham bor. Masalan, “Podsho va kuynak” “Sariq ko‘ylak”, “O‘zi tutilgan O‘gri” “Как вор сам себя видел”, “Podsho bilan qarchig‘ay” “Sariq soqol”), “Qarg‘a bilan uyasi” “Ворон и воронята”, “Bog‘bon” “Садовник и сыновья”), “O‘tasi bilan bolalari” “Отец и сыновья” va b. Eng yaxshi tarjima qililgan hikoyalardan “Bir o‘g‘il bolaning g‘oz taqsim qilg‘oni” (“Как мужик гусей делил”) asari bo‘lib, bu ham badiiy jihatdan, ham uslub jihatdan o‘sha zamon tarjimalari ichida ajralib turadi.

“Ko‘r kishi” hikoyasining L.Tolstoy asari ekanligiga ishonch hosil bo‘ldi. Bu hikoyani Tolstoyning “Слепой шел домой” asari bilan chog‘ishtirish ham bu fikrni to‘la tasdiqladi. Bizningcha, uni V.Nalivkin tarjima qilgan bo‘lishi mumkin. V.Nalivkin o‘zbek va tojik tillarini yaxshi bilgan kuchli filolog va talantli olim edi. U 1896-yilda O‘rta Osiyoda dastlab o‘zbek tilida “Terma kitob” tartib berdi. Keyinchalik terma kitob xrestomatiya tuzish odat bo‘lib qoldi va “xrestomatiya” so‘zi ham o‘sha vaqtdan beri o‘zbek adabiy tilida ishlatiladigan bo‘ldi. Shunday qilib, L.Tolstoyning masal, hikoyalari terma kitob xrestomatiyalarga kirib, o‘zbek tiliga tarjima qilina boshlandi. Ulardan o‘n sakkiztasi Ali Asqar ibn Bayram Ali Kalinenning “Muallimussoniy”ida tarjima qilib berilgan. Bular: “Chol bilan ajal” (18-bet), “Taka bilan tulki” (16-bet), “Bir bolaning bodring o‘g‘irlagani” (20-bet), “Qarg‘a bilan qurbaqa” (21-bet), “Quyvon bilan qurbaqalar” (19-bet), “Ikki do‘st” (23-bet), “Bola bilan suv podshosi” (25-bet), “Tulki bilan tustovuq” (25-26-betlar), “Podsho bilan bola” (26-bet), “Zag‘cha bilan kabutarlar” (28-bet), “It” (13-bet), “Ipak qurti” (61-bet). Bu asarlarning tarjimoni ham ko‘rsatilmagan.

L.N.Tolstoyning “Odamlar nima birlan tirik” va “Xudo haqni ko‘radi-yu, tezda aytavermaydi” asarlarining tarjimasida haqida ba’zi olimlar juda salbiy baho beradilar. Masalan, “Tarjima san’ati” to‘plamidagi “XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida rus adabiyotidan qilingan tarjimalar” nomli sermazmun maqolada L.Tolstoy hikoyalari tarjimasining sifati haqida aytilgan quyidagi gaplarga qo‘shilib bo‘lmaydi: “Tarjimaning sifati to‘g‘risida gapirar ekanmiz, birinchi navbatda uning juda primitivligi, so‘zma-so‘z bajarilganligi, o‘zbek tili grammatikasiga yot bo‘lgan jumla tuzilishlarining ko‘pligi bilan ajralib turadi”: Darhaqiqat, “Odamlar nima birlan tirik” hikoyasining tarjimasida ancha jiddiy nuqsonlar bor. Lekin bu bilan uni

hozirgi badiiycha tarjimalar sifatiga bo‘lgan talabdan chiqib “juda primitiv” deb aytish qanday bo‘lar ekan? U vaqtda tarjimonlar kamdan-kam bo‘lib, bu asarning tarjima qilinishi o‘z davri uchun juda katta voqea edi.

“Odamlar nima birlan tirik” asarining to‘g‘ri va aniq tarjima qilinishi haqida ikkita misol keltiramiz:

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>1. Жил сапожник с женой и детьми у мужика на квартире. ни дома своего, ни земли у него не было, и кормился он семьею сапожной работой. Хлеб был дорогой, а работа дешевая, и что заработает, то и проест. Было у сапожника одна шуба с женой, да и та изнасилась в лохмотья.</p>                                         | <p>1. ...Bir etikchi xotuni va bolalari birlan bir dehqonning uyida ijarag‘a turar erdi. Ul etikchining na uyi va na yeri yo‘q erdi, va etikichilik birlan o‘z bolaqchasig‘a ovqat topib berur erdi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                        |
| <p>2. Что же, али не варила? Взяло зло Матрену. – Варила да не про тебя. Ты и ум, я вижу, пропил. Пощел за шубой, я без кафтана пришел, да еще какого-то бродягу голого с собой привел, нет у меня про вас, пьяниц, ужина.<br/>- Будет, Матрена, что без толку-то языком стрекотать! Ты спроси прежде, какой человек...</p> | <p>2. Semen so‘radi: - Taom pishirganing yo‘qmi? – deb. Matrenaning achchig‘i kelib, aytdi: – Pishirsam ham senga bermayman. Ko‘ramankim, aqlingni ham yo‘qotib qo‘yibsani. Po‘stin uchun borib kamzulsiz kelding, yana bir yalang‘och tentiraganni o‘zing birlan birga olib kelding, sizlardek mastlarga menda kechqurungi taom yo‘q, – dedi.<br/>– Ey Matryona, bas Matrena, bema’ni biljirag‘andan nima chiqadi, avval san so‘ragin, bu qanday odam deb.</p> |

Matnlar bir-biriga chog‘ishtirib ko‘rilsa, muallifning tasviri, personajlarning dialoglari o‘z davriga nisbatan olib qaraganda yaxshi tarjima qilinganligi ma’lum bo‘ladi. To‘g‘ri, tarjimada ba’zi so‘zlar o‘z o‘rnida ishlatilmagan, jumla tuzilishlarida g‘alizlik bor. Lekin bu kam-

chilik hikoya tarjimasining “juda primitiv” ekanligini ko‘rsatmaydi albatta. Hikoya chiqishi bilanoq, 1887-yilda alohida kitob holida nashr qilindi. 1901-yilga borib bu tarjima ikkinchi marta ba’zi bir stilistik o‘zgarishlar bilan qayta nashr bo‘ldi.

Mana bu tarjimada ortiqcha so‘zlar haddan tashqari ko‘p: hikoyaning asl nusxasida atigi o‘ttiz to‘rt so‘z bo‘lsa, tarjima yetmish to‘qqiz so‘zdan iborat – so‘zlar soni ikki marta ortib ketgan! Buning ustiga, “ma’lum bo‘ldiki, qo‘lga tushmagan narsaga ilgari quvonma” degan xulosa berilganki, bu ham noo‘rin. Xulosa shuki, L.Tolstoyning masal, ertak va hikoyalarning tarjimalari sifati har xil: ba’zilar juda yaxshi tarjima qilingan, ayrimlarida esa kishini afsuslantiradigan nuqsonlar bor. Ilgari Tolstoy asarlari boshqa rus yozuvchilariga qaraganda o‘zbek tiliga ko‘p tarjima qilindi. A.S.Pushkin tarjimalari she’rda, I.Krilov tarjimalari masalda birinchi manba bo‘lib xizmat qilsa, L.Tolstoy asarlarining tarjimalari prozada ilk manba bo‘ldi. Bu ulug‘ yozuvchilar asarlarining tarjimalari o‘zbek tiliga tarjima qilish tarixida asosiy o‘rinni tashkil qiladi. Ularning ahamiyati katta. XX asrning 20-yillaridan boshlab ulug‘ adibning asarlari o‘zbek tiliga nihoyat darajada ko‘p tarjima qilindi. Bu tarjimalarning sifati ham yozuvchi asarlarining dastlabki tarjimalari sifatidan qiyos qilib bo‘lmaydigan darajada ustun turadi.

**G‘arbiy Yevropa adabiyotidan qilingan tarjimalar.** G‘arbiy Yevropa adabiyotida hozirgacha ma’lum bo‘lgan tarjimalar quydagilardir:

1. “Ro‘mon. Ro‘binzun hikoyasi”.
2. Yunon donishmandlarining aytgon so‘zlari.
3. Bir musahhar qilingan daraxtzor (nemis xalq ertagi).
4. Elegiya (fransuzchadan).

Yuqoridagi asarlardan faqat “Bir musahhar qilingan daraxtzor” nemis xalq ertagi “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasining to‘rtinchi tom, ikkinchi kitobida e’lon etildi, xolos.

1911-yilda noshirlar “Birodaron Karimovlar”ning Qozon tipolitografiyasida “Robinzun” (Bir inglizning boshidan o‘tgan ajoyib voqealari) kitobi qisqartib nashr etilgan. Biz tatar tilida chiqqan bu kitobning hajmi kichik (31 bet) bo‘lganidan unga solishtirib ko‘rdik, ammo biron beti, biron jumlası ham to‘g‘ri kelmadi. Oxiri 1908-yilda Boku-da “Birodaron Urujovlar” nashrida chiqqan “Mashhur ingliz Robinzunning hikoyasi” (Ruschadan Abdulla Shoiq Tolibzoda tarjima qil-

gan), 77 betdan iborat bo'lgan kitob bilan solishtirib chiqqanimizda, mazkur nashrdan o'zbek tiliga tarjima qilinganligi aniqlandi.

Ingliz xalqining atoqli yozuvchisi D.Defo asari bilan o'zbek xalqini birinchi bo'lib tanishtirish sari qo'yilgan birinchi tarjimada tajribasizlik orqasida yo'l qo'yilgan jiddiy nuqsonlardan qat'iy nazar, Turkiston madaniy hayotida katta ijobiy voqea edi.

**Maqol, matal va hikmatli so'zlar tarjimasi haqida.** Biz yuqorida arab, fors, turk tillaridan qilingan maqol, matal va aforizmlar tarjimasi naqadar og'ir ekanligini so'zlab o'tgan edik. Ruscha maqol, matal va frazologik iboralarni tarjima qilish esa yana ham kattaroq qiyinchiliklar tug'dirar edi, negaki, arab, fors, turk tillaridek tarjima qilish ishlari bir necha yuz yillardan beri davom etgan, bu sohada katta tajriba orttirilgan bo'lib, rus tilidan tarjima qilish prinsiplari mutlaqo aniq emas edi. Binobarin, rus tilidan badiiy asarlarni puxta tarjima qilishga qobiliyatli kadrlar ham yetarli emas edi.

Tarjimonlar matn ichida ishlatilgan ruscha maqol yoki matalning o'zbekcha ekvivalentini topib ishlatganlar: “Куй пока железо горячо” – “Temirni qizig'ida ur”, “Дело мастера боится” – “Har ish ustasidan qo'rqadi», “Шило в мешке не таянь” – “Bigizni qofg'a berkitib bo'lmaydur”, “Нет дыма без огня” – “O'tsiz tutun bo'lmaydir”. “Волков бояться – в лес не ходить” – “Bo'ridan qo'rqan o'rmonga bormas” kabi. Biz quyida “Muallimus-soniy” nomli kitobga kiran “Rusiya maqollari”dan bir nechtasini keltiramiz:

Haq so'z oftobdek ravshan bo'ladur,  
Yolg'on bilan butun olamni kezarsan, ammo qaytib kelmassan,  
Hamma o'tar haq so'z qolar,  
Izzat qilsang otang birlan onangni – xudo seni tashlamas,  
Qandoq qichqirsang, shundoq sado eshitursan,  
Haydama otni qamchin birlan – hayda arfa birlan,  
Tupurma quduqqa – balki suv icharsan,  
Hovli olma – qo'shni ol,  
Temirni qizig'ida so'q,  
Tomchi toshni teshadur,  
Har ish ustasidan qo'rqadur,  
Erinchoqqa kuniga bayram.  
Bosh faqat telpak uchun emas,  
Yuz yil umr ko'r – yuz yil ilm tahsil qil,  
Yarqirag'onni hammasi tillo bo'lmas,

Birovnikig'a yopishma o'zingnikini tashlama,  
Salomat kishig'a tabib hojat emas,  
Urushqoq hurus semiz bo'lmaydur,  
Bo'rig'a qo'yni topshurg'ondek,  
Sigirga egar yarashg'ondek,  
Bigizni qopg'a berkitib bo'lmaydur.  
O'tsiz tutun bo'lmaydur,  
Ochning holini to'q bilmas,  
Etukchi sombusa qilsa va sombusapaz etik tiksa na bolg'ay,  
Chiroylik uy chiroylik emas, dasturxonlik uy chiroylik,  
Bo'ridan qo'rqan o'rmong'a bormas,  
Til bir, quloq ikki, kam gapirib, ko'p eshitmoq uchun,  
Ko'pg'a yugursang, ozdin quruq qolursan,  
Nima eksang shuni o'rarsan,  
Sichqong'a olum, mushukka kulgi.

Lekin ba'zi bir maqollarning tarjimasi sun'iy, soxta, yuzaki chiqqan. Bunga misol qilib "Urushqoq hurus semiz bo'lmaydi", "Bir mulaga ikki omini beradurlar, balki olmaydurlar" kabi tarjimalarni ko'rsatish mumkin. Lekin bunday o'rinsiz tarjimalar kam.

Yunon faylasuflarining yuqorida qayd etganimiz kabi hikmatli so'zlari tarjimasi alohida ahamiyatga ega. Sattorxonning zakovati, ko'p yillik tajribasi, har ikki tilni yaxshi bilishi bu hikmatlarning o'zbek tiliga juda yaxshi tarjima qilinishiga yordam qilgan.

Bir nechta misol keltiramiz.

Biasning so'zlari:

Oqil odamlar ahmoqlardan foyda hosil qiladur, nechukkim alar ahmoqlarni ishini ko'rub ibrat oladurlar, ammo ahmoqlar oqillardan ibrat olg'ulari kelmaydur.

Haq bo'lg'on vaqtda hech bir qo'rqush kerak emas. Yoshlikdin o'tub qarilik yo'lig'a kiradurg'on vaqtda yo'l ozig'i donishdur.

Demokritning so'zlaridan: Yaxshilik qilmoqqa qodir bo'lsang, ani kechiktirmag'il. Har qandoq qari odam ilgari yigit bo'lg'andur va lekin har bir yigitni qari bo'ladur deb aytib bo'lmaydur; shuning uchun qari odamlarni izzat qilmoq yigitlarni izzat qilg'andin yaxshiroqdur.

Pifagorning so'zlaridan: ...Birov bilan so'zlashgan vaqtda shul tariqa so'zlashmoq kerakkim, dushman do'st bo'lub qolsun va do'st dushman bo'lub qolmasun. G'azab kelgan vaqtida so'zlamog va hara-

kat qilmoq kerak emasdur. So‘zlasang yaxshi so‘znigina so‘zlag‘il, bo‘lmasa xab o‘lturg‘il. Donishmandning aqli oltundek vazmindur.

1885-1890-yillar mobaynida 20ga yaqin yunon faylasufining hikmatli so‘zlari rus tilidan tarjima qilindi.

### **10.9. Tarjimalar vositasida o‘zbek tili lug‘at manbaining boyishi**

O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekistonning Rossiyaga qo‘shib olinishidan ilgari ham rus, internatsional so‘zlar og‘zaki va yozma adabiyotlar, jumladan tarjima ishlari orqali kirib kelganligi ma’lum. Bu jarayon XIX asrning 70-yillaridan keyin yana tez rivojlandi. O‘zbekistonda rus tili targ‘ibotchilari Sattorxon, Isoqxon va boshqalarning tarixiy, ilmiy asarlarida, demokrat shoirlar Muqimiy, Furqat va Avaz she’rlarida rus, internatsional so‘zlarni anchagina uchratamiz.

Rasmiy yozishmalar, diplomatik hujjatlarning tarjimalarida narsalarning nomlari, unvonlar, mansab-darajalar, turli kasb terminlari aynan ruscha olingan. Chunonchi, “choynak”, “lampa”, “samovar”, “magazin”, “mashina” va shu kabi yuzlab so‘zlarning tilimizga kirib kelishi siyosiy-iqtisodiy, savdo-sotiq munosabatlarining o‘zaro mustahkamlanishi bilan bog‘liq.

Ruscha va internatsional so‘zlar tarjima asarlari orqali o‘zbek tiliga turli yo‘llar bilan kirib keldi. Chunonchi:

1. Ilgari ruscha so‘z berilib, so‘ngra o‘zbekcha so‘zlar bilan izohlanadi. Masalan, “*Ko‘klush*, ya’ni *ko‘k yo‘tal* degan kasal xususida” (“Turkiston viloyati gazetasi”, 1884-yil, 2-iyul); “Toshkand shahridag‘i podshohlik bankadag‘i omonat kassa, ya’ni pul saqlanadurg‘on joyning nizomlari xususida” (“Turkiston viloyati gazetasi”, 1884-yil, 18-avgust); “*Bufet*, ya’ni taomlar tayyorxonasi” (“Turkiston viloyati gazetasi”, 1895-yil, 26-aprel); “*Universitet* degan katta madrasa” (“Turkiston viloyati gazetasi”, 1896-yil, 1-iyun).

2. Aksincha, ilgari o‘zbekcha so‘z berilib, so‘ngra ruscha izohlash yo‘li bilan; masalan, “vaziri xazina – *министр финансов*” (“Turkiston viloyati gazetasi”, 1881-yil, 30-may).

3. Ruscha so‘zni qavs ichida berish yo‘li bilan; masalan, “Chechak em emlamoq xususida barcha fuqarolarning manfaati uchun Turkiston General gubernatori joriy qilgan farmoyishlari ushbudir (инструкция)” (“Turkiston viloyati gazetasi”, 1878-yil, 22-aprel).

4. Ruscha so‘zni tarjima qilmay, aynan o‘zini olish yo‘li bilan; masalan, “Agar xat bitmoqni bilmagan odam *апелляционный* degan

ariza bergan vaqtda, biror odam aning tarafidin qo‘l qo‘ymag‘an bo‘lsa, ul ariza iltifotga olinmaydur” (“Turkiston viloyati gazetisi”, 1884-yil, 12-yanvar).

Rossiya imperatorining farmoyishlari, Turkiston General gubernatorligining buyruqlari tarjima qilinib bosilganda, bir qancha rus va internatsional so‘zlar, o‘zbek tilida ekvivalenti bo‘lmagani uchun, aynan olindi. Masalan, «император», «министр», «сенат», «генерал», «адъютант», «лейтенант», «манифест», «ротмейстр», «полковник», «генерал-майор» va b.

Turli tabaqa va guruhlarining nomlari ham tarjima vaqtida o‘zicha qoldirilgan. Masalan, «князь», «граф», «дворян», «гражданин», «мужик», «мещанин» va b. Aloqa va transportga oid juda ko‘p terminlar ham tarjima asarlarda ruscha shaklda olindi. Masalan, «почта», «телефон», «телеграф», «перевод» (pulni pochta orqali yuborish), «адрес», «бланка», «поезд», «вагон», “vog‘zal” («вокзал»), “istansa” («станция»), «извозчик», «билет» va h. Masalan, “Ushbu tubanda yozilgan kitoblarni olmoqni xohlagan odamlar xoh oqchalik xat, xoh *zakaznoy* xat va xoh *telegram* birlan *perevod* qilsalar bo‘ladur”. (“Turkiston viloyati gazetisi”, 1898-yil, 11-aprel).

1914-yil jahon urushi boshlanishi bilan o‘lkada chiqadigan gazeta-jurnallar urushning borishi, frontlardagi ahvol haqida telegraf xabarlarini va markaziy gazetalardagi materiallarni tarjima qilib, ayrim so‘zlarga izohlar berib chiqardilar. Masalan, “Sadoyi Farg‘ona” gazetasida “Lug‘atlar va ta’riflar” sarlavhasi ostida bir bo‘lim tashkil qilinib, unda rus va internatsional so‘zlar tarjima qilib berildi:

*Kamondir* – urush boshlig‘i, askarni boshlab yurgizadigan to‘ra.

*Ayruplan* (аэроплан), *derjabil* (дирижабль).

*Ayrostat* (аэростат) – havoda uchg‘uvchi mashina.

*Gidroplan* (гидроаэроплан) – havoda uchub, suvda ham yuzguchi mashina.

*Krayser* (крейсер) – zirhli kema – usti temir bilan yopilg‘an urush kemasi.

*Drednout* – urush kemasining eng kattasi.

*Minonos* (миноносец) – katta urush kemalarig‘a yordamchi kichik kemalar.

*Istribitel* (истребитель) – xarob, halok qiladurg‘an (muxrib) kema.

Rus adib va olimlari o‘zbek tilida yozilgan badiiy va tarixiy asarlarni rus tiliga tarjima qilib, o‘zbek klassiklari va o‘tmish tarixiy voqealar bilan rus xalqini tanishtirdilar. O‘zbek tilidagi asarlarni ruscha-ga tarjima qilishda N.S.Likoshin, N.P.Ostroumov, N.N. Pantusov, S.I.Polyakov, I.Berezin, A.G.Tumanskiy, V.L.Vyatkinlarning xizmatini qayd etish lozim. Tarjimachilik ishlari XX asrning 20-yillaridan boshlab misli ko‘rilmagan darajada o‘tib, taraqqiy qilib ketdi. Qisqa muddat ichida ulkan ishlar amalga oshirildi. Jahon adabiyoti namunalari muntazam ravishda o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Tarjimaning hamma sohalari bo‘yicha atoqli tarjimonlar yetishib chiqdi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ilk tarjimalar va terma kitob – xrestomatiyalarda bosilgan tarjimalar
3. Ilmiy jamiyatlar va ularning asarlari tarjimasi
4. Adabiy tanqidchilik va badiiy tarjima
5. O‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilingan asarlar
6. Sattorxonning ma’rifatparvarlik g‘oyalari va tarjimonlik faoliyati
7. Birinchi tarjimonlar va dastlabki tarjimalarning turlari
8. Badiiy tarjima tarixiga doir
9. Tarjimalar vositasida o‘zbek tili lug‘at manbaining boyishi

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. –Toshkent: ToshDShI, 2016.
2. Sharipov J. O‘zbekistonda tarjima tarixidan (*XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davr*). – Toshkent: ToshDShI, 2017.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

3. Крылов И.А. Басни. –М.-Л., Изд-во, 1956.
4. Пушкин А.С. Танланган асарлар. 1 том. –Тошкент: Ўздавнашр, 1949.
5. Толстой Л.Н. Полн.собр.соч. –М. т.25.

## RUS TILIDAN TARJIMA QILINGAN MATNLAR

### I. A. Krilov masallarining tarjimalari Oqqush birlan qisqichbaqa ham choʻrton

Doʻstlar aro gar boʻlmasa ittifoq,  
Boʻlgʻay muyssar har ishidan ulugʻ azob.  
Bir kuni Oqqush birlan Qisqich va ham Choʻrton,  
Olib borib bermoqchi boʻldilar bir yukni bir yon.  
Uchisi yakbora ul yukga qoʻshilishdilar,  
Ki andin soʻng zoʻr berib tortishdilar.  
Alar orasida agar ittifoq boʻlsa erdi,  
Yuklari anlarning xoli oson erdi.  
Lozim erdi anlargʻa yukni tortmoq bir tarafgʻa,  
Va lekin tortdi anlar yukni se tarafgʻa:  
Tortdi Oqqush yukni osmon sari,  
Tortdi Choʻrton yukni daryo sari,  
Tortdi Qisqich zoʻr berib ki yukni aqib,  
Peshonasidan bechorani terlari oqib.  
Behuda koʻp harakatlar qilib ziyoda qiynaldilar,  
Va lekin yukni joyidan hech qoʻzgʻata olmadilar.  
Bunlardan kim beayb va kim aybdor,  
Bilguvchisidir bir parvardigor.

*Ali Asqar Kalinen tarjimasi<sup>1</sup>*

### Eshak bilan bulbul

Bir kuni eshak bulbul bilan uchrashib, bulbulgʻa aytdiki: “Eshitadurman koʻp yaxshi sayrar emishsan, mumkin boʻlsa bir sayragʻil, chunki men sening hunaringni koʻrmoqqa koʻp orzumanddurman”, – dedi; bulbul eshakning soʻzini darajai qabulgʻa olib, xonish ovoz qildi va ham chunon shaydo aylab sayradiki, oʻshal atrofda yurgan jonivorlar va parrandalar hayron boʻlub, quloq solib turdilar; shamol ham toʻxtadi, goʻyoki bulbulning sayragʻanini eshitmoq uchun toʻxtagʻondek. Bulbul sayrab boʻldi, eshak boshini solib yerga qarab bulbulgʻa aytdiki: “Sayrashing chakki emas, tuzuk; eshitmoqqa arziydur, ammo

<sup>1</sup> Muallimus-soniy (Xrestomatiya), 2-nashri, 1907, 33-bet.

afsuski, oshno emas ekansan bizning xo‘roz bilan, agar andin biroz ta’lim olsang edi, mundin ham yaxshi sayrar eding”, – dedi.

### **A.S.Pushkin “Baliqchi va baliq ertagi”ning nasriy tarjimasi**

#### **Baliqchi bilan tilla baliq**

Ushbu hikoyani Pushkin nomlik Rusiyaning ulug‘ va mo‘tabar shoiri she‘r ilan yozmishdur. Ammo biz she‘r ilan tarjima qilmoqg‘a qodir bo‘lolmay, rasmiy til ilan tarjima qildik. Pushkin vafot bo‘lg‘onig‘a ushbu vaqtlarda bir yuz sanadin ziyod bo‘lubdur.

\* \* \*

Bir kambag‘al chol kampir xotuni ilan ko‘k dengizning kanorida bir yer uyda istiqomat qilar erdi; chol to‘r bilan dengizdin baliq tutar erdi va xotuni charx igririb, kaloba qilar erdi: shul ahvolda bular mazkur yer uyda miqdor o‘ttuz uch sana umur kechirmishlardi: Bir kuni chol to‘rini olib borib dengizg‘a soldi; to‘ri faqat balchiq olib chiqti; yana tashladi; dengiz tagida o‘sadurg‘on o‘tlar chiqti; uchunchi marotaba tashlab erdiki, birgina baliq chiqti, ammo ul baliq rasmiy baliqlardan emas, taajjub va g‘ayri muqarrar bir tilla baliq erdi va ul baliq baqudrati parvardigor tilga kelib, xud odam lafzi bilan cholg‘a aytdiki: “Ey bobo, sen meni ozod qilg‘il; agar ozod qilsang, men senga ko‘p manfaatlar yetkururman va ham har nimaki tilasang, ani men senga muyassar qilurman”, – dedi. Muni eshitib, chol hayron bo‘ldi va dilig‘a xavf va haros tushdi, chunki muddat o‘ttuz uch sana baliqchilik qilib, mundog‘ voqeani eshitgoni ham, ko‘rgoni ham yo‘q erdi; ammo shundog‘ xam bo‘lsa chol rahm va shafqat ilan tilla baliqning iltijosini darajai qabulg‘a olib, ani ozod qildi va ham aytdiki: “Xayr, bor, dengizlarni sayr qil va lekin sandan hech narsa tama‘qilmayman”, – dedi. Andin so‘ng chol kampirning oldig‘a qaytib keldi va ko‘rgan voqeani anga bir-bir bayon qildi. Chol aytdiki: “Men bir taajjub tilla baliq tutub oldim; ul baliq tilga kelib, “meni ozod qilg‘il”, deb mendin iltimos qildi va menga nimaiki hohlasam, shuni bermiqchi bo‘ldi. Men aning iltimosini qabul qilib, ozod qildim, ammo andin biror narsa olmoqqa jur‘at qilmadim”, – dedi. Bul so‘zni eshitib, kampir achchig‘lanib, cholni haqorat qilib aytdiki; “Ey ahmoq chol, loaqal bir yangi jomasho‘y so‘rasang bo‘lmasmu edi, chunki jomasho‘yimiz yorilib, ishig‘a yaramay yotibdur”, – dedi.

“Bo‘lmasa men yana boray” deb, chol bechora yangi jomasho‘y tilamak maqsadi ilan dengiz labig‘a keldi va tilla baliqni chaqirdi; tilla baliq darhol hozir bo‘lub, choldin so‘radiki, “Ey bobo, hojating nima bo‘lg‘ay?” – deb. Chol baliqq‘a ta‘zim qilib, arz qildiki; “Ey tilla baliq, seni ozod qilg‘onim uchun kampirim meni haqorat qilib, menga ko‘p ozor berdi, chunki anga yangi jomasho‘y darkor ekan, o‘zimizning jomasho‘yimiz yorilib, ishg‘a yaramay qolg‘on ekan, rahm qilg‘il meni holimg‘a”. Tilla baliq javob berdiki: “Xafa bo‘lma, xudog‘a tavajjuh qilib, uyingga qaytg‘il, yangi jomasho‘y bo‘lar”, – dedi.

Chol kampirining oldig‘a qaytib keldi, ko‘rdiki: uyida yangi jomasho‘y paydo bo‘lubdur; ammo kampir cholni burung‘idin battar haqorat qilib aytdiki: “Ey devona chol! Yangi jomasho‘y tilab olibsan, jomasho‘ydan nima foyda? Bor, hozir tilla baliqq‘a ta‘zim ila emdi uy so‘ra; tokay biz yer uyda o‘lturamiz?”–dedi. Chol bechora noiloj bo‘lub dengiz labig‘a bordi va tilla baliqni chaqirdi, tilla baliq darhol hozir bo‘lub, choldin so‘radiki: “Ey bobo, hojating nima bo‘lg‘ay?” deb. Chol salom qilib, tilla baliqq‘a arz qildiki: “Ey tilla baliq, kampirim menga yana ko‘p izzu kulfat berdi; “bor tilla baliqingg‘a, uy so‘ra, qachong‘acha bizlar yer uyda o‘lturamiz”, deb meni haydab yubordi, rahm qilg‘il meni holimg‘a”, – dedi, Tilla baliq javob berdiki: “Xafa bo‘lma, xudog‘a sig‘inib, uyingg‘a qaytg‘il, uy ham bo‘lar”, – dedi. Bul javobni eshitib, chol o‘z uyig‘a qaytib keldi, ko‘rdiki: yer uy g‘oyib bo‘lubdur, asorati ham qolmabdur va ani joyig‘a bir chiroylik uy bo‘lubdur va kampir uy ichida teraza oldida o‘lturubdur. Kampir cholni ko‘rub, alfoz qabig‘lar birlan yana haqorat qila boshladi va aytdiki: “Ey ahmoq devona chol! Uy so‘rab olibsan. Bor hozir tilla baliqingg‘a! Ta‘zim ila va aytg‘il: men xohlamayman mujik xotuni bo‘lmoqni, xohlayman dvoronka, ya‘ni aslzoda to‘ra xotuni bo‘lmoqni”, – dedi. Chol bechora noiloj bo‘lub yana dengiz labig‘a bordi va tilla baliqni chaqirdi; tilla baliq darhol hozir bo‘lub; “Ey bobo, senga nima darkor”, – dedi. Chol ta‘zim qilib arz qildiki: “Ey tilla baliq, kampirim burung‘idin battar bo‘ldi; menga hech bir tinchlik bermaydur; ul kishi emdi mujik xotuni bo‘lmas emishlar, aslzoda to‘ra xotuni bo‘lar emishlar”, – dedi. Tilla baliq javob berdiki: “Xafa bo‘lma, xudog‘a tavajjuh qilib, uyingg‘a qaytg‘il”, – dedi.

Chol kampirini oldig‘a qaytib keldi; ko‘rdiki: burung‘i uyning o‘rnig‘a bir katta va baland bir uy paydo bo‘lubdur; va ul uyning oldida kampiri turubdur; ustida qimmatbaho po‘stun kiygan, boshig‘a

kimxobdin ro‘mol yopgan, bo‘ynig‘a marvaridlar taqqon va qo‘llarig‘a tilla uzuklar solg‘on va oyoqlarig‘a qizil safyondin etuklar kiygan, oldida farmon bardor xizmatkori, kampir alarg‘a jekirib, sochlaridin tortib turubdur. Chol bul hodisani ko‘rub, hayron bo‘ldi; sekingina kelib kampirg‘a salom berib: “Xotirjam bo‘ldingizmi?” – deb kampirdin so‘rab ediki, kampir jekirib, yomon alfozlar birlan haqorat qilib, chol bechorani otxonag‘a haydab yubormoqg‘a buyurdi.

Bul voqeadin bir-ikki hafta o‘tgandin so‘ng, kampir cholni chaqirib olib, siyosatlar qilib, cholg‘a buyurdiki: “Bor hozir tilla baliqing‘a, ta‘zim ila va aytg‘ilki, man xohlamayman dvoronka bo‘lmoqni, endi xohlayman malika bo‘lmoqni”, – dedi. Bul so‘zni eshitib mutaxayyir bo‘lub, chol aytiki: “Nima bo‘ldi sanga kampir, magar eshak miya yedingmu? Malikalardek na yura olasan va na gapura olasan, butun olamga kulgili bo‘lasanku, malika bo‘lmoqligingga no munosibliging bor?”– dedi. Buni eshitib kampir darg‘azab bo‘lub, cholning jag‘iga bir shapaloq urub: “Nima deysan sen menga, kim bilan gapurganingni bilasanmu? Bor deganda yaxshilik bilan bor agar bormasang yelkalab ham oborurlar”, – dedi. Chol noiloj bo‘lub, boshini solib, dengiz labig‘a bordi va tilla baliqni chaqirdi. Dengiz qopqora bo‘lub ketti. Tilla baliq darhol hozir bo‘lub so‘radiki: “Ey bobo, hojating nima bo‘lg‘ay” – deb. Chol turub arz qildiki: “Ey tilla baliq, rahm va shafqat aylag‘il manga, kampirim burung‘idin ham jinni bo‘ldi. Emdil kishi dvoronka ham bo‘lmay, podsho xotuni bo‘lar emishlar”, – dedi. Tilla baliq javob berdiki: “Xafa bo‘lma, xudog‘a sig‘inib, uyingg‘a qaytg‘il”, – dedi.

Chol kampirining oldig‘a qaytib kelib ko‘rdiki, burung‘i uyni o‘rnig‘a shohona imoratlar paydo bo‘lubdur va ul imorat ichida kampiri malika bo‘lub ustolda o‘turubdur; beklar va g‘ayri ulug‘lar ani oldida xizmatda turubdurlar. Dasturxonda alvon-alvon musallaslar va alvon-alvon ne‘matlar tayyor turubdur va ani atrofida qo‘llarig‘a oyboltalar ushlag‘on mahramlar hozir bo‘lub turubdur. Bul hodisani ko‘rub, chol qo‘rqub ketti va kampirining oyog‘ig‘a yiqildi va aytti: “Assalom alaykum, ulug‘ malika, emdi ko‘nglingiz to‘ldimu?” – dedi. Kampir cholg‘a qaramadi va so‘zig‘a javob ham qaytarmadi. “Ko‘zumga ko‘runmasin, tezroq yo‘qotinglar jinni cholni”, – deb oldida turg‘on nadimlarig‘a buyurdi. Darhol beklar va mahramlar yugurushub kelib, bechora cholni ura-ura tashqorig‘a haydab chiqordilar va muni ko‘chadagi odamlar ko‘rib, cholni masxara qilib: “Ey beadab

chol! Sanga malikaning oldida nima bor edi? Ajab bo‘ldi, minba’d aqllik bo‘larsan, tegishsiz joyg‘a kirmassan”, – deb qah-qah urub kulushdilar.

Bu hodisadin bir-ikki hafta o‘tkondan keyin kampir yana darg‘a-zab bo‘lib, mulozimlarini eriga yubordi. Chol bechorani darhol topib olib keldilar. Kampir cholg‘a aytdiki: “Bor hozir tilla baliqning oldig‘a va aytg‘ilki, men malika bo‘lmoqni ham xohlamayman, malikai dengiz bo‘lmoqni va dengizda turmoqni xohlayman va ham o‘sha tilla baliqing farmon bardor bo‘lub manim xizmatimda tursun; nimaiki xizmat buyursam shuni batavfiq bajo keltursun”, – dedi. Chol so‘z qaytarmoqqa jur‘at qilolmay boshini solib, dengiz labig‘a keldi va tilla baliqni chaqirdi. Bul daf‘a dengizda qattiq shamol bo‘lub, qattiq to‘lqun paydo bo‘ldi, ammo shundog‘ ham bo‘lsa tilla baliq hozir bo‘lib, choldin so‘radiki: “Ey bobo, hojating nima bo‘lg‘ay”? – deb. Chol ta‘zim aylab arz kildiki: ”Ey tilla baliq, emdi nima qilay bul badbaxt xotunimni! Emdi ul kishi malika ham bo‘lmas emishlar, malikai dengiz bo‘lar emishlar, darmiyon dengiz turar emishlar va ham sen o‘zung anga xizmat qilar emishsan”, – dedi. Cholning bul so‘zig‘a tilla baliq hech bir javob bermay, shalob etib dengizg‘a sho‘ng‘ib ketdi. Tilla baliq chiqarmukin deb chol bechora dengiz labida intizor bo‘lub, ko‘p kutub turdi, ammo tilla baliq, chiqmadi. Oxiri zerikib, kampiri oldig‘a qaytib keldi; ko‘rdiki: xudovandi karimning qudrati bilan shohona imoratlar g‘oyib bo‘lib, o‘rnig‘a burung‘i o‘zining yer uyi paydo bo‘lubdur; yer uyining ostonida jag‘iga tayanib kampiri o‘lturubdur va aning‘ oldida yorilgan jomasho‘yi yotibdur. Bir baliqni ozod qilg‘oni uchun xudovandi karim kampir bilan cholg‘a shuncha davlatlar muyassar qildi, ammo kampir ul davlatlarga qanoat qilmay, alar hammadan mahrum bo‘ldilar va ham davlat muyassar bo‘lg‘ondin keyin kampir cholg‘a ko‘p bevafoqliqlar qildi.

**L.N.Tolstoy masal va hikoyalarining tarjimalari**  
**(“Muallimus-soniy”)da bosilgan masal va ertaklar**  
**Ko‘r kishi**

Bir ko‘r kishi qorong‘u kechasi chirog‘ni qo‘lig‘a olib va bir idishni orqasig‘a olib bozori shabga boribdur. Bir kishi ondin so‘rabdurki: “Ey ahmoq ko‘r, kecha va kunduz sanga barobar emasmu – chirog‘din senga nima foyda?” – deb. Ko‘r kishi kulib aytibdurki:

“Bul chirog‘ man uchun emas, balki san uchundur. Toki idishimni sindurmag‘oysan”.

### **Chol bilan ajal**

Bir chol har kuni dalaga borib, o‘tun terib kelar edi. Bir kuni mazkur chol o‘tun terib, uyiga qaytib kelayotib edi, ko‘targan yuki ko‘p og‘ir edi. Chol bechora charchab yo‘lda damini olmoqqa o‘lturdi va ham o‘zi-o‘zig‘a aytdiki: “Kun ko‘rmak ko‘b qiyin bo‘lur ekan, ajal kelmaydurki manga, o‘lub hamma kulfatdan qutula qolsam”, – dedi. Chol shul so‘zni aytishi bilan baqudrat parvardigor ajal hozir bo‘lub, cholg‘a aytdiki: “Mana men keldim, nima uchun yo‘qlading?”, – dedi. Ajalni ko‘rub cholning kayfi uchub ketti, ammo bir ozdin so‘ng o‘zi-g‘a kelib, ajalg‘a: “Xudo xayr bersun, o‘tunimni uyumg‘a yetkurushib berg‘il, chunki men charchab qoldim”, – dedi.

Maqol: ajalga davo yo‘q.

### **Taka bilan tulki**

Bir tulki dalada chopib borayotib bir chuqur quduqqa tushub ketti. Quduqdin qandog‘ qilib chiqishni bilmay hayron bo‘lub o‘lturub ediki, quduqning yonig‘a bir katta va shoxlari uzun taka keldi. Mazkur taka tashna bo‘lg‘on erdi. Taka quduqning ichiga qarab tulkini ko‘rub: “Nima qilib o‘lturubsan?” – deb tulkidan so‘radi. Tulki javob berdiki: “Dam olib o‘lturubman, munda juda salqin ekan, suv ham ko‘p ekan”, – dedi. Taka so‘radiki: “Suvi yaxshimu?” “Benihoya yaxshi, musaffo va salqin”, – dedi. Takaning tashnaligi g‘olib edi, shul jihatdin taka ko‘p o‘ylamasdin irg‘ib quduqning ichiga tushdi – tulkini sahal bosib o‘ldurmadi. Takani tulki ahmoq qilg‘onig‘a shod bo‘lub: takani orqasig‘a chiqti, orqasidan shoxig‘a chiqdi va shoxidin irg‘ib yer yuzig‘a chiqib ketti. Taka bechora quduqda qolib, ochdin o‘lush darajasiga yetti. Xayriyat takaning egalari qidirib yurub, ani mazkur quduqdin topib, darhol arqon solib, chiqarib oldilar.

Har kim o‘z aqli bilan yursa yaxshi bo‘ladur.

### **Tulki bilan tustovuq**

Bir tulki o‘rmondin chopib o‘tub borayotib erdi, daraxtda qichqirib o‘turg‘on tustovuqni ko‘rdi. Tulki bechora juda och erdi, shul jihatdan tustovuqni tutub yemoq harakatig‘a tushdi va tustovuq o‘turg‘on daraxtning tegiga kelib, tustovuqqa qarab: “Do‘stum, eson-

omongina yurubsanmu? Ovozini eshitib hol soʻragani keldim”, – dedi. Tustovuq javob berdi: “Xudo xayr bersin, bizdek faqirni esingga olib, yoʻqlab kelganingga”, – dedi. Tulki turub aytdiki: “Ey doʻstum, men qarib qolgʻondurman, qulogʻim chandon eshitmaydur. Nima deganini bilolmay yotibman, yerga tushgil”, – dedi. Tustovuq javob berdiki: “Yerga tushmakka men qoʻrqadurman, chunki yerda har xil darrandalar koʻp, tutub yeb qoʻyadurlar”, – dedi. Tulki aytdiki: “Ey doʻstum, sen qoʻrqadurgʻon zamonlar oʻtub ketgan. Yaqinda men shahar borib edim, shaharda eshitdimki, “Hamma jondorlar va ham qushlar tinch tursunlar, bir-birlariga tegmasunlar” degan buyruq chiqibdur. Emdi qoʻrqmasdan tusha bergil”, – dedi. “Andogʻ buyruq chiqqan boʻlsa koʻp yaxshi boʻlubdur, hoʻ ana shul tarafga qarab itlar chopishib kelayotibdur. Endi sen itlardan qoʻrqmassan, chunki buyruq chiqqan ekanku”, – dedi tustovuq. Tulki “itlar chopib kelayotibdur” degan soʻzni eshitib qochdi. “Ha, ha, nimaga qochasan, buyruq esingdan chiqdimu?” – dedi unga tustovuq. “Kim biladur, balki itlar ul buyruqni eshitmaganlardur”, – deb tulki orqasiga qaramasdan qochib ketdi.

Tulki bechora tustovuqni aldayman deb, oʻzi aldanib qoldi.

## **XRESTOMATIYA (TERMA KITOB)DA BOSILGAN MASAL VA ERTAKLAR**

### **Oʻzi tutilgan oʻgʻri**

Bir oʻgʻri kechasi bir boyning imoratiga kirib, har xil narsalarni oʻgʻirlab chiqayotgan vaqtida, oyogʻidan bir narsaga ilinib yiqilib, hamma joyni dupirlatib yubordi. Boy eshitib, xizmatkorini uygʻotib aytdi: “Qaragil, qarangʻuda kim bor ekan”. Xizmatkor aytdi: “Pishakdur, qaramoq darkor emas”. Boy aning soʻziga qaramasdan, qoʻliga sham yoqib olib omborxonaga kirdi. Oʻgʻri bularning kelayotganini bilib, olgan narsalarini joy joylariga qoʻyib, burchakda tamaki turgan ekan, ani ichini kavlab, oʻzi yashrundi. Boy xizmatkori ilan u yon bu yon qarab, hech kimni koʻrmadi. Boy aytdi: “Odam bor, shekilli”. Xizmatkor uyqudan koʻzini ocholmay aytar erdiki: “Pishakdur yoki olbastidur”. Ammo oʻgʻri tamakiga oʻranib yotganda, tamakini hidi burniga kirib, dimogʻini qichitib, xushkurmoqi kelib, ogʻizlarini yopib, harakatlanib, azoblanur erdi. Oxiri tamaki hidiga chidolmay, oʻgʻri xushkurib yubordi. “Endi chiqib ketib turgan boy oʻgʻrining ovozini eshitib, ani topib olib keraklik jazosini berdilar.

### **Podsho va ko‘ylak**

Bir vaqtda bir podsho benihoyatt qattig‘ kasal bo‘ldi va aytdiki: “Har kimsa mening dardimg‘a davo tobsa, anga mamlakatim yarimini berurman”, deb. Ko‘p dono tabiblar va olimlar har joydan kelishub, maslahat qildilarki: “Qandoq doru darmon qilurmiz?” deb. Hech qaysi ilojini topolmadilar. Anda bir hakim dono aytdi: “Podsho tuzaladur, basharti bu dunyodagi odamlardan eng baxtlik odamni topib, ustidan ko‘ynakini yechib olib, podshoga kiydursalar”, deb. Podsho dunyoi olamga elchilar yuborib izlatdirdi, hech bir joydan baxtlik odamni topolmadilar. Bir nechaning davlati bo‘lsa ham, o‘zi kasal. Tani sihat bo‘lsa, mol-dunyosi yo‘q. O‘zi ham sihat, davlati ham bor, lekin bolasi yo‘q. Bular ham bo‘lsa, xotuni yomon, uyi notinch. Xulosai kalom, bir narsasi kamlik qilib, noroziligi bor. Bir kuni kechqurun podshoning o‘g‘li bir uychani yonidan o‘tib borayotsa, qulog‘iga ovoz keldiki: “Xudoga shukur, ishimni ishladim, qornim to‘ydi, emdi dam olurman, manga mundan boshqa hech narsa darkor emasdur”, deb. Podshoni o‘g‘li ushbuni eshitib ko‘p xursand bo‘lub, buyurdiki: “Ko‘ylakini yechib olib, qancha desa ham pulini berib, ko‘ylakni podshoga olib borgil”. Yuborgan odamlari baxtlik, o‘zidan xursand, muhtoj emas odamga kelib, aning ko‘ynakini yechmoqchi bo‘lsalar, ko‘rdilar: shundoq kambag‘al ekanki, ustida ko‘ynaki ham yo‘q ekan. Maqol: kambag‘alning to‘ygani – boy bo‘lgani.

### **Otasi bilan bolalari**

Otasi bolalariga nasihat qilur erdiki: “O‘g‘illarim bir-birlari birlan jang va urush qilmasdan ittifoq bilan tursunlar”, deb. Ammo bolalari otasining nasihatlarini yodlaridan chiqarib qo‘yub, ko‘p urushib-talashur edilar. Otasi bolalariga buyurdiki: “Farzandlarim, borib supurguni olib kelinglar”. Bolalari olib keldilar. So‘ngra aytdiki: “Qani, birdan hammasini sindiringlar”, deb. Bolalari chandon zo‘r bersalar ham sindira olmadilar. Andin keyin supurgini olib, ipini yechib: “Birta-birta sindurunglar”,– dedi. Darvoqe, alar osonlik birla sindirdilar. Otasi: “Mana, bolalarim! Agar sizlar bir og‘iz bo‘lub, bir-birlaring bilan ittifoq bo‘lsalaring, sizlarga ham hech kim ziyon yetkaza olmaydur. Agar noittifoq bo‘lsalaring, sizlarni har kim xarob va beburd qilib, ziyon yetkaza oladur”,– dedi.

Ma‘lum bo‘ldiki, har ishga ittifoqlik kerak.

## **SATTORXON TARJIMALARIDAN NAMUNALAR**

### **Burung‘i zamonda o‘tgon yunon xalqidin Hilon degon donishmandning aytgon so‘zlari**

Sirni yoshurmoq va haqoratni ko‘tarmoq juda qiyin ishlardur.  
Har vaqtda, xususan, biror majlisda tilingni saqla.  
Birovni yomonlamag‘il, bo‘lmasa sen ham shikvag‘a qolursan.  
Hech kimga xavf solmag‘il, xavf solish xotin sifatidir.  
Qari odamlarni hurmat qil, o‘zingga ehtiyot bo‘l, bebaxt odamlar  
holig‘a kulmag‘il.

Kuching bor vaqtda dilnavoz bo‘lg‘il, ul vaqtda e‘tiboring bo‘lur  
va xalq xolisan izzat qilur.

O‘ylamasdan tilingga yo‘l bermag‘il, mumkin emas narsag‘a  
xohish qilmag‘il, doimo xotirjamlikning taraddudida bo‘lg‘il.

Do‘stning baxtililik holidan xabardor bo‘lg‘ondin bebaxt holida  
xabardor bo‘lmoq avlodir.

Oltunni bilmoq uchun toshqa suykaydurlar.

Yaxshi va yomon odamni ishlari birlan tajriba qiladurlar.

Har kimg‘a o‘zini tanimoq borib turg‘on qiyinroqdur, nechukkim,  
hech kim o‘zining aybig‘a iqror qilg‘usi kelmaydur.

Har kim kerak emas narsag‘a pul sarf qilsa, kerak narsani olaman  
degan vaqtda puli yetmay qoladur.

Hech kim to‘g‘risida gumondor bo‘lma, tuhmatga tahqir nazari  
birlan qara.

### **Burung‘i zamonlarda o‘tgon yunon xalqidin Bias degan donishmandning aytgon so‘zlari**

Baxtsizlikka sabr qila olmaslik borib turg‘on baxtsizlikdur.  
Agarchandiki, ul aksar benatijadir.

Har qandoq odamg‘a amir berib turg‘on marg‘ub narsadir.

O‘zingning ikki do‘sting ishini so‘rab hukm qilg‘ondin ko‘ra,  
o‘zingning ikki dushmaning ishini hukm qilmoq yaxshiroqdur. Ne-  
chukkim, avvalg‘i martabada ikki do‘stning biri dushman bo‘lub qola-  
dur va keyingi martabada ikki dushmanning biri do‘st bo‘lib qoladur.

Yoshlikdin o‘tub, qarilik yo‘lig‘a kiradurg‘on vaqtda yo‘l ozug‘i  
donishdur.

Haq bo‘lg‘on vaqtda hech bir qo‘rqish kerak emas.

Oqil odamlar ahmoqlardan foyda hosil qiladur, nechukkim, alar ahmoqlarning ishini ko‘rub ibrat oladurlar-u, ammo ahmoqlar aqllilardan ibrat olg‘ulari kelmaydur.

Aql shulkim, o‘tgonni o‘ylab, o‘tib borayotgan vaqtdog‘i ishlarni maqomida qilib va keladurg‘on vaqtdog‘i ishlarning ehtiyotini qiladur.

Ukkiqush kunduzi ko‘rmay, kechasi ko‘rgondek, yaramas odam anga o‘xshab yomon ishlarg‘a aqli yetib, yaxshi ishlarg‘a aqli yetmay qoladur.

Bir martaba bir fosiq odam mazkur Bias donishmanddin: “Muttaqiylik nimadur?” – deb so‘rabdur. Ul hech javob bermagondin keyin, ul fosiq: “Nima uchun javob berulmaydur?” – deb so‘rag‘onda, ul Bias aytibdurkim: “Bul sen qiladurg‘on savol emasdur”.

*(1885 yil 14 may)*

### **Burung‘i zamondog‘i yunon donishmandi**

#### **Demokritning so‘zlari**

Ahmoq odam tamomi umri ichinda hech nimaga o‘rganmay, yaxshi ishni yomong‘a aylanturar.

Har bir xayr ishlarni o‘ylamoq katta rohatdur.

Ko‘p huzur ko‘rgon odamning oxiri g‘am bo‘lur.

Ko‘pni xohlag‘on odam aksar o‘zidog‘i bor nimadin ajrab qolar; ko‘pini xohlamag‘on odamning oz nimasi ham ko‘pning o‘rnida o‘tar.

Hosid odam o‘z-o‘ziga dushman yetkurgondek, g‘am yetkurur.

Kambag‘al odamg‘a hech kim hasad qilmaydur.

Har kim salomatlikni xohlaydur, muning iloji ortiqcha yemak va ichmoqdin o‘zini saqlamoqdur.

Oqil odam o‘z pulini xayr ishlarg‘a iste’mol qiladur; ahmoq odam – o‘z huzurina sarf qiladur.

Insofsizlik birlan biror nima hosil qilmoqni o‘ylag‘on odam shul zamon o‘z insofidin ajraladi.

Kim ko‘p oqilman deb o‘ylag‘on odamg‘a nasihat qildi o‘zini ortiqcha mehnatga soldi.

Pulg‘a hirsu ko‘p odam har vaqtda adolat mevasidin benasib qoladi.

*(1885 yil, 23 avgust.)*

Chidolmaydurg‘on xafalikni yaxshi fikrlar va g‘ayrat bilan quvalab yuborg‘il.

O‘z-o‘zining nafsig‘a g‘olib kelmoq borib turg‘on bahodirlikdur;  
o‘z nafsig‘a kuchi yetmaslik borib turg‘on yomon ishdur.

Agar odam bir ishginaning qasdida bo‘lsa, ul odam boshqa ishlar  
xususinda ko‘r bo‘lib qolg‘usidur.

Odat qilmoq bilan har qandoq mehnat yengil bo‘ladur.

O‘z aybini unutg‘on odamning ayblik ish qilmoqqa jur‘ati  
yangidan ko‘p bo‘ladur.

Yomon ishni qilma va ham yolg‘uz bo‘lg‘on vaqtda ham  
xayolingga olma.

Har kim uyotliq ish qilsa, hamadin ilgari o‘z-o‘zini uyoltirmoq  
kerak; birovni uyoltirmoqqa sa’y qilg‘uncha, o‘z-o‘zingni uyolturg‘il.

Chiroyliq so‘z bilan yomon ishni yopub bo‘lmaydur.

Yaxshi ishni yomon so‘z birlan bulg‘otib bo‘lmaydur.

Yomon odamlarg‘a taqlid qilmoq, yomon va yaxshi odamlarg‘a  
taqlid qilmoqni xohlamaslik yomondur.

Maqtamoqliqqa mustahiq emas ishni maqtamoq qiyin emas va  
shikoyat qilmoqqa mustahiq emas ishni shikoyat qilmoq qiyin emas.

Oqil odam yomon odamlarning shikoyat qilg‘onlarig‘a quloq  
solmaydur.

Ablah odamning chiroylilig‘i hayvon chiroylig‘ig‘a o‘xshaydur.

Ablahni maqtamoq anga zarar kelturadur.

Rost so‘zni aytmoq lozim bo‘lg‘on vaqtda jim turg‘ondin ko‘ra  
yaxshiroqdur.

*(1885 yil, 7 sentabr).*

Bolaning bolalik vaqtida yaxshiliqqa o‘rgatmaslik borib turgan  
zarardur.

Tamomi narsalarni bilmoqda taraddud qilib asliga yetib  
bilmagandin ko‘ra, oz narsani tegi birlan bilmoq yaxshiroqdur.

Boshqa odamlarg‘a shikoyat qilg‘uvchi – do‘stlikka yaramaydur.

Ko‘p odamlar do‘st ko‘rinmasalar ham do‘stdurlar.

Arqonni qilich kesgandek, tuhmat – do‘stlarni bir-biridin ajratur.

Yaxshiliq qilmoqqa qodir bo‘lsang, ani kechikturmag‘il.

Ko‘p va‘da qilib bermag‘ondin, ozgina bermoq yaxshiroqdur.

Ozgina yaxshiliqni o‘z vaqtida olmoq katta yaxshiliq barobaridur.

Ko‘p odamlar o‘zlarining do‘stlari kambag‘al bo‘lg‘on vaqtda  
qochib ketadurlar.

Davlat ittifoqliqdadir, bedavlatlik noittifoqliqdadir.

Har bir nizom va qoidadin g'ursi odamzod saodatidur, agar har kim o'zi to'g'ri bo'lsa, nizom va qoida alarg'a hech bir halal bermaydur va agar har kim nizom qoidag'a muxolif ish qilsa, ango tarbiya va jazo bermoq lozimdur.

Yigitlarda kuch va chiroy bo'ladur, ammo qarilarda donish ko'p bo'ladur.

Har qandoq qari odam ilgari yigit bo'lg'ondur va lekin har bir yigitni qari bo'ladur deb aytib bo'g'lmaydur. Shuning uchun qari odamlarni izzat qilmoq yigitlarni izzat qilg'ondin yaxshiroqdur.

*(1885 yil, 30 sentabr).*

### **Burungi zamonda o'tgon Pifagor degan yunon donishmandning so'zlari**

Ul donishmand o'zining shogirdlarig'a nasihat beribdurkim, sizlar madrasadin uylaringizga kelgan vaqtlarda o'ylanglarkim, mudarrisning qaysi bir amrini bajo kelturmadim va nima qildim va nima qilmadim deb.

Birov bilan so'zlashgan vaqtda shul tariqa so'zlashmoq kerakkim, dushman do'st bo'lub qolsun va do'st dushman bo'lub qolmasun; adolat haddidin tashqari qadam qo'ymag'il va do'stlardin besabab kechib ketmag'il.

Xafalik odam besabab kulmaydur.

G'azab kelgan vaqtda so'zlamog va harakat qilmoq kerak emasdur, mazkur donishmand odamzod umrini har yildog'i to'rt fasl, ya'ni yoz va qish va ko'klam va kuzga qiyos qilibdur.

*(1885 yil, 9 noyabr).*

So'zlasang yaxshi so'znigina so'zlag'il, bo'lmasa xab o'lturg'il.

Yaxshi odamlar bor shahar shaharlarning yaxshirog'idur.

Xushomad asbob suratg'ag'ina o'xshaydur va lekin hech bir foyda keltura olmaydur.

Donishmandning aqli oltundek vazmindur.

Yaxshi so'z-sog' odamg'a rohat va kasalg'a ionatdur.

Ezma odamning ko'p so'zlag'oni, qaldirg'ochning chirillag'oni-dek, suhbatni bemaza qiladur.

Otaning ta'ziri o'g'ulg'a shirin doruvdekdur.

Yaxshi kiyim kir bo'lg'ondin keyin yuvish birlan ketsa va yana kir bo'ladur, ammo ko'ngilning johilini bir martaba ilm suyi birlan yuvilsa, hech vaqt kir bo'lmaydur.

Yer har yilda bir marta hosil beradur va ammo do'stlik har vaqtda hosil beradur.

Harflarni bilmag'on bolalar har vaqtda bir harfni o'rnig'a boshqani aytib yuboradur, tarbiyat topmog'on odam bir ishning o'rnig'a bir ishni aralashtirub yuboradur.

Besabot do'stning nasihatig'a kirmoq oltun kosada zahar ichgon barobaridur.

Yetim boladan ko'ra ahmoqlar uchun vasi qilmoq ko'proq kerakdur.

Oftob ravshanligini bulut tutg'ondek, aql nurini nafs yopadur.

*(1885 yil, 30 noyabr).*

Yonib turg'on o'tni kiyim birlan yopmoq mumkin emas, katta gunoh zamon o'tishi bilan yo'qolmog'i mumkin emas.

Asal jarohatg'a surulsa achitgondek, salomat ichga kirs rohat yetkurgondek, donishmandlarning so'zlari oqil odamlarg'a manfaatlik va marg'ubiyat hosil qiladur, ablah, odamlarg'a og'riq paydo qiladur.

O'z birodarlarini tashlab, boshqa do'stlar izlagon odam o'z yerini tashlab, boshqalarning yerini obod qilg'ondekdur.

Oltunni zang yopmaydur va mitqi odamg'a ayb yopishmaydur.

Fosiq boy bo'lg'oncha mitqi kambag'al bo'lg'on yaxshiroqdur.

Yomon jarohatni ko'payib ketmasligi uchun kuydurgoni yaxshiroqdur.

Noinsof odamni tezroq o'lgoni yaxshiroqdur.

Behuda so'z atgondin ko'ra, tosh otmoq yaxshiroqdur.

Qilichdin yetgan jarohat, tildin yetgon jarohatdin yengilroqdur. Nechukkim, qilich badanni va ammo til ko'ngulni majruh qiladur.

Biror so'zni aytmasdin, biror ishni o'ylamasdin etmag'il va qilmag'il, nechunkim, aytg'on so'zni va qiling'on ishni qaytarib olmoq sening ixtiyoringda emasdur.

Ahmoq odamning maxtamog'i va shikoyati hech bir nimaga arzimaydur.

Ahmoq odamlarning johiliga chidamoq borib turg'on ulug' ilmdur.

Havo va havas odamizodni zolimlardek taxt ta'rifig'a oladur va ani qul qiladur.

Biror katta ishni qilmoqchi bo'lsang, qilmasdin ilgari aytmag'il, hamadan ko'proq shulkim, o'z tilingni tutmog'ingdur.

Nechukkim ko'p so'zlamoqda odat qilg'ondin so'ng ul adadni tashlamoq qiyinroqdur.

*(1885 yil, 14 dekabr).*

### **Suqrotning so'zlari**

Odamning yomoni shuldurkim, biror odamni tahqir qiladur.

Xavfsiz odam shuldurkim, biror ma'siyati bo'lmasa.

Har qandoq odamg'a biror sirni yoshurmoqdin tilining ustida o't qo'yub turmoq osonroqdur. Podshohliq mamlakatning borib turg'on yaxshisi uldurkim, noinsoflar jazosiz qolmasa.

Bir martaba bir odam Suqrotg'a aytibdurkim; "Men sendin intiqom olmag'uncha o'lmasman", deb. Ul javob berub-durkim: "Men ham seni o'zing'a do'st qilmag'uncha o'lmasman", deb.

Saodatlik odam shuldurkim, yaxshi fikr va farosatning egasidur.

Farosatlik odam hech kimni balog'a qoldirmaydur.

Farosatsiz yaxshilik bekor ishdur.

O'z molingni shul tariqa sarf qilg'ilkim, birovning molig'a ko'z tikkudek holg'a yetib qolmag'il; ko'p odamlar bordurkim, o'z molini sarf qilib, birovnikig'a qo'l soladurlar.

Birovning so'zidin o'zungning ko'zungga ko'proq ishong'il.

Yaxshi xotun eri uchun o'lmoqqa xursand bo'ladur va yomon xotun erini o'ldurmoqg'a xursand bo'ladur.

Agar biror jamoatda so'rasalar: "Munda o'lturg'onlardan bularning ichinda etikchi yo tikuvchi yo misgar kimdur?" deb, alargina o'zlarini ko'rsatmoq uchun o'runlaridin turar erdilar. Va agar: "Bul jamoat ichidin kim insoflik va farosatlik?" – deb so'rasalar, ul o'lturg'onlardan biri qolmay hammasi o'rinlaridin turar erdilar. Zeroki, bul dunyoda ko'p odamlar insoflik va farosatlik bo'lmasalar ham, aksari o'zlarini ul sifatlarg'a mutaassif xayol qiladurlar.

Bir marta Suqrotni bir yomon odam ayog'i birlan tepgon ekon va ul sabr qilib, mutlaqo indamabdur, bir boshqa odam Suqrotning bul tariqa yomon haqoratni ko'rub, hech bir xayolg'a olmag'on sababdin hayron bo'lushig'a ul donishmand aytibdurkim: "Agar meni biror eshak tepsa erdi, men oni hokimga olib borur edimmu?" deb.

Bir martaba ul aytgondurkim: “O‘z qo‘ylarining qancha ekonligini aytmoqqa yaraydur, ammo har kim o‘z do‘stini qancha ekanligini etmoqg‘a yaramaydur, zeroki, do‘stlarning adadini esda saqlamoq qiyin ishdur”. Bir martaba andin so‘rabdurlarkim: “Yigitlar uchun sifatning yaxshisi nimadur?” deb, ul javob beribdurkim: “Har bir to‘g‘rida ziyoda bo‘lmaslikdur”, deb.

Bir martaba bir necha boy odamlarni o‘zi kechqurun ziyofatga taklif qilibdur, aning xotuni aytibdurkim: “Bizda ul mehmonlarga loyiq ziyofat yo‘qlig‘idin men uyolaman”, deb; Suqrot aytibdurkim: “Betinch bo‘lmagil, zeroki, agar mehmonlar mechkay odam bo‘lmasalar, alar biz bechoraning qilg‘on ziyofatig‘a qanoat qiladurlar; agar alar mechkay bo‘lsalar, ul tariqa odamlarning xususida o‘ylamoqg‘a arzimaydur”, – va yana ul aytibdurkim: “–Ba‘zi odamlar maxsus yemoq, uchun umr o‘tkoradurlar. Lekin men o‘zum umr o‘tkarmoq uchun yeydurman”.

Suqrotning bir shogirdi ango aytibdurkim: “Sening mengo bergon ta’liming uchun o‘zumdin boshqa hech bir haq berolmayman”, deb. Suqrot javob beribdurkim: “Menga qandoq azim haqni bergoningni fahmlamaysendur”, deb.

Bir martaba Suqrotg‘a aytibdurlarkim: “Bir odam seni yomonlaydur”, deb. Ul javob beribdurkim: “Ul yaxshi aytmoqqa o‘rgonmag‘on bo‘lsa, nima qilmoq, kerak”?, deb.

*(1886 yil, 15 noyabr).*

### **Aflotunning so‘zlari**

Bir martaba oshuq birlan qimor o‘ynab turg‘on bir odamni ko‘rub, ani haqorat qilibdur. Ul aytibdurkim: “Men bul qimorg‘a ozgina pul tikib o‘ynayman”, deb. Ul vaqtda Aflotun aytibdurkim: “Agarchandiki sen oz pul tikib o‘ynasang ham, gunoh ishning ozig‘a odat qilinmoq ko‘p katta gunoh bo‘lur”, deb.

Ko‘p uxlag‘on odam xususida Aflotun etg‘on ekankim: “Ul odam hech bir nimag‘a arzimaydur”, deb. Bir martaba Aflotunning bir xizmatkori bir gunoh ish qilg‘on ekan, Aflotun anga aytibdurkim: “Senga jazo bermoq lozim erdi, lekin mening senga g‘azabim keldi, shu sababdin endi jazo berolmayman”.

Ul aytgonkim: “Haq narsani eshitmoq hamadin marg‘ubroqdur”.

Haq boqiydur, lekin odamlar haqni mushkullik birlan qabul qiladurlar. Bir martaba andin so‘rabdurlarkim: “Sen o‘lgondin keyin

sendin bizga nima qoladur?” – deb. Ul javob beribdurkim: “Mendinning do‘stlarim va kitoblarim qoladur”, deb.

Donishmand odamg‘a umr ichinda aning donishmandlig‘i kifoyadur. Tirik odam o‘z vaqtidag‘i nizom va qoidani bajo kelturmog‘i lozimdur.

*(1886 yil, 29 noyabr).*

O‘z-o‘zini oldamoqliq hamadin yomonroqdur. Mundoq bo‘lg‘onda oldag‘uvchi har vaqt oldang‘uvchining oldida hozir turadur. Biz odamning biror ishig‘a masxara yuzasidan kulmoqchi bo‘lg‘onimizda, “ul tariqa ishni o‘zum qilg‘onim yo‘qmu?” deb o‘ylamog‘imiz lozimdur, zeroqi, har bir odam o‘z aybini ko‘rmoqda ko‘r va boshqaning aybini ko‘radur. Mastlik birlan umr o‘tkurguvchi va g‘azabi kelgonlarga Aflotunning maslahati shuldurkim: “Alar oynag‘a qarasalar, zeroqi, oynada o‘zlarining tuslarining yomon bo‘lg‘onini ko‘rub, mazkur ayb ishlarini tashlar erdilar”, deb.

Bir odam Aflotundin: “Olimni johildin nima birlan imtiyoz qilib bo‘ladur?”–deb so‘rag‘onda, ul javob beribdurkim: “Tabibni kasalg‘a muolija qilg‘onig‘a qiyos qilib bilgondekdur”, deb.

“Dushmanni rasmiy odamlardin nima birlan imtiyoz qilsa bo‘ladur?” – deb Aflotundin so‘rag‘onlarga ul javob beribdurkim: “Donishmand uldurkim, ani shikoyat qilsalar xafa bo‘lmaydur va maxtag‘onlari birlan o‘zini baland tutmaydur“, deb. “Barcha odamlardin kim kuchliroq?”– deb so‘rag‘onda, Aflotun javob beribdurkim: “Kuchlikroq odam uldurkim, g‘azab kelgonda ani yutub yuborsa”, va “Hammadin zaifroq kimdur?” deb so‘rag‘onda, ul javob beribdurkim: “Aytmaslig‘i zarur so‘zlarni aytmoqdin o‘zini to‘xtatmasa. Takbir to o‘z takbirlig‘ini tashlamag‘uncha anga haqorat nazari bilan qaramoq kerak”. Aflotun axloq husnani shul darajada e‘zoz kilg‘on ekankim, “Har bir ota o‘z o‘g‘lig‘a axloq husnani ta‘lim bersa, o‘g‘li ham, ani bajo kelturmog‘on bo‘lsa, o‘shandoq, o‘g‘lini merosdin mahrum qilinsun”, deb.

*(1886 yil, 13 dekabr).*

### **Antisofen (Antiseon)ning so‘zlari**

So‘z o‘tgan va bo‘lub turg‘on hollarni ma‘lum qiladur.

Ani Aflotun shikoyat qilg‘onini eshitib aytibdurkim: “Podshohlar ham yaxshi ishlar qilsa, odamlar shundoq yomonlog‘ondekdur”, deb. Shikoyat qilg‘on odamlarga ul maslahat bergon ekonkim: “Shikoyatchilarning shikoyatig‘a tosh otg‘onlarga chidag‘ondek chidamoq ko‘proq kerak”, deb.

Andin so‘rabdurlarkim: “Nima sababdin ul o‘z shogirdlarig‘a qattiq muomila qiladur?” – deb. Ul javob beribdurkim: “Tabiblar kasallar birlan shul tariqa muomila qiladurlar”, deb.

Ul aytgon ekonkim: “Xushomadchilarning qo‘lig‘a tushgondin ko‘ra burgutning changalig‘a tushgon yaxshiroqdur”, zeroki, burgut o‘lumturuklarnigina nobud qiladurlar, ammo xushomadchilar tiriklarni nobud qiladurlar”, deb. Shul sabab din, ko‘p odamlar ani tavsif qilg‘onlarini eshitib so‘rabdurkim: “Men nima yomon ish qildim?”. Bir martaba ul donishmandning oshnosi yodovar daftarini yo‘qotib yig‘lag‘on ekan. Antisofen aytibdurkim: “Ulug‘ ishlarni daftarg‘a emas, dil lavhig‘a yozmoq kerak, ul vaqtda yo‘qolmaydur”, deb. Temurni zang yegondek, hasad odamlarni o‘z hasadlari yeb qo‘yadurlar. Har kim o‘lmaslikni xohlasa, parhezkor bo‘lmog‘i kerak.

Bir martaba ani shikoyat qilubdurlarkim: “Ul goho yomon odamlar birlan so‘zlashur”, deb. Ul aytibdurkim “Agar tabib kasal odamdin ehtiyot qilsa, aning kasali yuqmaydur”. Boy odamning ehsonsizlig‘i – to‘y qilib sukut o‘lturub, so‘zlashmong‘a o‘xshaydur. Rohat sharbatini ichmoq mehnat tashnaligidin ilgari emas, keyin lozimdur. Ko‘p bahs qilg‘uchilarni bahs birlan emas, nasihat birlan qaytarmoq yaxshiroqdur.

*(1887 yil, 31 yanvar)*

### **Arastuning so‘zlari**

Ilm baxtlik vaqtda – ziynat va bebaxtlikda – panohdur.

Ota-ona o‘z bolalarini tug‘qondin ko‘ra alarg‘a tarbiyat bermoq. birlan mustahiqqi tavsifdur. Bir odam maqtanibdurkim: “Men ulug‘ shahar odamidurman”, deb. Arastu anga aytibdurkim: “Munga mulohaza solmoq kerak emas, balki sen ul ulug‘ shaharg‘a mustahiqliqing bormu? Anga mulohaza solmoq kerak”, deb. “Do‘st nimadur?”– deb qiling‘on savolga Arastu javob beribdurkim: “Ikki badanda turg‘uchi bir ruhdur”, deb.

Arastu aytibdurkim: “Odamlarning ba‘zisi shul tariqa ehtiyot qiladurlarkim, go‘yoki alar bir umr dunyoda turadurg‘ondek va ba‘zisi shul tariqa musrifdurkim, go‘yoki alhol o‘ladurg‘ondek”, deb. “Shogirdlar ne tariqa qilg‘onda muravvaj bo‘ladur?”–deb so‘rolg‘on savolig‘a Arastu javob beribdurkim: “Rivojlik shogirdlarning keyinidin qolmay, berivojlarning holig‘a taqlid qilmaslikdur”. “Men bul odamg‘a bergonim yo‘q. Balki mutlaq odamg‘a berdim”.

*(1887 yil, 6 iyun).*

## TARJIMA TARIXIGA OID TERMINLAR LUG'ATI (GLOSSARIY)

**Adekvat tarjima** (lotincha: tenglashtirilgan, teng, muvofiq, muqobil) – asl nusxaga har jihatdan muvofiq, uni to‘liq aks ettiruvchi, unga shakl va mazmun jihatidan mos keluvchi, muallif uslubi saqlangan tarjima.

**Akademik tarjima** – “asliyatni ilmiy tadqiq qilish maqsadida amalga oshirilgan tarjima. Bunda asliyatning mazmunigina saqlangani holda, shakli e’tibordan chetda qoladi. She’riy asarga xos qofiya, turoq kabi hodisalar alohida e’tibor bilan tiklanmaydi” (Q.Musaev).

**Asliyat** – tarjima uchun asos bo‘lgan asar, original. Lekin bu ta’rif bevosita tarjimaga taalluqli bo‘lib, bilvosita tarjima uchun uning boshqa tildagi tarjimasi, ba’zida hatto tarjimasining tarjimasi ham asliyat vazifasini bajaradi.

**Badiiy matn** – nasriy, she’riy, dramatik va publitsistik asarlar matni. U boshqa matnlardan tilining ifodaviyligi va ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Badiiy matn – san’at namunasi.

**Badiiy san’atlar tarjimasi** – badiiy san’atlar she’r otlig‘ bino-ning zebu ziynatlari hisoblanadi. Obrazlilikdan xoli she’rning oddiy gapdan farqi yo‘q. Shuning uchun shoirlar o‘z she’rlariga turli-tuman badiiy tasvir vositalari bilan sayqal berib, ularning poetik go‘zalligi va ta’sirchanligini oshiradilar.

**Badiiy tarjima** – badiiy asarlar – nasriy, she’riy, dramatik asarlar tarjimasi. Tildan muqobil vositalar izlab topish va tanlash xususiyatiga egaligi jihatidan har qanday tarjima ijodiy xarakter kasb etadi, lekin tilning ifodaviyligi bilan chambarchas bog‘liqligi va badiiyat qonuniyatlariga bo‘ysunishi tufayli badiiy tarjima san’at hisoblanadi.

**Bevosita tarjima** – bir tildagi asarning ikkinchi tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri asliyatdan o‘girilishi. Bu – eng to‘g‘ri va maqbul yo‘l bo‘lsa-da, barcha tillardan bevosita tarjima qilish imkoniyati hamisha ham mavjud emas. Shuning uchun vositachi til xizmatidan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bizda asrlar davomida fors va arab tillaridan bevosita tarjima qilib kelingan. XX asrda rus tilidan bevosita tarjima qilish kuchaydi.

**Bilvosita tarjima** – bir tildagi asarni ikkinchi tilga vositachi til orqali tarjima qilish.

**Ijodiy tarjima** – asl nusxaga ijodiy munosabatda bo‘lish orqali uning g‘oyaviy mazmuni, shakliy jihatlari, uslubi, jarangini yangi tilda qayta tiklash. Mohiyatan badiiy tarjima ijodiy yondashuvni taqozo etadi.

**Izohli tarjima** – o‘quvchiga tushunarli bo‘lsin uchun tarjimada ba’zi so‘z va tushunchalarni izohlab ketish. Asliyat o‘quvchisiga shundog‘am tushunarli bo‘lgan so‘z, tushuncha yoki tashbeh tarjima o‘quvchisiga yetarli darajada tushunarli bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun bunday hollarda tarjimonlar ba’zida qo‘shimcha izoh berib o‘tadilar.

**Muallif tarjimasi** – asliyatning muallifning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi. Masalan, Sadridin Ayniy bir qator asarlarini avval o‘zbek tilida yozib, keyin tojik tiliga tarjima qilgan. “Buxoro jallodlari”, “Odina”, “Sudxo‘rning o‘limi”, “Qullar” asarlari, “Esda-lıklar”ning birinchi qismi shular jumlasidandir. O‘z asari bo‘lgani uchun tarjima jarayonida muallif-tarjimon ularga bir qancha o‘zgartirishlar ham kiritgan – ularni biz ayrim lavhalar va detallarning qisqartirilgani yoki qo‘shilgani, ayrim detallarning tojikcha ekvivalentlari qo‘llangani, o‘zbek xalq qo‘shiqlari tojik xalq qo‘shiqlari bilan almashtirilgani, abzaslar qisqartirilgani, jumlar qurilishi va badiiy tasvir vositalarining tahrir qilingani va boshqalarda ko‘ramiz. Atoqli qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatov ham qirg‘iz tilida yozilgan ilk asarlarini dastlab o‘zi rus tiliga tarjima qilib, keyin bevosita rus tilida ijod qilishga o‘tgan.

**Muqobil** (arabcha: qarshi, zid) – bu so‘zning javob bo‘luvchi, javoban amalga oshirilgan; teng, barobar, to‘g‘ri keladigan ma’nolari ham bor. Tarjimashunoslikda bu so‘z aynan teng, barobar; mos, muvofiq ma’nosida qo‘llanadi. Adekvat tarjima ba’zida muqobil tarjima deb ham yuritiladi.

**Radif tarjimasi** – she’rning ohangdorligi, jarangdorligi, ta’sirchanligini ta’minlabgina qolmay, fikrni bir nuqtaga jamlab, unga urg‘u berib, ma’noni kuchaytirishga ham xizmat qiladigan, baytlarni gavhar shodasidek o‘zaro bir-biriga bog‘lab, yagona ritmning yuzaga chiqishini ta’minlaydigan, she’rning ma’nosini chuqurlashtiradigan, ta’bir joiz bo‘lsa, uning husnini ochadigan radif tarjimasi Sharq she’riyati tarjimasida muhim o‘rin tutadi.

**Realistik tarjima** (realizm yunoncha: mavjud, haqiqiy) – bu realistik adabiyot bilan bog‘liq tushuncha bo‘lib, realistik adabiyot

hayotni haqiqatga muvofiq tasvirlagani kabi, realistik tarjima asarni asliga muvofiq aks ettiradi. Adabiyotda realistik yoʻnalish XIX asrning ikkinchi yarmida paydo boʻlgan boʻlsa, realistik tarjimachilik asosan XX asr oʻrtalarida qaror topdi.

**Tabdil** (arabcha: oʻzgartirish, almashtirish) – tarjimashunoslikda u ikki maʼnoda qoʻllanadi: 1) bir oilaga kiruvchi qardosh tillarning biridan ikkinchisiga tarjima qilish; 2) tilning qadimiy shaklidan zamonaviy shakliga tarjima qilish. Muayyan tildagi asarning shu tildagi nasriy bayoni ham tabdilning koʻrinishlaridan biri hisoblanadi.

**Tamaddun va tarjima** – Taraqqiyot va tarjima egizak tushunchalarga oʻxshaydi. Zero, insoniyat taraqqiyotini tarjimasiz tasavvur ham qilib boʻlmaydi. Yuksalish turli xalqlarning oʻzaro aloqalari, bir-birlarining yutuqlarini oʻzlashtirishlari va bir-birlariga taʼsir oʻtkazishlari asosida yuz berar ekan, bu jarayonda asosiy vosita boʻlib tarjima maydonga chiqadi.

“Tarix shuni koʻrsatadiki, ilm-madaniyat rivojiga eʼtibor kuchaygan joyda tarjima ishi ham barq urib gullaydi. Bu tabiiy, chunki insonlar oʻzlarigacha yaratilgan, boshqalar kashf etgan, toʻplangan bilimlar majmuasi, tafakkur obidalari, badiiy ijod mevalarini bilmay turib, ulardan bahra olmasdan olgʻa borishlari mumkin emas. Insoniyat yagona vujud. Uning har bir aʼzosi – har bir xalq siymosida qoʻlga kiritilgan sivilizatsiya boshqa aʼzolar – boshqa xalqlarga ham qonuniy meros, maʼnaviy-donishiy mulk. Bu merosiy mulk navbatma-navbat estafeta tariqasida turli xalqlar qoʻliga oʻtib, toʻldirilib, rivojlanib kelgan. Ana shu “oʻtish” va “uzatishlar” jarayonining muhim omili, shubhasiz, tarjimadir” (N.Komilov).

Maʼlumki, jahon tamaddunining beshigi Sharq boʻlgan. Hindistonda rivojlangan aniq va tabiiy fanlar, Eronning yuksak madaniy yutuqlari, Markaziy Osiyo xalqlarining teran falsafiy taʼlimotlari antik dunyo Uygʻonishini vujudga keltirdi. Tabiiyki, yunonlar ularni tarjima vositasida oʻqib-oʻzlashtirganlar. Davlat homiyligi ostida maxsus reja asosida tarjimonlar guruhi qizgʻin faoliyat koʻrsatib, Sharq va Gʻarbda oʻsha davrgacha yaratilgan barcha ilm-fan va madaniyat-adabiyotga oid adabiyotlar yunon tiliga oʻgirilgan. Ular orasida Markaziy Osiyo xalqlari folkloriga oid qator asarlar ham mavjud – Toʻmaris, Shiroq haqidagi hikoyalar, koʻplab mifologik afsona va syujetlar shular jumlasidandir. Aleksandr Makedonskiyning “Avesto”ning mukammal nusxasini Makedoniyaga olib ketib, tabiat, dehqonchilik, geografiya,

tabobatga oid qismlarini yunonchaga tarjima qildirib, keyin o'zini yoqib yuborgani ma'lum.

Fales, Anaksimandr, Anaksiman, Geraklit va boshqa yunon olimlari Sharq ilm-fani, xususan, zardushtiylik ta'limotidan ta'sirlanganlar. Aristey, Alkman, Pindar, Gekatey, Esxil, Sofokl, Gomer, Gippokrat kabi antik olimu adiblar asarlarida Markaziy Osiyo xalqlari haqidagi ma'lumotlar uchraydi. Solon, Pifagor, Demokrit, Aristey, Gekatey kabi olimlar Sharq mamlakatlari bo'ylab ko'plab sayohatlar qilganlar. Bu ilmiy-madaniy aloqalarning barchasi tarjima orqali amalga oshgani shubhasiz. Gomer va Edd o'z asarlarida tarjimonlarni Xudoning inoyatlarini bandalarga yetkazuvchi vositachi sifatida talqin etganlari bejiz emas. Keyin yunonliklarning bu barcha ilmiy-madaniy yutuqlarini rimliklar tarjima vositasida o'zlashtirdilar. So'ngra Uyg'onish Sharqqa ko'chdi – ulkan hududda o'z saltanatlarini o'rnatgan arablar ilm-fan, madaniyat va adabiyotning rivojlanishiga ham katta e'tibor berdilar. O'z-o'zidan, yunon, suryoniy va eroniy madaniyat orqali o'tgan ellinistik meros ta'siri bo'lmaganda, mumtoz musulmon madaniyati bu qadar yuksak darajaga erisha olmagan bo'lar edi. Tarixning guvohlik berishicha, “insoniyat jamiyati taraqqiyoti doimiy yangilanish, o'sishni boshdan kechirgan. Har bir madaniy ko'tarilish o'ziga cha bo'lgan yutuqlarni jamlagan, boyitgan va yangi-yangi oqimlarni birlashtirib, olg'a siljishda davom etgan. Taraqqiyot tarixiga Sharq va G'arb xalqlari navbatma-navbat hissa qo'shib kelganlar” (N.Komilov).

VIII-IX asrlarda Bag'dod, Damashq va Kufa shaharlarida yirik tarjima maktablari vujudga kelib, ko'plab tarjimonlar rejali asosda tarjima ishlari bilan shug'ullanganlar. Bu jihatdan, ayniqsa, xalifa Ma'mun asos solgan “Bayt ul-hikma” (“Bilim uyi”) – Ma'mun akademiyasining faoliyati ayniqsa diqqatga sazovor. Markaz kutubxonasida hind, yunon, fors, suryoniy va arab tillaridagi 400 ming jild qo'lyozma saqlangan. Xalifalikning turli shaharlaridan jalb qilingan ko'plab olimlar yunon, fors, vizantiya, hind olim va adiblari tomonidan yaratilgan yuzlab kitoblar arabchaga tarjima qilingan va sharhlangan. Ular orasida Ahmad Farg'oniy, Muso Xorazmiy, Abbos Javhariy, Ahmad Marvaziy kabi bizning vatandoshlarimiz ham bor edi.

“Sharq madaniyatining Yevropaga ko'chishida tarjimaning roli shubhasiz katta bo'lgan. Arab tilida yaratilgan ilmiy adabiyotlarni lotin tiliga ag'darish XII asrdan boshlab avj olgan. Keyinchalik bu

adabiyotlarni ispan, fransuz, kastil tillariga tarjima qilish ham kuchaygan. Toledo va Bolonya shaharlari o'sha davr tarjimachiligining yirik markazlariga aylangan. Bu shaharlarda o'zaro raqobatga kirishuvchi alohida-alohida tarjima maktablari shakllanib, guruh-guruh tarjimonlar bir necha yillar davomida arabcha kitoblarni Yevropa tillariga o'girish bilan shug'ullanganlar. Hatto, Toledo jome'sida maxsus tarjimonlar tayyorlaydigan o'quv yurti ham ochilgan. Jamiki fanlarga oid arabcha asarlar muntazam ravishda Yevropa tillariga o'girilib, ko'p nusxada tarqatilgan. Toledoda amalga oshirilgan tarjimalar "xristian sxolast olimlarini larzaga keltirdi", deydi ispan sharqshunosi Menendes Pidal. Bu tarjimalar jahon madaniyati rivojida butun bir davrni tashkil etadi. Chunonchi, u fan tarixini Toledo maktabi faoliyatigacha bo'lgan bosqich va undan keyingi bosqichlarga ajratadi. Ammo, aytish kerakki, faqat Sharq olimlari asarlarigina emas, balki qadimgi Yunoniston ilmu fani durdonalari ham Yevropaga, dastavval, arabchadan o'girilgan tarjimalar orqali kirib borgan. Aristotel va uning Sharqdagi izdoshlari – Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd falsafasi o'sha davr qoloq aqidalari, diniy xurofotlari ildiziga bolta urdi; fikriy uyg'onish, yangicha dunyoqarashni boshlab berdi" (N.Komilov).

Ma'lum bo'ladiki, Yevropadagi Uyg'onishga arablar orqali o'tgan ilm-fan, madaniyat va adabiyot yutuqlari sabab bo'ldi. Sharq olimu adiblari merosini tarjima qilish uchun Yevropa mamlakatlarida mingga yaqin tarjimonlar zahmat chekkanlar. Natijada, "Yevropada ilohiyot, isaviya dini ta'limoti emas, inson tajribasiga, inson mafkurasiga asoslangan haqiqiy ilm-fanning, ratsionalistik dunyoqarashning shakllanishi to'g'ridan-to'g'ri Sharq olimlari asarlari ta'siri ostida ro'y berdi" (F.Sulaymonova).

Angliyada Yelizaveta I hukmronligi davri "buyuk tarjima asri" deb atalgan bo'lsa, Fransiya XVI asr "tarjimaning oltin asri" deb ta'riflandi. XVIII asr boshida Pyotr I rahnamoligida Peterburgda tarjimachilik rivojlandi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Feruz homiyligida Xorazmda tarjima maktabi samarali faoliyat yuritdi. "Tarjima katta markazlar, maktablarda kuchayishdan tashqari, turli joylarda, turli kishilar tomonidan uzluksiz davom etib kelingan, albatta. Ammo markazlashgan joyda, muayyan maqsad-niyatlar yo'lida uyushtirilgan ishning samarasi, natijasi boshqacha bo'ladi" (N.Komilov).

XX asr esa butun dunyoda tarjima asri sifatida e'tirof etildi. Ma'lum bo'ladiki, har bir davr ilmiy-madaniy hayotining yuksalishida tarjima adabiyotining tutgan o'rni beqiyos.

**Tarjima** (arabcha: bir tildan ikkinchi bir tilga ag'darish; o'g'irish, izohlash, sharhlash) – muayyan bir tilda og'zaki yoki yozma ravishda bayon qilingan fikrni boshqa til vositalari bilan qayta ifodalash. **Tarjima** so'zi **tarjimon** so'zidan hosil bo'lgan, **tarjimon** so'zi esa forscha **tarzabon** so'zidan kelib chiqqan. Ma'lumki, qadimda O'rta Osiyo va Eron xalqlari orasida notqlik san'ati juda rivojlangan. Notiqlarni esa tarzabon deb ataganlar. **Tar** – fors tilida yangi, shirali, tarovatli, nozik, latif kabi ma'nolarni bildiradi. **Zabon** – til degani. **Tarzabon** – notiq, chiroyli gapiruvchi, so'z ustasi, yangi va o'tkir so'zlarni aytuvchi demak. Tarzabonlar chuqur bilim, keng dunyo-qarash, notqlik mahoratiga ega bo'lishdan tashqari, bir necha tillarni ham bilganlar va o'z nutqlarida ulardan foydalanganlar.

Arablar kirib kelganlaridan keyin ijtimoiy hayot, madaniyat, fan va boshqa sohalarni o'z ta'sirlariga olganlari kabi, ko'pgina so'zlarni ham o'zlashtirib, arab tili qoidalariga bo'ysundirganlar. Jumladan, **tarzabon** so'zi ham arabcha talaffuzda “tarjamon” (yoki “tarjimon”)ga aylanadi. Shundan keyin u arab tilining so'z yasaliş qonuniga bo'ysunib, undan yangi masdar (o'zak), fe'l va otlar hosil qilingan. Masalan: tarujama, tirijama, tarjama, mutarjim, mutarjimun.

Shunday qilib, **tarjimon** – **tarzabon** so'zining arabcha tarjimasi bo'lsa, **tarjima tarjimon** so'zidan kelib chiqqan. **Tarjima** o'tmishda hozirga ma'nosidan tashqari, **bayon etish, tushuntirib berish, matn-ni sharhlash, tafsir, ma'noni chaqish, sodda qilib ifodalash** ma'nolarini ifodalab kelgan. Chunonchi, **tarjimai hol** – ahvolni bayon etish.

O'zbek shoirlar tarjima so'zi o'rniga **o'g'irish, ag'darish, qaytarish, chevurish** kabi atamalarni ham keng ishlatganlar. Chunonchi, Sa'diy Sheroziyning “Guliston” asarini “Gulistoni bit-turkiy” nomi bilan tarjima qilgan Sayfi Saroyi (XIV) tarjimini bir tildan ikkinchisiga **qaytarish** deb atagan:

Turkiga qaytib Ajamdin bu kitob,  
Ma'rifatqa ochti sakkiz turli bob.

Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarini “Nasoyim ul-muhabbat” nomi bilan o'zbekchaga tarjima qilgan Alisher Navoiy tarjima so'zi bilan birga, **o'tkarish** atamasini ham qo'llaydi: “Xotirg'a kechmishkim, agar sa'y qilsam, bu kitobni turk tiliga **tarjima** qila

olgʻaymuman va ul daqoyiqu mushkilotni ravshanroq alfoz va ochuqroq ado bila oʻtkara olgʻaymuman, deb mutaammil erdim”. Zabardast tarjimon Muhammadrizo Ogahiy ham **tarjima** bilan birga, **kiritish, oʻtkazish, bayon etish** soʻzlarini qoʻllagan. “Shayx Nizomiyning “Haft paykar” otlik kitobini... **tarjima** qilib, turkiy lafzigʻa **kirguzmak** xizmatini buyurdilar” yoki:

Bu nusxa tarjimasigʻa ochib til,  
Iboratini turkiy masnaviy qil, yoxud:  
Turk alfozi birla ayla bayon...

Hozirgi kunda ham tarjima soʻzining **oʻgʻirish, agʻdarish, oʻtkazish** kabi maʼnodoshlari qoʻllanadi. **Tarjima** oʻrnida baʼzan **oʻgirma** ham deyiladi.

“*Tarjima* tushunchasining maʼnosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot: sheʼr, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli-tuman sohalariga doir ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qogʻozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiq-larning nutqlari, gazeta materiallari, boshqa-boshqa tillarda soʻzlashuvchi, “tilmoch”ning xizmatiga muhtoj boʻlgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi, kinofilmlar oʻgʻiriladi... Tarjima til bilgan har qanday kimsa ham shugʻullansa boʻlaveradigan yumush emas, balki fan va sanʼatdir. Uning oʻz qonun-qoidolari mavjud” (Gʻ.Salomov). Tarjimashunos V.Rosselsning fikricha: “Chet tillar hozirgiga qaraganda hatto ancha durustroq oʻqitila boshlansa va badiiy asar oʻzga tilda soʻzlovchi kishilarga xuddi oʻz ona tilidagidek tushunarli boʻlgan taqdirda ham, tarjimonlarga ehtiyoj aslo kamaydi”.

**Tarjima maktablari** – turli mintaqalarda, turli davrlarda ilmiy-madaniy koʻtarilish mahsuli sifatida insoniyat erishgan fan va madaniyat yutuqlarini tizimli ravishda muayyan tilga tarjima qilish bilan shugʻullangan tarjimonlar guruhi, uyushmasi. Bunga u yoki bu mintaqadagi madaniy koʻtarilish sabab boʻlgan. “Har bir madaniy koʻtarilish oʻzigacha boʻlgan yutuqlarni jamlagan, boyitgan va yangi-yangi oqimlarni birlashtirib, olgʻa siljishda davom etgan. Taraqqiyot tarixiga Sharq va Gʻarb xalqlari navbatma-navbat hissa qoʻshib kelganlar” (N.Komilov).

Jahon miqyosida asrlar davomida koʻplab tarjima maktablari faoliyat koʻrsatgan. Ularning ayrimlari favqulodda ilmiy-madaniy koʻtarilishga sabab boʻlib, Sharq va Gʻarbda Uygʻonish davrining

vujudga kelishini ta'minlagan. Antik davr tarjimachiligi, "Bayt ul-hikma" faoliyati, Ispaniyadagi tarjima maktablari shular jumlasidandir.

Tarjima maktablarining vujudga kelish tarixi ham qadim ul-ayyomga borib bog'lanadi. Ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyotning ko'plab turlariga doyalik qilgan antik davr bu borada ham yetakchilik qilgan deyish mumkin. Chunki Yunonistondagi antik davr Uyg'onishi qadimgi Hindistonda rivojlangan tabiiy fanlarning yutuqlari, ko'hna Eron madaniyati tajribalarini o'zlashtirib, G'arb ilm-fani va madaniyati muvaffaqiyatlarini o'zaro omuxta qilgan holda sodir bo'lgani ma'lum. Bu esa, o'z-o'zidan, tarjimasiz mumkin emas. Yunonlar Sharq va G'arbning o'zlarigacha erishgan barcha sohalardagi yutuqlarini yaxlit holda tashkil etilgan tarjima ishlari orqali o'zlashtirganlar.

Keyin taraqqiyot yana Sharqqa ko'chdi – katta hududni egallagan arablar ilm-fan, madaniyat va adabiyotni rivojlantirishga ham katta e'tibor berdilar. Xalifa Ma'mun IX asr boshida Bag'dodda "Bayt ul-hikma" ("Bilimlar uyi") tashkil etib, Xuroson noibligi davrida Marvda o'z atrofiga yiqqan Movarounnahr va Xurosonlik olimlar guruhini poytaxtga da'vat etib, ular safini arab, eron, suryoniy, yunon, yahudiy millatlariga mansub olimlar, tarjimonlar va xattotlar hisobiga kengaytiradi. Ma'mun akademiyasi nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu ilmiy markazda endi arablar jahon fan va madaniyatining o'zlarigacha yaratilgan durdona asarlarini arabchaga tarjima qilib, ularga sharhlar yozganlar. Bu yerda aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlar, madaniyat va adabiyotga oid ko'plab asarlar tarjima qilingan. Gippokrat, Aristotel, Porfiri, Yevklid, Galen, Arximed, Ptolomey kabi olimlarning asarlari, Gomer dostonlaridan parchalar, Yevripid tragediyalari tarjimalari shular jumlasidandir. Agar grek, suryoniy va eroniy madaniyat orqali o'tgan ellinistik meros ta'siri bo'lmaganda, mumtoz musulmon madaniyati yuksak darajaga erisha olmagan bo'lar edi.

O'z navbatida, arablar G'arb tamadduniga kuchli ta'sir ko'rsatdilar. XII-XIII asrlarda arablar tasarrufidagi Ispaniyaning Toledo va Kordova shaharlarida tarjima maktablari vujudga kelib, arab tilidagi barcha ilmiy, ba'zi adabiy kitoblar ham lotin tiliga tarjima qilinadi va ular orqali Yevropaga tarqaladi. Tarjima qilingan asarlar orasida Muso Xorazmiyning "Ziji Xorazmiy", "Al-jabr al-muqobala", "Al-jam va-t-tafriq", Ahmad Farg'oniyning "Astronomiya asoslari", Abu Nasr Forobiyning "Ilmlar tasnifi", "Baxt-saodatga erishish haqida risola", "Mantiqqa kirish kitobi" kabi ko'plab asarlari, Aristotel asarlariga

yozgan sharhlari, Abu Ali ibn Sinoning “Qonun”, “Shifo” kitoblari bor edi. “Kalila va Dimna”, “Ming bir kecha”, “To‘tinoma” kabi badiiy, Ibn Sinoning “Hayy ibn Yaqzon”, “Salomon va Absol” kabi majoziy, “Qur‘on”, “Me‘rojnoma” kabi diniy asarlar ham o‘girilgan. Bu kitoblar Yevropa ilmi va adabiyoti rivojiga kuchli ta‘sir ko‘rsatgani ma‘lum. Meditsina so‘zining avitsenna (Ibn Sino), algoritmning al-Xorazmiy, algebraning al-jabrdan kelib chiqqanligining o‘zi buning yorqin isbotidir. Hozirgi raqamlarning Yevropaga tarqalishiga ham Xorazmiy asarlari sabab bo‘lgan. Buyuk italyan shoiri Aligeri Dante-ning kosmogonik qarashlari bevosita Farg‘oniyning “Astronomiya asoslari” asari ta‘sirida shakllangan. 1493-yili kitob bosish kashf etilgach, Ibn Sinoning “Qonun”i nashr etilgan. XVIII asrgacha Yevropa universitetlarida u tibbiyot bo‘yicha asosiy qo‘llanma sifatida o‘qitilgan. Shu tariqa, Yevropada, “inson tajribasiga asoslangan haqiqiy ilmfanning, ratsionalistik dunyoqarashning shakllanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri Sharq olimlari asarlari ta‘sirida ro‘y berdi” (F.Sulaymonova).

Badiiy asarlar tarjimasi esa “Ispaniya va keyinchalik butun G‘arbiy Yevropaga yangi adabiy oqim – didaktikani, yangi janr – novellani, yangi tasviriy usul – hikoya ichida hikoya aytish (qoliplash) yo‘lini olib kirdi hamda barqaror etdi” (N.Komilov). Yevropada romantik she‘riyatning vujudga kelishi, dolg‘ali oqim bo‘lmish trubadurlar she‘riyati, G‘arb romanlaridagi qiziqarli sarguzashtlarni hikoya qilish usuli ham Sharq so‘z san‘atidan o‘tgan.

XVIII asrda Pyotr I rahbarligida Peterburgda, XIX asrda Feruz homiyligida Xorazmda ham tarjima maktablari vujudga keldi. Birgina Xorazmda 82 kishi tarjima bilan shug‘ullanib, 28 ta tarixiy, 23 ta adabiy asar tarjima qilingan. Sharqshunos A.Nosirovning ma‘lumotiga ko‘ra, umuman, XIX asr boshidan XX asr boshigacha 120 ta asar o‘girilgan. Birgina Ogahiyning o‘zi 19 ta asarni o‘zbekchalashtirgan.

Xorazm tarjima maktabining mashhur namoyandalari sifatida Munis, Ogahiy, Komil, Tabibiy, Mirzo, Bayoniy, Rojiiy, Muhammad Rafe‘, Bobojon Sanoiy, Habibiy, Mullo Ibodullo Xo‘ja, Xolis, Domla Otajon, Muhammad Nazar, Tojiddin Xorazmiy va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Ulardan har birlari bir nechtdan asarni tarjima qilganlar. Bu asarlar asosan arab va fors tillaridan, ayrimlari esa turk tilidan tarjima qilingan. Tabiiyki, bu tarjimonlar turli-tuman usullar asosida ish ko‘rganlar, tarjima haqida har xil fikrlar bildirganlar – ular tarjimashunoslik rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi. XIX asr ikkinchi

yarmi va XX asr boshlarida Buxoro, Farg‘ona va Toshkentda ham arab va fors tillaridan Sidqiy Xondayliqiy, Sayqaliy, Xiromiy, Almaiy, Miskin, Siddik, Hazin, Husayn Buxoriy, Boysuniy, Xudoydod Qodiriy, Latifiy, Ahror Mahzum va boshqalar tomonidan 25 ga yaqin asar tarjima qilingan. Ular orasida “Kalila va Dimna”, “Ming bir kecha”, “Bahrom va Gulandom”, “Mazhar ul-ajoyib”, “Bahoro donish”, “Chor darvesh”, “Muxtasar ul-viqoya”, “To‘tinoma” kabi Sharq olamida mashhur asarlar bor.

**Tarjima tarixi** – tarjimashunoslikning tarjima adabiyotining vujudga kelishi va rivojlanish tarixini o‘rganadigan sohasi. Ma’lumki, o‘zbek tarjimachiligi ming yildan ortiq davrni o‘z ichiga oladi. Bu benihoya katta vaqt oralig‘ida muazzam Sharq so‘z san’atining har xil mavzu, turli janrdagi ko‘plab asarlari tarjima qilingan, tarjima bilan faqat olimu adiblar shug‘ullanib qolmay, o‘zini tarjima ishiga bag‘ishlagan maxsus tarjimonlar yetishib chiqqan, tarjima maktablari vujudga kelgan. Bu tarjimalar tilimizni boyitish, adabiyotimizni rivojlantirish, shoirlarimiz mahoratini oshirish, xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish, badiiy-estetik ehtiyojini qondirish yo‘lida katta xizmat qilgan. Bu tarjimalar mumtoz so‘z san’atimizni yangi mavzular, g‘oyalalar, obrazlar, uslublar, janrlar bilan boyitib, vatan adabiyotining oltin xazinasidan mustahkam o‘rin egallagan. “Xusrav va Shirin” (Qutb Xorazmiy tarjimasi), “Guliston” (S.Saroyi va Ogahiy tarjimalari), “Shohnoma” (Xomushiy tarjimasi), “Yusuf va Zulayho”, “Shoh va gado”, “Haft paykar”, “Badoe’ ul-vaqoe’” (Ogahiy tarjimasi), “Ming bir kecha” (Sidqiy Xondayliqiy tarjimasi), “Anvori Suhayliy” (Muhammad Temur tarjimasi) va boshqa o‘nlab ajoyib tarjima asarlari shular jumlasidandir. O‘zbek tili va adabiyoti tarixini bu tarjimalardan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmaganidek, tarjima tarixi ham til va adabiyot tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbek adabiyoti tarixini yozgan olimlar tarjimalar tarixini ham chetlab o‘tmaganlari bejiz emas.

“Tarjima tarixini o‘rganish adabiy-madaniy aloqalar tarixini, xalqlar orasidagi do‘stlik va hamkorlik tarixini yoritishga, adabiy ta’sir shakllari, ularning o‘zaro diffuziyasi, adabiy an’ana va unga munosabat masalalarini aniqlashga ko‘maklashadi. Bu, o‘z navbatida, regionlar, mintaqalardagi va oqibat-natijada butun dunyodagi adabiy jarayon, oqimlar, g‘oyalar tutashuvi, irsiy davomiylik va tipologik mushtarakliklarni kuzatish, jahon adabiyoti taraqqiyotining ichki

dialektik bog‘lanishlarini bilib olishga imkon beradi. Ya’ni tarjima komparavistika – qiyosiy adabiyotshunoslik muammolarini tadqiq etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi” (N.Komilov).

O‘zbek tarjimachiligining xaritasi boy va rang-barang bo‘lib, faqat turli tillardan o‘zbek tiliga o‘girilgan asarlarga emas, ayni paytda, o‘zbekchadan jahonning boshqa tillariga qilingan tarjimalar ham tarjima tarixi fanining o‘rganish ob’ekti hisoblanadi.

Tarjimashunoslik tarmoqlangani kabi, tarjimashunoslar ichida ham ixtisoslashuv jarayoni kechmoqda: tarjima tarixi, nazariyasi va tanqidi; uzoq va yaqin tillardan tarjima; nasr va nazm tarjimasi; badiiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy tarjima; o‘zaro aloqa va adabiy ta’sir; tarjimaning lisoniy va badiiy jihatlari tadqiqi bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar yetishib chiqmoqda. Jumladan, tarjima tarixi bo‘yicha Jumaniyoz Sharipov, Najmiddin Komilov, Hamidjon Homidiy, Anvar Hojiahmedov, Vahob Rahmonov kabi tarjimashunoslar salmoqli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Bu an’anani Muhammadjon Xolbekov, Ne’matulla Otajonov, Rahmatulla Barakaev, Abdusalom Umarov, Karimboy Quramboev, Nigora O‘rmonova, Ergash Ochilovlar samarali davom ettirmoqdalar.

**Tarjimashunos** – tarjimashunoslik: tarjima tarixi, nazariyasi va tanqidi yoki ulardan biri bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis, olim. Masalan, G‘.Salomov tarjimashunoslikning barcha masalalari bilan shug‘ullangan bo‘lsa, J.Sharipov, N.Komilov, A.Hojiahmedovlar tarjima tarixi, M.Xolbekov, Z.Isomiddinovlar tarjima nazariyasi, A.Muxtor, I.G‘afurovlar tarjima tanqidi bilan shug‘ullangan.

**Tarjimashunoslik** – tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari kesishgan nuqtada vujudga kelgan umumfilologik fan. Tarjima tarixi, tarjima nazariyasi, tarjima tanqidi – tarjimashunoslikning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Boshqa fanlar singari tarjimashunoslik ham rivojlangani sari tarmoqlanib borayapti. Keyingi yillarda fanning alohida masala va muammolari umumiy tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik fanlarini o‘qitish metodikasi, tarjimon mahorati, tarjimaning lingvistik nazariyasi, badiiy tarjima masalalari, ilmiy-texnikaviy matnlar tarjimasi, publitsistik tarjima, tarjima nazariyasi va amaliyoti, tarjima va tazkirachilik, Sharq va G‘arb adabiy aloqalari, Sharq qo‘lyozmalarini tarjima qilish prinsiplari, qiyosiy grammatika va qiyosiy uslubshunoslik kabi qator maxsus kurslar sifatida o‘qitilmoqda.

**Tarjimon** (arabcha: tarjima qiluvchi) – bir tildagi og‘zaki nutq yoki yozma matnni ikkinchi tilga tarjima qiluvchi kishi, mutarjim, tilmoch.

**Tarjimon mahorati** – tarjimonning tarjima qilishdagi ustaligi, mohirligi, san’atkorligi. Bunga har ikki tilni birday bilish, ijodkorlik iste’dodi, tajriba va malaka orqali erishiladi. Ijod zahmatini chekishda tarjimonning ham qismati muallifnikidan qolishmasligini bot-bot ta’kidlab, obraz, vaziyat va ruhiy holat ifodasi taqozosiga ko‘ra uning hamisha yetti qat kontekstning tagiga tushib, ayni kerakli so‘zni topishiga to‘g‘ri kelishiga e’tibor qaratgan G‘.Salomovning yozishicha, “agar bir asarni turmush tajribasi, ma’lumoti, mahorati, so‘z boyligi har xil bo‘lgan ikkita tarjimon bir tilga ag‘darsa, bir-biridan jiddiy farq qiladigan ikkita – deyarli boshqa-boshqa asar hosil bo‘lishi ham shu sabablidir.

**Tarjimon uslubi** – muallif uslubi bilan omuxta holda namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos uslub ko‘rinishi. Zero, badiiy tarjima ikki uslubning birikishidan hosil bo‘lgan yangi adabiy hodisadir. Tarjimon, agar u muallifga, asl nusxaga sodiq qolmoqchi bo‘lsa, agar sehrini o‘z kitobxoniga yetkazmoqchi bo‘lsa, bu san’atni o‘zining ijodi, san’ati zaminida yangidan yaratishi kerak.

**Tarixiy kolorit** – muayyan tarixiy davr manzaralari, o‘sha davrdagi ijtimoiy va madaniy hayot, kishilar turmushining tarixiy asarlardagi tasviri. Masalan, O.Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romanida X-XI asrlardagi g‘aznaviylar davri manazaralari, o‘sha zamonda yashab ijod etgan qomusiy allomalar Beruniy va Ibn Sino hayoti va faoliyati yoritilsa, “Ulug‘bek xazinasi”da XIV-XV asrlardagi temuriylar hukmronligi, o‘sha davrdagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayot, buyuk olim Mirzo Ulug‘bek hayoti va faoliyati aks ettirilgan.

**Tatabbu’** (arab. – erganish, izdoshlik) – salaflar yoki zamondosh shoirlarning asarlaridan ta’sirlanib, ulardagi vazn, qofiya, radifni saqlagan holda, o‘sha mavzu va g‘oyani davom ettirib, rivojlantirib yoziladigan asar. Alisher Navoiy “Xamsa”si ham buyuk salaflariga tatabbu’ bo‘lib, “Hayrat ul-abror” – Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror”, “Farhod va Shirin” – Amir Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav”, “Layli va Majnun” – Xoju Kirmoniyning “Gavharnoma”, “Sab’ai sayyor” – Ashraf Marog‘iyning “Haft paykar”, Saddi Iskandariy” – Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomai Iskandariy” dostonlariga

nazira tarzida bitilgandir. “Lison ut-tayr” esa Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” masnaviysiga tatabbu’ tarjimadir.

**Tafsir** (arabcha: sharh, izoh, matnning ma’nosini ochish) – biror matn yoki asarni har tomonlama keng va chuqur, mukammal sharhlash. U ko‘proq diniy, ilmiy, falsafiy, tasavvufiy asarlarga yozilgan. Sharh esa asosan badiiy asarlarga nisbatan ishlatilgan. Masalan, Abu Ali ibn Sino Aristotelning “Metafizika” asarini qayta-qayta o‘qisa-da tushunmaydi. Kitob hatto yod bo‘lib ketadi-yu, lekin ma’no-mazmuni ochilmay qolaveradi. Abu Nasr Forobiyning unga yozgan sharhi orqali asar mohiyatini anglab yetadi. Qur’oni karim suralarining sharhiga bag‘ishlangan “Tafsiri hilol”da avval oyatlar arab tilida keltiriladi, keyin uning tarjimasi beriladi, shundan so‘ng sharhlashga o‘tiladi.

Sharqda tafsir yozish keng tarqalib, alohida ilmiy yo‘nalish ko‘rinishini olgan. Xususan, Qur’oni karim va Hadisi sharifga, boshqa diniy asarlarga tafsir yozuvchi mufasssirlar yetishib chiqqan. Abu Mansur Moturidiy, Abu Lays Samarqandiy, Mahmud Zamaxshariy, Faxriddin Roziy, Mahmud Nasafiy kabi vatandoshlarimiz shular jumlasidandir.

Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Faxriddin Roziy, Ismoil Jurjoniy, Mahmud Chag‘miniy, Qozizoda Rumiy kabi ko‘plab olimlar Arastu, Aflotun, Jolinus, Suqrot, Buqrot kabi antik davr olimlari asarlarini tarjima qilib, ularni tushuntirish uchun tafsirlar yozganlar. Bu tafsirlarning o‘zi alohida tadqiqot xarakterida bo‘lgan. Sharqda ilm-fan rivoji shunday borgan: olimlar o‘zlarigacha yaratilgan asarlarni tarjima qilganlar va sharhlaganlar, ularning yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatganlar, shundan keyingina o‘z qarashlarini ilgari surganlar. Ilm-fan rivojining bu o‘ziga xos sharqona usulining asl mohiyatini tushunmagan G‘arb tadqiqotchilari Sharq allomalarini yoppasiga sharhnavisga chiqarganlarining sababi shunda.

**Uzoq va yaqin tillardan tarjima** – tarjimashunoslikdagi muhim kategoriyalardan. Lekin tarjimashunoslikdagi yaqin va uzoq tillar tushunchasi tilshunoslikdagi ayni tushunchadan farqlanadi.

Ma’lumki, o‘zbek tili turkiy, tojik tili esa eroniy tillar oilasiga mansub. Boshqa-boshqa oilalarga mansubligi jihatidan ular o‘zaro uzoq tillar hisoblanadi. Lekin asrlar mobaynida bir jug‘rofiy hududda yonma-yon yashab kelganlari, bir xil iqtisodiy-ijtimoiy muhitda rivojlanganlari, xo‘jalik yuritish va turmush tarzidagi umumiyliklar, tarixi,

dini, ruhiyati va madaniyatidagi mushtarakliklar, adabiyot va san'atining yagona an'analar asosida taraqqiy etgani bu ikki xalqning tili mutlaqo boshqa-boshqa oilalarga mansubligiga qaramay, ularda har tomonlama uyg'unlikning yuzaga kelishiga, leksik jihatdan umumiylikning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Biz uchun Sharq tillaridan hind, xitoy, yapon, koreys tillarigina uzoq tillar maqomida. Ma'lum bo'ladiki, o'tmishda bizda uzoq tillardan tarjima muammosi bo'lmagan. Chunki barcha tarjimalar fors, arab, turk tillaridan amalga oshirilgan.

Uzoq tillar deganda, bizda asosan Yevropa tillari tushuniladi. Rus tili va u orqali Yevropa tillaridan tarjima qilish O'rta Osiyoning Rossiya tarkibiga qo'shib olinishi bilan XIX asrning oxirgi choraklarida boshlandi. XX asrning 30-yillarida esa ingliz tilidan qilgan tarjimalari bilan Sanjar Siddiq Yevropa tillaridan bevosita tarjima qilish an'anasini boshlab berdi. Lekin bu an'ana shu bilan qirq yilcha uzilib, 70-yillardan qayta tiklandi. Faqat istiqlol davriga kelib bevosita tarjima keng quloqch yoya boshladi – ingliz, nemis, fransuz, ispan tillari bilan birga birinchi marta yapon, xitoy, koreys, malay, indonez tillaridan bevosita tarjimalarga qo'l urildi. Urdu, hind, afg'on tillaridan tarjimalar miqdori va miqyosi kengaydi.

**Sharh** (arabcha: tushuntirish, izoh, tavsif) – usluban murakkab, qavat-qavat ma'no qirralariga ega asarlarning mazmun-mohiyatini ochib berish, tushuntirib berish, sharhlash. Sharhnavislik Sharqda keng tarqalgan hodisa: qadim ul-ayyomdan ma'no-mazmuni teran va serqirra, uslubi murakkab, tili og'ir, ayniqsa, ramzu timsollarga boy asarlarga turli darajadagi sharhlar yozib kelingan. Mumtoz she'riyatda burilish yasagan lison ul-g'ayb Xo'ja Hofiz, she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy, Abulmaoniy Mirzo Bedil asarlariga yozilgan ko'p-dan-ko'p sharhlar asrlarni bo'ylab keladi. Qur'oni karimning 70 foiz ma'nosi o'z aksini topgani, 690 ta hadisga rumiyona sharh berilgani, 270 ta turli mavzudagi hikoyat o'rin olgani jihatidan Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asari ham ko'plab sharhlar uchun manba bo'lib xizmat qilgan. So'fi Olloyorning diniy-tasavvufiy mazmundagi asarlari ham keng sharhlangan. Hind uslubida ijod qilgani, she'rlari bir necha ma'no qirralariga egaligi, mazmuni teran, uslubi murakkabligi uchun Mirzo G'olib asarlariga ham qator-qator sharhlar yaratilgan. Ularning barchasi tarjima va sharh omuxtasidan iborat: ya'ni avval har bir bayt tarjima qilinib, keyin sharhlab berilgan.

Masalan, turk olimi Sudiyning Hofiz devoniga yozgan sharhi haqida shunday deyish mumkin. Sa'diyning "Guliston" pandnomasini "Shavqi guliston" nomi bilan tarjima qilgan Mullo Murodxo'ja asar hoshiyasida ko'plab tushunarsiz so'z va istilohlarni izohlagan.

**Sharhning** ham turlari ko'p. Ba'zi sharhlar izohli lug'at xarakterida bo'lib, asar matnidagi tushunarsiz so'z va iboralarni izohlab beradi. Boshqa bir xil sharhlarda asarning g'oyaviy mazmuni izohlanadi – bu tafsirga o'xshab ketadi (Birinchi turi – izohli lug'at, ikkinchisi – adabiyotshunoslikka yaqin). G'arb adabiyotidan tarjimalar munosabati bilan boshqa xalqlarning tarixi, an'ana va udumlari, dini, o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq tushunchalarni sharhlash ehtiyoji paydo bo'ldi. Bunday sharhlar tarixiy xarakterga ega. Ilmiy asarlar sharhi o'z-o'zidan ilmiy ahamiyat kasb etadi. Masalan, Alibek Rustamov Atoulloh Husayniyning "Badoyi'u-s-sanoyi" nomli she'riy san'atlarga oid asari tarjimasida ko'plab ilmiy-adabiy sharhlar beradi. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" (B.Ahmedov tarjimasi) va Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahhob" (I.Bekjon tarjimasi) tazkiralari tarjimasida ham tarixiy, ham adabiy mavzudagi sharhlar berilgan. Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" (S.Mirzaev, B.Ahmedov tarjimasi), Nosir Xisravning "Sayohatnoma" (G'.Karim tarjimasi) asarlari tarjimasida esa tarixiy mavzudagi sharhlar yetakchilik qiladi.

**O'zbek tarjimachilik tarixini davrlashtirish** – O'zbek tarjima tarixini davrlashtirish ilk bor J.Sharipov tomonidan amalga oshirilgan edi. Albatta, bu mukammal tasnif bo'lmay, mavjud ma'lumot va materiallarga asoslanilgan edi. U quyidagicha:

- XII-XIV asrlarda yaratilgan tarjima asarlari;
- XV asrda tarjima qilingan asarlar;
- XVI asrda tarjima qilingan asarlar;
- XVII-XVIII asrlardagi tarjimalar;
- XIX asrning birinchi yarmida tarjima qilingan asarlar;
- XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida arab va fors-tojik tilidan tarjima qilingan asarlar.

J.Sharipov o'tmishda amalga oshirilgan tarjimalarni tillar (arab, fors-tojik, turk) va sohalar (tarixiy, ilmiy, falsafiy, badiiy), tarjima maktablari (Xorazm, Toshkent, Buxoro, Farg'ona), toshbosmada nashr qilingan tarjima asarlar, inqilobgacha rus tilidan qilingan tarjimalar, vaqtli matbuot sahifalaridagi tarjimalar nuqtai nazaridan ham o'rganadi.

Keyingi davrdagi izlanishlar natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar IX asr o'rtalaridayoq turkiy adabiyotda tarjimachilik vujudga

kelganini ko'rsatadi: to'xar, xitoy, so'g'd, sanskrit tillarida yaratilgan mashhur asarlar turkiyga o'g'irilgan. Jumladan, Sharq dramaturgiyasi-ning ilk namunalaridan bo'lgan "Maytri simit no'm bitig" ("Maytri bilan uchrashish ulug' kitobi") VIII-IX asrlarda sanskritchadagi tarjima asosida to'xar tilidan tarjima qilingan (Bu bilvosita tarjimaning dastlabki namunalaridan biri sifatida ham diqqatga sazovor). Olim va tarjimon Singku Seli Tutung IX asr oxiri – X asr boshlarida buddaviylikning maxayana mazhabi qonunlaridan iborat "Oltin yoruq" asarini, X asrda tan sulolasi davrida o'tgan Syu'an'-szanning "Syunszan kechmishi" safarnomasini turkiyga o'tkazadi.

Shundan keyingi XIV asrgacha bo'lgan tarjimachilik arab va fors tillari bilan bog'liq. 1340-yilda Qutb Xorazmiy Oltin O'rdada Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" dostonini, 1391-yilda Sayfi Saroyi Misrda Sa'diy Sheroziyning "Guliston" pandnomasini "Guliston bit-turkiy" nomi bilan tarjima qilib, chinma'nodagi o'zbek tarjimachiligini boshlab berdilar.

XV asrda Lutfiy mashhur muarrix Sharafiddin Ali Yazdiyning Amir Temur yurishlari haqidagi "Zafarnoma" nomli tarixiy asarini she'riy tarjima qilishga kirishib, 10 ming bayt atrofida tarjima qilgan – tarjima nihoyasiga yetmagan.

Bu davr tarjimachiligining ham zabardast namoyandasi Alisher Navoiy hisoblanadi. U Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns" tazkirasini ba'zi o'zgarishlar, qisqartirish va qo'shimchalar bilan "Nasoyim ul-muhabbat" nomi bilan o'zbekchalashtiradi. Ustozining yana payg'ambar hadislariga asosida yaratgan 40 hadisning nazmiy talqinidan iborat "Chihil hadis" ("Qirq hadis") degan to'rtliklar majmuasini "Arba'in" nomi bilan tarjima qiladi. Hazrat Alining hikmatlari asosida yaratilgan 255 ruboiyni o'z ichiga olgan "Nazm ul-javohir" ruboiylar majmuasini bitadi.

XVI asrda Hindistonda Zahiriddin Muhammad Bobur Xoja Ahror Valining "Volidiya" risolasini she'riy tarjima qiladi.

Shayboniylardan Ko'chkinchixonning buyurtmasiga ko'ra buxorolik Muhammad Ali bin Darvesh Ali Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sini o'zbekchalashtiradi.

Abdullaxon davrida "Hadoyiq ul-islom" ("Islom bog'lari", tarjimoni noma'lum) va "Tafsiri Ya'qub Charxiy (tarjimon Hoji Hamadoni) asarlari o'g'irilgan.

XVII asrda Xomushiy Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”sining nasr va nazm aralash qisqartirilgan tarjimasini amalga oshiradi.

Fig‘oniy “Kalila va Dimna”ni tarjima qiladi.

XVIII asrda Husay Voiz Koshifiyning “Ravzat ush-shuhado” (“Shahidlar bog‘i”) asari Sobir Sayqaliy tomonidan erkin usulda o‘zbekchalashtiriladi. Muhammad Temur “Kalila va Dimna”ning Husayn Voiz Koshifiy “Anvori Suhayliy” (“Suhayliy nurlari”) nomi bilan forschaga ag‘dargan nusxasi asosidagi tarjimasini amalga oshiradi. “Chor darvesh” asari uch marta – Yorkentda (tarjimon Siddiq), Buxoroda (Xomushiy tomonidan she‘riy) va Xorazmda tarjima qilinadi.

XIX asr birinchi yarmida Farididdin Attorning “Pandnoma” asari “Nasihatnoma” nomi bilan, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns”, Navbahoriyning “Durr ul-majolis” (tarjimon mulla Rahmonquli qori), “Maqomoti xo‘ja Zayniddin” (tarjimon Abduxalil), Shayx Inoyatullaning “Bahori donish” (tarjimon Nurmuhammad Buxoriy), Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” (tarjimon Xudoyberdi so‘fi Xivaqiy), Kotib Chalabiyning “Jahonnamo” (tarjimon Mirbadal Boysuniy), “Hikoyat us-solihin” (tarjimon Tolibxo‘ja), “Qissai Mirzo Hamdam” asarlari tarjima qilingan.

Umuman, XIX asr boshidan XX asr boshlarigacha xorazmda 120 ta asar tarjima qilingan. Ularning 26 tasi adabiy, 24 tasi tarixiy, qolganlari turli fanlarga oid kitoblar, falsafiy va didaktik risolalardir.

XX asr o‘zbek tarjimachiligi tarixining oltin sahifalarini tashkil etadi. O‘tgan asrda asosan rus tili orqali jahon adabiyoti durdona asarlari-ning asosiy qismi tilimizga o‘girilib, ularning ko‘pchiligi milliy adabiyotimiz xazinasidan mustahkam o‘rin egalladi. Albatta, arab, fors, hind, tojik kabi Sharq, turk, ozarbayjon, tatar, qozoq, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq kabi qardosh tillardan ham ancha tarjimalar amalga oshirildi.

Mustaqillik davri tarjimachiligining eng muhim xususiyatlaridan biri bu – bevosita tarjimaga e‘tibor va rag‘batning kuchayishidir. Bu davrda arab, fors va qardosh tillardan tarjima qilish ko‘lami kengayibgina qolmay, birinchi marta yapon, xitoy, koreys, ispan, malay, indonez tillaridan tarjimalar qilina boshladi. Ingliz, nemis, fransuz tillaridan bevosita tarjimalar ham tobora ko‘payib bormoqda. Shunday qilib, Xorazm tarjima maktabi, Sho‘ro davri tarjimachiligi va Mustaqillik davri tarjimachiligini o‘zbek tarjimachiligi taraqqiyotining alohida bosqichlari sifatida ko‘rsatish mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Rahbariy adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 январдаги “Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида”ги фармойиши (“Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 13 январь)

### O'zbek va rus tillaridagi adabiyotlar:

2. Alişer Navai. Muhakamatul-lugatajn. Uz. Goslitizdat. – Taşkent, 1940.

3. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: ToshDShI, 2016.

4. Sharipov J. O'zbekistonda tarjima tarixidan (*XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davr*). –Toshkent: ToshDShI, 2017.

5. Алишер Навоий. Мажолисун нафоис (Нафис мажлислар). С.Ғаниева нашрга тайёрлаган илмий-танқидий матн. –Тошкент: Ўз ФА нашриёти, 1961.

6. Алишер Навоий. Танланган асарлар. III том. –Тошкент: Ўздавнашр, 1948. Нашрга тайёрловчилар: Ойбек ва П.Шамсиев.

7. Ғуломов Я., Набиев Р.Н., Ваҳобов М.Ғ. Ўзбекистон тарихи (бир жилдлик). –Тошкент: Ўзбекистон ФА нашриёти, 1958.

8. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғоти-т турк. 1-том. – Тошкент: Ўз ФА нашриёти, 1960.

9. Крылов И.А. Басни. –М.-Л.: Изд-во, 1956. стр. 219-220.

10. Минг бир кеча (саккиз томлик). 1-том. –Тошкент: Ўзадабийнашр, 1959.

11. Пушкин А.С. Танланган асарлар. 1 том. –Тошкент: Ўздаврнашр, 1949. 248-бет. (М.Шайхзода таржимаси).

12. Саломов Ғ. Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. –Тошкент, Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1961.

13. Ўзбек адабиёти. IV том, II китоб.

14. Ўзбекистон тарихи. 1-том, 1-китоб. –Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1956.

15. Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, инв. № 7305 (I жилд), инв. № 7108 (II жилд), инв. № 7414 (III жилд), инв. № 1813 (IV-V жилд), инв. № 6789 (VI жилд), инв. № 7108 (VII жилд).

16. Юсуф ва Зулайхо. инв, № 809-1, 144-варақ.

### **Ingliz tilidagi adabiyotlar:**

17. Adams R. Proteus, His Lies, His Truth: Discussions on Literary Translation – New York: W.H.Norton, 1973.

18. Bassnett S. Translation Studies. Taylor & Francis Group. – London and New York, 2002.

19. Bhabha H. The Location of Culture. –London and New York: Routledge 1994.

20. Chapman's Homer, ed. R.Heme Shepherd. –London: Chatto & Windus, 1875.

21. Cronin M. Across the Lines: travel, language, translatio. – Cork: Cork University Press, 2000.

22. Dryden J. The Aeneid, IV. – London: Oxford University Press, 1961.

23. Gadda C. In meditazione milanese. –Turin: Einaudi, 1974.

24. Horace. On the Art of Poetryin Classical Literary Criticismю –Harmondsworth: Penguin Books, 1965.

25. Pope A. The Iliad of Homer. ed. Maynard Mack. –London: Methuen, 1967.

26. Rifaterre M. Semiotics of Poetry. –Bloomington and London: Indiana University Press, 1978.

27. Shelley P. The Defence of Poesy,in Complete Works. – London: Ernest Benn, 1965.

28. Steiner G. After Babel. –London: Oxford University Press, 1975.

29. Viswanatha V., Simon Sh. Shifting Grounds of Exchange': B.M.Srikantaiah and Kannada Translation, in Susan Bassnettand Harish Trivedi eds. Postcolonial Translation: Theory and Practice. – London and New York: Routledge, 1999.

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>KIRISH</b> .....                                                                                                                            | 3  |
| <b>I BO‘LIM. G‘ARB TARJIMA TARIXI</b> .....                                                                                                    | 6  |
| <b>1-ma’ruza. Tarjimashunoslikning rivojlanish bosqichlari</b> .....                                                                           | 6  |
| 1.1. Tarjimashunoslikning rivoji .....                                                                                                         | 6  |
| 1.2. G‘arb olimlarining tarjimashunoslikka oid yondashuvlari .....                                                                             | 10 |
| <b>2-ma’ruza. Tarjima tarixi</b> .....                                                                                                         | 14 |
| 2.1. Davrlashtirish muammolari .....                                                                                                           | 14 |
| 2.2. Tarjima tarixida Rim .....                                                                                                                | 15 |
| 2.3. Injil tarjimasi .....                                                                                                                     | 18 |
| 2.4. Ta’lim va mahalliy til .....                                                                                                              | 19 |
| 2.5. Ilk nazariyotchilar .....                                                                                                                 | 22 |
| <b>3-ma’ruza. Tarjima tarixi (davomi)</b> .....                                                                                                | 25 |
| 3.1. Uyg‘onish davri .....                                                                                                                     | 25 |
| 3.2. XVII asr .....                                                                                                                            | 26 |
| 3.3. XVIII asr .....                                                                                                                           | 28 |
| 3.4. Romantizm .....                                                                                                                           | 31 |
| 3.5. Post-romantizm.....                                                                                                                       | 33 |
| 3.6. Viktoriya humkronligi davri .....                                                                                                         | 33 |
| 3.7. XX asr .....                                                                                                                              | 35 |
| <b>4-ma’ruza. Badiiy tarjimaning o‘ziga xos muammolari</b> .....                                                                               | 38 |
| 4.1. Nazm va tarjima .....                                                                                                                     | 38 |
| 4.2. Nasriy tarjima .....                                                                                                                      | 40 |
| 4.3. Dramatik matnlar tarjimasi .....                                                                                                          | 42 |
| <b>II BO‘LIM. SHARQ TARJIMA TARIXI</b> .....                                                                                                   | 45 |
| <b>5-MA’RUZA. Arab va fors-tojik tillaridan tarjima qilingan asarlar</b> ...                                                                   | 45 |
| 5.1. Arab va fors-tojik tillaridan tarjima qilingan asarlar .....                                                                              | 45 |
| 5.2. Tarjimachilik ishining keksa namoyandalari .....                                                                                          | 47 |
| 5.3. XII-XIV asrlarda yaratilgan tarjima asarlari .....                                                                                        | 52 |
| 5.4. XV asrda tarjima qilingan asarlar .....                                                                                                   | 56 |
| 5.5. XVI asrda tarjima qilingan asarlar .....                                                                                                  | 60 |
| 5.6. XVII-XVIII asrlardagi tarjimalar .....                                                                                                    | 61 |
| 5.7. XIX asrning birinchi yarmida tarjima qilingan asarlar .....                                                                               | 68 |
| 5.8. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida arab, fors-tojik<br>tilidan tarjima qilingan asarlar .....                            | 70 |
| 5.9. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida buxoro, toshkent va<br>farg‘onada arab va fors-tojik tillaridan qilingan tarjimalar ..... | 74 |
| <b>6-MA’RUZA. Arab, fors-tojik tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qilingan<br/>tarixiy, ilmiy, falsafiy asarlar haqida</b> .....                 | 77 |
| 6.1. Tarixiy-adabiy asarlar tarjimasi .....                                                                                                    | 77 |
| 6.2. Axloqqa oid asarlar tarjimalari .....                                                                                                     | 81 |

|                                                                                                                                                                                            |            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| 6.3. Diniy asarlarning tarjimalari .....                                                                                                                                                   | 81         |
| 6.4. Musulmon huquqshunosligiga oid kitoblar tarjimasi .....                                                                                                                               | 82         |
| 6.5. Leksikografiya tarixidan kuzatishlar .....                                                                                                                                            | 83         |
| <b>7-MA'RUZA. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida toshbosmada nashr qilingan tarjima asarlari va tarjimonlar haqida .....</b>                                                               | <b>86</b>  |
| 7.1. XIX asr oxiri va XX asr boshida Makaziy Osiyo va O'zbekistonda ilg'or, demokratik adabiyotning vujudga kelishi .....                                                                  | 86         |
| 7.2. XX asrning 20-yillariga qadar tosh bosma-litografiyalarda bosilgan tarix, jo'g'rofiya, falsafa, axloq va tibbiyotga doir ilmiy kitoblar, darsliklarning o'zbek tiliga tarjimasi ..... | 89         |
| <b>8-MA'RUZA. VAQTLI MATBUOTDA TARJIMA QILINGAN ASARLAR HAQIDA .....</b>                                                                                                                   | <b>91</b>  |
| 8.1. "Sho'ro" jurnalida arab, fors, turk tillarida qilingan tarjimalar .....                                                                                                               | 92         |
| 8.2. "Sho'ro" jurnalida rus tilidan tarjima qilingan asarlar .....                                                                                                                         | 94         |
| 8.3. Vaqtli matbuotda 1905-yildan keyin bosilgan tarjimalar .....                                                                                                                          | 95         |
| <b>9-MA'RUZA. Tarjima tarixining ba'zi nazariy masalalari .....</b>                                                                                                                        | <b>97</b>  |
| 9.1. Tarjima san'atida ayrim umumiy va xususiy holatlar .....                                                                                                                              | 97         |
| 9.2. Arab, fors-tojik tillaridan qilingan tarjimalar orqali o'zbek tiliga kirgan so'z va terminlar .....                                                                                   | 99         |
| 9.3. Tarjimada sinonim so'zlarning o'rni va ishlatilishi .....                                                                                                                             | 102        |
| 9.4. Maqol, matal va frazeologik iboralar tarjimasi tarixidan .....                                                                                                                        | 104        |
| 9.5. She'riy tarjimaning ba'zi xususiyatlari .....                                                                                                                                         | 109        |
| <b>10-MA'RUZA. XX asrning 20-yillariga qadar rus tilidan qilingan tarjimalar haqida .....</b>                                                                                              | <b>111</b> |
| 10.1. Ilk tarjimalar haqida .....                                                                                                                                                          | 111        |
| 10.2. Terma kitob – xrestomatiyalarda bosilgan tarjimalar .....                                                                                                                            | 114        |
| 10.3. Ilmiy jamiyatlar va ularning asarlari tarjimasi .....                                                                                                                                | 114        |
| 10.4. Adabiy tanqidchilik va badiiy tarjima .....                                                                                                                                          | 116        |
| 10.5. O'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilingan asarlar .....                                                                                                                             | 117        |
| 10.6. Sattorxonning ma'rifatparvarlik g'oyalari va tarjimonlik faoliyati ...                                                                                                               | 119        |
| 10.7. Birinchi tarjimonlar va dastlabki tarjimalarning turlari .....                                                                                                                       | 121        |
| 10.8. Badiiy tarjima tarixiga doir .....                                                                                                                                                   | 122        |
| 10.9. Tarjimalar vositasida o'zbek tili lug'at manbaining boyishi .....                                                                                                                    | 139        |
| <b>ILOVA. Rus tilidan tarjima qilingan matnlar .....</b>                                                                                                                                   | <b>142</b> |
| <b>TARJIMA TARIXIGA OID TERMINLAR LUG'ATI (GLOSSARIY) .....</b>                                                                                                                            | <b>159</b> |
| <b>ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>                                                                                                                                                          | <b>176</b> |

**Hamidov Xayrulla, Ergasheva Sadoqat.** Tarjima tarixi (o'quv qo'llanma). – T., 2017. – 180 b.

**Mas'ul muharrir:**

***Shoira Usmanova,***  
filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

***Xolida Alimova,*** filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
***Ergash Ochilov,*** filologiya fanlari nomzodi

**Texnik muharrir:**

*Gulhida Raximdjanova*

O'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti  
Kengashining 2017-yil 30-martdagi 8-sonli qarori bilan nashrga  
tavsiya etilgan.

Bosishga ruxsat etildi: ..... 2017  
Bichimi 60x84 1/16 Shartli .... b.t. .... nusxada bosildi.  
Buyurtma № \_\_\_\_\_

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2017.